TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

OGAHIY IJODIY MEROSI VA SHARQ ADABIYOTIDA ADABIY AN'ANA MASALASI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

TO'PLAMI

www.tsuos.uz

2022-yil
17-dekabr

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

OGAHIY IJODIY MEROSI VA SHARQ ADABIYOTIDA ADABIY AN‘ANA MASALASI

TOSHKENT 2022

Ogahiy ijodiy merosi va Sharq adabiyotida adabiy an’ana. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami.– Toshkent, 2022.

Ushbu ilmiy to‘plamga 2022-yil 17-dekabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida o‘tkazilgan “Ogahiy ijodiy merosi va Sharq adabiyotida adabiy an’ana” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari jamlandi.

Mas’ul muharrir:
filologiya fanlari doktori, dotsent
D. Muhiddinova

Taqrizchilar:
filologiya fanlari doktori, professor
B. To‘xliyev
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
N. Saidova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xalqaro Ogahiyshunoslar Kengashining 2022-yil 14-dekabrdagi 4-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022-yil.

SO‘Z BOSHI

2020-yilning may oyida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti jamoasi oldiga mumtoz adabiyotimizning favqulodda nodir shaxsi, ko‘lamdor va sermahsul ijodkor, shoir, tarixchi, tarjimon, davlat arbobi, chin inson hazrat Ogahiyning hayot va ijod yo‘lini o‘rganish, u zotning qo‘lyozma asarlarini tadqiq etish hamda o‘lmas g‘oyalarini talaba-yoshlar ongiga singdirish singari qator vazifalar qo‘yilgan edi. Oradan o‘tgan ikki yildan oshiqroq fursat ichida universitetda bu borada arzirli ishlar amalga oshirildi.

Ular orasida eng salmoqlilaridan biri o‘laroq yurtimiz oydinlari bilan birgalikda Ogahiy tug‘ilgan kun - 17-dekabrda doimiy Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil etilib, ogahiyxonlik yig‘inlari an’ana tusiga kiritilganligini e’tirof etish o‘rinli.

Bu yil ushbu an’anaviy anjumanning uchinchisi tashkil etilib, u “Ogahiy ijodiy merosi va Sharq adabiyotida adabiy an’ana” mavzusiga bag‘ishlangan. Anjumanning Sharq adabiyotida adabiy an’ana masalasiga qaratilayotganligining boisi aynan hazrat Ogahiy ijodiy merosidir. Chunki o‘zbek mumtoz adabiyotining quyoshi Amir Alisher Navoiy izdoshlari orasida ulug‘ shoir ijodidan eng ko‘p ta’sirlangan va ilhomlangan, buyuk salafi yo‘li va uslubida qalam tebratib, unga eng yaqin borgan zabardast so‘z san’atkori Muhammadrizo Ogahiyning o‘zidir. U qoldirgan merosining hajmi, turi, janrlar tizimi va mavzular qamroviga ko‘ra haqli ravishda buyuk Navoiydan keyingi munosib o‘rinni egallagan. Bugina emas, Ogahiyning ko‘plab asarlarida hazrat Navoiy asarlaridan bahramandlikning ham ochiq, ham sirli izlari yaxshi his etiladi. Shuning uchun Ogahiy haqida so‘z borganda Sharq adabiyotidagi adabiy an’ana masalasi doim e’tiborda turadi.

Joriy yildagi anjuman materiallaridan mumtoz Sharq adabiyoti va Ogahiy ijodiy merosining tadqiqotchilari salmog‘i hamda ular olib borayotgan tadqiqotlar sifati oshib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Qo‘lingizdagi ilmiy anjuman to‘plami 50 yaqin bilim kishilari va izlanuvchilarning maqolalari asosida tuzildi. Ushbu maqolalar yo‘nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda “Ogahiy ijodiy merosi va adabiy an’ana” hamda “Sharq mumtoz adabiyoti va adabiy an’ana” ruknlari tegrasida birlashtirildi.

Anjuman materiallari hazrat Ogahiy shaxsiyati va merosini tadqiq etish hamda Sharq adabiyotida adabiy an’ana muammolarini yechimi borasida muhim natija sifatida o‘zbek sharqshunosligidan muhim o‘rin egallashiga ishonamiz.

Qudratulla Omonov,
filologiya fanlari doktori. professor

1 – SHO‘BA. «OGAHIY IJODIY MEROSI VA ADABIY AN’ANA»

OGAHIY G‘AZALLARIDA SHE‘RIY SAN‘ATLAR

f.f.d. Xodjaeva R.U.
TDShU, professori

Annotasiya. Maqolada buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Muhammad Rizo Ogahiyning g‘azallarida ishlatilgan she'riy san'atlar kuzatilib, ularning shoir she'riyatida tutgan o‘rni, g‘azallarning mazmun mohiyatini ochib berishda bajargan vazifasi, qo‘llash usullari kabi masalalar ko‘tariladi. Ogahiy g‘azallarida talmeh, tazod, tashxis va boshqa san'atlar qo‘llangani misollar orqali ko‘rsatiladi, ular shoir lirikasiga qanchalik joziba berib, o‘ziga xos badiiy uslub yaratganligi, yangi estetik qiymatlar shakllantirgani tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mumtoz she‘riyat, g‘azal, she‘riy san‘at, ilmu-l- badi‘, timsol, talmeh, tazod, tashbeh, tashxis, kitobat.

Аннотация. В статье рассматриваются образные средства, применяемые выдающимся узбекским поэтом и мыслителем Мухаммадом Ризо Огахи в его газелях, их роль в его поэзии, функции, которые они выполняют в раскрытии содержания, а также стилистические приёмы их использования. На конкретных примерах из газелей Огахи демонстрируются и анализируются талмех, тазод, ташхис и другие образных средста, придающие лирике поэта особую притягательность, формирующие его особый художественный стиль и эстетические ценности.

Ключевые слова: классическая литература, газель, поэтическое искусство, илм-у-ль-бадиъ, образ, талмех, тазод, ташбех, ташхис, китобат.

Abstract: The articles consider the figurative environments designated by the Uzbek writer and thinker Mohammad Rezo in his ghazals, their role in his invocation, the functions that they perform in coloring, as well as such stylistic techniques and possibilities of use. Using specific examples from gazelles, talmehs are discussed and analyzed, diagnostics and other images of the environment accompanying the lyrics of a song on this topic are assigned, forming its own background style and aesthetic style

Keywords: classical literature, gazelle, poetic art, or el-evil, image, talmeh, image, metaphor, diagnostics, book.

O‘zbek mumtoz shoirlari azaldan she'riy san'atlar zahirasidan keng ko‘lamda va mohirona foydalanib kelishgan. Alisher Navoiy, Atoiy, Lutfiy, Zahriddin Bobur, Mashrab, Nodira, Ogahiy va boshqa buyuk va mashhur shoirlarimiz o‘z ijodiy niyatlarini ta'sirchan yetkazish, teran fikrlarini, boy taxayyullarini, iztirobli shuurlarini ifoda etish uchun asarlarida chiroyli o‘xshatishlar, iqtiboslar, majozlar, kinoyalar, dalillashtirish, jonlantirish, tadminlar, tajnislar va boshqa badiiy san'atlarni samarali ishlatishgan. Ma'lumki, o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligiga she'riy san'atlar nomi arab tilidan kirib kelgan. Ularni tasniflash, muayyan tushunchalarini aniqlash, istilohlarini ifodalash va tartibga solish harakatlari ilk bor IX asr arab filologlari tomonidan boshlandi va Ibn Mu’tazzning “Kitab al- badi'” risolasida o‘z ilmiy-nazariy ifodasini

topdi. She'riy san'atlarni o‘rganuvchi adabiy soha “ilm al-badi'” nomi bilan tanilib, u arab adabiyoti badiiyatiga bag‘ishlangan “ilm al-balag‘a” (chiroyli nutq, fasohatlik ilmi) ning tarkibiy qismiga kirdi. Arab tilida shakllangan she'riy san'atlar istilohlari butun arab-musulmon tamadduni chegarasida tarqaldi va fors, turkiy tillardagi adabiyotshunoslikda tatbiq etildi. Fors, turkiy tillar adabiyotshunosligida ham ilm al-badi'ga bag‘ishlangan risolalar paydo bo‘ldi, munosabatlar bildirildi. Bu tillarda arab istilohlarining muqobili bo‘lsa ham, ular hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Buyuk o‘zbek shoirlari qatorida Muhammad Rizo Ogahiy ijodida ham bu she'riy san'atlar ko‘p qo‘llandi, o‘zgacha tus oldi, merosdagi eng yaxshi an'analarni davom ettirib, yangicha sayqallandi.

Ogahiy she'rlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, uning g‘azallari qanchalik betakror asarlar bo‘lib, shoir ruhiy holatini tasvirlashda chiroyli lirik manzaralar yaratganiga guvoh bo‘lamiz. Ogahiy lirikasi ko‘pqirrali, g‘azallarda u ishqiy, falsafiy-tasavvufiy, ijtimoiy tus oladi va chuqur xulosaviy mulohazalari bilan ajralib turadi. G‘azallarning mazmun mohiyatini ochishda, ma'naviy boyligini ko‘rsatishda, badiiy jozibasini kitobxonga yetkazishda shoir qo‘llagan she'riy san'atlar katta rol' o‘ynaydi. Ular she'rning badiiyatini rivojlantirishda muayyan vazifa bajaradi, muallif ijodiy niyatini yetkazish uchun hissiy kayfiyat yaratadi. Ogahiy g‘azallarida talmeh, tadmin, tashbeh, tazod, istiora, mubolag‘a, iyhom, husni ta'lil, tanosub, tamsil, kitobat va h.k. Deyarli hamma san'atlardan mohirona foydalanadi va samarali ishlatadi. Masalan, talmeh san'atini olsak, uni g‘azalda qo‘llanishidan shoir dunyoqarashining kengligi, muhim tarixiy voqea-hodisalar va tarixiy shaxslarni chuqur bilishi, sharq xalqlari adabiyoti, rivoyatlari va afsonalari va ularning qahramonlari bilan yaxshi tanishligi ko‘zga tashlanadi. “Talmeh” istilohi asli arab tilidagi “lammaha” (ishora qilmoq, shama qilmoq) fe'ldan uning masdari sifatida hosil bo‘lgan “talmih” so‘zi -“ishora” yoki “shama” ma'nosini ifodalaydi. Ogahiy o‘z g‘azallarida asosan mumtoz adabiyotda ko‘pincha arxetip obraz sifatida gavdalangan mashhur shaxslar timsollariga ishora qiladi. Bu timsol o‘zida u yoki bu insoniy tajribani mujassamlashtirgan bo‘lib, shoirning she'rida o‘xshash vaziyatda namoyon bo‘ladi. Ogahiy g‘azallarida Iso payg‘ambar va Yusuf payg‘ambarlar timsoliga ko‘p murojaat qilinganini ko‘ramiz. Misollarda bu jarayonni bevosita ko‘rsatishdan oldin Ogahiy g‘azallariga an'anaga ko‘ra sarlavha qo‘ymaganini qayd qilishimiz lozim. Tadqiqotchilar g‘azallarni atashda odatda she'rning birinchi baytidan, radifidan yoki asosiy kalit so‘zidan shartli ravishda foydalanadilar. Biz ham shu an'anaga rioya qilamiz. Ogahiy Iso payg‘ambar timsoliga murojaat qilganda uning o‘likni tiriltirish mo‘jizaviy qobiliyatiga ishora qiladi va o‘zining shaxsiy hissiy tajribasi bilan bog‘lab ketadi. Bunday hodisani “Laziz”g‘azalida ko‘ramiz:

Garchi Iso nutqidin topgay o‘luk jon lazzatin,
Lek jonparvar so‘zung yuz qatladur ondin laziz.[1,88]

Oshiq ma'shuqaning jon bag‘ishlovuchi so‘zini Iso payg‘ambar nutqidin yuqori qo‘yadi, hatto “Ey, sabo” g‘azalida uni Isoyi davron deb ataydi:

Dardidin ham dam o‘larga etkanim kayfiyatin
Aytgil bir-bir borib Isoyi davronim sari.[1, 42]

Yoki:

Gar o‘luk jismimga kirsa toza jon, ermas ajab—
Kim, yetushti lutf etib Isoyi davronim bukun.

Ba'zida shoir Iso payg‘ambar nomini aytmasdan uni Masih (Xudo yarlaqagan) deb ta'riflaydi:

Tig‘i ishqingdan o‘lubman, tirguz olmas Masih,
Gar o‘zing tirguzmasang shirin maqolingdan mani.
[Ey pari,1, 49]

Agar yuqorida keltirgan baytlarda Ogahiy ma'shuqani Iso payg‘ambardek jon ato qiluvchi deb ta'riflasa, Yusuf payg‘ambar timsoli talmeh san'ati sifatida jalb etilganda uning betakror chiroyli bo‘lganiga ishora qilinadi. Ammo ma'shuqa husnda o‘ni baribir orqada qoldiradi:

Agar Yusuf ahli husn sultonu azizidur,
Nigorim oldida lekin g‘ulomu xoru kamtardir.
[Ul oy ruxsorikim.., 1,78]

Yoki:

Yusufi Misriy anga gar qulluq etsa, tong emas-
Kim, bori olam aro husn ahliga sulton erur.
[Jonon erur, 1,82)]

Albatta, bu baytdagi Yusuf Misriy siymosi bizga Quroni Karimning Yusuf to‘g‘risidagi ajoyib rivoyatni, Yusufning Misrga kelishi va u yerda husni tufayli kechirgan musibatlarini eslatadi.

Ogahiyning talmeh san'atida Iso, Yusuf, Sulaymon, Maryam, Xizr kabi payg‘ambarlar va muqaddas siymolar bilan bir qatorda Doro, Baxrom, Iskandar Zulqarnayn kabi ulug‘ shohlar, Layli Majnun, Farxod va Shirin afsonaviy qahramonlar timsollari gavdalanadi. Bular musulmon xalqlari uchun yaqin, ijobiy his tuyg‘u uyg‘atuvchi obrazlardir. Shuning bilan birga o‘zida salbiy tasavvurni mujassamlashtirgan Qorun kabi timsollar ham uchraydi. Qorun ham qur'oniy timsol bo‘lib, firavnlar davrida yashagan shaxs. Qur'oni Karimda u “Ankabut”, “G‘ofir” suralarda zikr etilgan, “Qasas” surasining 76-82 oyatlarida (394-395) esa uning to‘g‘risida batafsil rivoyat qilingan. Uning fikri zikri faqat mol to‘plash bo‘lgan:

Birovkim bo‘lsa xissat peshasi hukmin surib elga,
Jahon amvolini yig‘nar uyiga o‘ylakim Qorun.
[Ahli vafo mahzun, 336]

Molu dunyo yeg‘ishga mukkasidan ketgan Qorun oxiri behisob boylik to‘playdi va kibrga berilib, hech kimni mensimasdan qo‘yadi, oxiri Allohni jazosiga uchraydi: - uni bor xazinasi bilan yer yutib yuboradi. Ogahiy bu ibratli rivoyatga o‘z munosabatini bildiradi:

Istagay olmoq gado ilgida ko‘rsa bir diram,
Kimki Qorundek esa ming ganji zarri noblig‘.
[Ko‘nglim sarosar toblig‘, 1,2]

Ogahiy bu satrlarda nafaqat talmeh, balki tazod san'atini ishlatgan va she'riga ijtimoiy tus bergan. Bir tangaga muxtoj gado boylikka to‘ymagan Qorunga qarama qarshi qo‘yiladi va dunyodagi adolatsizlik to‘g‘risidagi shoirning fikri shu g‘azalning quyidagi baytlarida davom etadi:

Yuz jahon mulkiga to‘ymas ahli davlatning biri,
Vah, nechuk faqr ahli bo‘lsun mulk ila asboblig‘.

Yoki “Laziz” g‘azalida:

Ey g‘aniy, halvoni ta'rif etmakim faqr ahliga,
Tortibon mehnat topib ermas yegan nondin laziz. [1, 88]

Odatda Ogahiy tazod san'atini keskin ijtimoiy manzaralar, qaltis ruhiy holatlar, ma'rifiy-ma'naviy qoloqlik manzaralarni tasvir qilganida qo‘llaydi va bir–biriga qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni, ma'nolarni ishlatadi. Umuman olganda Ogahiy tazod san'atidan ko‘p g‘azallarida foydalanadi, ular orqali fikr ta'sirini kuchaytiradi, ijodiy niyatini namoyish qiladi.

Juhaloga bo‘lsa zabun ne tong fuzaloga sufrayi charxdin,
Onga to‘ma qandu rishodano munga lo‘qma tuzsiz atoladur.
[Ne ajab shikasta kungul...,1,24)]

Bu baytlarda tazodning ikki ko‘rinishi ko‘ramiz: biri “juhalo-fuzalo” qarama-qarshiligi, ikkinchisi – “to‘ma qandu- tuzsiz atola”. Ikkala tazod ijtimoiy tengsizlikni ifodalash uchun ishlatilgan.

Ma'rifatparvar shoir uchun jaholat eng katta ijtimoiy-ma'rifiy illatlardan edi:

Jaholat bir davosiz dard erur johilga, bilgilkim,
Quloq solmas iloj dardig‘a gar ochsa Luqmon lab.
[Agar bog‘i ichra ul gul…, 1,5]

Ogahiy talmeh san'tini ishlatib Luqmon hakim timsolini keltiradi va shunindek bu obraz orqali tamsil san'atini ishlatib birinchi misradagi fikrni ikkinchi misra bilan tasdiqlaydi: ya'ni johil hatto Luqmon hakim aytgan dono hikmatli so‘zlariga ham inobat qilmaydi. So‘z qudratin yaxshi bilgan va qadrlagan shoir unga bag‘ishlab ajoyib “So‘z” g‘azallini yozadi:

Ey kungul, odam xayol aylab, dema nodonga so‘z,
Chunki ul inson emas, topsang degil insonga so‘z.

So‘zdir inson ko‘nglida bir gavhari qimmatbaho,
Oni xor etma debon har hushi yo‘q hayvonga so‘z. [1, 86]

Ko‘rib turibmiz, bu satrlarda tazod san'ati timsollar to‘qnashuvini kuchaytirgan va ularga falsafiy-axloqiy ma'no beradi. Tazodni ishlatishda shoir to oq-qora, vafo-jafo, yaxshi-yomon, dono-nodon, rohat- zulmat kabi an'anaviy qarama-qarshi so‘zlarni ishlatadi, to kamroq uchraydigan, ko‘pincha arab tilidan kirib kelgan ma'nolarni zid qo‘yadi. Masalan, “Bahor” g‘azalidan misol:

Shahar ila sahroni purfayz ayladi firdavsdek,
Qilg‘oli mahzun kungullarni farah gustar bahor. [1,30]

Bu baytda “mahzun va farax” so‘zlariga alohida urg‘u berilgan. Keyingi misolda esa tazod san'atida an'anaviy obrazlar jalb qilingan:

Jafo ahli hamisha hurramu ahli vafo mahzun. [1,36]

Ogahiy ushbu “Ahli vafo mahzun” g‘azalida bir biriga zid bo‘lgan ma'nolarni solishtirib kitobot san'atini ham ishlatadi:

Birovkim bo‘lsa sidqu rostlig‘ ichra alif yonglig‘,
Qadi bori mehan ostida bo‘lg‘ay ul sifatkim nun. [1, 36]

Kitobat yoki harfiy san'atda tanlangan obraz shakli arab alifbosidagi harflar shakliga o‘xshatiladi, ya'ni bu baytda rostlik sidqidillik muhitda inson alif harfidek qaddini ko‘tarib yuradi, ammo bu holatni aksi bo‘lsa mashaqqatlar bosimi ostida qaddi nun harfdek egilladi. Kitobat san'atiga yana bir misol:

Yuzi xo‘blarning o‘lmish nilufardek,
Agarchi arg‘uvondek erdi rangin.
Alifdek qadlari nundek bo‘lib xam,
Tushub abro‘lariga Shamradek chin. [1, 34]

Qahraton qish tavsifiga bag‘ishlangan bu g‘azalda sovuqdan odamlarni alifsimon qaddi nun kabi pastga egildi, qizg‘ish yuzlari nilufar gulni rangi kabi oqardi, qoshlar chimirilib orasiga ajin tushdi.

Odatda Ogahiy bir g‘azalda bir nechta she'riy san'atlarni ishlatadi, ular asar jozibasiga va chiroyiga putur yetqazmasdi, aksincha ta'sirchanligini kuchaytirardi. Masalan, “Bahor” nomli g‘azalda har bir bayt she'riy san'at orqali kelgan bahorning tarovatini ifodalaydi va uning manzaralari shoir kunglida yanglanish mavsumiga munosib kayfiyat yaratadi:

Ochibon yuz gulni, xurram aylabon ming sarvni,
Bulbulu qumrini qildi volayu shaydo bahor.

Tebratib yel birla har sori shajaralar boshini,
Yelga imo qildi gulgasht etkali sahro bahor. [1, 32]

Bu baytlarda eng avvalo jonsiz narsalarga inson sifatini beruvchi tashxis sa'nati ko‘zga tashlanadi. So‘ng bahor bilan bog‘liq birin ketin kelgan gul', sarv, bulbul, qumri kabi so‘zlar tanosub san'atidan dalolat beradi. Yana g‘azalda ishlatilgan turli istioralar, tashbehlar gullab yashnab kirib kelgan bahorning chiroyli manzarasini yaratadi.Ammo bahor gullari qanchalik go‘zal bo‘lmasin, bog‘ni sayr qilayotgan sevimli yorni husni oldida ular ham lol qolishadi:

G‘uncha hayratdin og‘iz ochti, yiqildi yerga gul,
Bog‘aro to la'li ruxsorin namoyon ayladi.
[Ayladi, 1,104]

Ishq-muhabbat, sevgi kuychisi Ogahiy yori vasfi uchun yuzlab nozik iboralar topfdi, o‘nlab she'riy san'atlardan foydaland. Shoirning she'riy san'atlar to‘la badiiyat dengizidan ushbu maqolada biz faqat bir nechta qatrasini ko‘rib chiqdik. Ogahiy merosi doimo tadqiqotchilar nazarida bo‘lib kelmoqda. [4;5;]

Xulosa. Shunday qilib, Ogahiy o‘z ijodida, bir tomondan, ko‘p qirrali ma'rifatparvar mutafakkir, fors, arab, turk tillarni mukammal bilimdoni sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomodan, u alohida qalb sirlarini kashf etuvchi shoir, abadiy ishq- muhabbatni kuylagan o‘z davrining g‘azal sultoni sifatida gavdalanadi. Mana shu xislatlar shoir lirikasida uyg‘unlashdi, o‘z ifodasini topdi. Shuning uchun ham Ogahiy g‘azallari xalq xotirasida yashab kelmoqda, sevilib o‘qilmoqda, ohanga solinib kuylanmoqda, ziyo va ezgu tuyg‘ular manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Xanuzgacha hassos shoir g‘azallari kitobxon hissiyotining nafis torlarini to yengil chertib o‘tadi, to jo‘nbushga soladi. Kelajak avlodlar ham, ishonamiz, shoirning ijod chashmasidan bahramand bo‘lib, qayta qayta unga murojaat qilishadi, she'rlarini yod olishadi, chiroyli kuylarga solishadi, chunki shoirning merosi barhayot.

Adabiyotlar:

1. Ogaxiy Muhammad Rizo. Oshiq o‘lding, ey ko‘ngul. G‘azallar, ruboiylar, tuyuqlar, muxammaslar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2016.

2. Hojiahmedov Anvar. She'r san'atlarini bilasizmi? ”Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririyati.Toshkent-2001.

3. Qur'oni Karim Tarjima va tafsir muallifi shayx Ablulaziz Mansur.-Toshkent: Sano- standart, 2019.

4. Xallieva Gulnoz. Ogahiy musammatlari.Monografiya. Toshkent “MUMTOZ SOZ”,2019.

5. Haqqul I. Tasavvuf va Ogahiy she'riyati/ Hayot ,adabiyot va abadiyat.-T: Tafakkur,2019.

OGAHIY HIKMATLARI HAQIDA MULOHAZALAR

fil.f.d. Muxibova Ulfatxon
TDSHU, professori

Annotasiya: Hikmatli so‘zlar inson xayotida juda katta ahamiyat kasb etuvchi so‘zlar, fikrlar hisoblanadi. Ushbu maqola Ogahiyning hikmatlari asosida tayyorlandi. Ogahiy hikmatlari kitobi bilan tanishib chiqish adibning serqirra dunyoqarashi, xayotiy tajribasi va ziyrak insonligini ko‘rsatuvchi omillardan biri bo‘lib xizmat qildi. Ogahiy xaytning har jabxasi bilan bog‘liq o‘zining hikmatli so‘zlarini aytib qoldirgan va ularni o‘qigan har qanday o‘quvchi xayotda xato qilmasdan, adashmasdan yashashi uchun juda katta saboq yo‘lini ko‘sartadi.

Tayanch so‘zlar: hikmat, vafo, do‘stlik, dushmanlik, nafs, joxillik, zulmu sitam, saxovat, adolat, dunyoning omonatligi, umrning g‘animatligi**.**

Аннотация: Крылатые слова – это слова и мысли, которые играют важную роль в жизни человека. Эта статья была подготовлена на основе анализа крылатых

слов Агахи. Знакомство с книгой «Мудрость» послужило одним из факторов, показывающих широту мировоззрения писателя, его жизненный опыт и гуманность. Агахи посвятил свои крылатые слова каждому аспекту жизни, и любой читатель, который познакомится с ними, получит хорошие уроки жизни, чтобы избежать ошибок и не сбиваться с пути.

Ключевые слова: мудрость, верность, дружба, вражда, похоть, невежество, угнетение, великодушие, справедливость, бренность мира, бренность жизни.

Abstract: Winged words are words and thoughts that play an important role in a person's life. This article was prepared on the basis of the analysis of the winged words of Agahi. Acquaintance with the book "Wisdom" served as one of the factors showing the breadth of the writer's worldview, his life experience and humanity. Agahi dedicated his winged words to every aspect of life, and any reader who reads them will receive good life lessons in order to avoid mistakes and stay on his right path.

Key words: wisdom, fidelity, friendship, enmity, lust, ignorance, oppression, generosity, justice, transience of the world, frailty of life.

Ogahiy o‘zbek xalqi mumtoz davr adabiyotining Navoiydan keyingi yirik namoyandasidir. Ko‘ vaqtldar o‘zbek xalqiga ma'lum bo‘lmagan ushbu adib oxirgi o‘n yillik mobaynida tanilib, uning ijodi bugungi kunda keng miqyosda o‘rganilmoqda. Ayniqsa, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti zimmasiga ushbu adibni chuqur va har tomonlama o‘rganish, uning ijodini keng targ‘ib qilish va sharq xalqlari adabiyoti bilan bog‘liq ravishda o‘rganish vazifalari topshirilganidan keyin universitet ahli Ogahiy ijodini o‘rganish masalasida alohida topshiriqlar, jumladan, turli adabiy-ma'rifiy tadbirlar o‘tkazish, Ogaxiy asarlarini sharq tillariga tarjima qilish va uning ijodi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish kabi vazifalar qo‘ydi. Bugungi kunda universitet mutaxassislari tomonidan ushbu rejalar doirasida 2022 yilda Ogahiy hikmatlari to‘rt sharq tiliga – hindi, xitoy, uyg‘ur va ... tillariga tarjima qilinda va nashr ettirildi.

Ogahiy xikmatlarini o‘rganish va tarjma qilish jarayonida kafedraning ustozlari va magistrantlar faol ishtirok etdilar. Tarjima jarayonida Ogahiy hikmatlari bilan ilk bor tanishildi, ushbu hikmatlar orqali adibning dunyoqarashi, badiiy ijod uslubi, ma'naviyat olami bilan yaqindan tanishildi. Ogahiy hikmatlarining ahamiyatli tomoni shunday iborat ekanki, adib o‘z xayotiy tajribalarida inson hayotining, uning muammolar olamining deyarli har jabhasiga e'xtiborini qaratgan va har biri bo‘yicha ko‘zgi tashlangan, ongida his qilgan barcha illatlarni, salbiy tomonlarini ochiq oydin va qattiq tanqid ostiga olgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ogahiy ijtimoiy xayotda oddiy insonning o‘rni va ahamiyati masalalriga juda katta e'tibor qaratgan va haqiqat, adolat va insonni ulug‘lash yo‘lidan borib, xalqning katta himoyachisi sifatida o‘z ijodida xayotning, jamiyatning ko‘pgina salbiy tomonlarini tanqid ostiga olgan.

Ogahiy ijodi nafaqat mazmun va mavzular jihatdan xilma xil, balki janrlar xilma xilligi bilan ham ajralib, adibni serqirra ijodkor ekanoligini isbotlaydi, Xususan, u o‘z she'riyatida g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, murabba, musamman, tarje'band, qit'a, ruboiy, tuyuq, mulamma, chiston, muammo, masnaviy, bahri tavil, musoviy ut-tarafayn, marsiya, fard, soqiynomai murabba, oshiq va ma'shuq savol javobi va qasida janrlaridan foydalangan va har bir janrda o‘ziga xos serma'no va serjilo misralar bitgan. Biroq, Ogahiyning insonparvarlik xususiyati ko‘proq uning hikmatlarida ko‘zga tashlanadi, Zero, Ogahiy hikmatlarida inson xayotining har bir jabhasi kuzatiladi va

ularning har biriga xayotiy va donishmand fikrlarini hikmatlari orqali kitobxonlarga yetkazgan. Ogahiyning ushbu hikmatlari keyinchalik mavzular kesimida alohida bir kitob shaklida o‘quvchilarga taqdim etilgan. Xususan, kitob mundarijkasida dunyo hodisalari, dunyo sevgisi, rizq, vaqt va umr qadri, fidoyilik va olijanoblik, zulmu sitam kasofati, do‘stlik va dushmanlik borasida, makru hiyla ofati, ta'ma – badnomlik asosi, saxovat va adolat afzalligi, kibr – shayton amali, dunyoning omonatligi va umrning g‘animatligi, Do‘stlik va dushmanlik, orzu-maqsad – hayot mazmuni, dono va nodon bahsida, yaxshilik va yomonlik bobida, insoniy kamolot shartlari, insoniy xislat va illatlar haqida, nafsu havo – jonga balo minnat yuki tog‘dan og‘ir, yoshlik va qarilik tazodi, ahdga vafo – ezgu fazilat, hasad – adovat manbai, falsafiy mushohadalar, har mavzuda o‘gitlar, mehru muruvvat – oliy qadriyat va boshqa bir qancha mavzular doirasida o‘z hikmatlari bilan Ogahiy ko‘pchilikning hurmati va mehrini qozongan.

Ogahiy hikmatlaridan adibning fe'l-atvorini o‘rganish mumkin. Sermazmun hikmatlar adibning o‘ta kuzatuvchanligi va xayotiy saboqlardan o‘ziga xos tegishli xulosalar qilib ularni o‘z hikmatlarida bayon qilgan. Shunday hikmatlardan bir nechtasini namuna sifatida keltirib o‘tamiz, jumladan, sahiylik masalasida adibning quyidagi hikmati juda xayotiy hikmatdir,

Bu kun ilgingda turg‘on choqda naqding xayru ehson qil –
Ki, tongla naqd bir yon borg‘usi, har bir qo‘lung bir yon.
Bugun qo‘lingda naqding turganida xayru ehson qilki, ertaga naqding bir yonda qoladi-yu, qo‘ling bir yonda.

Yoki bo‘lmasa, vafo masalasidagi ushbu hikmat har bir inson uchun dunyo insonlarini tanishda yordam beradi, Даврон аро истаб вафо, булбул киби чекма наво,

Ul nav' gul bu bog‘ aro topilg‘usidur kam base.

Dunyoda vafo istab, bulbul kabi ko‘p navo chekma. Chunki bevafo dunyo atalgan bu bog‘da vafo guli nihoyatda kam topiladi.

Ushbu hikmatda esa Ogahiy odil sulton haqidagi fikrini bayon etgan,

Sultoni odil asrining har bir kuni Navro’z erur.

Adolatli podshoh davrining har bir kuni xuddi Navro’z bayramiga o’xshaydi.

Dunyoviy lazzatlarga berilish haflat ekanligini ko’pchilik shoirlar, azizu avliyolar ayrib o’tganlar, Ogahiy ham ularning fikrlariga qo’shilgan holda shunday deb yozgan:

Keldi asbobi jahon avsofi g’aflat mujibi,
Ne uchunkim, uyqu hosil bo’lg’usi afsonadin.

Afsona eshitish uyqu keltirgani kabi dunyo ne’matlari va lazzatlari ta’rifi ham g’aflatga sabab bo’ladi.

Ogahiyning joxillar haqidagi muloxazasi ayni xayotiy mulohaza bo’lib, uni o’qigan har bir o’quvchi darxol xayotda o’zi kuzatgan voqea va hodisalarni eslaydi,

Ajab ermas so'zim gar bovar etmas hosidi johil –
Ki, takzib etgusi Bujahl agar desa payambar so'z.

Agar johil hasadgo'y so'zimga ishonmasa, buning sira ajablanadigan joyi yo'q, chunki Abu Jahl Payg'ambarning so'zini ham inkor qilgan-ku!

Do'stlik va duo'manlik haqida qalam tebratmagan adib kamdan kam uchraydi, biroq Ogahiyning juda qisqa, biroq sermazmun ushbu hikmati har bir o'quvchini o'ziga jalb etadi,

Kirsa aylar oshnolar ayshini begona talx .

Davraga bitta begona kirsa, do'stlar bazmiga raxna soladi.

Yana bir misol,

Boqib begonalarg'a solma ko'zdin oshnolarni –
Ki, oxir oshnodur oshno, begona-begona.

Begonalar bilan topishib, do'stlardan yuz o'girib ketma, chunki oxir-oqibat do'st do'stligicha qolishiyu begona begonaligini qilishini unutma.

Mana bu hikmat esa insonga haqiqiy do'st aslida kim ekanligini aniq tushuntiradi,

Agar olam eli dushmanliq izhor aylasa, yolg'uz
Sanga, ey Ogahiy, ne g'am agar bo'lsa Xudo yoring.

Ey Ogahiy, Xudo yoring bo'lar ekan, butun olam ahli senga dushman bo'lsa ham nima g'aming bor?

Makru hiyla insonlar xayotiga rahna soluvchi, azob beruvchi illatlardan bo'lib, faqat yomonlik keltiradi, ayni shunday insonlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishni Ogahiy ushbu hikmati orqali tushuntirishga harkakat qilgan,

Desa so'z muddaiy har bobdin, solma quloq hargiz –
Ki, umrida oning bilgan ishi makru tasha'umdur .

Raqib qaysi mavzuda so'z demasin, unga sira quloq solma. Chunki uning ishi butun umr makru shumlikdir.

Ta'ma qilish ham insonga xos illatlardan bo'lib, aqlli inson doim undan uzoq bo'lishi lozim deydi Ogahiy,

Mard esang ozod bo'l bandi tama'dinkim, qilur
El qo'lidin tu'ma yerga mayl benomus qush.

Mard bo'lsang, o'zingni tama tuzog'idan ozod qil, chunki faqat nomusi yo'q qushgina odamlar qo'lidan don yeyishga moyil bo'ladi.

Albatta bunday misollradan hayotning turli jabhalari, voqea va hodisalari bilan bog'liq hikmatlarni keltirib o'tish mumkin. Aslida atrof mhitni, o'zi yashab turgan jamiyatni, turli voqeal va hodsalarni zukkolik bilan kuzatadigan va ulardan albatta o'zi uchn xulosa chiqaradigan nsonlarni uqqan inson deb baholashadi, lekin bunday fe'lli inson yana kitob mutolaa qilishdan ttinmasa albatta donishmandlik qo'lidan boradi va uning har bir so'zi, qilgan amali va xayot tarzi barchaga namuna bo'lishga arziydigan xayot tarzi deb baholash mumkin. Ogahiy ayni shunday insonlardan bo'lib, xayotni kuzatish, xulosa qilishdan tashqari ilmga berilgan juda ko'p kitoblarni mutolaa qilgan inson bo'lganltiklari hikmatlaridan birida yaqqol ko'zga tashlanadi,

Qadam aylabon ilm yo'lida bosh,
Hunar kasbida aylar erdim talosh.

Ne tunlar manga xobi rohat edi,
Ne kunlar zamoni farog'at edi.

"Ilm yo'lida boshimni qadam qilib, turli fanlarni o'rganishga harakat qilar edim. Na tunlar uyqumda rohatimu na kunlar bir lahza farog'atim bor edi (ya'ni tunu kun tinmay har turfa ilmlar tahsili bilan mashg'ul edim".

Xulosa qilib aytganda, Ogahiy serqirra ijodkor adib bo'lib, uning hikmatlari xayotda har bir inson uchun kundalik mutolaa kitobi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar:

1. Ҳикматлар. (Шарҳ ва изоҳлари билан).Тошкент, 2022.
2. S.Rajabova. Ogahiy g'azallari tahlili. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2013. №11.
3. Z.Hamidov. Ogahiy sheriyatining tili xususida. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2009. №10.
4. Ғанихўжаев Ф. Огаҳий асарларининг тавсифи (каталог). Тошкент, 1986. № 47.

OGAHIY HAQIDA YANGI ROMAN

Alimbekov A.,
TDSHhU, professori

Annotasiya: Komil Avazning bu romanida Ogaxiy xayoti dalillarga asoslangan xolatda yoritiladi. Yozuvchi shoirning asarlariga va tarixiy manbalarga asoslangan xolda badiiy asar yaratgan. Romanda Ogaxiyning umr yuli aks ettiriladi.

Kalit so'zlar: Feruz, Munis, Ogahiy, sozanda, mirob, g'azal, yob, mahram, hofiz, Oks, Hinduqush, Kayxusrav.

Аннотация: в данном романе Камила Аваза жизнь Огахи освещается на основе фактов. Писатель создал художественное произведение, основанное на

произведениях поэта и исторических источниках. Роман отражает жизненный путь Огахи.

Ключевые слова: Феруз, Мунис, Огахи, музыкант, мираб, газель, Йоб, Махрам, Хафиз, бык, Гиндукуш, кайхусрав.

Abstract: in this novel by Kamil Avaz, the life of Ogahi is covered in a case based on evidence. The writer created a work of art in Khol, based on the works of the poet and historical sources. Novel Ogahi's life path is reflected**.**

Keywords: Feruz, Munis, Ogahi, sazanda, mirob, Gazal, YAB, mahram, Hafiz, Oks, Hindukush, Kaihusrav.

Tarixiy mavzuda asar yozishning mas'uliyati katta. Ijodkor tarixiy faktlarni buzmagan holda tarixni badiiy manzarasini ifodalashi kerak. Mana shunday mas'uliyatni his qilib, tarixiy mavzuda koʻplab asar yozgan adiblardan biri Komil Avazdir. Yozuvchi turli janrlarda ijod qilayotgan adib sifatida kitobxonlarga yaxshi tanish. She'rlar, hikoyalar, dramalar yozib qalami charxlangan yozuvchi soʻngi yillarda romanga qoʻl urib, ketma-ket asarlar eʻlon qilayotir. Ijodkorning turli janrlarga qoʻl urishi uning koʻnglidagi aytadigan gaplariga mos shakl ishlashidandir. Bu izlanish samarasi oʻlaroq kechadi. Chunki bir janrdan ikkinchisiga oʻtish yozuvchidan ma'lum tayyorgarlikni talab qiladi. Eng muhimi yozuvchida, ayniqsa, roman kabi janrga mos ijodiy tafakkur quvvati boʻlishi kerak.

Komil Avazning tarixiy mavzudagi birinchi romani “Sozanda” voqealari X1X asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Xorazm vohasida boʻlib oʻtadi. Romanning asosiy syujeti oddiy mehnatkash-hunarmand oiladan chiqqan, ammo borligʻini sa'natda koʻrgan Qutlimurodning hayot yoʻli. Asarda aniq tarixiy shaxslar-Muhammad Rahmxon 11 Feruz va uning atrofidagi oʻz davrida Xorazm diyorida katta nufuzga ega boʻlgan shaxslar obrazi bor. Romanning bosh qahramoni Qutlimurod taqdiri misolida davrning manfiy tomonlari yaxshi ochib berilgan. Aytish mumkinki romanda ikki yoʻnalish bor. Birinchisining markazida Qutlimurod va u bilan bogʻliq insonlar, voqealar tursa, ikkinchisida xon Feruz bilan aloqador voqealar yotadi. Asarda mavzuga bogʻlab hikoyatlar, naqllarning keltirilishi asardagi maʻrifiy ruhni kuchaytirgan. Yozuvchi fikrni tiniq yetkazishda, mazmunni teranlashtirishda xalq maqollaridan juda oʻrinli foydalanadi. Komil Avaz sanʻatkorlar hayotini yaxshi bilgani, musiqa ilmidan xabardorligi sozanda boʻlgan Qutlimurod obrazining jonli chiqishiga asos boʻlgan. Umuman asardagi koʻpgina qahramonlarning oʻqirman yodida qolishi, ularning shaxs sifatida individual-oʻziga xosliklarining badiiy puxta berilishidir. Asar personajlarining harakatlari ham aytganlariga mosdir. Shuning uchun ham hamisha boriga qanoat qiluvchi, sabrli ota Sultomurodning: “ Noshukurlik hamisha irodani sindirishga, gʻamguzorlikka botiradi”-deya xotiniga dalda berishiga kitobxon ishonadi. Komil Avaz qahramonlar tafsifini muallif soʻzi bilan berish barobarida, ularning dialoglarida ham ochishga harakat qiladi va bunda fikriy uygʻunlikka erishadi. Abdirim bangining hayotda ne-ne azoblarni koʻrsada insoniyligini saqlab qolgani, Mitti murrikning esa bir umr hasad oʻtida kuyib, hasadgoʻylik uni fojea jariga qulatgani kitobxonni oʻyga toldiradikim buda obrazlarning jonli chiqqanlining mevasidir. Romanda oktyabr toʻntarishi arafasidagi Xorazm hayoti va inqilobning ilk yillari badiiy obrazlarda shunday yaxshi chizilganki ijtimoiy tuzum shaxsning nainki taqdirini xarakterini ham tamomila oʻzgartirib yuborishi juda yaxshi koʻrsatilgan.

Romanda xon Feruzning shoirligi, musiqa ilmini puxta bilishi va san'atkorlarga homiyligi tarixiy faktlar bilan badiiy to‘qimani uyg‘unlashtirgan holda ochilgan. Asarda Feruz hayotiga oid tarixiy voqealarning keltirilishi, Xorazmda Navro‘z bayramining nishonlanishi, xina yopar kabi xalq urf-odatlarining berilishi kitobxonni ma'rifiy jihatdan yuksaltiradi. Asarning tili o‘qishli, aforizimlarga boy. Umuman Komil Avaz nasrida xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalanish, sheva so‘zlarni iste‘molga olib kirish hodisasi kuchliligini alohida ta‘kidlash joiz.

O‘zbek adabiyotida tarixiy mavzuda asar yozish an'anasi kuchli. Aytish mumkinki o‘zbek tarixiy romanchilik maktabi bor. Birinchi o‘zbek romani “O‘tkan kunlar” ham tarixiy mavzuda edi. XX asr adabiyotimizda hodisa bo‘lgan romanlar - Oybekning “Navoiy”, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, Pirimqul Qodirovning “Bobur”, keyingi yillarda yozilgan Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” va boshqa tarixiy mavzudagi asarlar fikrimizga dalil. Mana shunday romanlari bo‘lgan adabiyotda tarixiy mavzuga qo‘l urishning o‘zi bo‘lmaydi. Ustozlar yo‘lini tutib Komil Avaz “Ogahiy” hujatli-badiiy tarixiy romanini yozdi. Bungacha Ogahiy haqida Erkin Samandar “Quyun izi yoxud Ogahiy” romanini, Ayyomiy “Tun va noxun” dramasini yozgandi.

Mashhur siymolar hayoti (hasbi hol turkumi) turkumida yozilgan “Ogahiy” (Urganch. 2020.“Quvanchbek – Mashhura” MChJ nashriyoti) asarini yozish uchun adib uzoq tayyorgarlik ko‘rdi. Chunki mumtoz adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiydan keyingi yirik ijodkor bo‘lgan Muhammadrizo Ogahiy haqida roman yozishning mas'uliyati katta. Shoir, tarixchi, tarjimon, Xorazm ma‘naviy muhitida muhim o‘ringa ega bo‘lgan shaxs - Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy haqida hujjatli - badiiy tarixiy roman yozishning o‘zi bo‘lmaydi. Davrni, shoir ijodini yaxshi bilish darkor. Komil og‘a Ogahiy hayoti va ijodini tadqiq qilib ko‘plab maqolalar, ayniqsa, g‘azallarining tahliliga oid ilmiy izlanishlar qildi.

“Ogahiy” romani 65 yoshli Muhammadmatrizo Ogahiyning xastalanib yotganida yoshligini xotirlashi bilan boshlanadi. Ya'ni, yozuvchi retro syujetdan foydalanib, inson keksayganda umr yo‘lini eslashi orqali uning hayotini tasvirlaydi. Ogahiyning bolaligidan tortib umrining oxirigacha bo‘lgan voqealar bir-biriga mos ravishda hikoya qilinadi. Muallif asar boshidanoq qahramon ruhiyati tasviriga alohida e'tibor ko‘rsatib va yoshidan kelib chiqib beradi. Qahramon ruhiyatini ifodalaydigan lirik parchalar bilan kitobning o‘qishli bo‘lishini ta'minlaydi. “Nazira ham xuddi yaqinda uni bag‘riga bosganini unitib, beparvogina o‘choqqa o‘t qalayapti. U o‘sha kunlar yodi bilan yashay boshladi. Ajabo, qancha yaqinroq bormasin, u e'tibor qilmay ishi bilan andormon bo‘laverdi. Buning bilan unga sen hali yoshsan, kattaygach, qizlarning o‘zi senga sovchi bo‘lishadi demoqchi bo‘layotgandek, ammo uning yosh qalbini cho‘ktirmaslik uchun beparvoligini atayin bo‘rttirib, u tomonga qaramaydi. Matrizoning ruhi tusha boshladi. Nazira opadan bunday bemehrlikni kumagan edi. Uyqusiz, bedor orttirgan tonglaring jazosi shumi? Tizginsiz gumonlar girdobida g‘azabi junbushga keldi, biroq bu qahrini Naziraga qanday yetkazadi? Shundayicha borib, mendan ne xatolig‘ o‘tdiki, buncha toshbag‘ir bo‘lmasangiz, sizning bu yanglig‘ bepisand muomalangizdan xafa bo‘ldim, deya yuziga sololmaydi-ku”(35-bet). Bu parchada yozuvchi ikki qahramonining ruhiy holatini tasvirlashga muvaffaq bo‘lgan. Bunday tasvirlarning bosh qahramonga taalluqli jihati, o‘quvchi uning ichki dunyosiga chuqurroq kira boradi, shoir qahramonini anglasa uning yozganlarini ham anglash oson kechadi.

Endi Ogahiyning hayot achchiq - chuchugini ko‘rgan vaqtdagi mulohazalari: - “Nedir sodir bo‘ldi-yu, lahzalar ichida qoramtir tusga kirayotgan osmonga tikildi. Oy qizg‘ish yuzini uyalgandek, osmon yuzini qoplay boshlagan yupqagina harir parda orqasiga yashirdi. Uning uchun eng qayg‘ulisi, hozirgina havas bilan boqib turgan bulut – tog‘ ham lahzalar ichida qorayib, yeru osmonga singishib ketdi.

Ulug‘vorlik ham quyosh tig‘ berguncha ekan – da, deya kelgan ilk maniyi mulohazadan uning yuragi hapqirib ketdi. Demak, hozirda qarzga salomlashgandek, kekkayib yuradigan qay birovlar ham xuddi bulut – toqqa o‘xshab, quyosh zarralari yanglig‘ paydo bo‘ladigan ilmli, ma'rifatli, o‘qimishli odamlar chiqqach, ular ham erib ketisharkan-da...” (22-bet). O‘zini bilimdon ko‘rsatib kekkayib yuradiganlarning, haqiqiy olimlar oldida qor uchquni quyosh nurida erib ketganidek yo‘q bo‘lib ketishi nozik badiiy tasviri bosh qahramon qarashlaridan kelib chiqib berilyapdi. Romanda shoir sifatida ham, davlat arbobi sifatida ham Ogahiyning hayoti tekis kechmagani yaxshi tasvirlangan. 20 yoshida Xorazmning bosh mirobi bo‘lgan (zamonaviy qilib aytsak “Suv xo‘jaligi” vaziri) Muhammadrizoni ham ko‘rolmaydi hasadgo‘ylar bo‘lgan. Ogahiyning otdan yiqilib, oyog‘ining mayib bo‘lib qolishida dushmanlarining qo‘li borligi haqidagi gaplar bekorga emas. Uning saroydagi mavqeiga g‘ashi keladiganlar ham yetarli edi. Moddiy muhtojlik hollariga tushib qolgan paytlar ham yuz bergan. Ogahiy mana shularga qaramasdan ajoyib g‘azallar bitdi, tarjimalar qildi, tarixiy asarlar yozdi. Komil Avaz asarda biror voqea sabab Ogahiy g‘azallarini teran tahlil qiladi, yozilish sabablarini beradi.

Qo‘yung, yig‘layki ushbu kun sevar yorimdin ayrildim,
Muruvvatlig‘, muhabbatlig‘ vafodorimdin ayrildim.

Matlasi bilan boshlangan g‘azalning yozilishiga turki bo‘lgan holat buning misoli. Yoki Ogahiyning hukmdorlarga ham to‘g‘ri so‘zni ayta oluvchi shoirligi uning Muhammad Rahimxon Ikkinchining taxtga o‘tirishi munosabati bilan yozgan masnaviysida juda yorqin ko‘rinadi:

Bugun, podshoho, sanga saltanat
Berubdur xudo ko‘rguzub marhamat.
Agarchi bu ish bas og‘ir yukdurur,
G‘amu mehnati necha turlukturur.
O‘zingni bu yuk chekkali chog‘lagil,
Kamar belga himmat bila bog‘lagil.

Shohni raiyyat farovonligi yo‘lida himmat kamarini bog‘lashga undov har qanday shoirning ham qo‘lidan kelavermaydi. Romandagi bunday uzvlar (detallar) tasviri shoir ijodini teran tushunish imkonini oshiradi.

Asarda Xorazm shohlari haqidagi tarixiy ma‘lumotlar, ayniqsa, shoh Muhammad Rahimxon 11 Feruz hayotiga oid tarixiy voqealarning keltirilishi, o‘sha vaqtdagi Xorazmda suv inshootlari (soqa) qurilishi, sug‘orish tizimi haqida batafsil ma‘lumotlarning keltirilishi romanning tarixiylik ohangini oshirib, kitobxonni ma‘rifiy jihatdan boyitadi.

Hujjatli - badiiy asar yozganda tarixiy faktlarni buzmagan holda, badiiy to‘qimani uning ichiga singdirib yuborish kerak. Badiiy to‘qima ham hujjatlarga mos tushishi darkor.

Kitobdagi tarixiy shaxslar obrazi – u hukmdormi, yoki Munis kabi shoir va davlat arbobimi, xorijdan savdo ishi bahonasi bilan kelgan Murav'ev, Abrosimov, Boris Samoylovmi, ingliz elchisi Abbatmi - ularning xarakteri, maqsadi xatti – harakatlarida ko‘rsatiladi. Ruslarning ham inglizlarning ham asosiy maqsadi Xorazm hududini qo‘lga kiritib egalik qilish. Demak roman o‘sha davr siyosiy muhiti haqida ham o‘qirmanga ma‘lumot beradi, fikrini to‘yintiradi.

Asarda Ogahiyning shoirligi, tarixchiligi, tarjimonligi shunchaki sanab o‘tilmaydi, tahlilga tortiladi. Muallif Ogahiyning adabiy, ilmiy merosini ham yaxshi o‘rganganligi keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdi. Uning shoirligiga urg‘u berish bilan birga ijodining boshqa qirralari ham birdek tafsiflanadi. Bu esa Ogahiyning ijodkor shaxs sifatidagi siymosini to‘laqonli yaratishga omil bo‘lgan. Ogahiyning Bayoniy, Shavqiy, Ojiziy, Yusufiy kabi shoirlarga munosabati orqali o‘sha davr adabiy muhiti haqida tasavvur uyg‘otiladi.

Romanda xalq urf – odatlari o‘rnini topib chiroyli ifodalangan. Turli sayllar, Navro‘z bayramining nishonlanishi, xina yopar kabi xalq urf-odatlarining tasviri, xalq qiziqchiligi va hokazo. Birgina xalq qo‘shig‘idagi misralarga e'tibor beraylik:

Yovshon qadim gulim-ov,
Ifor to‘la cho‘lim – ov.
Adashmagan yo‘lim – ov,
Seni deb talashdim – ov...

Bir giyohni vatan tisolida ko‘rish. Yozuvchi romanda xalqimiz vatansevarlik tuyg‘usini balandparvoz so‘zlarda emas, mana shunday sodda satrlarda samimiy tasvirlaganini o‘rnini topib yaxshi ko‘rsatib o‘tgan.

Asarda mulohazali o‘rinlarida bor va bu tabiiy. Romanda sheva so‘zlarining ko‘proq qo‘llagani seziladi. Garchand muallif izohlar bersada bu narsa me'yorida bo‘lgani yaxshi.

Komil Avazning ushbu romani Ogahiy haqida keng ma'lumot beruvchi, ulug‘ shoirimiz ijodini kitobxonlar ommasiga yetkazishda ahamiyatga ega asar bo‘lgan. Kitob so‘ngida Ogahiy hayotining muxtasar solnomasi va u haqdagi ilmiy ishlarning nomi ilova sifatida berilgani, kitobxon uchun yana bir qulaylik tug‘dirgan. Umuman romanni adabiyotimiz tarixida ulkan o‘rni bo‘lgan ijodkor obrazi yaratilgan yaxshi asar deb baholashimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov N. Tarixiy shaxs talqini. Toshkent. “Zilol buloq” nashriyoti.2020.
2. Komil Avaz. Ogahiy. Urganch. “Quvanchbek-Mashhura”MChJ nashriyoti. 2020.
3. Erkin Samandar. Quyun izlari yoxud Ogahiy. Toshkent. “Mumtoz so‘z” 2009.

OGAHIY IJODIDA KOSMOGONIK MIFOLOGIYA TALQINI
(Bir masnaviy asosida)

f.f.d. Yoqubov I.,
A.Navoiy nomidagi TDO‘TAU professori
f.f.n. Matyoqubova T.,
A.Navoiy nomidagi TDO‘TAU dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola Ogahiyning “She‘riy madhal” nomli masnaviysi tahliliga bag‘ishlangan. Adib zaminiy voqealar o‘zanini samoviy hodisalar bilan izohlash orqali bayon etgan. Xususan shoirning obyekt, holat va kayfiyatni bayon etishda kosmogonik mifologiyadan foydalanib zavqli misralar yaratishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, kosmogonik mifologiya, masnaviy, “She‘riy madhal”, timsollar, osmon jismlari, samoviy jismlar.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу маснави Огахи под названием “Поэтический мадхал”. Мудрец излагал русло земных событий, интерпретируя их небесными явлениями. В частности, раскрывается, как поэт создает восхитительные стихи, используя космогоническую мифологию для описания объекта, состояния и настроения.

Ключевые слова: Огахи, космогоническая мифология, Маснави, “поэтический гимн”, эмблемы, небесные тела, небесные тела.

Abstract: This article is devoted to the analysis of Ogahi's masnavy named “poetic hymnal”. The writer outlined the core of earthly events by interpreting them with celestial phenomena. In particular, it is revealed that the poet creates delightful verses using cosmogonic mythology in the statement of object, state and mood.

Keywords: Ogahiy, cosmogonic mythology, Masnavi, “poetic hymnal”, emblems, celestial bodies, celestial bodies.

Ogahiy ijodiy merosida kosmogonik mifologiyaga murojaat qilish orqali yuzaga kelgan asarlar ham muayyan o‘rin egallaydi. Shoir qadimgi Sharqda rivoj topgan astronomiya fani kashfiyotlari va ularning kosmogonik mifologiya tarkibiga singib kirishidan ma’lum darajada boxabar bo‘lgan[1] Shoir o‘z asarlarida ulardan ijodiy foydalanib, mavzu va masalani atroflicha yoritish, fikr-mulohazalarini rivojlantirish, yangi-yangi obrazlar yaratishga erishishi bundan guvohlik beradi. Fikrimizning dalili sifatida Ogahiyning hijriy 1262-yil (1845-1856- yil milodiy) sanasida “Zubdat ut-tavorix” asarini boshlashdan ilgari yozgan “She‘riy madhal” (kirish) nomli masnaviysini kuzatish maqsadga muvofiqdir:

Ey charx, manga bu lahza yor ul,
Kel, xizmatin uzra ustuvor
Ixlos ila eshigim supurgil,
Ta’zim ila bandavor turg’ul.

[1] Кун Н.А. Легенды и мифы древней Греции – М.: 1995; Маковельский А.О. История научного изучения “Авесто”: главные направление в нем и их оценка, – Баку,1960; Шахнович М.И. Первобытная мифология и философия, 1971; Маллаев Н.М. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти, –Т.: 1974; Бонов А. Мифы и легенды о созведиях. – Минск , 1984, Кариенко Ю.А. Названия звездного небо, – М., 1984 ва бошқалар.

Hajarg'a yetur safou tazyin
Andoqki, nigor xonai chin.
Ganjinai sidq eshigini och,
Izzat guharin boshim uzra soch.
Har nomni aylasam taqoza,
Oni nazarimda ayla paydo.
Oliy qilibon manga mahalni
Ta'zimima past qil zuhalni.
Madhim bila mushtariyg'a och til,
Minbar ango ostonim etgil.
Mirrixni qil qopumda darbon ,
To'ksun xusomag'a tiyg' ila qon.
Manzil quyoshing yonimda tutsin,
Nuri bila maskanin yorutsun.
Zuhrang qilibon qoshimg'a ohang,
Vaqtimni xush aylasin, chalib chang.
Yonimda Atoruding hamisha
Qilsin qalamim yunorni pesha.
Ollimda oy aylabon belin rust,
Xizmatg'a o'zini aylasin chust.
Tutsin manga, istab iltifotim,
Ta'zim ila qog'ozu davotim.
To man olib ilkima qalammi,
Shoxnoma sari so'ray raqamni…

O'n to'rt band, yigirma sakkiz misradan iborat bo'lgan yuqoridagi masnaviyda "charx" – falakka murojat qilinadi. Unda biz "Zuxal (Saturn) - yuksaklik, baxt va tole ramzi; Mushtariy (Yupiter) - baxt yulduzi: Mirrix (Mars)- ofat va urush xudosi, jang va qahromonlik ramzi: Quyosh- nur, issiqlik, baxt-soadat manbai, kuchli, qudratli yo'lboshchi ramzi, Zuhra (Venera) - rahm-shavqat va ezgulik, nafosat ramzi, san'at homiysi "Atorud (Merkuriy)- falak kotibi, yozuvchi va shoirlarning homiysi, Oy- go'zallik timsoli singari sayyoralarning nomlarini uchratamiz. Ularning mifologik ma'nolari bilan tanishgach, samoviy jismlarning ilohiylashtirilishi ibtidoiy odam tassavurlari bilan bog'liq bo'lsada, ancha yashovchan bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Zero, Ogahiy ham osmon jismlarida madadkor ruh kuchini ko'radi.

Ogahiy ko'kka murojat qilar ekan, osmon xudo tushunchasini (Ko'k tangri) anglatishini eslasak, ko'kdagi barcha sayyoralr Ollohning izmida ekanlligi ravshamnlashadi. Shoir ulkan bir yumishga qo'l urar ekan, maqsad-murodinig hosil bo'lishini istaydi va o'z mushkulini oson qilishlikni iltijo qiladi. Zuhalning ta'zimida turushidek oliy lahzani tilar ekan, "Zubdat ut-tavorix" asarini muvofaqiyatli tugatib, yorug' yuzli bo'lishni, izzat-hurmatini saqlashni va yuksaltirishni, sodiq bandasidan baxtu tole yuz o'girmasligini istaydi.

Shubhasiz, mazkur maqsadga mehnatsiz, ijod mashaqqatlarisiz erishmoq dushvor. Ijod esa, avvalo, shoirning o'z-o'zi bilan, qolaversa, salaflari bilan fikriy, ma'naviy-ruhiy musobaqasi, kurashidan iborat. Demak, mazkur kurashda jang qilish, balo-ofatlarni daf etish o'ziga xos jasorat, qahromonlik talab qiladi. Baxt yulduzi bo'lgan

Mushtariyga shoir haqida madhiya aytmoq, ya’ni uni ta’riflab maqtamoq orqali “ostonani minbar” etishga erishish bu baxtdan umidvorlikdir. Ijodning yana bir talabi haqiqatga sadoqat bo‘lib, haqiqat hamisha achchiq bo‘ladi. Ijodkor tarixni haqqoniy, adolatli baholar ekan, shu achchiq haqiqatni jasorat bilan ayta olmog’i, avlodlarga yozib qoldirmog’i shart. Demakki, ofatu falokatni yengib, g’alabaga erishmoq uchun jangda qion to‘kmoq, dushmanlarni mahv etmoq lozim. Mirrixning eshigda darbon bo‘lishi ezgulik bilan boshlangan ish yozilayotgan xonaga baloyu ofatlar yog’ilmasligi, e’tiqodga zid harakatlar sodir etilmasligini tilamoqdir.

Qadimgi misrliklar Quyoshdan kuch olish uchun qo‘llarini unga qaratib ko‘tarishgani, massagetlar hukmdori To‘maris quyosh nomi bilan qasam ichganligi, O‘rta Osiyoda quyoshga topinish zardushtiylik bilan bog’liq ekanligi oppoq libosdagi Spitam Zardusht qo‘lida muqaddas olov bo‘lganligini eslasak, Ogahiyning Quyosh bilan hamnafas bo‘lishni istashi, uning zarrin nurlari maskanini yoritib turishini tilashi shunchaki tasodif emasligi ayon bo‘ladi. Zero, quyosh mifologiyada nafaqat yorug’lik va nur manbai, malki yuqorida ta’kidlaganimizdek, issiqlik, baxt-soadat manbai, kuch-qudratli yo‘lboshchi hamdir. Shoirning xonadoni nurafshon bo‘lar ekan uning jismi va ruhiga ham yorug’lik va nur inadi. Qalbiga harorat tafti ko‘chadi, muqaddas yo‘lboshchi-Quyosh manbaidan kuch-qudrat oladi. Demakki, ijodi ham sermahsul bo‘ladi.

San’at homiysi, musiqachilar tangrisi, nafosat, ezgulik va rahm-shafqat ramzi Zuhraning chang chalib, vaqtni xushlashi, yordamga kelishi iltijo qilinar ekan, Ogahiy qalb olamida kechayotgan ruhiy holatni tasavvur etish qiyin emas. Barcha iqtidorli ijodkorlar singari shoir ham aksari san’atning yuksak talab va mezonlariga javob berishni, nafis va dilbar so‘zlar bilan ziynatlanishni, ezgulikka xizmat etishni, insonlar ko‘ngliga yo‘l topa olishni orzu qilgan. Dunyoda adolat, haqiqat singari tuyg’ular qatorida nafosatning, ezgulikning, rahm-shafqatning, mehr-muruvvatning barqaror bo‘lishini chin dildan istagan.

Biroq xuddi shu narsani qo‘liga qalam olgan jamiki ijodkor ahli orzu qiladi. Orzu, intilish borki, inson yashaydi. Ammo orzu qilishning o‘zigina yozuvchiyu shoir ahlini abadiyatga dahldor siymilar qatoriga qo‘shib qo‘ya qolmaydi. Ogahiy falak kotibi va yozuvchiyu shoirlar homiysi Atorudning hamisha hamdami bo‘lishini iltijpo qilar ekan, hali asarni yozishga kirishish emas, “qalamni yo‘nish” - yozishni maqsad qilishdanoq o‘z iqtidorini o‘tkinchi narsalarga sarflashdan tiyilish, chinakkam san’at asari yozishga sa’y- harakat qilishga intiladi. Fala kotibi uning taqdiriga ham abadiyatga dahldorlikni yozishda homiylik qilishini juda-juda istaydi va butun jismoniy, ma’naviy-ruhiy salohiyatini yozilajak asar itmomiga safarbar qailadi. Tarixiy hodisalarni, xalq boshidagi musibatlar mohiyatini ulug’ muarrix sifatida ochiq ravshan bayon qilib, o‘zaro urushlarning fojiyalarini ham, qahatchilik va ocharchilik xalq hayotini dahshatli ahvolga solganini ham, xalq qo‘zg’olonlariyu ayrim amirlarning g’ayriinsoniy qiliqlarini ham haqqoniy yoritadi. Diplomatik munosabatklar, savdo aloqalri, xalq urf-odatlari, udumlarini keng miqiyosda aks ettiradi. Uning asarlari mashhur mustashriylar tomonidan faktik materiallar ko‘oligi, tarixiy voqealarni bayon etishi nuqtai nazaridan haqli e’tirof qilinishi bejiz emas, albatta.

Umumjahon, ayniqsa, turkiy xalqlar olimlari tomonidan yaratilgan diniy, etnografik va tarixiiy folklor asarlaridagi ko‘pchilik ma’lumotlarga tayanib aytish mumkinki, qadimgi zamonlardan boshlab, Oy haqida har bir xalq o‘z ibtidoiy tasavvurlariga ega bo‘lgan. Oqibatda uning haqida yaratilgan mif va afsonalar, ertaklarda Oyni ayollarning ilk ibtidosi, Quyoshning singlisi, ba’zan umr yo‘ldoshi,

sevimli qiz, go‘zallik timsoli, iffatli ayol sifatida tasavvur qilishgan. Ogahiyning Oy belini mahkam qilib, chaqqonlik bilan ta’zimda turishini tilashi ham ana shu tasavvurlar bilan bog’liq bo‘lib, muarrix sayyoralarning har biti o‘z mavqeyi darajalari maqomida mehmonnavozlik ko‘rsatishlariga ishora qilmoqda.

Ko‘rinadiki, samoviy jismlar harakat-holatidan yaxshigina xabardor bo‘lgan Ogahiy o‘z asarlarida bu noziklikni sinchkovlik bilan inobatga olgan, haroratli satrlarini o‘sha obrazlar vositasi ila bezagan. Obekt, holat va kayfiyatni bayon etishda kosmogonik mifologiyadan nihoyatda katta mahorat bilan foydalangan. 14 baytli masnaviyning sakkiz bandi bevosita kosmogonik mifologiya bilan bog’liq. Eng oliy xudo hisoblangan Osmonga sig’inish, iltijo qilish islomgacha bo‘lgan yomonlarni jazolash, yaxshilarni siylash ko‘k tangri ifodasi, tangri nafaqat ilohiylik, balki yuksaklik belgisi hamdir degan e’tiqodlardan oziq oladi. Masnaviyga go‘yoki ekspozitsiyasi vazifasini o‘tovchi birinchi banddan keyin Ogahiy konkret har bir sayyoraga o‘tib, shu sayyoraga nisbat berilgan mifologik sifat va mohiyat orqali holat va kayfiyatni, maqsad va intilishni ifodalaydi. O‘z ruhiy holatini mislsiz san’ atkorlik bilan tasvirlab, bir masnaviy mavzu va mohiyatiga butun kosmogonik mifologiyani, asotiriy suratlarini singdirib yuboradi. Natijada zukko kitobxon ko‘z o‘ngida Ollohga ishongan, sobir va sadoqatli, ertangi nurli kunlarga umidvor, e’tiqodida sobit, ijodda jasoratli, haqiqatga hiyonat qilmagan, ruhi pok komil inson-yurak san’atkor qiyofasi ruhiy ma’naviy olami namoyon bo‘ladi. Ijodiy tamoyillari birmuncha oydinllashadi.

Ushbu kichik maqola hajmi talablaridan kelib chiqib, bir masnaviy tahlili orqali xulosa qilish mumkinki, Ogahiy lirik merosi fanning turli tarmoqlari, jumladan, ilmi nujimga doir so‘z va atamalarga bag’oyat boydir. Zero, Ogahiy zohiriy va botiniy ilmlardan chuqur xabordor bo‘lgan. Tabiiy samoviy hodisalardan she’r nazokatini oshirish yo‘lida unumli foydalanib, go‘zal manzaralar, zavqli misralar yarata olgan. Zaminiy voqealar o‘zanini samoviy hodisalar bilan izohlab inson tafakkurini bepayonligini, borliqdagi hodisalar aro uzviy aloqadorlikni, xususan sayyoralar aro munosabatlarni koinotning giosentrik tizimi bilan ifodalash lozimligini yaxshi anglab yetgan.

Adabiyotlar:

1. Кун Н.А. Легенды и мифы древней Греции М.,1995.
2. Маковелский А.О. История научного изучения “Авесто”, главные направления в нем и их оценка. Баку, 1960г.
3. Шахнович М. И. Первобытная мифология и философия, 1971.
4. Маллаев Н. М. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти, Т. 1974.
5. Бонов А. Мифы и легенды о созведиях. Минск, 1984.
6. Кариенко Ю.А. Названия звездного небо, М., 1984
7. Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик, II жилд, Тошкент, 1972.
8. Жуманазаров У. Тарих, афсона ва дин, “Ўзбекистон” нашриёти, Тошкент, 1990,31, 81-бетлар.
9. Браганский И. С. Из истории персидской и таджикской литературы М., 1972, с. 90.
10. Бартольд В.В Сочинения, том 2, част 1, Издателство восточной литературы. Москва, 1963, стр. 285-286.
11. Иорданский В. В. Хаос и гармония. М., 1982.
12. Магомедов Р. Легенды и факты о Дагистане. Махачкала, 1969.
13. Шартонов А. Г. Адыгская мифология. Налчик, 1982.
14. Далгат У. Б. Героический эпос чеченцев и ингушей. М., 1972.

OGAHIY – MANGU BARHAYOT SIYMO

f.f.d. Yoqubov I.,
A. Navoiy nomidagi TDO‘TAU professori

“Yeturmak elga rohat qudratim yetgunchadir korim”
(*Ogahiy*)

Annotasiya. Mazkur maqola Ogahiyning tarjomonlik mahorati haqida bo‘lib, xususan sharq adabiyotining bebaho asari “Qobusnoma”ning Ogahiy qalamiga mansub turkiy tarjimasi tahliliga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar. Kayqovus, “Qobusnoma”, axloqiy ta‘limot, Ogahiy tarjimasi, moddiy va ruhiy substansiya, dualizm, badiy mahorat.

Аннотация. Данная статья посвящена переводческому мастерству Огахи и, в частности, анализу тюркского перевода бесценного произведения восточной литературы “Кобуснома”, принадлежащего перу огахи.

Ключевые слова. Кайговус,” Гобуснома", нравственное учение, Огахический перевод, материальная и духовная субстанция, дуализм, художественное мастерство.

Abstract. This article will be devoted to the translation skills of Ogahi, and in particular to the analysis of the Turkish translation of the invaluable work of Oriental literature “Qobusnoma”, which belongs to the Ogahi pen.

Keywords. Kaikowus,” Qobusnoma", moral doctrine, Ogahiy translation, material and spiritual substance, dualism, artistic skill.

Ogahiy tarjimalari ichida “Qobusnoma” alohida o‘rinlardan birini egallaydi. Bu asar manbalarda *“Mav’izatnomai Kayqovus”, “Pandnoma”, “Nasihatnoma”*[2] deb ham yuritiladi. Asar jamiyat rivoj topib, ilm-fan, adabiyot va san’at muayyan darajada taraqqiy etgan XI asrda yaratilgan. Mazkur asrning yirik namoyandalari safida Abu Abdulloh Rudakiy, Abul Qosim Firdavsiy Tusiy, Abul Hasan Binni Unsuriy, Abul Hasan Farruhiy, Nizomul Mulk, Umar Xayyom, Nosir Xisrav singari shoir va yozuvchilar borligini eslasak bunga to‘la amin bo‘lamiz.

Kitob muallifi Gilon mulkining shohlari sulolasidan bo‘lmish Kayqovus Toboriston (Hazar dengizining janubiy sohili) da 1021-1022 yillarda tug‘ilgan bo‘lib, bu asarni 63 yoshida, ya’ni 1082-1083 yillarda o‘g‘li Gilonshohga atab yozgan. Uning bobosi Qobusning adabiyot ixlosmandi bo‘lgani, fors va arab tillarini chuqur o‘rganib, o‘zi ham she’rlar yozgani arab tilida tuzilgan *“Nomalar”* nomli asar muallifi, adabiyot va san’at ahllari homiysi, murakkab tabiatli shaxs bo‘lgani haqidagi ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan. Madaniy markaz bo‘lgan Jurjonda, ya’ni Qobus huzurida Beruniy ham muayyan muddat katta hurmatga sazavor bo‘lib, bir qancha ilmiy asarlarini yozgan. Bu haqdagi ma’lumotlarni Mirxondning *“Ravzatus safo”* Latif Alibek Isfahoniyning *“Tazkirai otashkada”* asarlarida ham uchratamiz.

Ziyoli va o‘ziga to‘q oilada tarbiyalangan Kayqovus o‘z zamonasining ilmli kishilaridan biri edi. U Sharqning ko‘plab shaharlariga sayohat qilib, olimlar bilan

[2] Кайқовус. Қобуснома, “Мерос” нашриёти, – Тошкент, 1992 – Б. -5-7.

suhbatda bo‘lgan va *“Qobusnoma”*ni yozish maqsadida o‘zigacha bo‘lgan davrda yuzaga kelgan farzand tarbiyasi bilan bog‘liq ilmiy-pedagogik asarlar bilan yaqindan tanishgan. Ularda ilgari surilgan fikr-qarash va axloqiy tushunchalarni ijodiy o‘zlashtirgan va yanada rivojlantirgan.

“Qobusnoma” uzoq yillar davomida rus va g‘arb sharqshunoslari, Sharq olimlari va pedagoglarining diqqatini jalb qilib, qunt bilan o‘rganishga hamda o‘z tillariga tarjima qilishlariga rag‘bat bergan. Asar 1432 va 1705 yillarda turk tiliga, 1786-1787 yillarda uyg‘ur tiliga, 1860 yilda Ogahiy tomonidan o‘zbek tiliga, 1881 yilda tatar tiliga tarjima qilinib, asarning turkiy tildagi eng nodir nusxalari yaratildi. Bundan tashqari 1811 yilda nemis tiliga, 1886 yilda fransuz va rus tillariga o‘girilgan. 1953 yilda Ye.E.Bertels mazkur asarning rus tilidagi ikkinchi tarjimasini amalga oshirgan. Shubhasiz, mazkur tarjimalar ham endilikda nodir nusxalar bo‘lib qolmoqda.

Bir qarashda muallif hali asarni yetarlicha hayotiy tajriba to‘plamagan o‘g‘liga ko‘pni ko‘rgan donishmand otaning nasihatlari tarzida bitganday ko‘rinadi. Shunga qaramasdan, muallif bir tomonidan ɯz ajdodlari nomini abadiylashtirish, ikkinchi jihatdan, keng kitobxonlar ommasini ham nazarda tutib ish ko‘rgan deyishga asos bor. Muallif asarga yozgan so‘z boshisida[3] *“yaxshi ot qoldirmoq” “otalik mehri shartlarini bajo keltirmoq”* farzandining tafakkurini rivojlantirib, uning yaxshi nom chiqarishi uchun hayotlik paytida barcha sa’y-harakatlarni qilishga ulgurmoq maqsadini ko‘zlanganligini bayon qiladi. U farzandi istiqbolida “yaxshilik nishonasi”ni fahm qilsa ham unga foydali nasihatlarni takror-takror uqtirishdan erinmaydi. Qolaversa, “baxt alomati” bo‘lgan bu so‘zlarni har bir kimsaning o‘qib tushunishi, unga amal qilishiga zarracha shubha qilmaydi. Ko‘rinadiki, Kayqovus o‘z davri diniy va dunyoviy ilmlarini chuqur o‘zlashtirgan, aql-tajribayu tafakkur kuchiga tayanib ish ko‘ruvchi ilg‘or ma’rifatparvar bo‘lgan. Bu hol asarning umumboqiyligini ta’minlagan.

Ye.E.Bertels Kayqovus ijodida dualizm mavjudligini ta’kidlagan edi. Muallif moddiy va ruhiy substansiyalarni teng huquqli asoslar deb hisoblashi, ko‘pincha diniy va dunyoviy ilmlarni kelishtirishga intilishi yuqoridagi fikrni to‘la tasdiqlaydi. Kayqovus olam harakatlarining umumiy sababchisi sifatida yagona Ollohni e’tirof etadi. Jism va ruh tushunchalariga katta e’tibor qaratadi. Insonning ruhi va tabiatini takomillashtirishni bilimning tub vazifalari sirasiga kiritadi. Bilimning ishonchli ibtidosini topishga intiladi. Inson fikri va tafakkurini yuksak sanaydi. Oliy axloq talablaridan kelib chiqadi. Shaxsning qadr-qimmati tamoyilini olg‘a suradi. Shu boisdan ham “Qobusnoma” falsafiy va axloqiy-didaktik mohiyat kasb etgan. Jahon adabiyotidagi “Shohnoma”, “Kalila va Dimna”, “Ming bir kecha” kabi mashhur kitoblardan biri sanalib kelgan. Darhaqiqat, bu asar ilm, tajriba, mushohada, lo‘nda xulosalar, hikmatlarga shu darajada boyki, uni o‘z davrining qomusi deb atash mumkin. Kitobda falsafa, din, ilohiyot, davlat, siyosat, ahloq, nafosat, ta’lim-tarbiya va ota-ona masalalari, tarix va etnografiya, tibbiyot va tabobat, fan va madaniyat, riyoziyot va ilmi nujum, dehqonchilik va hunarmandchilik, jismoniy tarbiya va hordiq chiqarishning turli yo’llari xususida nihoyatda siqiq va soda mulohaza yuritilgan.

Taxsinga loyiq jihati shundaki, muallifning falsafiy qarashlari farang faylasufi

[3] Kayqovus Qobusnoma. “O‘qituvchi” nashriyoti, – Toshkent, 1967 – B. -29-30. (Maqolda keltirilgan iqtiboslar “Qobusnoma” ning “O‘qituvchi” nashriyotida 1967 yilda, qisman esa, asarning “Meros” nashriyotida 1992 yilda чоп etilgan variantlaridan olinib, qo‘sh tirnoq ichida berildi I.Yo.).

Rene Dekart (1596-1650) dualizimidan olti yuz yil, nemis faylasufi Imanuil Kant (1724-1804) dualizmidan yeti yuz yil muqaddam qaror topgan edi. Bizningcha bu Kaykovusning qadimgi hind, arab va yunon falsafasi, xususan, Suqrot, Aflotun, Arastu, Batlimus qarashlari bilan yaqindan tanish bo‘lganligi orqasida yuzaga chiqqandir. O‘z davrining qomusi bo‘lgan bu asar bilish jarayoni va fan tarixi uchun nihoyatda qadrlidir.

O‘zbek tiliga birinchi marta forscha asliyatdan qilingan tarjima oradan bir asrdan ortiqroq vaqt o‘tgandan keyingina xalqimizga yetib keldi. Mazkur asar tabdili, ya’ni soda bayoni 1963, 1973, 1986 yillarda Usmonbek (Subutoy) Dolimov kata sa’y-harakatlar bilan uch marta nashrdan chiqarishga muvofiq bo‘lgan edi. Olim Xorazm tarjima maktabining iste’dodli vakili Ogahiy tarjimasini hozirgi zamon o‘zbek adabiy tiliga tabdil qilibgina emas, kattagina so‘z boshi, tarixiy va filologik shaxs, hamda izohli lug‘at bilan o‘quvchilarga taqdim qildi.

Kezi kelganda olimning Xorazm shoirlari ijodini o‘rganish, asarlarini nashr qilishdek xayrli ishga deyarli qirq yillik baxshida umri, zahmati, xizmatlari oldida har bir xorazmlik qaysidir ma’noda qarador ekanligini e’tirof etmoq, muborak ruhlarini ulug‘lamoq vojibdur.

Afsuski, u kishiga davr taqazosi tufayli asarning to‘ldirilgan nashrini ko‘rish nasib etmadi. Bu ishni Ulug‘bek Dolimov 1992 yilda amalga oshirdi.

Darhaqiqat, “Qobusnoma” ning ilk tabdili haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Uning barcha muvafaqiyatlarini e’tirof etgan holda, birinchi ko‘zga tashlanadigan narsa nashrga ayrim boblarning umuman kiritilmaganligi, ba’zilarining esa kata qisqartirishga uchraganligidir. Bu albatta, kitobning qimmatini ancha tushurib yuborgan E. Bertels tomonidan amalga oshirilgan tarjimada esa, bu holat kuzatilmaydi. Agar aybni faqat davrga bog‘laydigan bo‘lsak, rus olimi shaxsga sig‘inish ayni avj olgan bir davrda bu ishni uddalagan edi-ku. Ehtimol, rus sharqshunoslari uchun ayrim imtiyozlar mavjud bo‘lgandir, ehtimol, o‘zbek adabiyotshunoslari adabiy merosga munosabatda hukmron mafkura qilishlarini yorib chiqa olmagandir. Balkim, bu borada olimlarimizda shaxsiy jasorat yetishmagandir. Har holda o‘zbek adabiyotshunosligi umumiy darajasi o‘sha davrdagi ahvolda adabiy merosga munosabat masalasida izchil ilmiy xolislik yetishmagani va bu jarayonda S. Dolimovni ajratib baholamaslik zarur ekanligi aniq.

Birinchi nashrdan tushurib qoldirilgan boblar va ularda aks etgan masalalarga diqqat qilaylik:

Birinchi bob: “Parvardigori olamni tanimoq zikrida”

Ikkinchi bob: “Payg‘ambarlarning hilqati zikrida”

Uchinchi bob: “Haq taoloning shukurguzarligi zikrida”

To‘rtinchi bob: ”Ne’matlarga shukur qilmoq zikrida”

O‘n beshinchi bob: “Naf olmoq zikrida”

Yigirma uchinchi bob: “Asir sotg‘un olmoqning zikrida”, oxirgi qirq to‘rtinchi bob: “Juvonmardlik haqida” deb nomlangan bo‘lib, jiddiy qisqartirilgan.

Agar e’tibor beradigan bo‘lsak, ularda ilohiyot va tasavvuf falsafasi, Sharq tabobati, qul savdosida tafakkur va tajribaga tayanish, shuningdek, juvonmardlik tariqatidan ayrim pand-nasihat jamlanganligini ko‘ramiz. Asar yaratilgan davr uchun shunday boblarning bo‘lishligi tabiiy hol bo‘lsada, ularning barchasi marksizm falsafasi qolipiga sig‘masligi ayon bo‘ldi. Ammo, bu boblardagi materiallarda falsafa va axloqning beqiyos afzalliklarini ta’kidlab ko‘rsatuvchi ilmiy-tarbiyaviy ahamiyatga molik ajoyib dalillar jamlanganligini, qolaversa, Kaykovusning falsafa va bilish

nazariyasi bilan bog‘liq asosiy fikr mulohazalarni qisqartirilgan boblar va tushurib qoldirilgan qismlarda bayon etilganligini unutmaslik zarur.

Kaykovus hamma voqealarni o‘zgarish va harakatda, o‘zaro aloqa va sababiy bog‘lanishda, moddiylik va ma’naviyatni nisbiy mustaqillikda, taalluqdorlikda, ziddiyatlarni harakat va rivojlanishning muhim tomoni sifatida olib qaraydi. U foydalangan falsafiy tushunchalar qatorida harakat, tasodif, ziddiyat, sababiyat, mazmun, shakl, mumkinlik, nomumkinlik, mavjudlik va nomavjudlik, tajriba, bilish, sezgi a’zolari, til, tafakkur singarilarni uchratamiz.

Kaykovus samimiy nasihatlarida xalqparvar, adolatparvar, insonparvar mutafakkir sifatida gavdalanadi, xalq nuqtai nazarini e’tirof etib, u bilan hisoblashadi, ko‘pincha uni asosiy mezon sanaydi. Uning ba’zi da’vat va hikmatlariga diqqat qilaylik.

“Ammo xalqning do‘stligiga ko‘nglingni rost tutgil, toke hamma ishlaring to‘g‘ri bo‘lgay”. “Xaloyiqni yaxshi va yomon xususiyatlarini ko‘zdan kechir… va qaysi narsa xalq manfatiga yaqin turishini o‘rgan”, “Mol- dunyoga ta’ma qilgan johillarning, zolimlarning qo‘liga xalqni topshirmagin”. “Sipohiyni qanday tarbiya qilsang, xalqqa ham shunday qarab turgil, toke mamlakat obod bo‘lg‘ay”, “Xalqning gunohi uchun achchig‘ing chiqmqsin, har qanday yaramas so‘zni esingda saqlqmag‘il”. “Agar xalq sening haqingda yaxshi so‘z aytarin tilasang, xalq haqida yaxshi so‘z aytgil”. “Agar ziyraklardan bo‘lmoq tilasang, yuzingni xalqning ko‘zgusida ko‘rgil”.

So‘zimiz quruq bo‘lmasligi uchun murojot qilingan bu dav’at va hikmatlarimiz umuminsoniy mazmunga ega bo‘lib, adolatparvar, xalqparvar jamiyatning musaffoligiga xizmat qiladi.

Muallifning fikricha rohat, ilm, ulug‘lik, salomatlik va boylikning asosiy sharti mehnatdir. Ya’ni: “To kichiklikda mehnat qilmaguncha, ulug‘lik rohatiga eta olmagungdir”, “chunki rohat mehnat qilishdadir, bugunning rohati kechagi mehnating natijalaridir”, yoki “Agar yerni ishlamasang, yer ham sening mulking bo‘lsa ham, hech qanday foydasi bo‘lmaydi, balki zarardir”.

“Qobusnoma” asarida tarbiya, ahloq masalalari ham asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Muallif yoshlarni ota-onani hurmat qilishga, ularni ranjitmaslikka, ota-onalarni esa, farzandlariga yaxshi va to‘g‘ri tarbiya berib, aqlli, o‘qimishli, dono avlodni tarbiyalashga undaydi. U tarbiyada mehr-muruvvat, aql, muruvvat, insonparvarliknig rolini yuksak sanaydi. Odamlarga yaxshilik qilmoq, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat qilmoqning avlodlar uchun namuna bo‘lmagini uqtiradi. Iqtisodiy boylikdan ma’naviy boylikni ustun sanaydi. Yoshlarni ilm va hunar egallashga chaqiradi. Uning fikricha, ulug‘likka aql va bilim bilan erishiladi. Bu bilan shaxsning takomilida faoliyat va qobilyatning rolini belgilab beradi. Muallif mehnat orqali nafaqat badanni balki, ruhni sog‘lomlashtirish mumkin deb hisoblar ekan, mag‘rurlik va takabburlikni qoralaydi. U xulq-odat masalalarini ma’lum ma’noda genetik hodisa sifatida tushunadi.

Kaykovusning fikricha, yaxshi fazilatlarga erishmoq va xulq-atvor tarbiyasida faqat istakning o‘zigina yetarli emas. Buning uchun shaxs o‘zining sustkashlik, faxmsizlik, hovliqmqlik singari salbiy xislatlarni yenga bilish va komillikka intilishi kerak.

Ko‘rinadiki, u insonning moddiy va ruhiy hayotini zohiriy va botiniy olam o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bilan chambarchas bog‘liqlikda tushunadi. Inson jismidagi eng qadrli narsalar sirasiga uning eng yaxshi fazilatlari, juvonmartlik, kamolat, oliyjanoblikni kiritadi. Uning “Tan jon bilan, jon nafas bilan, nafas aql bilan tirikdir”

degan xulosasi fikrimizni dalillaydi. Insonni tabiatdan ajratgan holda tasavvur qilmasligi, tabiatning bir bo‘lagi deb qarashini ko‘rsatadi. Insonda shuur qilish qobilyati mavjudligi bois ham u o‘z asarida insonga ulkan ahamiyat beradi, qobiliyat va iste’dodini ulug‘laydi. Tabiiy aqlni muntasib, ya’ni, mehnat bilan topilgan aql bilan birlashtirish lozim deb hisoblaydi. Boshqacharoq aytganda, talent tarbiyasi mehnat orqali takomillashadi degan fikrni ilgari suradi.

Shubhasiz, inson aqliy taraqqiyoti masalasi ta’lim-tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarbiya esa, bir jihatdan hayotiy ta’sir orqali ro‘yobga chiqadi. Tarbiyali kishilar bugungi va ertangi kunimizga zamonamizga ko‘p manfaatlar yetkazadilar. Asarda muallifning hafosat, go‘zallik, san’at va uning rivojlanishi hamda estetik tarbiyaga bog‘liq qator muhim fikr- mulohazalari ham bayon etilgan. “Shoirlik haqida” deb atalgan o‘ttiz beshinchi va “Hofiz va sozandalar haqida”gi o‘ttiz oltinchi boblar faqat estalikka va badiiyat masalalarini yoritishga bag‘ishlagan bo‘lsa-da kitobning barcha boblarida ham shu yo’nalishdagi fikrlarning sochilib yotganligi kuzatiladi.

Kaykovos qalamga olgan estetik kategoriyalar sirasiga go‘zallik va nafislik, fikr va tan nafosati, turmush va so‘z va estetikasi, kulgu va hajv, ijod va taqdid, badiiy mahorat va san’at, me’yor va estetik did singarilar kiradi.

U adabiyot va san’atning quyidagi tur va janrlari: adabiyot (nasr, nazm, marsiya, g‘azal, bag‘ishlov-madhiya), muzika, qo‘shiq, husni xat, notiqlik, ijrochilik san’atlari xususida qimmatli fikrlar bildiradi.

Badiy mahorat va usullarga to‘xtalar ekan, so‘z va mubolag‘a, ramz va badiiy dalillash, vazn va tinglovchi bilan yakdillik singari masalalarga murojat qiladi. Shuningdek, hunar va mehnatdagi nafosatga, ahloq va muhabbat estetikasiga alohida e’tibor beradi. Tinglovchining tabiati, didi, estetik ehtiyoji, auditoriyaning kayfiyatini ijroda albatta inobatga olish lozim deb hisoblaydi. Bu fikrlar yozuvchi va kitobxon masalasiga ham bevosita daxldordir. Kaykovus estetikasida xalq, tinglovchi, badiiy asar qimmatini, san’atkorning ijrochilik mahoratini belgilovchi asosiy omildir. Asarda xulqiy, axloqiy go‘zallik ham batafsil, izchil, atroflicha bayon qilinadi.

Kaykovus axloqiy majmuidagi tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi: odamparvarlik, yaxshilik va oliyjanoblik, mehnatsevarlik va marifatparvarlik, hurmat va muruvat, sahovat va mehribonlik, samimiyat va sidqidillik, umid va andisha, sabr va qanoat, mehmondo‘stlik va kamtarinlik, xushmuomalalik va ochiqyuzlilik, halollik va juvonmardlik (va’daga vafo qilish, haqiqatparvarlik, ezgulik va qanoat)

Uning axloqiy ta’limotida quyidagi salbiy axloqiy hodisalar qoralanadi: maqtanchoqlik va kibrlanish, nodonlik va qo‘pollik, beparvolik va behayolik, yolg‘onchilik va berahmlik, ta’magirlik va baxillik, poraxo‘rlik va ig‘vogarlik, xasadgo‘ylik va ochko‘zlik, munofiqlik va xiyonat kabi illatlar shular jumlasidandir.

Ko‘rinadiki, u o‘sha davrdayoq ilg‘or, xalqpqrvar axloqiy qoidalar uchun kurashgan. Uning ta’lim-tarbiya va pedagogikaga doir qarashlari axloq va axloqiy tarbiya bilan uzviy birikib ketadi. Ko‘z o‘ngimizdan muallifning mehribon murabbiy sifatidagi qiyofasini gavdalantiradi.

Biroq bildirilgan xulosalardan “Qobusnoma” ning nafaqat pedagogika fani, balki adabiyot, tarix, san’atshunoslik va boshqa bir qancha sohalar uchun ham muhum manbaa ekanligi anglashiladi. Unda ilgari surilgan fikrlar falsafa va ijtimoiyot, estetika va etika fanlari uchun ham nihoyatda qadrlidir. Shuni nazarda tutib, “bu kitob- deb yozgan edi E. Bertels, - bizni turmushni shunday hodisalari bilan oshno qiladiki, biz

ularni tarixchilarning asarlaridan bexuda izlab qolishimiz mumkin bo‘lur edi”.

Sevimli shoirimiz, ulug‘ donishmand va mutafakkir Ogahiy S. Dolimov ta’biri bilan aytsak, “Alisher Navoiydan so‘ng ijodiy mahsulotda birinchi o‘rinda”(3) turadi. U o‘z amakisi “buradorzoda va dastparvardan Munis mirzo” (4) (Ogahiy)dan har jihatdan ta’lim olgan. Munis ta’lim-tarbiya masalasiga diqqat qaratib “Savoda ta’lim” kitobini yaratgan bo‘lsa, Ogahiy nafaqat she’riyatda, balki tarjimalarda ham ta’lim-tarbiya masalalariga alohida diqqat qaratgan degan xulosaga kelish mumkin.

Zero, Ogahiy yuqorida tanishganimiz ta’limiy-didaktik asar tarjimasiga tasodifan kirishgan emas. Garchand Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon mazkur “Nasihatnoma”ning turkiy tilgaing tarjima qilinib, turkiy ulusning undan bahra olishni orzu qilib, bu ishni Ogahiyga topshirgan bo‘lsada, shoh majlisning bir burchagida kamtarona o‘tirib, tavoze’ bilan tarjimaga rozilik bildirgan shoir nafaqat Muhammad Rahimxon nomini, balki o‘z qalb so‘zlarini ham “olam inqirozigacha zamon varoqi (sahifalari)da boqiy yodgor qoldira” (5) olishga ishongan, ruhan tayyor bo‘lgan. Agar Ogahiyning ma’naviy-ruhiy tayyorgalligi yetarli bo‘lmaganida edi, mazkur mushkul ish aynan uning zimmasiga yuklatilmas ham edi. Demak, Kaykovus haqida bildirilgan fikrlarimiz to‘la ma’noda Ogahiyga ham daxldordir.

Ogahiy va E.Bertels tarjimalarini qiyoslar ekan, S.Dolimov “Ogahiy tarjimasi asl nusxaga yaqin turadi, uslubi mustahkam, ishlatilgan istilohlari original, ayni zamonda tarjima xalq tiliga yaqin turadi” (6)- degan xulosaga kelgan. Lekin, muhtaram o‘quvchi XIX asr adabiy tilining hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilidan katta farq qilishini unutmasligi lozim.

Demak, “Qobusnoma” ning bugun biz o‘qiyotgan krill imlosidagi barcha nusxalarida ayrim o‘rinlardagina XIX asr uslubi saqlanib, hozirgi zamon uslubiga moslashtirilgani, ba’zan qavs ichida so‘z va jumlalar kiritilganligini e‘tiborga olish kerak. Muhimi, bugun kitobxonning qo‘lida Ogahiyning 1902-1903, 1911-1912 yillarda kotiblar tomonidan ko‘chirilgan tarjimasi nusxalariga asoslangan, shuningdek, ruscha ikkinchi tarjimasi va Tehron nashrlari asosida yondashilgan Kaykovusning “Qobusnoma” asari mavjud.

Xulosa qilib, aytish mumkinki, bashariyat ma’naviy xazinasining qimmatli ijodiy boyliklaridan biri bo‘lgan Kaykovusning bu asari xalqimiz uchun buyuk ahamiyatga ega bo‘lgan adabiy obidadir. Unda jamlangan donolarning purhikmat pand-nasihatlarini ko‘zlarimizga to‘tiyodek surtsak, ko‘ngil ko‘zlarimiz yanada ravshan tortib, ishlarimizga bisyor manfaat yetishi shubhasizdir. Asar bizni g‘aflat uyqusidan bedor bo‘lib, hayot kechirishga chorlaydi va mangu barhayot Ogahiy bobomizni ham eslatib turadi.

Zotan, Ogahiy O‘rta Osiyo shoirlarininggina emas, qo‘shni xalqlarning ham jahon madaniyatiga qo‘shgan an’analarini, adabiyotlarning eng yaxshi xususiyatlarini davom ettirgan, taraqqiy qildirib boyitgan, qadimiy do‘stlik rishtalarini mustahkamlab, ma’naviy tafakkurimizni rivojlantirgan ulug‘ allomadir.

Adabiyotlar:

1. Kayqovus “Qobusnoma”, “Meros” nashriyoti, Toshkent, 1992.
2. Kayqovus “Qobusnoma” “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1967.
3. Ogahiy. Asarlar VI jildlik, I jild G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1971.

OGAHIY TARIXIY ASARLARIDAGI ERONIY TILLARDAN O‘ZLASHGAN AYRIM BIRLIKLAR TADQIQI

f.f.d. (DSc) k.i.x. Mahmudov R.B.,
O‘TA va FI bo‘limi boshlig‘i

Annotasiya: Ushbu maqolada Ogahiy tarixiy asarlaridagi eroniy tillardan o‘zlashgan ayrim birliklarning komponent tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy asar, komponent tahlil, eroniy o‘zlashma, etimologiya, lug‘at qatlami.

Аннотация: В этой статье был проведен компонентный анализ некоторых единиц, заимствованных из иранских языков в исторических трудах Огахи.

Ключевые слова: исторический труд, компонентный анализ, иранское заимствование, этимология, словарный слой**.**

Abstract: this article carried out a component analysis of certain units borrowed from Iranian languages in the historical works of Ogahi.

Keywords: historical work, component analysis, Iranian assimilation, etymology, vocabulary layer.

Ogahiy tarixiy asarlaridagi o‘zlashmalarning salmoqli bir qismi eroniy tillardan kirib kelgan birliklardir. Ularning tilimizda tutgan o‘rni, salmog‘i, o‘zlashish sabab va omillari xususida adabiyotlarda atroflicha fikrlar bildirilgan. O‘zbek va fors tillarining o‘zaro aloqalari tarixi juda qadimiydir. Ma'lumki, tarixiy-jug‘rofiy sharoitga ko‘ra bu ikki xalq juda qadim zamonlardan bir-biri bilan hamsarhad bo‘lgan hududlarda, ko‘pgina hollarda esa aralash tarzda hayot kechirganlar. Lekin bu aloqalar XV asrdan so‘ng, ya'ni arab tili o‘z nufuzuni yo‘qotgach, intensiv xarakter kasb eta boshladi. Turkiy tilli va eroniy tilli etnoslarning tarixiy aloqasi turli davrlarda “ozlik – ko‘plik”, “hokim – mahkum” taraflarning o‘zaro munosabati asosida formallashgan. G‘olib – mag‘lub ziddiyatida esa natija e'tibori bilan bugun o‘zbek tili tarqalgan butun hududlarda o‘zbek tili ustunlikka erishgan. O‘zbek tilida ko‘pgina xususiyatlarning yuzaga chiqishida etnik aralashuv muayyan rol' o‘ynaganiga shubha yo‘q. Hindushoh Naxchivoniyning “As-sihahu-l-ajamiyya” asari turkiy tillar bilan fors tili orasida bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlovchi ilk manbalardan biri sanaladi. Bu asar turkiy tillilarga fors tilini o‘rgatish maqsadida yozilganini tasdiqlash bilan birga har ikki tilning o‘zaro aloqalari tarixi tadqiqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.[4]

O‘zbek va fors tillarining o‘zaro aloqalari tarixi juda qadimiydir. Ma'lumki, tarixiy-jug‘rofiy sharoitga ko‘ra bu ikki xalq juda qadim zamonlardan bir-biri bilan hamsarhad bo‘lgan hududlarda, ko‘pgina hollarda esa aralash tarzda hayot kechirganlar. Lekin bu aloqalar XV asrdan so‘ng, ya'ni arab tili o‘z nufuzuni yo‘qotgach, intensiv xarakter kasb eta boshladi. Turkiy tilli va eroniy tilli etnoslarning tarixiy aloqasi turli davrlarda “ozlik – ko‘plik”, “hokim – mahkum” taraflarning o‘zaro munosabati asosida formallashgan. G‘olib – mag‘lub ziddiyatida esa natija e'tibori bilan bugun o‘zbek tili tarqalgan butun hududlarda o‘zbek tili ustunlikka erishgan. O‘zbek tilida ko‘pgina

[4] Sadıqova C., ƏləsgərovaT. “Əs-sihahül-əcəmiyyə” nin qrammatika hissəsi Azərbaycan dilçiliyinin tarixini öyrənən ilkin mənbələrdən biri kimi //Orta əsr əlyazmaları və Azərbaycan mədəniyyəti tarixi problemləri. Elmi-nəzəri konfransın materialları. Bakı:1989. –S. 104.

xususiyatlarning yuzaga chiqishida etnik aralashuv muayyan rol' o‘ynaganiga shubha yo‘q. Hindushoh Naxchivoniyning “As-sihahu-l-ajamiyya” asari turkiy tillar bilan fors tili orasida bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlovchi ilk manbalardan biri sanaladi. Bu asar turkiy tillilarga fors tilini o‘rgatish maqsadida yozilganini tasdiqlash bilan birga har ikki tilning o‘zaro aloqalari tarixi tadqiqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek-eroniy til aloqalarini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin: 1) Qadim fors va qadimgi turkiy til aloqalari. 2) O‘rta fors- qadimgi turkiy til aloqalari. 3) Yangi fors va eski turkiy, eski o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek tili aloqalari.

Qayd etish kerakki, o‘zbek tilining lug‘at tarkibidagi qadimgi va o‘rta fors unsurlarini muayyanlashtirish bir necha sababga ko‘ra murakkablik tug‘diradi, chunki adabiy tilimizda qadimgi va o‘rta fors tili elementlari nisbatan kamchilikni tashkil qiladi. Qadim va o‘rta fors tillari elementlari o‘zbek tilining yozuvga ega bo‘lgan davriga qadar o‘zlashgan bo‘lib, tilimiz yozuviga ega bo‘lgan ilk davrdanoq kirib kelgan o‘zlashmalar yangi fors tiliga “tegishli”dir.

O‘zbek tilida fors so‘zlari egallagan tushunchalarning muayyan qismi yangi fors so‘zlari bilan barobar saqlanib kelmoqda. Istalgan til lug‘at tarkibini chuqur o‘rganish uchun badiiy so‘z san'atkorlarining bu tilda yozgan asarlarining tizimli tadqiqi zarur. Har bir til tarixiy leksikasi tadqiqida badiiy asarlar g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek-fors o‘zaro til aloqalari masalasida tilimizning muhtasham obidasi bo‘lgan Ogahiy tarixiy asarlarining o‘rni o‘zgacha.

Qayd etish lozimki, o‘zbek tili taraqqiyotining barcha bosqichlarida tilimizga kirib kelgan yangi so‘zlar ularnnig turli jihatdan tadqiq qilinishi zaruratini yuzaga chiqaradi. Jumladan, fors tili va o‘zbek tili o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning o‘rganilishi har ikki tilning bir-biriga ta'sir kuchini aniqlash tomonlama ham katta ahamiyatga molik.

Ogahiy tarixiy asarlari misolida fors tilidan o‘zlashgan so‘zlarni tahlilga tortishdan maqsadimiz ob'ektda ishlatilgan bu tip olinmalarni muayyanlashtirish va unlarning leksik-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratishdir. Shu bilan birga 1) Ogahiy tarixiy asarlarida qo‘llanilgan forsiy o‘zlashmalarning asosiy leksik xususiyatlarini oydinlashdirish, ularning o‘xshash va farqli jahatlarini belgilash; 2) fors tili materiallari asosida tillararo aloqalarning yuzaga kelish sharoiti va sabablarini, bu aloqalarning faoliyat mexanizmini o‘rganish; 3) turkiy va eroniy tillar aloqalari tarixiga e'tibor qaratib, bu tillarning leksik doirada o‘zaro ta'sir xususiyatlarini tahlil qilish; 4) Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan forsiy o‘zlashmalarni o‘zbek tilining ayrim lahja va shevalarida qo‘llanishiga diqqat qaratish; 5) Ogahiy tarixiy asarlaridagi forsiy olinma so‘zlarni tarixiy jihatdan tasniflash; 6) bunday so‘zlarning asarlar tilida yuz bergan semantik jarayonlari, sinonimlik, omonimlik, antonimlik va ko‘pma'noliligini tadqiq qilish; 7) asarlar lug‘at tarkibidan joy olgan so‘zlarni leksik-semantik guruhlarini tasnif etish masalalarini nazardan soqit qilmaslik talab qilinadi.

Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan forsiy o‘zlashmalar o‘zbek tili qonuniyatlariga bo‘ysungan. O‘zlashmalarning muayyan manbada ishlatilishi, asosan, individual-uslubiy ahamiyat kasb etsa ham, mazkur so‘zlarning turli ma'no qirralari kashf etilishi, jilolanishi vositasida muallifning ijodiy salohiyati mahsuli sifatida o‘zlashmalar asosida yasalgan leksik birliklar o‘zbek adabiy tilining boyishida muhim o‘ringa ega bo‘lgan. Ob'ekt materiallari asosida forsiy o‘zlashmalar leksik xususiyatlarini, ularning qanday ma'no o‘zgarishlariga uchraganini oydinlashtirga imkon beradi. Masalaga o‘z davri nuktai nazaridan yondashsak, asar tilida mavjud arab

va fors so‘zlarining miqdori XIX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek tilida yaratilgan badiiy va tarixiy-adabiy asarlar tili uchun u qadar ham ko‘p ko‘rinmaydi. Bundan tashqari, Ogahiy tarixiy asarlarida juda ko‘p miqdorda arabcha+forscha, forscha+turkiy, forcha+arabcha tarkibli so‘zlar ishlatilgan yoki ijod qilingan. Butun eski o‘zbek adabiy tilida bo‘lgani kabi Ogahiy tarixiy asarlaridagi fors va arabiy o‘zlashmalar asosan poetik leksika hisobiga ortgan. Bu holat hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham mavjud ekanini yurak leksemasi ma'nodoshlari misolida ko‘rishimiz mumkin:

Yurak یورک –

Ochib o‘tlig‘ og‘izni zanburaklar,
Ki kuffor ahlig‘a yorg‘ay yuraklar. (RD, 273a)

“*...qum hirqati va samum ehtizozi g‘alabotidin kuygan yuraklari atshoni taskinig‘a vafo qilmay,..”* (RD, 312b)

Dil دل –

*Azm etib **dil** qo‘ri bila har xayl,*
Yuz tutub shia sori, uylaki, sayl. (RD, 260a)

Qilib Yangiariqni shoh manzil,
*Badan mulkin nechukkim, xusravi **dil**. (RD, 266a)*

Qalb قلب –

“....samimi *qalb* bila ihtizozg‘a kirguzub,..” (FI, 721)
“huzuri *qalbi* xulusniyat bila” (ShI, 151a)

Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan forsiy o‘zlashmalar tarixiy taraqqiyot asnosida qator o‘zgarishlarga uchrashida bir necha jihatni qayd etish lozim bo‘ladi. Solnomalarda forsiy o‘zlashmalarni asliyatga nisbatan talaffuzi jihatidan uch guruhga ajratish mumkin:

a) o‘zbek tilida o‘qilishi va talaffuziga ko‘ra farqlanmaydigan so‘zlar: dard درد, *barobar* برابر , *baxt* بخت, *bog‘bon* باغبان kabi.

b) Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan va o‘z shaklini saqlagan bir guruh so‘zlar tarkibidagi unlilar tilimiz tabiatiga uyg‘unlashsa-da, unlilar sifati fors tilidagi kabi bo‘lmaydi. Bu so‘zlarda urg‘u ham o‘z o‘rnini o‘zgartirib, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga o‘tadi. Masalan, *ogoh* آگاه, *obod* آباد, *ozor* آزار, *ovoz* آواز, *oshno* آشنا va hokazo. Fors tilida unlilari talaffuz maxraji va sifatidan tashqari chuziqlik miqdori katta ahamiyata ega. Fors tilida mavjud a, i, u cho‘ziq unlilari o‘zbek tili fonetik tarkibida yo‘q.

v) Uchinchi guruhni o‘z fonetik qiyofasini o‘zgartirgan forsiy o‘zlashmalar tashkil etadi. Bu kabi so‘zlar o‘zbek tilining ichki qonuniyatlari asosida fonetik qoidalarga bo‘ysunadi. Ular o‘zbek tilining fonetikasiga ohang, assimilyasiya, dissimilyasiya va boshqa o‘zgarishlarga uchraydi. Masalan; osimon – osmon, go‘noh – gunoh va shu kabilar.

Ogahiy tarixiy asarlari leksikasi uslubiy jihatdan o‘ziga xos ahamiyatga ega. Muarrix leksik, frazeologik materiallarning nominativ ma'nosidan juda ko‘p uslubiy vositalar orqali foydalangan. Asarda har bir lug‘aviy birlikning leksik-semantik ma'nosi, uslubiy-estetik vazifasi muayyan mikromatnda, tarixiy-badiiy vaziyat bilan bilan aloqador muayyan ohang, muayyan kayfiyat yuzaga keltiradi. Shunga ko‘ra ham Ogahiy tarixiy asarlari tili o‘ziga xos obrazlilig‘i, emosional-ekspressiv kayfiyati, badiiy tasvir va ifoda vositalarining boyligi bilan ajralib turadi.

Qayd etish lozimki, Ogahiy har uch til, ya'ni arab, fors, o‘zbek tilining sinonim so‘zlaridan foydalanib mutarodiflar tizimini shakllantirgan. Ushbu mumtoz filologiyaga oid istiloh o‘zbek tilshunosligida ommalashmagani uchun unga berilgan ayrim izohlarni qayd etish o‘rinlidir. Masalan, G‘iyosiddin Rampuriy yozadi: “Birovning ortiga mingashuvchi odam. Ma'noda bir-biriga sherik bo‘lgan ikki-uchta so‘z. Masalan, har ikkalasi ham dil ma'nosini anglatuvchi fuod va qalb so‘zlari kabi”[5] . Agar ma'nodosh, ya'ni ma'no munosabati bilan bir tushunchaning turli qirralari ifodasi bo‘lgan so‘zlarni mutarodif uyalarga birlashtirsak, Ogahiy tarixiy asarlari leksikasi asosida ularni uzvlar (har bitta so‘z bir uzv) miqdoriga ko‘ra quyidagicha tasnif qilinishi mumkin:

1. Ikki uzvdan iborat bo‘lgan kichik komponentli mutarodif uyalar: poyband پایبند – pobast پابست .

2. Uchdan ortiq komponentdan iborat bo‘lgan mutarodif uyalar: modar مادر – ona آنا, volida والده (uch komponentli); xarob خراب, vayron ویران, barbod برباد, buzuq بوزوق ; xoma خامه, midad مداد, kilk کلک, qalamقلم (to‘rt komponentli); ganj گنج, ganjina گنجینه, xazina خزینه (ko‘pligi xazoin // xazoyin خزائن), dafina دفینه, maxzanمخزن (besh komponentli); lolazor لاله زار, gulzor گلزار, sabzazor – سبزه زار, chaman چمن, gulshan گلشن, guliston گلستان (olti komponentli) va hokazolar. Bundan tashqari Ogahiy tarixiy asarlarida yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n va undan ortiq komponentdan iborat bo‘lgan mutarodif uyalar mavjud. Masalan, mahbub محبوب, yor یار , nigor نگار, jonon جانان, dilrabo دلربا, dilbar دلبر, dildor دلدار, dilsiton دلستان, habib حبیب; hamnishinهمنشین , hamnafas همنفس, hamsuhbat همصحبت, hamdard همدرد, hamroh همراه, hamroz همراز, damsoz دمساز, hamdam همدم, nadim ندیم, ashob اصحاب, munis مونس mutarodiflar uyasi to‘qqiz va o‘n bir komponentdan iborat.

Ogahiy tarixiy asarlaridagi mutarodiflar tahlili ularning aksariyati uchdan to‘qqizga qadar komponenti bo‘lgan “o‘rta hajmli” uyalar ekanini ko‘rsatadi. Mutarodif uyalar ism, fe'l hamda yordamchi so‘zlar doirasida ham uchraydi.

Genetik mansublik jihatidan mutarodif uyalarni quyidagi tarzda guruhlashtirish mumkin:

1. Faqat forsiy so‘zlaridan iborat bo‘lgan mutarodif uyalar. Masalan, pobast پابست, poband // poyiband پایبند, giriftor گرفتار – oyog‘i bog‘liq.

2. Forsiy va turkiy so‘zlaridan iborat mutarodif uyalar. Masalan, shabشب – kecha, tun; sarسر bosh.

3. Forsiy va arabcha so‘zlardan iborat mutarodif uyalar. Masalan, kabutar کبوتر – hamom حمام // hammoma حمامه.

4. Fors, arab va turkiy so‘zlardan iborat mutarodif uyalar. Masalan, joma جامه, libos لباس, raxt رخت, kisvat کسوت , kiyim کییم kabi.

Shu tarzda mutarodif uyalarni qaysi so‘z turkumiga mansubligiga ko‘ra ismlardan iborat bo‘lgan, sifatlardan iborat bo‘lgan; sonlardan iborat bo‘lgan, ravishlardan iborat bo‘lgan; fe'llardan iborat shaklida tasniflash mumkin. Ta'kidlash lozimki, biz fe'llar o‘rtasidagi antonimlik, sinonimlik, omonimlikni tahlil qilishda faqat masdarlarni e'tiborga olishimiz mumkin, xolos. Chunki o‘zbek tiliga bevosita fe'l o‘zlashishi kuzatilmaydi. Bu esa tilimizning tabiiy “himoya qobiqlari”dan biri ekanini ta'kidlashimiz va qadrlashimiz kerak. Masalan, fikrla-, hurmatla-, og‘oz ayla-, ibtido

[5] غیاث اللغات. تألیف غیاث الدین محمد بن جلال الدین بن شرف الدین رامپوری. جلد نخست. الف س. با حواشی و اضافات بکوشش محمد دبیر سیاقی. تهران، چاپ گیلان. ص. ۳۰۹

ayla- kabi qanchadan-qancha fe'llar tarkibi o‘zlashmalarga asoslangan bo‘lishiga qaramay o‘z qatlam so‘zlaridir. Eng ko‘p mutarodif uyalar ism doirasida uchrashi shubha tug‘dirmaydi.

Ogahiy tarixiy asarlarida uchraydigan mutarodif uyalarni ma'no ayniyati va yaqinlig‘i mezoniga ko‘ra mutlaq va nisbiy (matniy) mutarodif (sinonim)larga ajratish maqsadga muvofiqdir. Ogahiy tarixiy asarlari mohiyatan adabiy-tarixiy xarakterda bo‘lgani bois ularda takrorning oldini olish, uslubiy go‘zallik yaratish istagi mutlaq sinonimlar bilan birga nisbiy sinonimlardan ham foydalanishni taqazo qiladi.

Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan nisbiy sinonimlarning katta qismi ism hamda sifatlardan iborat ekanligi ko‘zga tashlanadi.

1. Ismlardan iborat bo‘lgan nisbiy sinonim, ya'ni matniy mutarodiflar. Masalan, nihol, daraxt, shajara, og‘och sinonimik qatorida nihol ayrim semalari bilan ushbu mutarodiflar uyasiga daxldor bo‘la olmasa ham, matndagi o‘rni bilan o‘zida o‘sha nazarda tutilgan yetishmay turgan semani hosil qiladi va matniy mutarodiflik kasb etadi.

2. Sifatlardan iborat nisbiy sinonimlar. Masalan, hazin, zar, afgor, nolon, giryon mutarodiflar uyasida giryon so‘zida yuqoridagilarda mavjud qaysidir sema yo‘qligi bois ushbu uyaga to‘la daxldorlik qila olmaydi. Lekin Ogahiy tarixiy asarlaridagi biror matnda o‘sha “qaysidir sema” yuzaga chiqadi va mazkur so‘z qayg‘uli odam mutarodiflar uyasiga muvaqqat mansublikka ega bo‘ladi.

Shu bilan birga Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan o‘zlashmalar nafaqat eski o‘zbek tilida mavjud umumiy ma'nolarda, ayrim hollarda yangi semantik o‘ziga xosliklar kasb etgan. Asarda ishlatilgan sinonim so‘zlarning ba'zilari irfoniy ma'nolar ham kasb etgan. Bunga ko‘ra Ogahiy tarixiy asarlaridagi o‘zlashmalarni bir qadar chuqur tahlil qilish zarur bo‘ladi.

Ogahiy tarixiy asarlaridagi forsiy o‘zlashmalar doirasidagi antonimlarni ham nutqiy hususiyatlariga ko‘ra mutlaq va nisbiy (matniy) tarzda ikki guruhga ajratgan holda tasniflash maqsadga muvofiqdir. So‘zni bu borada boshlaganimiz boisi quyida keltirilgan misollar sirasida ayrim so‘zlar aynan matniy antonimlardir. Mumtoz filologiyamizda qo‘llanilgan mutazoddمتضاد istilohi esa biz nazarda tutgan antonimlarning har ikka tipini ham qamrab oladi. Shuning uchun ularni mutazodlar uyasi deb nomlash to‘g‘ri bo‘ladi, nazarimizda. Mana shuni e'tiborga olib ularni quyidagi ichki guruhlarga ajratish o‘rinlidir:

1. Ismlar doirasidagi mutazodlar: bahor بهار ≠ (ishimizda bundan keyingi o‘rinlarda zidlik belgisi) xazon خزان; podshoh پادشاه ≠ gadoگدا va shu kabilar. Antonim va mutazodd tushunchalari aynan bir narsa emasligini shoh va darvish tushunchalari misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun ham, “Tasavvuf adabiyotida azaldan shoh va darvesh obrazi bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan. Buning sababi: shoh – dunyo timsoli bo‘lsa, darvesh – Ilohning mazhari. Shoh o‘zining toju taxtiga, molu dunyosiga xursand bo‘lib, Haqni unutgan. Voqean, dunyo va nafs – Allohni bilish, anglash yo‘lida parda, to‘siq. Darvesh esa, aksincha, Xudo ishqida dunyoni tark etgan, nafs xarxashalaridan qutulgan. Shuning uchun ham, darvesh Haq yo‘lida turgani, Allohga yaqinligi, qalbi ilohiy ishqqa limmo-lim ekanligi bilan amal va martaba quli bo‘lgan, dunyo va nafs chirmovuqlari bilan o‘ralgan, ilohiy va ma'rifat nuridan mahrum shohdan ustun va afzal. Uni bu dunyoning hoyu havaslari, o‘tkinchi boyliklari qiziqtirmaydi. U xazina to‘plash dardida emas, balki Haq dardi bilan yashaydi. U doimo yodida, qalbida Allohni zikr etib turadi” .

2. Sifatlar doirasidagi mutazodlar: daroz دراز ≠ ko‘tohکوتاه ; dushvorدشوار ≠ oson آسان ; sa'b صعب – sahl سهل.

3. Ravishlar doirasidagi mutazodlar: durدور ≠ yaqin یقین; darunدرون ≠ birun بیرون.

Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan mutazodd uyalarni ma'no mavzuiy guruhlarga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Inson tabiati, axloqi, qobiliyati bilan aloqador bo‘lgan mutazodd uyalar: devona دیوانه ≠ xiradmand خردمند ; oshno آشنا ≠ begonaبیگانه .

2. Insonning tashqi ko‘rinishi, fizik holatlarini aks ettiruvchi mutazodd uyalar: pirپیر ≠ javon جوان ;

3. Tabiat bilan bog‘liq mutazodd uyalar: ob آب ≠ otash آتش; bahor بهار ≠ xazon خزان.

4. Fitonimlar asosidagi mutazodd uyalar: gulگل ≠ xor خار.

5. Zoonimlar asosidagi mutazodd uyalar: gurg گرگ ≠ qo‘y قوی; bulbul بلبل ≠ zog‘ زاغ .

5. Somatik tushunchalar doirasidagi mutazodd uyalar: sarسر ≠ po پا.

Bundan tashqari Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan mutazodd uyalarni genetik asoslariga ko‘ra 1) har ikki qutbi ham fors tiliga mansub bo‘lgan mutazodd uyalar; 2) bir qutbi fors, ikkinchi turkiy sanalgan mutazodd uyalar; 3) biri forsiy, boshqasi arabiy mutazodd uyalar kabi bir necha guruhga ajratish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta'kidlash kerakki, Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan mutazodd uyalar shunchaki lisoniy tasnif materiallarigina bo‘lib qolmay, solnomalarda bayon qilingan davr jamiyati ijtimoiy hayoti aksi, inson ruhiyatidagi ziddiyatlar in'ikosi, bani basharning borliqni o‘zaro qarama-qarshilik orqali idrok etish qobiliyati ifodasidir.

Adabiyotlar:

1. Sadıqova C., ƏləsgərovaT. “Əs-sihahül-əcəmiyyə” nin qrammatika hissəsi Azərbaycan dilçiliyinin tarixini öyrənən ilkin mənbələrdən biri kimi //Orta əsr əlyazmaları və Azərbaycan mədəniyyəti tarixi problemləri. Elmi-nəzəri konfransın materialları. Bakı:1989. –S. 104.
2. Abdurahmonov G‘. Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. Toshkent: Fan, 1984. – B. 77.
3. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent, 1985. – B.103-115.
4. Do‘simov Z. Xorazm toponimari. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 17-19.
5. Pardaeva I.M. Alisher Navoiy tarixiy asarlari badiiyati. Filol. fanlari bo‘yicha fal. d-ri diss...avtoref... – Samarqand, 2018. – B. 17.
6. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987. – B. 66. Persidsko-russkiy slovar'. Tom II. – M.: Russkiy yazik, 1983. – S. 197.
7. Usmonov S. O‘zbek tilining lug‘at sostavida tojikcha-forscha va arabcha so‘zlar // Navoiyga armug‘on. – Toshkent: Fan, 1968. – B.109.
8. غیاث اللغات. تألیف غیاث الدین محمد بن جلال الدین بن شرف الدین رامپوری. جلد نخست. الف س. با حواشی و اضافات بکوشش محمد دبیر سیاقی. تهران، چاپ گیلان. ص. ۳۰۹

OGAHIY SHE‘RIYATIDA TALMEH SAN‘ATI

f.f.d. Turdieva O.Z., TDSHU dotsenti

Annotasiya. Ushbu maqola Muhammadrizo Ogahiy she'riyatida talmeh she'riy san'atining qo‘llanilishiga bag‘ishlangan. Adib mazkur san'atni qo‘llash orqali matnning mazmun doirasini kengaytiradi, baytdagi fikr, holat, voqeani analogiyalar asosida qiyoslash orqali she'r badiiyatni kuchaytiradi.

***Kalit so‘zlar*:** Ogahiy, talmeh, she'riy san'at, ishora qilinayotgan tarixiy yoki badiiy fakt, analogiyalar.

Аннотация. Эта статья посвящена применению поэтического искусства Талмуда в поэзии Мухаммадризо Огахи. Используя это искусство, писатель расширяет содержание текста, а поэзия укрепляет искусство, сравнивая мысль, ситуацию, событие в стихе на основе аналогий.

Ключевые слова: Огахи, толкование, поэтическое искусство, указываемый исторический или художественный факт, аналогии.

Abstract: This article is devoted to the application of the poetic art of talmeh in the poetry of Muhammadrizo Ogahi. By applying this art, the writer expands the range of content of the text, and by comparing the thought, State, event in the verse based on analogies, the poem enhances artistry.

Keywords: Ogahiy, talmeh, poetic art, historical or artistic fact in reference, analogies.

Adabiyot so‘z san'atidir. Xususan she'riyatda obrazlarni ta'sirchan shaklda ifodalashda badiiy san'atlarning o‘rni beqiyosdir. She'riyatda badiiy tasvir va ifoda vositalarini, she'riy san'atlarni qo‘llash muallifning yetukligini, iste'dodini namoyon qiladi. Mumtoz sharq she'riyatida tashbeh, istiora, talmeh va boshqa she'riy san'atlardan keng foydalanilgan.

Ma'lumki, talmeh mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at bo‘lib, she'rda mashhur tarixiy voqea-hodisa, joy nomi, tarixiy-afsonaviy shaxslar nomini keltirish orqali badiiy fikrni yanada ta'sirchanroq yetkazishni maqsad qiladi. Muhammadrizo Ogahiy ijodini kuzatish davomida shoirning Qur'onda nomlari kelgan payg‘ambarlar nomlari, Sibaveyhi kabi tarixiy, Farhod kabi afsonaviy, Besutun, Bobil, Jayhun kabi tarixiy georafik joy nomlari vositasida talmeh san'atining namunalari yaratganiga guvoh bo‘lish mumkin. Bu shaxslar va geografik nomlar shoir maqsadini ochiqlash vositasi, shuningdek, oz so‘z bilan ko‘p ma'no ifoda qilishga yordam beradi.

Ogahiyning “Ustida” radifli g‘azali shoir iste'dodining badiiyati darajasini ko‘rsatuvchi g‘zallaridandir. Bir qarashda g‘azal ishqiy lirikadek taassurot uyg‘otadi, biroq uning mazmuniga chuqurroq kirilsa, unda axloq, ijtimoiy, siyosiy masalalar ham ko‘tarliganiga guvoh bo‘lish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, g‘azalda ishqiy ohang yetakchilik qiladi. Ushbu g‘azalda talmeh san'atining bir qancha namunalari berilganiga guvoh bo‘lamiz:

Boshimg‘a yog‘g‘on g‘am toshi mingdin biricha bo‘lmag‘ay,
Gardun agar ming Besutun yog‘dursa Farhod ustina.

Baytdagi ma'noni teran anglash uchun, avvalo, o‘quvchining Farhod qissasi voqealaridan, Farhod taqdiridan xabardor bo‘lishi talab etiladi. Shoirning boshiga tushgan g‘am-anduh balosini, shoir ahvoli haqidagi fikr-tasavvurlarini to‘la anglash uchun Farhod holatini yodga olish, qissa ruhini bayt ruhiga ko‘chirish lozim bo‘ladi. Baytda Besutun tog‘i talmehi ham keltirilgan. Bisutun – bu tarix va afsonalar bilan chambarchas bog‘langan Erondagi tog‘dir. Bir tomondan bu tog‘ Doroning g‘alabalari haqida, boshqa tomondan Farhodning afsonaviy sevgisi haqida hikoya qiladi. Ogahiy Farhod va Besutun tog‘i ishtirokidagi talmehni “Ustina” radifli g‘azalida go‘zal mubolag‘ani yuzaga keltirgan. Farhodning g‘ami mening g‘amimning mingdan biricha ham bo‘lmaydi degan mubolag‘a san'atini amalga oshirgan.

Xoki taning barbod o‘lur oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina[6].

Ma'lumki, Qur'oni karimda 25 ta payg‘ambarning hayoti va faolityaiga doir qissalar berilgan. Shunday qissalardan biri Sulaymon alayhissalom qissasidir. Sulaymon podshohlik bilan payg‘ambarlik qo‘shib berilgan payg‘ambarlardan edi. Unga qator fazllar ham berilgandi. O‘sha fazllarning ba'zilari haqida Sod surasida shunday deyilgan:

«Unga shamolni beminnat xizmatkor qilib qo‘ydik, uning amri bilan u iroda qilgan tomonga mayin esaveradi. Yana barcha binokor va g‘avvos shaytonlarni ham. Boshqalarini ham kishanlangan holda to‘plab (bo‘ysundirdik)» (36–38-oyatlar).

Sulaymon payg‘ambarning buyruqlari bilan taxtlari shamol yordamida bir joydan boshqa joyga atrofidagilar bilan ko‘chirib o‘tilardi. Manbalarda kelishicha, shu tarika betinim piyoda yurganda ikki oyda yetib oladigan masofaga Sulaymon alayxissalom bir kunda yetib olar edi. Ogahiy yuqoridagi baytda Sulaymon talmehi orqali dunyoning o‘tkinchiligiga ishora qilmoqda.

Shoirning “Ne tong sansiz halok o‘lsam” deb boshlanuvchi g‘azali ishqiy g‘azal bo‘lib, bu g‘azalda ham yuqoridagi kabi yana bir payg‘ambar Iso alayhissalom talmehi keltiriladi:

G‘amim yo‘qtur agar ishq ichra har kun yuz karat o‘lsam –
Ki, nutqi ruhparvar dilbari Iso nishonimsan.

Bilamizki, Iso payg‘ambarga berilgan qator mo‘'jizalar orasida o‘likni tiriltirish mo‘'jizasi ham bo‘lgan. Shoir Ogahiy yuqoridagi baytda Isoning ushbu mo‘'jizasiga ishora qilmoqda. Ya'ni oshiq – lirik qahramon ma'shuqaning ishqida har kuni yuz karra o‘lsa-da, bu o‘limdan unga hech qanday g‘ami yo‘qligini ta'kidlamoqda. Negaki, ma'shuqada ham Isoga berilgan mo‘'jiza nishonasi mavjud ekan. Shoir ishq ichra yuz karra o‘zlsa ham, yuz karra tirilish imkoni borligini bildirmoqda. Ushbu g‘azalida yana bir bor Sulaymon payg‘ambar nomini keltiradi:

Nazr bir go‘shai chashming bila qilsang manga basdur –
Ki, manman bir gadou san Sulaymoni zamonimsan.

[6] Maqoladagi mazkur bayt va keyingi baytlar G‘ulom Karimov tomonidan nashrga tayyorlangan va Subutoy Dolimov muharrirligi ostida 1971 yil Toshkentda nashrdan chiqqan “Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy” nomli IV jildlik asarlarning I jildidan olindi.

Sulaymonga yerda hokimlik, mol-mulkda kenglik va ilmda baraka berilgani ma'lum. Bu baytda lirik qahramonni bir gado-yu, ma'shuqani Sulaymon zamonasining vakili, ya'ni hukmronlik, bilim va mol-dunyo egasi ekaniga ishora qilmoqda.

Ogahiyning “O‘rtanur” radifli g‘azalida ham talmeh san'atidan mohirona foydalanganiga guvoh bo‘lish mumkin:

Cheksam o‘tlug‘ oh hajring birla gardun o‘t bo‘lub,
Ham kuyor xurshid ham Isoyu Maryam o‘rtanur.

Baytdagi talmeh mohiyatini anglash uchun o‘quvchidan, avvalo, ishora ob'ektini tanib olish, shundan keyingina lirik qahramon ruhiy holatini rivoyatga qiyosan tasavvur etish mumkin. Iyso alayhissalom haqidagi har bir so‘z Bibi Maryamsiz o‘tmaydi. Maryam Iso alayhissalomning onalari. Ibodatxonada voyaga yetgan, pokligi va taqvosi bilan mashhur bo‘lgan bokira qiz Maryam uchun ersiz bola tug‘ish o‘limdan ham dahshatli edi. Maryam Isoni tuqqanlaridan keyin u kishiga turli nopok tuhmatlar bo‘lgan. Ogahiy bu talmehni qo‘llash orqali lirik qahramonning hajr ohining darajasini ko‘rsatmoqda, ya'ni uning hajr jafosidan nafaqat xurshid – quyosh, balki Iso va Maryam ham o‘rtanar ekan. “Ko‘zimga jilvagar ul yor” deb boshlanuvchi g‘azalida ham Ogahiy talmehni qo‘llashda davom etib shunday deydi:

Masih nutqimu o‘lgan tanimg‘a jon bergan,
Va yo labi aro guftorimu ekan oyo.[7]

Bu baytda shoir yana bir bor Iso payg‘ambar nomini tilga oladi, biroq ismi bilan emas, laqablari – “Masih”ni qo‘llaydi va payg‘ambarning o‘liklarni tiriltirish mo‘jizasini eslatmoqda.

Muhammadrizo Ogahiy o‘z g‘azallarida Qur'oniy qissalarda nomlari kelgan payg‘ambarlar nomini talmeh san'ati orqali ko‘p qo‘llaydi. “Kom hosildur mango” deb boshlanuvchi g‘azalda shoir Yusuf jamolining nuri Bobil chohini yoritdi degan ma'noni beradi:

Yo‘qsa maqsad Yusufni ravshan jamoli mehrining,
Partavi birla munavvar chohi bobildir mango.[8]

Shoirning “Ilm yod bo‘lmish ango” g‘azalida esa mashhur arab filologi Sibaveyhi nomi bilan mashhur Abu Bishr ibn Usmon al Basriy nomini keltirgan:

Sarfu nahvu mantiq ichra toki sa'y etti ayon,
Sebvayh ruhi qilur tahsinu ham imdod ango.[9]

Shoir bu misralar bilan g‘azalda madh etilayotgan malak siymoning ilmini vasf etmoqda. Ul malak siymo sarfu-nahv, ya'ni garmmatikada, mantiq ilmida yetuklikka

[7] “Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy”. I jild. T.–1971. 65-b.
[8] Shu asar . 82-b
[9] “Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy”. I jild. T.–1971. 71-b.

yetibdiki, VIII asrda yashab o‘tgan olim Sibaveyhining ruhi unga tahsin o‘qishi bayoni kelmoqda.

“Ishq zavqini yetkur” g‘azalida esa shoir bir necha joy nomlarini talmehda keltiradi:

Ko‘zlarim yoshin ishqing ichra oqizib har yon,
Birini aylabon Jayhun, birini qil Aras, yo rab.[10]

Jayhun – Amudaryoning qadimgi nomlaridan biri, Aras esa Ozarbayjondagi daryo. Ogahiyning yuqoridagi baytida Jayhun va Aras daryolarining suvlari va lirik qahramonning ko‘z yoshlari qiyoslanganini, bu qiyos mubolag‘ali tarzda amalga oshganini kuzatamiz.

Shoirning g‘azallridan tashqari, masnaviylari, murabbalari, ruboiylari, tarji'bandlari, musammanlari va qasidalarida ham talmeh san'atining go‘zal namunalarini uchratishimiz mumkin.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib xulosa qilamizki, talmeh san'ati Muhammadrizo Ogahiy g‘azallarida yetakchi she'riy san'atlardan biri hisoblanadi. Shoir talmeh san'atidan oshiqning holatini ifodalash, mua'shuqaning xislatlarini ta'riflash, muayyan tarixiy hodisa va shaxslarga ishora qilish maqsadida foydalanadi. Shoir g‘azallarida tasvirlanayotgan holat, ifoda etilayotgan fikr bilan tarixiy yoki badiiy faktlar orasida mushtarak nuqtalar mavjud.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy”. I jild. T.–1971.
2. Muhammad Rizo Ogahiy. Komil Avaz. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2009 yil 10-son.
3. Mumtoz adabiyot vakili Ogahiy ijodida ishq mavzusi. Z.Qosimova. Oriental Art and Culture. Scientific-Methodical Journal – (2) 2020.

OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA AYRIM O‘ZLASHMALAR LISONIY TABIATI HAQIDA

f.f.d. O‘rozboyev A.,
UrDU dotsenti

,

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ogahiy tarixiy asarlarida ishlatilgan mavhum tushuncha anglatuvchi o‘zlashma qatlamga mansub bir qator so‘zlar tahlili berilgan. Unda, shuningdek, mavhum tushuncha anglatuvchi o‘zlashmalarga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar qayd etiladi, misollar orqali ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: mavhum tushuncha, o‘zlashma qatlam, tarixiy asar tili, tarixiy leksika, eski o‘zbek tili, etimologiya.

Аннотация. В этой статье дается анализ ряда слов, принадлежащих к пласту ассимиляции, которые представляют собой абстрактное понятие, используемое в

[10] Shu asar. 96-b

исторических трудах огахи. В нем также отмечаются общие черты, присущие ассимиляциям, обозначающим абстрактное понятие, наглядно на примерах.

Ключевые слова: абстрактное понятие, пласт освоения, язык исторического произведения, историческая лексика, староузбекский язык, этимология**.**

Abstract: This article provides an analysis of a number of words belonging to the absorption layer, meaning an abstract concept used in Ogahiy historical works. In it, general characteristics are also noted, which are characteristic of assimilations that imply an abstract concept, shown by examples.

Keywords: abstract concept, mastering layer, language of historical work, historical lexicon, old Uzbek language, etymology.

Ogahiy tarixiy asarlaridagi o‘zlashma so‘zlar etimologiyasi o‘zbek tili tarixiy leksikasining taraqqiyot bosqichlari, o‘zlashmalarning paydo bo‘lishi omillari, ularning o‘z qatlam so‘zlaridan farqlovchi umumiyliklar kabi masalalarni kengroq o‘rganishda ahamiyatli. O‘zbek tilidagi o‘zlashmalarning katta bir qismini mavhum tushuncha ifodalovchi so‘zlar tashkil qiladi. Ularning o‘z qatlamga mansub so‘zlardan farqlovchi umumiyliklardan biri bunday lug‘aviy birliklarda mavhumlik, tushunchani nozik ifodalash quvvati nisbatan kuchligidir.

Yuqorida bayon qilingan fikrlar isbotini *qut* so‘ziga nisbatan *baraka, qayg‘u* so‘ziga nisbatan *hasrat, g‘am, g‘ussa* kabi so‘zlarni solishtirish orqali ko‘rsatib berish mumkin. O‘z qatlam so‘zlarining ayrimlari ham aniq, ham mavhum tushunchalar anglatadi. Masalan, *yurak*. E’tiborlisi, o‘zbek tili fors tilidan *dil* (yurak), arab tilidan *qalb* (yurak) so‘zlarining faqat mavhum tushuncha anglatadigan semalarinigina qabul qilgan. Bu holat so‘zlashuv tili va adabiy jarayon bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan o‘zlashmalarda ayniyat (o‘zi mansub bo‘lgan tildagi ma’noning aynan o‘zi saqlanib qolishi) bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Ana shu kabi nazariy mulohazalarni Ogahiy tarixiy asarlaridagi ayrim o‘zlashmalar misolida ham mushohada qilamiz.

Masalan, *band* بند so‘zi asarda quyidagi ma’nolarda uchraydi:

1. Zanjir, ip. Masalan,

Edi har biri ul sifat zo‘rmand,
Ki solib falak sheri bo‘ynig‘a *band*. (5, 256[b]):

2. To‘g‘on bandi, umuman biror narsaning bandi, yopadaigan qismi:

Otib la’b ila sharq sori kamand,
Qilur erdi g‘arb ahli bo‘g‘zig‘a band. (9, 251).

3. Tutqunlik, asorat. Masalan, ... hazin jonlarin qayg‘u *bandidin* ozod qildi. (5, 259[b])

4. Tutqich, band. *Ayoq bandi* – 1) oyoq kishani; 2) qadah tutqichi. Quyidagi baytda ushubu birikma orqali iyhom yuzaga keltirilgan:

Chekib bosh falak uzra sarvi sihiy,
Gah bo‘lmay *ayoq bandining* ogahi. (9, 124).

Fors tilidagi *band* so‘zining etimologiyasi pahlaviy tilidagi *band* shaklli so‘zga borib taqaladi. Uning fors va eski o‘zbek tillaridagi *bog‘langan; zanjir; makr-hiyla; to‘g‘on bandi; ahd-paymon; g‘am-g‘ussa; tutqunlik* (10) ma’nolari o‘rtasida umumiylik mavjud. Ko‘rinadiki, qayd etilganlaridan oxirgi ikkitasi mavhum tushuncha anglatadi.

Barakat برکت so‘zi – 1) baraka, marhamat, tinch-omonlik; 2) xudoning marhamati, in’omi. (6, 57) O‘zbek tilidagi *muborak, tabrik, tabarruk* kabi so‘zlar ushbu so‘z bilan

oʻzakdoshdir. Arab tilida بَرَكَ *baraka* (masdari بُروك *buruk*) “tuyaning choʻkishi, choʻkka tushishi” ma’nosini anglatishi va qayd etilgan ma’no (xudoning in’omi, marhamati) oʻrtasida badaviylar turmush tarzini, ular hayotida tuya choʻkkalashi anglatadigan mazmunlar (moʻl-koʻlchilik, mehmon tashrifi kabi)ni e’tiborga olsak, aloqadorlik mavjudligi koʻzga tashlanadi. “Baraka”ning toʻgʻri koʻplik shakli *barakot* hozirgi oʻzbek tilida koʻplik shaklda anglanmasa ham, unda ma’no kuchayishi seziladi. Aslida ham mavhum ot tarkibidagi koʻplik grammatik koʻplikni anglatmasligi tayin. Misollar: ... dunyo amvoli *barakati*... (5); *Barakati* adl bila boqiy jahonni dogʻi qabzai tasarrufinggʻa kirguz! (9, 26)

Baxt بخت soʻzi *iqbol, tole’* soʻzlariga sinonim sifatida ishlatilib, hozirgi vaqtda mazkur sinonimik qatorda dominanta hisoblanadi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, *baxt* soʻzi *bag* – “baxshish”, “ato” soʻziga bogʻlanadi va “Avesto”da *baxta* shaklida qoʻllangan va sanskrit tilidagi “in’om”, “ilohiy marhamat” ma’nosidagi *bxakta* soʻzi bilan umumiy manbaga ega (10, 239). Oʻzbek tilidagi *baxtiyor* oʻzlashmasi ham ushbu soʻz asosida boʻlib, avestoviy *baxto-data*, ya’ni “baxt baxshida etgan” soʻziga bogʻlanadi. Ogahiy tarixiy asarlarida qoʻllangan *tiyrebext* تیره بخت soʻzi ham *baxt* asosida yasalib, baxtsiz, omadsiz (tiyra aynan “qorongʻu”, “zulmat” degani) ma’nolarini beradi. Masalan: Ammo ul *tiyrabaxt*ning oftobi davlatining zavoli ... (5); *baxtu iqbol* onga yor va madadkor boʻlub,.. (5). Ogahiy tarixiy asarlarida mazkur komponentli *badbaxt, shoʻrbaxt* kabi qoʻshma soʻzlar, *baxti vojun* (teskari tole) kabi birikalar ham mavjud.

Shuningdek, *iqbol* اقبال soʻzi arabcha قبل *qabala* oʻzagidan IV bob fe’li أَقْبَلَ *aqbala* (*intilmoq, oldinga intilmoq; yaqinlashmoq, qodir boʻlmoq*)ning masdari boʻlib, aynan “oldinga chiqish” mazmuni asosida uning *yutuq, omad, iqbol, muvaffaqiyat, katta yutuq* ma’nolari yuzaga kelgan. (6, 645) *Iqbol* soʻzining *baxt* mazmunini kasb etishini “orqaga ketish” ma’nosidagi *idbor* ادبار soʻzining “omadsizlik”, “baxtsizlik” ma’nolariga oʻtishi bilan ham qiyoslash mumkin. *Idbor* soʻzi shu ma’noda mumtoz adiblarimiz tilida qoʻllanilgan:

El qochsa birovdin, el yamoni bil oni,
Ahvolida idbor nishoni bil oni. (Alisher Navoiy).

Tole’ طالع soʻzi arabcha *tola’a* طلع –“porlab chiqmoq” fe’lining hozirgi zamon sifatdoshidir va aynan “porlab chiquvchi”, “jilva bilan zuhur etuvchi” ma’nolarini beradi. “Porlash” tushunchasining “baxt”, “iqbol”, “omad” tushunchalari bilan bogʻliq jihatlarini oʻzbekcha “porloq kelajak”, “peshonasi yaltiragan” kabi birikma va iboralarda ham koʻrishimiz mumkin. Masalan, ... usrat va kulfat asnosida baxti yor va *tole’i* madadkor boʻlur. (5)

Ana sinonimik qatordagi forsiydan oʻzlashgan *baxshish* بخشيش soʻzi ato, ma’naviy in’om ma’nosida kelgan oʻrinlarda mavhum tushuncha anglatuvchi soʻzlar sirasiga kiradi. Masalan,

Bori koʻnglin olgʻay navozish bila,
Gahi izzat va goh baxshish bila. (9, 38).

Baxsh pahlaviy tilida “taqdir”, “yozgʻut” ma’nolarini anglatgan va avestoviy *bag* – bagʻishlamoq fe’liga aloqadorligi ta’kidlangan. Agar *baxt* soʻzining ham mazkur

avestoviy o‘zak bilan aloqadorligini nazarga olsak, ularning o‘zaro manbaviy va ma’noviy umumiyligi ayon bo‘ladi.

Aysh عيش so‘zi ham arabcha bo‘lib, aslida *hayot, tiriklik, turmush* ma’nosini anglatadi. Uning hozirgi adabiy tilimiz va shevalardagi “behuda huzur-halovat”, “ishrat” ma’nolari keyinchalik yuzaga kelgan. Alisher Navoiy asarlarida ham *aysh* so‘zi “turmush”, “hayot”, “umr” ma’nolarida ishlatilgan. Masalan:

Soqiyo, talx o‘ldi ayshim hajr bedodi bila,
Tut, achig‘ maykim, ichay Mirzo chuchuk yodi bila.

Aslida “turmush”, “hayot kechirish” ma’nolarida bo‘lgan “aysh”ga o‘zakdosh *maishat* so‘zining Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon singari jadid adabiyoti vakillari asarlari tilida ham qayd etilgan lug‘aviy ma’noda ishlatilgani bejiz emas. *Aysh* Ogahiy tarixiy asarlarida eski o‘zbek tilida mavjud bo‘lganidek “turmush”, “hayot”, “umr”, “tirikchilik” ma’nolarida uchrasa ham, unda hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi sema (*ayshu ishrat*) nisbatan faol ishlatilgan. Masalan, *xirmani aysh* – hayot, umr:

Ahli bedodning siyosat ila,
Xirmani ayshini qilur barbod. (9, 723);

Ul manzilda ikki kecha masnadi izzatda istirohat ko‘rguzub, *ayshu ishrat* dodin berdi. (5, 257[a])

Anjom انجام so‘zi forscha bo‘lib, arabcha *intiho*ning sinonimi sifatida ishlatilgan va *tugash o‘rni, poyon, oxir* kabi ma’nolarni beradi. Bu so‘z pahlaviy tilida *hanjam* ko‘rinishida bo‘lib, qadimgi eroniydagi *hanQjama* tarkiblaridan tuzilgan va “butkul”, “tugash” kabi ma’nolarni beradi. (10, 166) Ogahiy tarixiy asarlarida *anjom* tarkibli qo‘shma so‘zlar ko‘p bo‘lib, ularda bu tarkibiy qism “butunlay”, “tamoman”, “butkul” ma’nolarini anglatishi bejiz emas. Masalan, *maymanatanjom, batolatanjom, saodatanjom* kabi. Mumtoz adiblarimiz tilida *anjom*ning antonimi sifatida *og‘oz* آغاز so‘zi ham ishlatilgan. *Og‘oz*ning “boshlash”, “ibtido” ma’nolaridan tashqari “kuy”, “ohang” kabi semalari ham mavjud. (7, 101) Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidagi birinchi baytda *anjom* va *og‘oz* so‘zlari vositasida tazodning go‘zal namunasi yuzaga kelgan:

Ey, yaxshi oting birla sarog‘oz,
*Anjom*ig‘akim, etar har *og‘o*.

Arvoh ارواح so‘zi hozirgi hozirgi adabiy tilimizda birlik mazmunida mavhum bir jonzot ma’nosida ishlatilsa ham, u aslida “ruh”lar ma’nosini anglatadi. Arabcha bu so‘z *ruh* روح so‘zining af’ol افعال vaznidagi siniq ko‘plik shaklidir. (6, 329) Tadqiqot ob’ektida ham mazkur so‘z “ruh”ning ko‘pligi ma’nosida ko‘zga tashlanadi. Masalan, ... Tangri taolo himoyatig‘a e’timod va avliyoulloh *arvohidin* istimdod qilib,.. (RD, 257[a]) Arabchada *ruh* so‘zi borliq, vujud ma’nolarini ham anglatadi. Bu sema o‘zbek tilidagi “ruh bag‘ishlamoq”, “ruhiga ta’sir qilmoq” kabi birikmalarda ko‘rinadi.

Asorat اسارات shaklidagi so‘z “tutqunlik”, “asirlik” ma’nolarini beradi va Ogahiyda *asorat qaydi, qaydi asorat* birikmalari ko‘p ishlatilgan. Masalan, ... qal’a

ahlin *asorat qaydig‘a* chekib,.. (RD) Mumtoz adiblarimiz, jumladan, Ogahiy tarixiy asarlarini joriy imloda o‘qish jarayonida bu so‘zni *asorat* اثارات – “ta’sir”, “iz” ma’nolaridan farqlash lozim. Misol uchun, ... qal’a atrofidagi bog‘otu ziroot va naxilu ashjorin bexi bunyodi bila qo‘porib, nobud va barcha imoratin vayron qilib, devorlari *asoratin* (izini, nishonasini) mafqud qilsunlar. (RD)

Ogahiy tarixiy asarlari qo‘llanilgan ko‘pgina so‘zlarning tarkibin arabchaQforscha yoki forscha Qarabcha tarzidagi turli genetik tarkibli so‘zlar tashkil qilib, ularning ayrimlari mavhum tushuncha anglatuvchi so‘zlar asosida yasalgan. Jumladan, *qalbgoh* قلبكاهso‘zi “Navoiy asarlari lug‘ati”da “oraliq”, “o‘rtaliq”, “markaz” tarzida faqat lug‘aviy ma’noda sharhlangan bo‘lsa (4, 729), H.Dadaboev tomonidan uning harbiy terminologik ma’nosi “qo‘shinning markazi” (3, 211) tarzida sharhlangan. *Qalb* قنب tarixiy harbiy termin sifatida “qo‘shinning markazi” ma’nosini anglatishini nazarda tutsak, *qalbgoh* aynan *qalb* – qo‘shin markazi joylashgan o‘rin ma’nosini anglatadi. *Qalb* so‘zining *yurak, dil* ma’nosi harbiy termin yuzaga kelishiga asos bo‘lgan bo‘lsa, *yurak, ko‘ngil* ma’nosi uchun uning lug‘aviy ma’nosi *aylanish, ag‘darish, o‘zgarish* sabab bo‘lgan. Polisemiya nihoyatda keng tarqalgan arab tilida ko‘ngil, hissiyotlarning o‘zgaruvchanligi nazarda tutilgan holda “yurak”, “qalb” ma’nosidagi *qalb* قلب (ko‘pligi قلوب) yuzaga kelgan (6, 680). Mazkur so‘zning asl lug‘aviy ma’nosi o‘zbek tilida *qalbaki* – “soxta”, “yasama” so‘zida ko‘rinadi. Terminning ikkinchi qismi *goh* esa qadimgi fors tilida *gathu* shaklida joy, makon, taxt ma’nolarini anglatgan bo‘lsa, “Avesto”da ham xuddi shu ma’nolarda *gatu* shaklida ishlatilgan. Bu so‘z qadimgi hind tilidagi *gatu* – yo‘l, tariqa so‘zi bilan umumiy o‘zakka ega. Uning pahlaviy tilidagi ko‘rinishi *gas*dir. (10, 1881) Qadimgi fors va pahlaviy tillarida so‘z oxirida bo‘lgan *s* ning yangi fors tilida *h* ga o‘tishi fonetik qonuniyatlardan biri sanaladi. Masalan, *vinas* – *gunah* (gunoh). *Goh* so‘zining o‘rin ma’nosi uning “vaqt”, “payt” hamda keyinchalik biriktiruvchi (ayiruv) bog‘lovchisi vazifasiga o‘tishi uchun asos bo‘lgan. *Qalbgoh*ning qo‘shinning markaziy qismi joylashgan makon ma’nosi quyidagi parchada ham ko‘zga tashlanadi: “... o‘z nafsi nafisi bila *qalbgohi* nusratpanohda xurshidi duraxshon, nujumi bekaron arosida sayri sur’at ko‘rguzgondek, ...” (Jome’ ul-voqe’oti sultoniy. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. Inv № 9786.)

Qonun قانون so‘zi eski o‘zbek tilida qo‘llanilgan omonimlardan biri bo‘lib, u 1.Tartib, qoida, ko‘rsatma; 2. Usul, razm, nizom. 3. Bir turli musiqa asbobi (4, 740) ma’nolarini anglatgan. Qayd etilganlardan ikkinchi ma’no birinchi ma’nodan o‘sib chiqqan, ya’ni polesemenatik so‘z bo‘lsa, uchinchisi birinchi va ikkinchi ma’noga nisbatan shakldoshdir. (8. 1608) Musiqa asbobi ma’nosidagi *qonun* asl arabcha so‘z bo‘lmay, yunoncha *konun*ning muarrab shakli ekani qadim lug‘atnavislar tomonidan ham qayd etilgan. (10, 1516) Haqiqatan, bu so‘z yunoncha *kanon*ning arab fonetik tizimiga moslashgan ko‘rinishi bo‘lib, tizzaga qo‘ygan holda chalinadigan simli musiqa asbobini anglatadi. Asarning quyidagi parchasida ushbu so‘zning har ikkala ma’nosi nazarda tutilgan holda iyhom hosil qilingan: “... inod va isyon tariqi rusumin og‘oz qilib, fasod va tug‘yon *qonuni* ohangin soz etar erdilar”. E’tiborlisi, parchada birdaniga uchta – *qonun, ohang, soz* so‘zlarining shakldoshlari mavjudligidan iyhom yaratilgan bo‘lib, mumtoz adabiyotimizda kam sonli misollardan biridir. *Qonun* so‘zining shakldosh so‘zligidan foydalanib iyhom hosil qilish Alisher Navoiy lirikasida ham mavjud. Alisher Navoiy qalamiga mansub quyidagi baytda ham *qonun (qonun-qoida – musiqa asbobi), soz (cholg‘u asbobi – tuzish, tartibga solish), ohang (kuy, musiqa – ravish, tartib)*

so‘zlari shakldoshligi iyhom vositasi bo‘lganini ko‘rib, Ogahiy qalamiga mansub yuqoridagi parcha yuzaga kelishida ta’siri bor, deb baholashimiz, bizningcha, o‘rinli:

Bevafodur falaki buqalamun,
Sozu ohangiga yo‘q bir *qonun*. (2, 472)

Yuqorida tahlil qilingan so‘zlar orqali ham ko‘rishimiz mumkinki, mavhum tushuncha anglatuvchi o‘zlashmalarda o‘ziga xos umumiylik bo‘lib, bu ularning ayrim hollarda o‘zlashish manbalarini aniqlashda ham ma’lum darajada ahamiyatlidir. Mavhum tushuncha anglatuvchi aksar o‘zlashmalar tilimiz ifoda quvvatini oshirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Tarixiy asar tili tadqiqi, xususan, uning lingvopoetik jihatlarini o‘rganishda bularga alohida e’tibor qaratish zarur.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1987.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 6-tom. – Toshkent: Fan, 1990.
3. Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. – Toshkent: Universitet. 2001.
4. Ibrohimov S., Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1972.
5. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Riyozu-d-davla. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi. In. №5364//II.
6. Nosirov O., Yusupov M. An-na’im. Arabcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2003.
7. Персидско-русский словарь. Том 1. – М. 1983.
8. Farhangi lorusiyi arabiy-baforsiy. Jildi 2. – Tehron, Amiri Kabir. 1997.
9. Firdavsu-l-iqbol. Ilmiy-tanqidiy matn. Nashrga tayyorlovchi Y.Bregel. – Leyden. 1988.
10. Shamsiddin Muhammad bin Xalaf Tabriziy. Burhoni qote’. – Tehron: Amiri Kabir. 1997.

OGAHIYNING MAV‘IZA SHE‘RLARI

f.f.n. Ochilov E.,
O‘RFA O‘zbek tili, adabiyoti va fol‘klori instituti
katta ilmiy xodimi

Annotatsia: Maqola Ogahiyning turli janrlardagi mav'iza she'rlari va hikmatli so‘zlari tahlili asosida uning ham san'atkor, ham mutafakkir shoir ekanligini asoslashga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: mutafakkir, mav‘iza, hikmat, she‘r, so‘z, talqin, mahorat.

Аннотация: Статья посвящена обоснованию того, что Огахи был одновременно художником и поэтом-мыслителем, на основе анализа стихов и мудрых высказываний в разных жанрах.

Ключевые слова: мыслитель, мотив, мудрость, поэзия, слово, интерпретация, мастерство.

Abstract: The article is devoted to substantiating the fact that Ogahi is both an artist and a thinker poet, based on the analysis of MAV'iza poems and wise words of various genres.

Keywords: thinker, sage, wisdom, poem, word, interpretation, skill.

Dunyoda san'atkor shoiru yozuvchilar koʻp oʻtgan boʻlsa-da, ulardan juda oz qismigina mutafakkir adib degan sharafli nomga loyiq koʻrilgan. Zero, qalam ahli asosan koʻngil odami boʻlib, ular orasida Umar Xayyom, Shayx Sa'diy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil kabi oʻz ijodida tafakkur va tuygʻuni oʻzaro uygʻunlashtira olgani kam.

Biz Alisher Navoiyni mutafakkir shoir deb ulugʻlaymiz. Shams ul-millatdan keyingi mutafakkir shoir sifatida esa Muhammadrizo Ogahiyni koʻrsatishimiz mumkin. Chunki oʻzbek adabiyotida Navoiydan keyin Ogahiy ijodida Olloh – Olam – Odam munosabatlari, hayot mohiyati va inson umrining ma'no-mazmuni, bani bashar tabiatiga xos fazilat va illatlar har tomonlama keng va chuqur falsafiy mushohadalar, nozik va teran hayotiy kuzatishlar, kuchli bilim va katta tajriba asosida yuksak mahorat bilan badiiy talqin qilingan mav'iza she'rlar va hikmatli soʻzlarga koʻp duch kelamiz.

Mav'iza arabcha soʻz boʻlib, pand, oʻgit, nasihat, va'z, da'vat va tavsiya (diniy suhbatlarda) ma'nosini bildiradi [4,616]. She'riyatda esa u pand-nasihat ruhidagi, falsafiy mushohadalar, hikmatli soʻzlar asosiga qurilgan she'rlarga nisbatan qoʻllanadi.

Alisher Navoiy ilk devoni “Badoe' ul-bidoya”ga yozgan debochasidayoq adabiyot – tarbiya vositasi ekanligiga urgʻu berib, har qanday badiiy asar ma'rifiy fikrlar va pand-nasihatdan xoli boʻlmasligi kerakligini qayd etib, jumladan shunday yozgan edi: “Devon topilgʻaykim, anda ma'rifatomiz bir gʻazal topilmagʻay va gʻazal boʻlgʻaykim, anda mav'izatangiz bir bayt boʻlmagʻayil Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoe' mashaqqat tortilgʻon boʻlgʻay” [1,4,764]. Shundan keyin oʻzining ishqiy gʻazallari ham ma'rifiy va falsafiy baytlardan xoli emasligini alohida ta'kidlab oʻtadi.

“Ta'viz ul-ushshoq” (“Oshiqlar tumori”) devoniga yozgan debochasida Ogahiy ham “shavqangez gʻazallaru muhabbatasar ruboiylaru diqqatparvar masnaviylaru bazmaro muxammaslaru ruhafzo musaddaslar” qatorida “mav'izomiz qasidalar nazm silkiga chekib, bir necha kogʻazporalargʻa musavvada qil”ib yurgani haqida ma'lumot beradi [2,32].

Yoshi bir yerga yetgach, she'rga ishtiyoqi ham qolmay yurgan paytlarda bir dasta she'rlarini oʻzi ham yaxshigina shoir boʻlgan Feruzga taqdim etgani, ularni mutolaa qilgan shoh esa xursand boʻlib, she'r yozishga hafsalasi qolmay qolgan Ogahiyni yana she'r yozishga undab, unga qanot bagʻishlagani haqida fikr yuritganida yana mav'iza she'rlar ham yozganini qayd etib oʻtadi:

“Ammo ul janobning iltifoti madadi bila koʻnglumga quvvat va tab'imgʻa jur'at hosil boʻlub, yana fikru xayol gulistonigʻa maylu ragʻbat bila kirib, andogʻi qolgʻon va qochqon gul va rayhonlarni tabiat etagiga terib, goho mav'izangiz va nasihatomiz va goho ma'shuqona va goho oshiqona gʻazallar va muxammaslar va qasidalar tartibigʻa ishtigʻol koʻrguzdim” [2,36].

Mav'iza she'rlar deyarli barcha shoirlar ijodida uchraydi. Lekin mutasavvif va mutafakkir shoirlar ijodida ular yetakchi oʻrin tutadi. Mutafakkir shoir sifatida mav'iza

she'rlar Ogahiy adabiy merosining ham asosiy qismini tashkil etadi. Ularning asosiy qismi g‘azal janrida yaratilgan bo‘lib, shoir muxammas, musamman, tarje'band, qit'a, ruboiy, masnaviy janrlarida ham mav'izalar bittgan.

Ogahiyning mav'iza she'rlarni mazmuniga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

– boshdan-oxir pand-nasihatga yo‘g‘rilgan she'rlar;

– shoirning falsafiy-irfoniy qarashlari mahsuli bo‘lgan orifona she'rlari;

– ishq tasviri bilan boshlanib, falsafiy-axloqiy mavzularga o‘tib ketilgan she'rlar.

Bundan tashqari, shoir g‘azallarining maqtadan oldingi va boshqa baytlarida, shuningdek, boshqa ko‘plab she'rlarida falsafiy ruhdagi va pand-nasihat mazmunidagi baytu misralar ko‘p uchraydi. Alohida hikmatli so‘zlar kitobiga masallig‘ berganining o‘zi mutafakkir shoir she'rlarining hayotiy kuzatishlar, falsafiy mushohadalar, axloqiy mulohazalar, pandu o‘gitlar, hikmatli so‘zlarga boyligini ko‘rsatadi.

Rivoyat qilishlaricha, fors-tojik so‘z san'atida didaktik yo‘nalishning asoschisi va yirik namoyandasi Shayx Sa'diy umrini uch qismga bo‘lgan: bir qismida ilm o‘rgangan, bir qismida sayohat qilgan, qolgan qismida esa ko‘rgan-kechirganlari, o‘qigan-eshitganlari, kuzatgan-o‘ylaganlarini qog‘ozga tushirgan ekan. Shuning uchun ham donishmand adib asarlari keng va teran bilim, katta va ko‘p yillik hayotiy tajribalari mahsuli bo‘lgan hikmatli so‘zlar, falsafiy mushohadalar, ibratli va qiziqarli rivoyatlarga boy. Shunga o‘xshab, Ogahiy ham saroy tarixnavisi sifatida mamlakat siyosiy hayotida, turli urush-yurishlarda qatnashib, xalq ichida yurib to‘plagan katta tajribasini chuqur ilmi va teran fikru mushohadalari bilan omuxta qilib, ham shaklan go‘zal, ham mazmunan teran yuksak badiiyat durdonalarini yaratadi.

Tengsiz donishmandlikni yuksak san'atkorlik bilan omuxta qilib yuborgan mutafakkir adiblar jahon so‘z san'atida ham sanoqli bo‘lib, Ogahiyni ham tuyg‘u va tafakkur tajassumi bo‘lgan ana shu noyob toifaga kiritish mumkin.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida shoirlarni haqiqiy ishqni kuylagan, majoziy ishqni tarannum etgan va o‘z ijodida haqiqiy va majoziy ishqni o‘zaro uyg‘unlashtirib yuborgan deya uch toifaga ajratgani kabi [1,9,464–465], she'riyatda ham lirik shoirlar, lirik-mutafakkir shoirlar va mutafakkir shoirlar bo‘ladi. Aytaylik, Lutfiy sof lirik shoir, Navoiy ham san'atkor, ham mutafakkir adib, Umar Xayyom esa mutafakkir shoir hisoblanadi. Albatta, bu lirik shoirlar mutafakkirlikdan, o‘z navbatida, mutafakkir shoirlar his-tuyg‘udan, insoniy ehtiros-kechinmalardan xoli degani emas. Biz bu tasnifni ularning ijodida qaysi yo‘nalish ustuvorligiga qarab amalga oshirdik.

Birgina mav'iza g‘azallar “Ta'viz ul-oshiqin” devonida qirqqa yaqin bo‘lib, shuning o‘zi ham Ogahiyning mutafakkir shoirligiga dalolat qiladi. Jumladan, “so‘z”, “ganj”, “ehtiyoj”, “arzimas”, “abas”, “ruh”, “talx”, “qanoatdur”, “yolg‘uz”, “o‘lmas”, “qush”, “xalos”, “ixlos”, “fayz”. “g‘araz”, “ixtilot”, “shart”, “na haz”, “tama”, “shodlig‘”, “sadaf”, “bo‘lmoq”, “ishq”, “qil”, “ey ko‘ngul”, “bila”, “xil'atdur” radifli, “Kishikim, tole'i farxundavu baxti humoyundir”, “Xarob o‘lsun, ilohi, gunbazi davvori charxi dun”, “Dahr qasrikim, haqiqatda qo‘han vayronadur”, “Bo‘lsa har odam qanoat nuridin ravshanzamir”, “Dahr bir mayxonadurkim, kulfat oning jomidur”, “Navbahor ayyomi bo‘lsa har kim ayshu bog‘siz”, “Tong ermas charx javridin gar etsam nolau afg‘on”, “Gar erursen mard, qil ishq o‘tidin bag‘ringni su(v)”, “Kel, ey mahzun ko‘ngul, xo‘y et g‘amu anduhu kulfatg‘a”, “Ey ko‘ngul, tolib esang maqsad mayi oshomig‘a” misralari bilan boshlanadigan g‘azallari, qator qit'a, ruboiy, muxammas, musamman, tarje'band va masnaviylari shular jumlasidandir. Masalan, Ogahiyning ijodiy

dasturilamal xarakteridagi “so‘z” radifli g‘azali bor. Unda so‘z keng ma'noga ega bo‘lib, nutq, gapdan tortib, she'riyat, umuman adabiyotgacha qamrab oladi. So‘zning inson hayotidagi o‘rni, jamiyatdagi mavqeidan tortib badiiy so‘zning ahamiyatiga qadar bo‘lgan keng mavzuda fikr yuritiladi. Aytish mumkinki, bu g‘azal mutafakkir shoir badiiy-estetik qarashlarining o‘ziga xos nazmiy talqinidir. G‘azalda shoirning so‘zga munosabati, so‘zga muhabbati, so‘zga e'tiqodi, so‘z qarshisidagi mas'uliyati va so‘z oldiga qo‘ygan talablari – hamma-hammasi u yoki bu darajada o‘z aksini topgan deyish mumkin.

Ma'lumki, Sharqda so‘zning maqomi nihoyatda baland bo‘lgan. Chunki zabardast so‘z san'atkorlari so‘zni insonni hayvondan ajratib turuvchi asosiy vosita deb bilishgan. “Insonni so‘z ayladi judo hayvondin” [1,10,32], – deydi bu haqda Alisher Navoiy. Ogahiy nazdida ham “So‘zdur inson ko‘nglida bir gavhari qiymatbaho”. Shoirning komil ishonchiga ko‘ra, so‘z – gavhar, ko‘ngil – uning sadafi, til esa g‘avvosi. Shuning uchun ham u yozadiki, odam deb o‘ylab, nodonga gapirib o‘tirma, so‘zni faqat inson tushunadi va qadrlaydi – shuning uchun faqat insongagina so‘zni ravo ko‘rish mumkin:

Ey ko‘ngul, odam xayol aylab, dema nodong‘a so‘z,
Chunki ul inson emas, topsang, degil insong‘a so‘z [2,180].

Ko‘pni ko‘rgan va bilgan donishmand maqomiga yetgani uchun ham shoirning ko‘plab baytu misralari hikmatday, xalq maqollariday jaranglaydi. Chunonchi, quyidagi baytida: “Ilm inson farzandi uchun shunday foydali bir boylikdirki, kim bunday boylik sohibiga aylansa, uning har ikki dunyosi obod bo‘ladi”, – deb ilmni ulug‘laydi:

Ilm andoq ganji nofe'dur bani odamg‘akim,
Kimda ul bo‘lsa, iki olam bo‘lur obod anga [2,57].

Quyidagi baytida esa “Erta uyg‘onish – inson uchun saodat kafolatidir. Tongda uxlagan kishi, u shoh bo‘ladimi yoki gadomi, baxtsizlikka mahkumdir”, – deydi:

Tongda uyg‘onmoq saodatdin nishon inson uchun,
Baxtsiz aylar uyquda bo‘lsa gadou shoh subh [2,115].

Ogahiyning mav'iza mazmunidagi g‘azallaridan tashqari,

Bilki, bu ko‘hna dayr aro kajravish zamonadin,
Komig‘a yetmadi birov ishrati jovidonadin [2,516–517], –

bayti takrorlanib keladigan 7 bandlik musammani, “Dahr uyi bunyodikim, su uzradur – mahkam emas” va “Ey g‘amzadai xujastafarjom” misralari bilan boshlanadigan tarje'bandlari, “Dahreki, bir bog‘i musaffodurur”, “Kim bo‘lsa sukun aro diltang”, “Ey malomatdin o‘lg‘an ozurda”, “Alo, ey matla'i xurshidi donish”, “Jahon dilbarikim ishi noz erur” misrali masnaviylari, “Ayo, xisravi ma'dalatdastgoh” deb boshlanadigan qasidasi ham donishmand shoirning olam va odam muammosining badiiy talqinlariga oid ko‘p yillik mushohada-mulohazalari ifodasi ekanligi jihatidan mav'iza asarlar hisoblanadi. Jumladan,

Dahr bir vayrona edurkim, xarobobod erur,
Chiqsa ondin har kishi g‘am bandidin ozod erur [2,521–525], –

bayti takrorlanib keladigan tarje'bandining 1-bandida dunyo – ko‘pik uzra qurilgan bir bino, 2-bandida – jilvasi ko‘zni o‘ynatadigan, lekin vafosi yo‘q go‘zal gulshan, 3-bandida – husnda tengsiz ishvagar, shu bilan birga sitamgar mahbuba, 4-bandida – ko‘pni ko‘rgan tullak kampir, oshiqlarini hiyla bilan tuzog‘iga tushirib, ularni ming bir baloga giriftor etadigan yosuman, 5-bandida – istiqomat qiladigan kishi xavfu xavotirdan emin bo‘lmagan ko‘hna vayrona kabi qator timsollarda tasvirlanadi. Xuddi shunday

Oldurma ko‘ngulni bu jahong‘a,
Yetkurma jafo aziz jonga [2,526–532], –

bayti naqarot bo‘lib keladigan 7 bandli tarje'bandining 1-bandida dunyo – kirganni mast qiladigan mayxona, 2-bandida – sayr etganning sira chiqqisi kelmaydigan dilkusho bog‘, 3-bandida – hech kimni vasliga yetkazmay, bil'aks barchani hajriga giriftor qiladigan bevafo mahbuba, 4-bandida – har kuni ming-minglab erga tegib ham yana bokiraligicha qoladigan fohisha, 5-bandida – oshiqlarini suvga olib borib, sug‘ormay olib keladigan jodugar, 6-bandida – birovni maqsadiga yetkazmay, oqibat uning jonini oladigan zolim, 7-bandida rabot – hamma bir qo‘nib o‘tadigan karvonsaroy sifatida ta'riflanadi. Shu tariqa, har turfa timsollar vositasida tasvirlash orqali shoir dunyoning bebaqoligi, bevafoligi, yolg‘onchiligi, jodugarligi, zolimligi, omonatligi, vayronaligini barcha qirralari va butun tafsilotlari bilan fosh qiladi hamda bu barcha illatlar manbai bo‘lgan mahbubaga oshiq bo‘lmaslikka, uning tuzog‘iga tushmaslikka, asl qiyofasini tanib, undan yuz o‘girishga, bil'aks ko‘ngilni poklash, xulqni go‘zallashtirish, kamolot kasb etish orqali Haqqa munosib banda bo‘lishga da'vat etadi.

Shoirning, shuningdek, mav'iza ruhidagi qator qit'a, ruboiy, tuyuq, chiston, muammolari ham mavjud.

Ma'lum bo‘ladiki, mav'iza g‘azal, ruboiy, qit'a, muxammas, musamman, tarje'band, qasida, masnaviylari shuningdek, turli janrdagi she'rlari ichida kelgan falsafiy, axloqiy, ta'limiy xarakteridagi hamda pand-nasihat yo‘nalishidagi bayt va misralari, debocha va tarixiy asarlaridagi hikmatli so‘zlari asosida Muhammad Rizo Ogahiyning mutafakkir adib sifatidagi mavqe-maqomini tayin etish, uning nafaqat o‘zbek mumtoz so‘z san'ati. balki badiiy-estetik tafakkur rivojiga ham o‘zining salmoqli hissasini qo‘shganligini har tomonlama keng va chuqur tadqiq etish o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan kechiktirib bo‘lmas dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. “Ta'viz ul-oshiqin” devoni asosida shoirning hikmatli so‘zlarini so‘zboshi va izohlar bilan chop etish orqali biz bu yo‘lda dastlabki qadamni qo‘ydik [3]. Bu yo‘nalishdagi ishlarni davom ettirib, ayni payda uning mav'iza she'rlarini sharhu talqinlar bilan nashrga tayyorlash ustida ish olib boryapmiz.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, X jildlik. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.

2. Ogahiy. Ta'viz ul-oshiqin (Nashrga tayyorlovchi: Xurshid). – Toshkent: “Fan”, 1960.

3. Ogahiy. Hikmatlar (To‘plab nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi muallifi va izohlarni tuzuvchi E.Ochilov). – Toshkent: Sharqshunoslik universiteti, 2021. – 224 bet; Ogahiy. Hikmatli so‘zlar (To‘plovchi, izohlarni tuzuvchi, so‘zboshi va tabdil muallifi: Ergash Ochilov). – Toshkent: Sharqshunoslik universiteti, 2022. – 136 bet.

4. Farhangi zaboni tojiki. Iborat az du jild. Jildi 1. – Москва: “Советская энциклопедия”, 1969.

OGAHIY G‘AZALLARI VAZNI VA BADIYATI

f.f.n. Ziyovuddinova M., DSHU, dotsenti

Annotasiya: Mazkur maqolada Ogahiy yozgan tarixiy asarlari, qilgan tarjimalari sanab o‘tilgan. Shu bilan birga qator g‘azalllari vazni va badiyati taxlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, Qiyot, tarixiy asarlar, Xiva xonligi, mirob, “Ta'vizu-l-oshiqin” devoni.

Аннотация: В данной статье перечислены исторические произведения и переводы Огахи. А так определены размеры газелей Агахи и анализированы их художественность.

Ключевые слова: Огахи, Кият, исторические сочинения, диван “Тавизу-ль-ашикин” («Амулет влюблённых»).

Abstract: this article lists the historical works written by Ogahi, the translations made. At the same time, a number of ghazals were estimated in weight and badiyyati.

Keywords: Ogahi, qiyat, historical sasrs, Khiva Khanate, Mirab, “Tavizu-l-inşikin” office.

O‘zbek mumtoz adabiyotining buyuk vakillaridan biri, Xiva xonligining tarixnavisi, ajoyib mumtoz asarlar tarjimoni Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy 1809 yili Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida tug‘ilgan. Yoshligidan tog‘asi – ulug‘ shoir Munis Xorazmiy tarbiyasini oldi. Madrasada arab va fors tillarini mukammal egallab, kechayu-kunduz mutolaa bilan mashg‘ul bo‘ldi. U dastlab xon saroyida mirza, keyinchalik miroblik vazifalarini o‘tadi.

Muhmmad Rizo Ogah‘iyning ijodiy kamolotga erishishida tog‘asi Munis Xorazmiy, uning atrofidagi shoir va olimlarning hissasi katta bo‘ldi.

Ogahiyning Xiva xonligidagi voqea xodisalarni aks ettirgan qator tarixiy asarlari mavjud. Ular: “Riyozud-davla”, “Zubdatut-tavorix”, “Tarixi gulshani davlat” “Jome'ul voqeoti sultoniy” va tugallanmagan “Shohidi iqbol”asarlaridir. U tog‘asi Munis Xorazmiyning “Firdavsul-iqbol” asarini poyoniga yetkazib qo‘ygan.

Ogahiy qator sharq shoirlarining durdona asarlarini o‘zbek tiliga o‘girgan mohir tarjimondir. U Nizomiy Ganjaviyning “Xafti paykar”, Sa'diy Sheroziyning “Guliston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Xusayn Voiz Koshifiyning “Axloqi muhsinin”, Abdujalil Vosifiyning Badoyi'ul-vaqoe”, Nosiriyning “Ravzatus - safo”, Hiloliyning

“Shoh va gado” kabi asarlarni o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girgan va o‘zbek o‘quvchilarini nodir asarlardan bahramand etgan.

Muhammad Rizo Ogahiyning adabiy merosi orasida “Ta'vizul - oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) nomli devoni alohida o‘rin egallaydi. Mazkur devonda 400ga yaqin g‘azal bo‘lib, ularning ko‘pchiligi hazaj, ramal, rajaz bahrlarida yozilgan. Aniqroq, aytadigan bo‘lsak 335 ta o‘zbek tilidagi, 4 ta fors tilidagi g‘azallari o‘rin olgan. Shulardan hazaj bahrida - 125ta, rajaz bahrida - 53 ta, va ramal bahrida - 143 g‘azal berilgan. Ulardan tashqari - 3 ta mustazod, Ogahiy o‘z g‘azaliga - 12 ta taxmis bog‘langan, Navoiy g‘azaliga - 23 ta, Fuzuliy g‘azaliga - 10 ta, Rojiy g‘azaliga - 5 ta, Munis g‘azaliga - 4 ta, Feruz g‘azaliga - 2 ta, Dilovor, G‘oziy, Amiriy xon, g‘azallariga - 1 tadan taxmis bog‘langan. Musaddas janrida - 4 ta, musammanda - 2 ta, murabba'da ham - 2 ta. Tarje' band - 15ta, muqqattaot -7ta, ruboiy - 54 ta, tuyuq – 7 ta, chiston 4 ta, masnaviy -71 ta bayt, qasida – 1ta, forscha g‘azal - 4 ta, forsga Ogahiy muxammasi – 1 ta, Bedil g‘azaliga – 2ta taxmis bog‘lagan. 1 ta forscha muxammas 7 banddan iborat. Oxirida 605 – 647betlarda lug‘at berilgan.

Quyida Ogahiyning Ramali musammani maxzuf vaznida yozilgan, ilmga bag‘ishlangan g‘azalini ko‘rib chiqamiz:

Ul malak siy – moki barcha ilm(i) bo‘lmish yod ango
Ro‘zi shab dar-su saboq tak-roridur mu'-tod ango
Sarfu nahvu, mantiq ichra, toki sa'i et –ti ayon
Sibaveyh ru-hi qilur tah-sinu ham im –dod ango
Ilm(u) andoq, ganji nofi'-dur bani o-damg‘a kim
*Kimda ul bo‘l-sa iki olam bo‘l*ur o-bod ango

Yuqoridagi baytlarda ilmni o‘rganishda takror-takror saboqni o‘qigandagini, tilning qonun-qoidalarini bilib, mazmun mohiyatiga tushungandagina, kishining ikki olami obod bo‘lishi uchun foydali xazina bo‘lgan ilmdan albatta bah‘ramand bo‘lishi kerakligi uqtirilmoqda.

Ogahiy fasllar kelinchagi baxor haqida qator g‘azallar bitgankim, ulardan birini e'tiboringizga xavola etamiz: G‘azal hazaji musammani solim vaznida kelgan:

Bahor ayyo-mi bo‘lmish o‘y-lakim bog‘i eram sahro
Yeridur say-r uchun e gul –jabin qo‘ysang qadam sahro
Rayoxin uz – rasuvlar o-qibon kavsar kibi har yon,
Ema firdavs(i)din fayzu tarovat ich-ra kam sahro

Mazkur baytlarda bahor faslida hatto sahro ham bog’i eramga o‘xshab ketishi, rayxonlar orasidan oqqan suvlar kavsarga nisbat berilishi, shuning uchun ham sahro fayzu tarovatda jannat bog‘laridan kam emasligi shoir tarafidan kuylanmoqda.

Yana bir bahor fasliga bag‘ishlangan g‘azalida:
Xushtur bahor mavsumining ayshi chog‘ida
O‘z yori bir-la, bo‘lsa kishi, vasl bog‘ida
Sayr etsa goh dilbarining ilgini tutub,
Bog‘i visol gulshanining so‘lu sog‘ida.

Rajazi musaddas maxbuni muzol vaznida yozlgan mazkur g‘azalda shoir oshiq qahramonning o‘z mahbubasi bilan bog‘u bo‘stonlarda qo‘l ushlashib yurishlari, suhbat qurishlarini ko‘z oldiga keltiradi.

Shoirning qanoat bobidagi g‘azali o‘quvchiga nasihatdek tuyuladi:

Bo‘lsa har odam qanoat nuridin ravshan zamir
Ul durur iz-zat sinehri avjida bad-ri munir
Chun tama' bir-la agar olding biravdin, bir diram
To qiyomat begumon bilgil onga bo’l-dingj asir
Bir diram xar kimga gar in'omi qimding, to abad
Ul saning ma'muring o‘ldi san onga bo‘lding amir

Agarda har bir insonning qalbi qanoat nuridan ravshanlashsa, u go‘yo osmondagi to‘lin oydek izzatda bo‘ladi. Agarda u birovdan tama' qilib bir diram olgan bo‘lsa, to qiyomatgacha uning asiri bo‘lib yashaydi. Mabodo u bir diramni kimgadir in'om etsa, bu sahovatidan u amirga aylanadi.

Mazkur baytlarda ham shoir “qanoat nuri”, “izzat sipehri” kabi istioralardan, “ravshan zamir”, “badri munir” kabi tashbihlardan foydalanganki, bu g‘azalning yanada mazmundor va go‘zal chiqishiga sabab bo‘lgan.

Bahor faslida keladigan navruz bayrami haqida ham ajoyib misralar yozgan shoir Ogahiy shunday deydi:

Qilib oyini mexr(i) o-g‘oz(i) navro‘z
Kelib qish faslin etti yoz(i) navro‘z
Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun

Mexr oyini navro’zi olam boshlab berib Qish faslini yoz fasliga aylantirgani kuylanayapti.

Ikkinchi bir g‘azal matla’ini keltiraman:

Baland aylabquyoshga poya navruz
Ko’tardi yor yuzidin poya navruz
Mafo'iylun mafo'iylun mafo'iylun

Mazkur bayt azaji-musaddasi-maxzuf vaznida bo‘lib, unda shoir navro‘z kirib kelishi bilan quyosh tikka ko‘tarilgani, yer yuzidan namliklar, bulutli kunlar ketib quyoshli kunlar kelganini kuylamokda.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Ogahiyning qish fasliga oid g‘azallari ham mavjud. Shu bilan birga ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lgan “Ustina”radifli ikki g‘azali bor. Birinchisining matla‘i:

Majnun ko‘ngul-ning ishqaro gar yog‘sa yuz tosh ustina
Der shod o‘lub har tosh(i)g‘a kelsang agar bosh ustina.

Mazkur baytda agar ishq bobida majnun ko‘ngul ustiga yuz tosh yog‘sa, oshiq niyat shod bo‘lib, bosh uzra tosh yog‘sa ham mayliga degandek bo‘ladi.

Ikkinchi “ustina rafli g‘azal yana ham go‘zalroqdir: U rajazi musammani solim vaznida yozilgan.

Mushkin qoshining hayati ul chashmi jallod ustina
Qatlim uchun «nas» keltirur«nun» eltibon «sod» ustina.

Mazkur baytda «chashmi jallod» - istiora bo’lib kelmoqda. Yana bir baytini keltiraman:

Ey shax, karam aylar chog’i teng tut yomonu yaxshini
Kim mexr(i)nu-ri teng tushar vayronu obod ustuna.
(Chun quyosh teng nur sochar vayrona – obod ustina variantini eshitganman)

Mazkur baytda shohga talab qilinmoqdaki “karam aylar chog‘i yomonu yaxshini barobar tut”deb. Ikkinchi misrada shohni - mehr- quyoshga o‘xshatib “vayronu – obod – bu chuqurroq zidlash bo‘lgani uchun mutobaqa san‘atida kelmoqda.

Muhammad Rizo Ogahiy - hazrati Alisher Navoiy ijodidan ilho olganligini qator g‘azallarida ko‘rishimiz mumkin. Quyida hazrat Navoiyning “bo‘lmasun” radifli g‘azali matla'ini havola etamiz. U ramali musammani maxzuf vaznida yozilgan:

G‘am yelidin, yo rab ul gul-ga g‘ubore bo‘lmasun
Balki onsiz dahri bog‘i-da bahori bo‘lmasun

Ogahiy yozgan nazira – matla'i:

shodi (i) ko‘nglung-ga havodis-dan dame g‘am bo‘lmasun
Lahzai jo-mi nishoting davr(i) siz ham bo‘lmasun

Muhammad Rizo Ogahiyning ruboiylari chuqur ma'noga ega hikmatu-nasihatlarga o‘xshaydi:

Qilmoq bila parvarish tikan gul-bo‘lmas,
Ham tarbiyat ila zog‘ bulbul bo‘lmas,
Gar asli yomonga yaxshiliq ming qilsang
Yaxshilik oning niyati bilkul bo‘lmas.

Yoki:

Ey ko‘ngul kimsakim seni sevmas,
Qoch oning tegrasig‘a aylanma.
Ki nasihat qilurda o‘tganlar
Dedilar “sevmaganga suykanma”

Shoirning tushkunlik ruhida yozilgan qator g‘azallari ham mavjud.

Muhammad Rizo Ogahiyning “Ta'vizul oshiqin” devoni birinchi marta 1882 yilda Xivada toshbosmada bosilgan. 1905 yilda Xivada qayta nashr etilgan.

1960 yilda UzFA nashriyoti tomonidan chop etilgan devonga Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan 7443, Adabiyot muzeyida 289 hujjat raqamli qo‘lyozmalar va toshbosma devonlar asos qilib olingan.

Adabiyotlar:

1. Ogahiy “Ta‘vizul oshiqin” UzSSR FA nashriyoti. 648 bet T.1960y
2. O‘zbek she'riyati antologiyasi. 3 – tom. T. Uz adabiy nashr. 245-246betlar 1961y.
3. E. Ahmadxo‘jaev. “Ogahiyxonlik tarixidan”. Jurnal “Adabiy meros” T. 1982y. 3 (23) 99–106betlar
4. E.Ibrohimova “Ogahiy lirikasining badiiy xususiyatlari” Jurnal “Adabiy meros” T. 1982y. 3 (23) 58–61betlar
5. F. G‘anixo‘jaev. “Navoiy va Ogahiy”. Jurnal “Adabiy meros”. T. 1987y (39) 15 Jurnal “Adabiy meros” T. 1982y. 3 (23) 15–17 betlar
6. Агахи. Избранное. Избранное. Из–во ЦК компартии Узбекистана. Т. 1984 г. 123 стр.

OGAHIY BADIIY TARJIMALARI – XALQ DONOLIGI XAZINASI

f.f.n. Matyoqubova T.,
A.N. TDO‘TAU dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqola Ogahiyning tarjimonligi mahorati tahliliga bag‘ishlangan. Uning tarjima asarlari tufayli ko‘plab dunyo durdonalari xalqimizning ma’naviy mulkiga aylangan. Ogahiyning tarjimalari xususiyatlari, uning asar mazmuni, ruhi kompozitsiyasini saqlay olgani, asliyatga monand bo‘lishga erishishgani maqolada ochiqlamgan.

Kalit so‘zlar. Ogahiy, tarixnavis, Xorazm tarjima maktabi, transliteratsiya, yorqin obrazlar va rangdor epizodlar, bayon usuli, ijodiy yondashuv.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу переводческого мастерства Огахи. Благодаря его переводам многие мировые шедевры стали духовным достоянием нашего народа. Особенности переводов огахи, его умение сохранять содержание произведения, композицию духа, добиваться оригинальности, были раскрыты в статье.

Ключевые слова. Огахи, историзм, Хорезмская школа перевода, транслитерация, яркие образы и красочные эпизоды, повествовательный метод, творческий подход**.**

Abstract. This article is devoted to the analysis of the skill of Ogahi's translation. Thanks to his translation works, many world masterpieces have become the spiritual property of our people. The features of ogahi's translations, the content of his work, the fact that he was able to preserve the composition of his soul, the achievement of becoming a monand in the original, were not disclosed in the article.

Keywords. Ogahiy, historynavis, Khorezm School of translation, transliteration, vivid images and colorful episodes, narrative method, creative approach.

Ma’lumki, yaqin o‘tmishda milliy qadryatlarimizga jamiyatimiz tomonidan yetarli darajada e’tibor berilmay kelindi. Jamiyat hayoti va milliy tafakkurdagi sog‘lomlashish jarayoni o‘zlikni anglash, milliy tuyg‘ularimizni tiklash zaruriyatini o‘tmishda yashab

ijod etgan, adabiyotimiz va madaniyatimiz xazinasiga munosib hissa qo‘shgan shoir va adiblarimizning hayoti va ijodini chuqur, atroflicha o‘rganish ham milliy qadriyatlarimizni tiklash demakdir. Shu jihatdan qaraganda, o‘zining serqirra ijodi bilan madaniyatimiz, ilm-fanimiz xazinasiga munosib hissa qo‘shgan Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy (1809 – 1874) merosi avr ijtimoiy - siyosiy va madaniy muhiti hamda fikriy ma’naviy hayotining ko‘zgusi bo‘lgani bilan alohida ahamiyatga molikdir. Ogahiy she’riyatda “quyosh yanglig‘ shuxrat “toppish barobarida xalqning e’tibor va extiromidan ruhlanib, tarjima va tarixnavislik va g‘ayrat ko‘rsatib mo‘jizalar yarata oldi. Turkiy ulusni jahon badiyati durdonalaidan bahramand qilishga e’tiqod va ixlos qo‘ydi.

Ogahiy ko‘nglidagi ezgu niyatlar amaliy faoliyatida muhim hayotiy ehtiyoj, ma’daniy - ma’rifiy zaruriyatga aylana boradi. Original ijodida kuzatayotganimiz kabi, Ogahiyning tarjimaviy me’rosida ham alohida teranlik va rang-baranglik ko‘zga tashlanadi. U tarjimada nafaqat ijodkor, balki barkamol olim, zukko donishmand sifatida namoyon bo‘ladi. Aksariyat qismining namunalari hali o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan to‘qqizta sof badiiy, oltita tarixiy- adabiy va to‘rtta ilmiy-falsafiy kitoblarni ona tilida jaranglatish muallifdan ozmuncha iqtidor, bilim, matonat talab qilmagan, albatta. Shu ma’noda ogahiy tarjimalarini o‘zbek tilida yorqin qayta yaratilgan orginal asarlar deyish mumkin.

Tarjimalar Ogahiy mahoratini oshirdi, muallifni Sharqning ilm-u adab merosi bilan chambarchas bog‘laydigan emas, o‘zini ham shu buyuk silsilaga qo‘shib keying ijodiga ilhom bag‘ishladi. Ijtimoiy siyosiy tariximizning eng ishonchli hujjatlari bo‘lgan nasriy so‘z san’atimizning bebaho yodgorliklarini yozishda aynan tarjimachilikda to‘plagan tajribasi unga madad beradi.

Ogahiy qalami tufayli xalqimizning ma’naviy mulkiga aylangan asarlar ichida Nizomiy Ganjaviyning “Xaft paykar”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Sadiy Sheroziyning “Guliston”, Xisrav Dehlaviyning “Hasht behisht”, Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayxo”, “Salamon va Absol”, Zayniddin Vosifiyning “Badoe ul- vaqoe” kabi nodir asarlari borki, ularning har biri alohida xususiyat, badiiy-tasviriy uslubga egadir. Muhimi shundaki, har biri o‘ziga xos olam bo‘lgan asarlarni Ogahiy yuksak qimmatini saqlagan holda mohirona qayta ijod eta oladi.

Adabiyotshunoslikda Ogahiyni ko‘proq buyuk shoir va tarixnavis sifatida o‘rganish tamoyili kuzatiladi. Uning “Ta’viz ul oshiqin” devoni betimsol shoirligiga kafolat bo‘lsa, Mirxondning “Ravzat- us-safo” asarining ikkinchi jildi ikkinchi qismi uchunchi jildini, shuningdek Eron tarixchisi Rizoqulxon qalamiga mansub “Ravzat-us-safo”, ” Tazkirayi Muqimxoniy “ kabi nodir bitiklar tarjimasida ham u shubhasiz o‘z iqtidor kuchini ko‘rsata olgan .

Bizningcha, tarixiy yoki badiiy asarlar tarjimasi ko‘proq dono o‘gitlardagi da’vat va hikmatlar, tarixiy shaxslarning xulq –atvori, qilmishlari qiyofalari gavdalanganligini nazarda tutib ularga adabiy manba sifatida qarash ham fanimiz rivojiga talay yangi ma’lumotlar, nazariy fikr xulosalar beradi. Tarjimaning mazmuni, ruhi kompozitsiyasini saqlash, asliyatga monand bo‘lishga erishish avtorning bayon usullarini bera bilish singari tamoyillar xususida ham yuqoridagi fikrning tasdig‘ini ko‘ramiz. Ogahiyning tarjimonlik mahoratini e’tirof etgan. Vamberi ham shoirning “favqulodda sabr – chidam” (1) ko‘rsatganiga taxsinlar aytadi. U bilan uchrashganidan nihoyatda mamnun bo‘ladi. Shu misolning o‘ziyoq uning tarjimalari keng ko‘lamda o‘rganishga munosib

ekanligini ko‘rsatadi.

Shoirning hayoti va ijodi haqida monografiyalar yozilib, she’rlari va ayrim tarjima asarlari bir necha marotaba nashr etilgan. Ular ichida G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida 1971-1980 yillarida chop etilgan Ogahiy asarlarining olti jildlik kulliyoti mumtoz meroslarimizni to‘plash, tadqiq etish va ularni nashr qilib kitobxonlarga yetkazishda marhum olimlarimiz G‘. Karimov, S. Dolimovlarning mashaqqatli mehnatlari samarasi sifatida alohida ajralib turadi. Mazkur nashrning uchinchi va to‘rtinchi jildlarida Ogahiy yaratgan tarjima asarlaridan A. Jomiyning “Yusuf va Zulayxo”, B. Hiloliyning “Shoh va gado”, N. Ganjaviyning “Haft paykar”, M. Sadiyning “Guliston” asarlari o‘rin olgan (2). Bu nashr va mualliflarning xayrli tashabbuslari tufayli o‘quvchilar bugungi kungacha o‘zbek tarjima adabiyotining noyob durdonalari hamda Xorazm tarjima maktabining an’analari bilan tanishib keladilar. Shubhasiz, Ogahiydagi ixlos-u e’tiqod fidoiylarcha sa’y-harakat, tinimsiz ijodiy mehnat adabiyotimiz tarixida hech bir yozuvchi tarjima sohasida erishmagan ulkan mahsulot yaratishga olib kelgan.

Biroq, shuni ham aytish kerakki, Ogahiy tarjimonlik faoliyatidagi baland martaba, bir tomondan, uning shaxsiy qobiliyati, mehnatsevarligi, chuqur bilimi tufayli erishgan natija bo‘lsa, ikkinchi tarafdan, Xorazmda o‘sha paytda madaniy hayotning nisbatan jonlanganligi, tarjima ishiga bo‘lgan e’tiborning kuchaygani ham bunga ijobiy ta’sir etib, yaxshi shart- sharoit hozirlangan, Xorazm ma’rifatparvar adiblari badiiy mukammal asarlar va yirik- yirik tarixiy kitoblarni tarjima uchun tanlar ekanlar, birinchi navbatda ularning kishilarda ijobiy, ezgu xislatlarni shakllantirishga ko‘maklashadigan qismini tanlash maqsadini nazarda tutishgan.

Ogahiy tarjimasi nashri mualliflarning eng mukammal va ahamiyatli asarlarni tanlab, transliteratsiya qilish jarayonida asl nusxa muallifi va tarjimonning unga ijodiy yondashish uslubini, asliyatning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini mukammal o‘rganish jarayonidagi mashaqqatli mehnatlarini e’tirof etmoq zarur.

Avallo shuni ta’kidlash joizki, yuqoridagi to‘rtala asar to‘rt yetuk ijodkorning mashhur asarlari bo‘lib, ular tuzilishi, uslubiy, g‘oyaviy yo’nalishi va badiiy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilib turadi. Tabiiyki, Ogahiyning bu asarlar tarjimasida qo‘llangan usullari ham turlicha. Bularni o‘rganish orqali shoirning tarjimonlik metodi va san’atkor sifatidagi ajoyib mahoratining umumiy belgilarini aniqlash mumkin.

Ogahiy Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari orasidagi keng tarqalib favqulotda shuhrat qozongan, badiiy jihatdan mukammal, g‘oyaviy tomondan kuchli sanalovchi Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” asariga tasodif tufayli murojat qilmagan, albatta. Doston syujeti orqali hayot va inson haqida, insonning turmushdagi o‘rni va burchi haqidagi ulug‘ gumanistik ideallarini yorqin obrazlar va rangdor epizotlarda so‘zlagan Jomiy g‘oyalariga Ogahiy qarashlari hamohang edi. Inson va muhabbat madhiga bag‘ishlangan go‘zal adabiy obida butun ijodini insonni ulug‘lashga, uning muqaddas his-tuyg‘ularini tarannum etishga bag‘ishlangan Ogahiyni befarq qoldirishi mumkin emasdi. Tarjimon asliyatning g‘oyaviy asoslarini to‘la saqlagan holda, originalga mumkin qadar yaqinlashib undan hech bir jihati bilan qolishmaydigan o‘zbekcha variantini yaratadi. Bunga u o‘zining mislsiz badiiy iste’dodi orqali erishdi.

Hiloliyning “Shoh va gado” dostonida Sharq adabiyotida mashhur mavzu qalamga olingan. Unda xalqning odil shoh haqidagi asriy orzu-istaklari ya’ni inson va muruvvatli

hukumdor g‘oyasi, shuningdek, insonning ruhan ozod bo‘lishi, erk huquq, hurlik haqidagi gumanistik tushunchalar ifodalangan. Ogahiy kayfiyati va dunyoqarashiga yaqin bo‘lgan bu doston tarjimaning xususiyatlarini bayon qiluvchi ikkita bob qo‘shgan holda asosiy boblarga putur yetkazmasdan tarjima qilgan. Tarjimada dostonning yetakchi motivlari saqlangan. Shuning uchun ham asar ulkan ijtimoiy-badiiy qimmat kasb etadi.

Nizomiy Ganjaviy “Xamsa” sining to‘rtinchi dostoni bo‘lgan “Haft paykar” Bahrom Go‘r syujeti asosida yozilgan, unda ulug‘ shoirning adolatli shoh haqida qarashlari, shohlik va ishq-muhabbat, davlat va roiyat orasidagi munosabatlar masalasi ko‘tarildi, zulm va boshboshdoqlik qoralanadi. Dostonning asosiy stujet mazmunini nasriy yo’lda bayon qilgan Ogahiy muqaddima va xotima boblarini qisqartirib, tarjima sababini bayon qiluvchi bir bob qo‘shgan.

Ogahiy kasal bo‘lishiga qaramasdan Sadiy Sheroziyning “Guliston” asari tarjimasiga kirishadi. Asarda real insoniy munosabatlar, nodir hikoyatlar, kulgili va qiziqarli latifalar, xalq donoligining xazinasi bo‘lgan kishini shodu hurram qiluvchi o‘tmish podshohlari bilan bog‘liq, voqealar muxtasar bayoni qisqa va aniq ifodalangan. Hikmat va aforizmlar bilan bezatilgan asarga o‘ziga xos uslub tanlab, zo‘r shoirona tarovat bilan yozilgan.

Ogahiy asarning ba’zi o‘rinlarini qisqartirsa ham, hikoyalar tilning ixchamligini, saj orqali vujudga kelgan alohida ritmni, nasr va nazmning almashinib turishi tufayli hosil bo‘lgan chiroyli ohang, ta’sirchanlikni tam’sid san’ati orqali yaratilgan she’riy hikmatlarni mohirlik bilan qayta ijod qilgan.

Ogahiy tarjimalari zamiridagi umuminsoniylikni kuzatar ekanmiz, uning asarlari yashovchanligining sirini anglaganday bo‘lamiz. O‘z davrida Xorazm adiblari uni o‘zlariga ustoz sanab, ijodi va yo’l-yo’liqlaridan bahramand bo‘lgan ulug‘ siymo sifati va siyrari ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

Shubhasiz, Ogahiyning mazmunan boy, xalqchil tarjima asarlari adabiyotimiz tarixining oltin sahifalarini tashkil etadi va muallifi nomini abadiylashtiradi.

Adabiyotlar:

1. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. -М. Восточная литература. 2003. - http://cawater-info.net/afghanistan/pdf/vambery.pdf
2. Ogahiy asarlar. VI jildlik G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti III- jild Toshkent 1974. IV jild, - Toshkent 1977.

MUHAMMAD RIZO OGAHIY O‘ZBEK TARJIMA MAKTABI ASOSCHISI

PhD Kabirova N.K.
TDSHU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ogahiyning hayot yo‘li, uning siyosiy faoliyati va ijodi haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Muhammad Rizo Ogahiyning ijodi o'zbek adabiyotiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan. Ayniqsa boshqa tillardan tarjima qilgan asarlari ham bizning adabiy merosimizni boyitdi.

Kalit so‘zlar: Devon, qo‘lyozmalar, madrasa, tarix, nazm, miroblik.

Аннотация: В этой статье представлена информация о жизненном пути Огахи, его политической деятельности и творчестве. Творчество Мохаммеда Реза огахи внесло свой вклад в узбекскую литературу. Его произведения, особенно переведенные с других языков, также обогатили наше литературное наследие.

***Ключевые слова*:** Девон, рукописи, медресе, история, назм, мираб.

Abstract: This article provides information about the life path of Ogahi, his political activities and work. The work of Muhammad Reza Ogahi made a special contribution to Uzbek literature. Especially his works, which he translated from other languages, also enriched our literary heritage.

Keywords: Devon, manuscripts, Madrasah, history, nazm, mirob.

Biz tarixi buyuk diyorimiz O‘zbekiston qadimdan ilm-fan rivojlanishining o‘choqlaridan biri, buyuk allomalar yetishib chiqqan davlatdir. Bobolarimiz ilm-fan uchun qoldirgan merosi nafaqat Osiyoda balki Yevropada ham qo‘llanma sifatida foydalaniladi. Bu esa tabiiyki, biz yosh avlodlarni o‘z tariximizga nisbatan g‘urur tuyishimizga xizmat qiladi. Ana shunday buyuk allomalarimizdan o‘z davrida hamda bugungi kunda qoldirgan ijodiy merosiga ega bo‘lgan Muhammad Rizo Ogahiydir. Ogahiy jahon adabiyoti, madaniyatining nodir durdonalari sanalgan 20 dan ortiq asarlarni o‘zbek tiliga o‘girib tarjimashunoslik maktabini yaratdi.

Ogahiy o‘z hayoti davomida Xiva xonlari Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulixon (1843-1845), Muhammad Aminxon (1845-1855), Abdullaxon (1855-1855), Qutlug‘murodxon (1855-1855), Sayid Muhammadxon (1855-1864), Muhammad Rahimxon II (1864-1874) davrlarida yashab ijod qilgan. Ogahiyning o‘zbek tilida yozilgan “Ta’viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) devoni mavjud bo‘lib, unda shoir yashagan muhitning amaldorlaridan qattiq shikoyat qilib yozgan she’rlarini ko‘proq uchratamiz. Ogahiy she’rlari orasida hukmdorlarga aytilgan qasidalar ham bor. Bu devondan g‘azallar, mustazod, muxammas, musaddaslar o‘rin olgan. Devonda 18 ming misra she’r va 83 muxammas jam qilingan bo‘lib, uning kirish qismida berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Ogahiy quyidagi tarixiy kitoblarning muallifi bo‘lgan: “Riyoz ud-davla” (“Davlat ishlari”, 1825-1842), “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog‘i”, 1846-1855), “Jom’e ul-voqeoti Sultoniy” (“Sultonlar voqealari to‘plami”, 1856-1865), “Gulshani davlat” (“Davlat gulshani”, 1865-1872), “Shohidi iqbol” (1872).

Mohir tarjimon sifatida Munis tugallay olmay ketgan Mirxondning “Ravzat us-safo” asarining 2-3 jildlarini, Muhammad Mahdixonning “Nodirnoma” (5 jild), Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tazkirai Muqimxoniy”, Nizomiddin Ahmad Haraviyning “Taboqati Akbarshohiy”, Rizoqulixon Hidoyatning “Ravzat us-safoi Nosiriy” nomli asarlari, Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Husrav Dehlaviyning “Haft Bihisht”, Muhammad Vorisning “Zubdat ul-hikoyat”, Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho”, “Salomon va Ibsol”, “Bahoriston”, “Xaft avrang” asarlarlari, Badriddin Hiloliyning “Shohu gado”, Vosifiyning “Bado‘e ul-voqoe” kitoblarini, Kaykovusning falsafa va ahloq masalalariga bag‘ishlangan “Qobusnoma” asarini, Husayn Voiz Koshifiyning “Ahloqi Muhsiniy”, Imomiddin Fijduvoniyning “Mifot ut tolibin” kitoblarini fors tilidan o‘zbekchaga mahorat bilan tarjima qilgan. Quyida biz ularni ayrimlari to‘g‘risida keltirib o‘tamiz.

“Guliston” Muslihiddin Sa’diyning 8 bobli asari, ushbu asarda umumbashariy orzular, ta’limiy-tarbiyaviy hikoyatlar bayon qilingan, asar adib tomonidan 1862-1863 yillarda tarjima qilingan. “Haft paykar” (“Etti go‘zal”) - buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sining to‘rtinchi dostoni bo‘lib, dastonda mardlik, rostgo‘ylik, muhabbat, xalq taqdiri, umuman shaxs va jamiyat masalalari Bahrom Go‘r timsolida o‘z aksini topadi. Asar 1865 yilda nasrda tarjima qilingan.

“Ahloqi Muhsiniy” XV asrda Hirotda yashab ijod qilgan allomalardan biri, Alisher Navoiyning do‘sti Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiyning ma’rifiy asari. Bu asarda ta’lim-tarbiya, bola tarbiyasida ota-ona, muallimning o‘rni kabi masalalar keng yoritiladi. Asar 1873-1874 yillarda, ya’ni shoir umrining oxirgi yillarida tarjima qilingan.

“Yusuf va Zulayho” - buyuk fors-tojik shoiri va mutafakkiri Abdurahmon Jomiy “Xamsa”sining ikkinchi dostonidir. Bu doston insonni kuylashga bag‘ishlangan go‘zal badiiy obidadir. Ogahiy bu asarni 1869 yilda tarjima qilgan.

“Shoh va Gado” - fors-tojik shoiri, Alisher Navoiyning zamondoshi Badriddin Hiloliy dostoni. Ushbu daston fors-tojik adabiyotida “Shoh va Darvesh” nomi ila mashhur. Unda odil podshoh timsoli, insondagi samimiy, chin sevgi tuyg‘ulari tarannum etiladi. Ogahiy bu asarni 1870 yilda nasrda tarjima qilgan.

“Zubdat ul – hikoyat” (“Hikoyalar sarasi”) - Boburiyzoda Avrangzeb hukmronligi davrida Hindistonda yashagan tarixchi olim Muhammad Vorisning tarixiy - badiiy asari. Ahloqiy-ta’limiy hikoyalar podshoh Avrangzeb faoliyatiga bog‘liq holda tasvirlanadi.

Kaykovusning “Qobusnoma” (1082 yilda yozilgan) asari sharq xalqlari orasida ma’lum va mashhur asar bo‘lib, bu asarni Ogahiy 1860 yilda tarjima qilgan. Asarda otani o‘g‘ilga o‘gitlari, xalq maqollari va hikoyatlari, asosan tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar to‘g‘risidagi rivoyatlarga aniq yondashib, Haq Taoloning yagonaligi payg‘ambarlar xilxatiga to‘g‘ri yondashishga undaydigan bebaho asardir.

Ogahiy tarixga oid asarlar yaratib Munisning bu sohadagi an’analarini ham yanada rivojlantirdi va yuksaklikka ko‘tardi. Munis va Ogahiy hamkorlikda yozgan “Firdavs-ul iqbol” asari va o‘zining Xorazm tarixiga oid beshta asari faqat o‘zbek xalqining tarixini o‘rganish jihatdan ahamiyatli bo‘lib qolmasdan, balki qardosh tojik, qozoq, turkman, qoraqalpoq, rus, eron, afg‘on xalqlarining tarixi, madaniyati, san’ati, urf-odatlari, psixologiyasi, shu xalqlarning kelib chiqishi, tirikchiligining manbai, qabilalarning tarixini o‘rganishda boy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shunisi xarakterliki, bu asarlar iste’dodli shoir, taraqqiyparvar adiblar Munis, Ogahiylar tomonidan yozilganligi sababli ularda xalqlarning tarixi, hayoti, kundalik mashg‘uloti, masjid, madrasalarning qurilishi, turli hil hodisalar bayoni, xalq qo‘zg‘olonlari, urushlar tarixi, buyuk kishilar, olimlar, shoir-yozuvchilar va shu kabi ma’lumotlar proza, poeziyada realistik asosda, to‘g‘ri, aniq ifodalab berilgan.

Ogahiy Olloqulixonga bag‘ishlab “Riyoz ud-davla” (“Davlat riyozatlari”, 1844) asarini yozgan. Bu asarda Ogahiy o‘zi to‘g‘risida shunday yozadi. “Yoshlik chog‘larimda, har tarafdan boshimga balo toshi yog‘di, hamisha ko‘nglimda tinchsizlik va ta’bimda xon hukmi surar edi. Lekin jahondan etgan har xil alamlarni olimlar va shoirlarning suhbatida bo‘lish bilan bir oz tarqatar edim”.

“Zubdat ut-tavorix” 1846 yilda yozilgan bo‘lib, Rahimqulixon davriga bag‘ishlangan.

“Jome’ - ul voqeoti Sultoniy” 1856 yilda yozilgan bo‘lib, Muhammad Aminxon davriga bag‘ishlangan.

“Gulshani davlat” 1865 yilda yozilgan bo‘lib, Sayid Muhammadxon davriga bag‘ishlangan.

“Shohidi iqbol” (“Iqbol shohidi”) asar Muhammad Rahimxon soniy davriga bag‘ishlangan bo‘lib, 1865-1873 yillar voqealarni yozish bilan uzilib qolgan, ayrim sahifalarida suv dog‘lari bor, Qo‘qon qog‘oziga, sarlavhalari qizil siyoh bilan yozilgan, qizil charm muqovada, ko‘chiruvchining ismi va yili ko‘rsatilmagan, 227 varaq, 14-25 sm o‘lchamda. Asarda faqat Xorazm tarixi emas, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonlarini Rossiya bilan olib borgan urushlari, bitimlari va uning oqibatlari mukammal ravishda yoritilgan.

1845 yilda Ogahiy miroblik vazifasi bilan safarda yurganda otdan yiqilib oyog‘i sinadi. Oradan ko‘p vaqt o‘tgach, u butunlay yura olmay qoladi. Uzoq vaqt xasatalikni boshdan kechirishi, yolg‘izlik va muhtojlikda yashash shoirning hayotdan erta ko‘z yumishiga olib keldi. Ogahiy xonlikda ulkan o‘zgarishlar bo‘layotgan bir vaqtda, 1874 yilda 65 yoshida vafot etdi.

Akademik G‘.G‘ulom “Mamlakatimizning boshqa xalqlari kabi, o‘zbek xalqi ham o‘zining asrlar davomida yaratilgan boy, o‘ziga xos madaniyatiga ega. Bu erdan fan, adabiyot va san’atning qator ulug‘ arboblari etishib chiqqanlar. Shuni aytib o‘tish kerakki, keyingi yillarda hech qanday asossiz Lutfiy, Otoyi, Sakkokiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Munis, Ogahiy, Feruzlarning ijodi o‘rganilmayotir, biz faqat Navoiy, Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Avaz kabi shoirlar ijodini o‘rganish bilan cheklanib qolganmiz” – degan edi. Shundan keyin “Ogahiyshunoslik” fani vujudga keldi, 1958 yilda Xivaga Toshkentdan Subutoy Dolimov (1907-1991) kelgan, u zo‘rg‘a Ogahiy va Munisning qabrini topgan. 1959 yilda G‘.G‘ulom, Ibrohim Mo‘minov, Qori Niyoziy, Zulfiya, Uyg‘un, Ayyomiy, Subutoy Dolimov, Egam Rahim, Quvomiddin Munirov kelgan. Shundan keyin Ogahiy bog‘i, qabri tiklandi va uning 150, 180, 190 yillik to‘ylari bo‘lib o‘tdi, yaqin kunlarda shoirning 200 yillik to‘yi davlatimiz miqyosida keng nishonlanadi.

Adib qalamiga mansub 26 asardan hozirgi kunda 4 tasi topilganicha yo‘q, uning asarlarining 22 tasidan 16 tasi saqlngan. Jumladan, 6 asari (11 nusxada) Beruniy nomidagi Respublika Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Sank Peterburgda 10 ta va Dushanba shahrida 8 ta asari mavjud.

Hozirgi kunda adib asarlarining 22 tasi, 72 ta qo‘lyozma nusxada dunyo fondlarida saqlanmoqda. Uning asarlarini birinchi bo‘lib Armeni Vamberi Sayid Muhammadxon davrida Xivaga kelgan vaqtida olib ketgan, 1873 yilda A. Kun xon xazinasidan 300 ta nodir kitoblarni olib ketganda Munis va Ogahiylarni asarlarini ham olib ketgan. Undan keyin V.V.Bartold juda ko‘p Markaziy osiyolik tarixchilarni asarlari bilan birga Munis va Ogahiy asarlarini ham o‘rganib o‘zining “Turkiston sug‘orilish tarixi” (S.P. 1914) va “Turkman xalqi tarixidan lavhalar” (L. 1929. kitoblarini yozgan. Undan keyin P.P.Ivanov va A.K.Borokovlar ham o‘zlarining “O‘rta Osiyo xalqlari tarixidan lavhalar” (1958) va “XIV - XIX asrlarda turkmanlar tarixi”, M.Yo‘ldoshev. 1956 yilda “Xiva xonligida feodal er egaligi va davlat tuzilishi”, Ya.G‘ulomov 1976 yilda Ogahiy asarlariga suyanib o‘zining “Xorazm sug‘orilish tarixi” asarlarini yozganlar. Subutoy Dolimov 1962 yilda “Ogahiyning hayoti va ijodiy faoliyati” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va ijodining mahsuldorligi hamda asarlarining badiiy go‘zalligi nuqtai nazaridan Ogahiy o‘zbek adabiyotining buyuk vakili Alisher

Navoiydan keyingi eng zabardast vakili, degan ilmiy xulosaga keldi. 1970 yilda filologiya fanlari doktori Subutoy (Usmonbek) Dolimov va professor G‘ulom Karimov hamkorlikda Ogahiyning 6 jildlik asarlar majmuasini nashrga tayyorlashga kirishib, bu ishni 1980 yilda muvaffaqiyatli tugatdilar. Majmuaning 1-2 jildlari Ogahiyning lirik devoni “Ta’viz ul oshiqin”ni, 3-4 jildlari shoirning tarjima asarlarini, 5-6 jildlari esa Ogahiyning tarixiy asarlarini o‘z ichiga oladi. 1991 yilda Subutoy Dolimov Ogahiy tomonidan tarjima qilingan Kaykovusning “Qobusnoma” asarini tabdil qilib, nashrga tayyorlagan. Adibning qabri hozirgi kunda amakisi Shermuhammad Munis qabri bilan birgalikda Shayx Mavlon bobo qabristonida joylashgan bo‘lib, ushbu joy Xiva yaqinidagi Eski Qiyot qishlog‘ida joylashgan.

Adabiyotlar:

1. S.Dolimov. Ogahiyning hayoti va ijodi. -T.: 1963;
2. Q.Munirov. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. — T.: 1961;
3. N.Komilov. Ogahiyning tarjimonlik mahorati. — T.: 1970;
4. M.Safarboev. Ogahiyning ijtimoiy-siyosiy va estetik qarashlari. — T.: 1993;
5. Primqulov A. Ogahiy masnaviylari. — T.: 1998;
6. A.Abdug‘afurov. Muhammad Rizo Ogahiy. -T.: Meros, 1999;
7. M.Matyoqubova. Ogahiy ijodida kichik she’riy janrlar. — T.: 2000;
8. T.Matyoqubova. Ogahiy she’riyatida an’anaviy obrazlar talqini. -T.: 2001.

OGAHIYNING YANGI DASTXATI: GULISTON QO‘LYOZMASI

PhD Nazirova Hilola
O‘zR FA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi,
Bobojonov Dilmurod
Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi

Annotasiya: Markaziy Osiyo tarixida eng sermahsul ijodkorlardan biri hisoblangan Muhammadrizo Ogahiy sohibi iqtidor va ijod ko‘lami nuqtai nazaridan mumtoz adabiyotimizda haqli ravishda Alisher Navoiydan keyin ikkinchi o‘ringa qo‘yilgan. Ogahiy asarlari nomlarining devondagi ketma-ketligi, ularning qo‘lyozmalari soni va qaerda saqlanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. “Guliston” va “Bahoriston” asarlari maqolamizning asosiy yangiligi hisoblanadi.

***Kalit so‘zlar*:** Ravzat us-safo, xalvlar, tarixshunoslik, qo‘lyozma, mirob, devon.

Аннотация: Мухаммадризо Огахи, считающийся одним из самых плодовитых творцов в истории Центральной Азии, по таланту и размаху творчества по праву занимает второе место в нашей классической литературе после Алишера Навои. Приводится информация о девонской последовательности названий произведений огахи, количестве их рукописей и месте их хранения. Главной новинкой нашей статьи являются произведения” Гулистан " и "Бахаристан".

Ключевые слова: Равзат ус-Сафа, халвлар, историография, рукопись, мироб, Девон.

Abstract: Muhammadrizo Ogahi, considered one of the most prolific creators in the history of Central Asia, rightfully ranks second in our classical literature after Alisher Navoi in terms of talent and scope of creativity. Information is provided on the Devonian sequence of the titles of Ogaha's works, the number of their manuscripts and the place of their storage. The main novelty of our article is the works ”Gulistan" and "Baharistan".

Keywords: Ravzat us-Safa, hallar, historiography, manuscript, mirob, Devon.

Markaziy Osiyo ilm-fani, adabiyoti, san'ati tarixida boshqa tillardan amalga oshirilgan tarjimalarning o‘rni beqiyos. Ular tufayli xalvlar va madaniyatlar o‘rtasida almashuvlar bo‘lgan. So‘nggi yillarda birinchi va ikkinchi renessans bunyodkorlari, Islom olamida mashhur bo‘lgan allomalar ijodi ham aynan shunday tarjimalar hisobiga boyitilgan va mukammalashgan. O‘zbekiston hududi esa aynan shu tarjimalarning mualliflarini yetishtirgan zamin hisoblanadi. Ularning ijodi to‘liq va tizimli o‘rganilgan deya olmaymiz. Afsuski, yurtimizda hali tarjimonlik jarayoni adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va nainki tarixshunoslik nuqtai nazardan bir maromda tavsiflangan. XX asrning o‘rtalaridan boshlab O‘zbekistondagi tarjimonlik maktabining tarixiga doir tadqiqotlar amalga oshirildi. Ammo bu ummondan bir tomchi edi. Jumaniyoz Sharipov, Subutoy Dolimov, G‘aybulla As-salom tadqiqotlari tamaltoshi hisoblansa, Vahob Rahmon, Najmiddin Komilov singari yirik olimlarimiz tomonidan tarjima nazariyasining umumiy xususiyatlari va qonuniyatlari tavsiflangan. Tarjima maktablari Markaziy Osiyo mintaqasida har doim ham bir yerda taraqqiy etmagan, hududlar o‘zgarib turgan. Sulolalarning ilm-fan va adabiyotga rahnamolik jo‘g‘rofiyasini tadqiq etish alohida masala.

So‘zsiz, XIX asrdan to XX asr boshlariga qadar Xiva xonligi tarjimonlik maktabining peshqadami edi. Xonlikda kim qaysi kasb egasi bo‘lishidan qat'iy nazar, qalam ahliga aloqador bo‘lsa tarjima ishiga jalb qilinardi. Hatto bir asarning 5 xil tarjimasi bo‘lishi mumkin edi, tarjimon mahoratiga baho berish esa saroydagi xon boshchiligidagi kechalarda amalga oshirilar edi. Eng yaxshi tarjimaga xon va saroy ayyonlari tomonidan pul mukofoti va sovg‘alar berilar edi. Tarjimonlarning sohibi iqtidori esa Muhammadrizo Ogahiy mirob edi.

Muhammadrizo Ogahiy (1809-1874) Markaziy Osiyo tarixida eng sermahsul ijodkorlardan biri hisoblanadi. U tarixchi, shoir va tarjimon sifatida oltita tarixiy asar[11], bitta devon[12] va o‘n to‘qqizta O‘rta Osiyo turkiysiga tarjima qilingan asarlarini[13] meros qilib qoldirdi. Ogahiy Xiva xonligi Qo‘ng‘irotlar sulolasining (1804-1920) fors tilidan turkiy tilga tarjima qiluvchi tarjimonlar maktabining peshqadami edi. Uning tarjimonlik faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u ijodining ilk yillarida fors tilidan tarixiy asarlarni tarjima qilishdan boshlagan va mahorati oshib borgan sayin badiiy asarlarni nazmdan nazmga o‘girgan. Bugungi kunga kelib, Ogahiyning hayoti va ijodining

[11] Shoir o‘zining ijod namunalarini xronologiyasida beshta tarixiy asarini keltirgan, ammo tog‘asi va amakizodasi Shermuhammad Munis tomonidan boshlangan “Firdavs al-iqbol” asar nomini keltirmaydi. Bu haqda qarang: Toshev N. Ogahiyga nisbat beriluvchi tarjimalar: Tarixi jahongushoyi Nodiriy// O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2009. - № 6. – B. 30.

[12] Shoirning “Ta'viz al-oshiqin” devoni haqida batafsil qarang: Ogahiy asarlarining tavsifi (katalog). Tuzuvchi: F. G‘anixo‘jaev. – Toshkent, 1986. – B. 12-19. (Bundan keyin, OAT).

[13] OAT. – Б. 33-57

salmoqli qismi yaxshi o‘rganilgan[14]. Ammo adibning tarjima asarlarini zamonaviy talablar asosida tadqiq qilishga ehtiyoj sezilmoqda.

Muhammadrizo Ogahiyning tarjimon ekani haqidagi ilk ma'lumot vengriyalik olim Arminiy Vamberi (1832-1913) tadqiqotida keltirilgan[15]. Mazkur kitobida Arminiy Vamberi Xorazmda she'riyatga bo‘lgan katta qiziqish to‘g‘risida gapira turib, shunday yozadi: “Xivada men ikki aka uka bilan tanishdim. Biri Munis bo‘lib, u ajoyib she'rlar yozgan; men ularning ayrimlarini keyinchalik nashr qildirmoqchiman. Ikkinchisi Mirob. U ulkan sabr bilan Mirxondning katta tarixiy asarini o‘g‘li uchun, garchi o‘g‘lining o‘zi ham fors tilidan xabardor bo‘lsa da, o‘zbek turkiy lahjasiga o‘girmoqda. Bu ish 20 yil davom etgan, lekin u buni biron kimsa oldida e'tirof etishdan uyalardi, zero diniy ilmlardan boshqasi bilan shug‘ullanish yuzakichilik hisoblanadi”[16]. Ushbu iqtibosda keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo‘ladiki, Ogahiy Mirxondning “Ravzat al-safo” asarini ko‘p yillar davomida tarjima qilgan va boshqa tarjimonlarga ham bosh-qosh bo‘lgan. Ogahiy fors tilidan o‘n sakkizta va usmoniy turkchasidan bitta asar tarjima qilgan[17]. Yirik olim Yu. Bregel (1925-2016) tarjima asarlarning yillar ketma-ketligini aniqlashga qiynalgan edi[18]. Ammo, ogahiyshunos olim N. Toshev bu xronologiyani shoir o‘z devonida ketma-ketlikda berganligini aniqlagan[19]. Bitta maqola doirasida, adibning tarjimonlik faoliyatining barcha qirralarini qamrab olish juda mushkul. Shuning uchun, quyida asar nomlarining devondagi ketma-ketligi, ularning qo‘lyozmalari soni va qaerda saqlanishi haqida ma'lumotlarni keltirish bilan cheklanamiz:

Muhammadrizo Ogahiy tarjima asarlarining qo‘lyozmalari ro‘yxati

Tarjima asarlar				
№	**Asar nomi**	**Nusxalar, №**	**Saqlanish joyi**	**Jami**
1.	Ravzat us-safoning ikkinchi jild turkiy tarjimasi; Ravzat us-safoning uchinchi jild turkiy tarjimasi	7307 908/I, 1515/II THC 27 1812, 7414 908/II, 1500	O‘zR FAShI-1 O‘zR FAShI-3 RMK O‘zR FAShI-1 O‘zR FAShI-3	4 та 4 та
2.	Durrayi nodira	D 125 THC 23	РФА ШИҚИ РМК	2 та

[14] Adibning ijodiga bag‘ishlangan qisqacha bibliografiya haqida qarang: Erkinov A. Agahi/ Enciclopedia of Iranica 3. – Leiden: Brill, 2015. – pp. 9-10.

[15] Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – Москва, 2003. – С. 255.

[16] Bu haqda qarang: Nazirova H. Vamberi Ogahiy bilan uchrashganmi?// Xorazm Ma'mun akademiyasi. – Xiva, 2012. - № 3. – B. 23-27.

[17] Ogahiyning tarjimonlik faoliyati haqidagi adabiyotlar ro‘yxatini qarang: OAT. – B. 34.

[18] Munis Shir Muhammad Mirab and Agahi Muhammad Riza Mirab, Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm/ Transl. from Chaghatay and annotated by Yu. Bregel. – Leiden, 1999. – P. xxiii. (Бундан кейин, Мунис-Огаҳий, таржима).

[19] Muhammad Riza Mirab Agahi. Jami‘ al-vaqi‘at-i sultani/ Ed. in the original Central Asian Turki with an Introduction and Notes by Nouryaghdi Tashev. – Tashkent-Istanbul, 2012. – C. xiv. (Бундан кейин, Agahi, Jami‘ al-vaqi‘at-i sultani).

3.	Zafarnoma	Qo‘lyozmalari topilmagan		
4.	Zubdat ul-hikoyot	1274/ I 12229/II	O‘zR FAShI-1	2 та
5.	Miftoh ut-tolibin	8473	O‘zR FAShI-1	1 та
6.	Axloqi Muhsiniy	1597/I, 8446 C 1773	O‘zR FAShI-1	3 та
7.	Badoi' ul-vaqoe'	2628	RFA ShQI	1 та
8.	Nasihatnoma-yi Kaykavus/ Qobusnoma	1274/II, 7577/II, 12229/III	O‘zR FAShI-1	3 та
9.	Salomon va Absol	Qo‘lyozmalari topilmagan		
10.	Guliston	899, 7768, 9983/I, 11462	O‘zR FAShI -1	4 та
11.	Bahoriston	Qo‘lyozmalari topilmagan		
12.	Ravzat us-safoyi Nosiriy	D 119	RFA ShQI	1 ta
13.	Daloyilul-xayrot (sharhi)	THC 3	RMK	1 ta
14.	Tazkirayi Muqimxoniy	THC 105	PMK	1 ta
15.	Tabaqoti Akbarshohiy	THC 106	PMK	1 ta
16.	Haft paykar	7695	O‘zR FAShI -1	1ta
17.	Hasht behisht	Qo‘lyozmalari topilmagan		
18.	Yusuf va Zulayho	1231, 6728, 7787, 809/I, 9576/I, 9983/II THC 117	O‘zR FAShI -1 PMK	7 ta
19.	Shoh va gado	809/II THC 91	O‘zR FAShI -1 PMK	2 ta
Jami				**38ta**

1) «Ravzat us-safo» – Mirxond Muhammad ibn Xovandshohning (1433–1498) tarixiy asari, 7 jilddan tashkil topgan[20]. Ogahiy Muhammadaminxon farmoni bilan asarning ikkinchi jild ikkinchi qismi va uchinchi jildini tarjima qilgan[21].

Ikkinchi jildning 3 nusxasi O‘zR FA ShI fondlarida va bittasi Rossiya Milliy kutubxonasi (RMK)[22] va uchinchi jildning 4 nusxasi O‘zR FA ShI fondlarida saqlanadi[23].

2) «Nodirnoma». Muhammad Mahdiy Astrobodiy ibn Muhammad Nosirning (1736–1747) «Durra-yi nodira»[24] asari nazarda tutilgan. Tarjima Muhammadnazar tomonidan boshlanib, Muhammadaminxon buyrug‘i bilan 1266/1850 yilda Ogahiy tomonidan yakunlangan. Qo‘lyozmaning 2 ta nusxasi bor[25].

3) «Zafarnoma». Sharafiddin Ali Yazdiyning (XV) shu nomli asari deb taxmin qilinadi. Qo‘lyozmalari topilmagan.

4) «Zubdat ul-hikoyot». Muhammad Vorisning (XVII) axloqiy hikoyalari tarjimasi. Sayyid Muhammadxon farmoniga binoan tarjima qilingan (O‘zR FA ShI-1, №1274. –V. 3a), sanasi ko‘rsatilmagan, 2 nusxasi bor[26].

5) «Miftoh ut-tolibin». Joni Mahmud shayx Ali ibn Imomiddin al-G‘ijduvoniy (XVI) asari, 1543 yilda yozilgan. Ogahiy kasal bo‘lishiga qaramay, Sayyid

---

[20] Bu asar tarjimasini Shermuhammad Munis boshlagan edi. Vafoti tufayli tarjima tugallanmay qolgandi. Ogahiy uchta tarixiy asarini yozib tugatgach, xon ushbu asarni tarjima qilishga buyuradi. Uchinchi jild tarjimasi Muhammadaminxon buyrug‘i bilan Ogahiy forsiy she'rlarni asl holida qoldiradi: O‘zR FA ShI-1, № 7414. –V. 1b; № 1812. –V. 2a; O‘zR FA ShI-3, № 1500. –V. 1b. Ogahiy umrining oxirigacha ushbu asar tarjimalarining barcha jildlariga mas'ul muharrir sifatida bosh bo‘ldi. Rossiya Milliy kutubxonasining Sharq qo‘lyozmalari bo‘limida (RMK) № TNS-14 (1 va 2 jild) raqamida saqlanayotgan yirik qo‘lyozma nusxasini ko‘zdan kechirdik. Unda Munis va Ogahiydan tashqari, Muhammadyusuf Rojiyning tarjimasi ham qayd etilgan.

Quyidagi asarlarda ham bu mavzuga oid qo‘shimcha ma'lumotlar berilgan: Stori Ch.A. Persidskaya literatura: Bio-bibliograficheskiy obzor // Perevel s angliyskogo, pererabotal i dopolnil Yu.E.Bregel', v 3-x chastyax. –M.: Nauka, 1972. – T.1. –S. 374-375; Smirnov V.D. Opisanie kolleksii vostochnix rukopisey // Otchet Imperatorskoy Publichnoy biblioteki za 1874 god. –SPb., 1875. –S. 74-75. (Bundan keyin, Smirnov). Asarning fors tilidagi qo‘lyozmasi ham shu maqolada qayd qilingan (№ PNS-4). Smirnov. –S. 73. Ushbu qo‘lyozma matni (№ PNS-4) TNS-14 ashyo raqamli tarjima uchun matn bo‘lib xizmat qilgani ehtimoli kuchli.

[21] Agahi, Jami’ al-vaqi’at-i sultani. –C. xi, 91, 92, 93, 94, 95-ҳаволалар.

[22] ЎзР ФА ШИ-1, № 7307; Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. –Т.,1964 – Т. VII. –№ 5002 (Бундан кейин СВР); Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История // Составители: Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джалилова. –Т., 1998. № 162 (Бундан кейин, СВР. История); ЎзР ФА ШИ-3, № 908/I, 1515/II; Каталог фонда Института рукописей. –Т., 1989. – Т.I. –№ 962-963 (Бундан кейин, КФИР); РМК, № ТНС-27; ОАТ, –№ 34-37.

[23] ЎзР ФА ШИ-1, № 1812, 7414: СВР. История, № 159, 166; ЎзР ФА ШИ-3, № 908/II, 1500; КФИР, № 964-965; ОАТ, № 38-41.

[24] Бу ҳақда батафсил қаранг: Тошев Н. Огаҳийга нисбат берилувчи таржималар: Тарихи жаҳонгушойи Нодирий // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2009. – № 6. –Б. 30-32.

[25] Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo‘lyozmalari instituti (RFA ShQI) D 125 ashyo raqamli qo‘lyozmasi: Dmitrieva L.V., Muginov A.M., Muratov S.N. Opisanie tyurkskix rukopisey Instituta narodov Azii. –M., 1965. – T. I. № 157 (Bundan keyin, OTR, I); OAT, № 42; Dmitrieva L.V. Katalog tyurkskix rukopisey Instituta Vostokovedeniya Rossiyskoy akademii nauk. –M.: «Vostochnaya literatura» RAN, 2002. № 123 (Bundan keyin, Dmitrieva); Ogahiyning tarjimasi qo‘lyozmaning 67a varag‘idan boshlanadi. D 125 ashyo raqamli qo‘lyozmaning tavsifida asarning nomi va ko‘chirilgan joyi noto‘g‘ri berilgan, qarang: Stori-Bregel', T. II. –S. 913; Munis-Ogahiy, tarjima. –P. xxiii, havola 95). RMK, TNS 23 ashyo raqamli qo‘lyozmasi (= OAT, № 43; Smirnov. –S. 91-92). Qo‘lyozmaning muqovasiga kitobning nomini «Nadid'-name» deb noto‘g‘ri yozishgan. Bu qo‘lyozmada turli dastxatlar mavjud bo‘lib, 265a varag‘idan Ogahiyning dastxati boshlanadi. Ikkala qo‘lyozmada o‘xshash kodikologik xususiyatlar bor, ya'ni turli qog‘ozlar va turli kotiblar yozuvlarining mavjudligi tarjima nusxalarining bir-biriga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

[26] ЎзР ФА ШИ-1, № 1274/I; СВР, I, № 89; ОАТ, № 69. Худди шу фонддаги № 12229 рақамли қўлёзмада т.ф.н. Н.Тошев томонидан Огаҳий таржимаси ($163^{б}$-$202^{а}$ в.) аниқланди. Тавсифдаги ноқисликлар ҳақида қаранг: Agahi, Jami’ al-vaqi’at-i sultani. –C. xii, 101-ҳавола.

Muhammadxon buyrug‘i bilan 1859 yili 44 kunda tarjima qilgan, yagona nusxada saqlangan[27].

6) «Axloqi Muhsiniy». Husayn ibn Ali Vo'iz al-Koshifiy (vaf. 1504) asari, etika va axloq masalalariga bag‘ishlangan. Sayyid Muhammadxon buyrug‘iga ko‘ra, 1858–1859 yillarda tarjima qilingan, uchta nusxasi bor[28].

7) «Badoe ul-vaqoe'». Zayniddin Mahmud ibn Abdujamil Vosifiy (1485–1551) asarining Ogahiy tomonidan O‘rta Osiyo turkiysiga tarjima qilingan yagona nusxasi. U Muhammadrahim II farmoni bilan tarjima qilingan. Nodir nusxa, O‘zR FA ShI-3 fondida saqlanadi[29].

8) «Nasihatnoma-yi Kaykavus» / «Qobusnoma». Kaykavus binni Iskandar binni Qobus Vushmagirning (1021–1087) axloqiy-didaktik asari. Tarjima Muhammadrahim II tavsiyasiga binoan amalga oshirilgan. Qo‘lyozmaning 3 ta nusxasi mavjud[30].

9) «Salomon va Absol». Abdurahmon Jomiyning (1414–1492) qalamiga mansub asar. Qo‘lyozmalari noma'lum.

10) «Guliston». Sa'diy Sheroziyning (1210–1292) dunyoga mashhur asarlaridan biri. Asar tarjimasi shahzoda Muhammadrahim II buyurtmasi bilan amalga oshirilgan. Asarning 4 ta qo‘lyozmasi saqlangan[31].

11) «Bahoriston», Abdurahmon Jomiy. Qo‘lyozmalari ma'lum emas.

12) «Ravzat us-safoyi Nosiriy»ning uchinchi jildi, Rizoqulixon Hidoyat (vaf. 1871) asari. Xiva xoni Sayyid Muhammadxon buyrug‘i bilan asar 1860–1861 yillarda tarjima qilingan. Tarjimaning yagona nusxasi RFA ShQIda saqlanadi[32].

---

[27] ЎзР ФА ШИ-1, № 8473; ОАТ, № 47; Асарнинг тўлиқ табдили Э.Миркомилов томонидан амалга оширилган. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. Мифтоҳу-т-толибин (Толиблар калити). Табдил, сўз боши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Э.Миркомилов. –Т., 2019. – 10-ж. –316 б.

[28] ЎзР ФА ШИ-1, № 1597/I (СВР, 1955. – Т. III. –№ 2044), 8446; ОАТ, № 48,51; РФА ШҚИ, –№ С 1773; Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института народов Азии. – М.: «Наука» ГРВЛ, 1980. – Т. III. –С. 124; ОАТ, № 49. Огаҳийга нисбат берилган хато таржималар ҳақида қаранг: Agahi, Jami’ al-vaqi’at-i sultani. –С. XV, 103-ҳавола. Янги табдили: Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. Ахлоқ ул-муҳсинийн. Нашрга тайёрловчилар: М.Сафарбоев, С.Раҳимов, А.Ўрозбоев. – Т., 2019. – 8-ж. –320 б.

[29] ЎзР ФА ШИ-3, № 2628. Бу нусхани 1980 йили ф.ф.д. Ф.Ғанихўжаев Хоразмда топган; Ганиходжаев Ф.А. Узбекский перевод “Бадаи ал-вакаи” Зайнаддина Васифи // Памятники культуры. Новые открытия. Ежегодник. –Ленинград, 1985. –С. 67-69; Ғанихўжаев Ф. Топилмалар // Атоқли шоир, тарихнавис, таржимон (Огаҳий ҳақида мақолалар). –Т., 1999. –Б. 146-147; КФИР, № 972; ОАТ, № 46; Agahi, Jami’ al-vaqi’at-i sultani. –С. XV, 104-ҳавола. Дастлаб, бу асарни шоир “Диловар” Ҳуббиқулихўжа таржима қилган (Зайн ад-Дӣн Вāсифӣ. Бадāӣ ‘ал-вакāӣ‘. Критический текст, введение и указатели А.Н.Болдырева. В 2 томах. –М.: АН СССР, 1961. – Т. I. –С. 11-13, 26-35. А.Болдырев ушбу асарнинг илмий-танқидий матнини тайёрлаган. У Огаҳий мазкур асарни Диловардан сўнг таржима қилмаган, қилган ишлари сонини бировнинг меҳнати ҳисобига кўпайтирган, деган фикрни илгари суради. Ўша асар. – С. 29.

[30] ЎзР ФА ШИ-1, № 1274/ II, 7577/II рақамли қўлёзмалар тавсифи; ОАТ, № 70, 71. Н.Тошев худди шу фондда № 12229/III рақамли нусха (202б-283б) борлигини ҳам аниқлаган.

[31] ЎзР ФА ШИ-1, № 899, № 7768, № 9983/I; СВР. –Т.: Изд-во «Наука» УзССР, 1964. – Т.VII. –№ 5321-5322; ОАТ, № 55-57; Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. Философия. –Т.: ФАН, 2017. – Т.1. –№ 743, 744, 746. Худди шу фондда сақланадиган 11462 рақамли қўлёзма Фалсафа каталогида қайд этилди, унгача бу нусха маълум эмас эди: Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. Философия. Т. 1. –Т., 2017. –№ 745.

Огаҳий асарлар тўпламида А.Ўрозбоев томонидан асар табдил қилинди: Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. Гулистон. Ҳафт Пайкар. Нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. –Т., 2019. – 9-ж. –Б. 13-156.

[32] РФА ШҚИ, № D 119. ОТР, I, № 158; ОАТ, № 53; Дмитриева, № 124. Қўлёзма нусхасида таржимон исми қайд этилмаган. Аммо Огаҳий асарнинг биринчи ва иккинчи жилд таржималарида қатнашгани эҳтимолдан ҳоли эмас. РМК, № ТНС-21 нусхада ушбу асарнинг икки жилди ҳам бор (Смирнов. –С. 79-80). Бу қўлёзманинг 239а – 254б, 256а – 314а, 519а– 676а, 768а– 844б саҳифа матнлари Огаҳий дастхатидир.

13) «Daloyil ul-hayrot» (sharhi), bu asarni XV asrda musulmon aqoidshunoslaridan Abdulla Muhammad ibn al-Juzuliy (1465 vaf.) arab tilida yozgan. Fasih al-Qasriy uni usmonli turk tilida sharhlagan. Asar usmonli turkchasidan chig‘atoy turkchasiga Sayyid Muhammadxon topshirig‘iga binoan o‘girilgan[33]. Tarjima sanasi noma'lum, asar yagona nusxada saqlanadi[34].

14) «Tazkirayi Muqimxoniy». Muhammadyusuf Munshiy (XVII) asari, Sayyid Muhammadxon farmoni bilan 1860–1861 yillarda o‘zbekchaga o‘girilgan[35]. Yagona nusxasi Rossiya Milliy kutubxonasida saqlanadi. A.A.Semenov bu asarni rus tiliga tarjima qilayotganda Xorazmdagi tarjima haqida bilmagan. Xorazm nusxasidagi ba'zi ma'lumotlar forsiy nusxalarida yo‘q[36].

15) «Tabaqoti Akbarshohiy». Nizomiddin Ahmad ibn Muhammad Muqim Hiraviy (1549-94) asari, 1592-1593 yili yozilgan. Sayyid Muhammadxon buyrug‘i bilan tarjima qilingan. Qo‘lyozma yagona nusxada[37], kolofonida Ogahiy tarjimani Sayyid Muhammadxon hukmronligi davrida boshlagani haqida satrlar bor. Lekin tez orada xon vafot etadi va tarjima tugallanmay qoladi. Muhammadrahimxon II taxtga kelgach, tarjimani oxiriga yetkazishni buyuradi[38] va ish taxminan 1864 yilda yakunlanadi.

16) «Haft paykar». Abu Muhammad Ilyos ibn Yusuf Nizomiy Ganjaviyning (1141-1209) «Xamsa» asaridagi to‘rtinchi doston, qo‘lyozma yagona nusxada saqlanadi. Nasriy tarjima Muhammadrahimxon soniyga bag‘ishlangan, ish uning farmoni bilan bajarilgan. Tarjima sanasi qayd qilinmagan[39].

17) «Hasht behisht». Xusrav Dehlaviy (1253-1325) asari. Qo‘lyozmalari noma'lum[40].

---

[33] РМК. № ТНС-3. –В. 4[а].

[34] Смирнов. –С. 77; Ф.Ғанихўжаев қўлёзманинг кўчирилиш вақтини (1287/1870-1871) адашиб, таржима санаси, деб беради: ОАТ, № 68. Бу хато, Огаҳий қўлёзманинг бошида (РМК, № ТНС-3. –В.3[а-б]) асарни Саййид Муҳаммадхон буйруғига биноан таржима қилганини ёзади ва колофонда Саййид Муҳаммадраҳимхон номини қайд этади (РМК, № ТНС-3. –В. 515[а-б]).

[35] РМК. № ТНС 105. Огаҳий дастхати билан ёзилган (ОАТ, № 54) қўлёзмада, у хондан буюртма олгани ва таржима қилишга шошганини таъкидлайди: ТНС 105. –В. 3[а-б]. Ушбу қўлёзма Огаҳийнинг таржимаси бўлиши мумкин. Мунис-Огаҳий, матн. –Р. 10, 80-ҳавола. Стори Ч.А. каталогида бу асар муаллифи номаълум, деб берилган. Стори Ч.А. Персидская литература: Био-библиографический обзор // Перевел с английского, переработал и дополнил Ю.Брегель, в 3-х частях. –М., 1972. – Т. 2. –С. 1148; Мунис-Огаҳий, таржима. –Р. xxiii, 94-ҳавола.

[36] Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история. Перевод с таджикского, предисловие, примечния и указатели профессора А.А.Семенова. Предисловие. –Т.: Академии наук Узбекской ССР, 1956. –С. 5-27.

[37] РМК, № ТНС 106. ОАТ, № 58.

[38] РМК, № ТНС 106. –В. 563[а-б].

[39] ЎзР ФА ШИ-1, № 7695 (СВР, V, № 3605; ОАТ, № 72). “Ҳафт пайкар” асари таржимаси каталог тавсифларида берилганидек эмас, матнлар фақат 1[б]-163[б] варақларда жойлашган (Agahi, Jami‘ al-vaqi‘at-i sultani. –p. XIV, 112-ҳавола). Тадқиқотчи М.Қаландаровнинг турк тилида худди шу қўлёзмага бағишланган мақоласи эълон қилинган. Тадқиқотчи каталог тавсифларидаги хатони такрорлаган (Kalandarov M. Manzum eseri düz yaziya aktarmada “Haft Peyker” örneği. Example of “Haft Peyker” for transfering verse text into prose // Gazi Türkiyat. –Güz 2012/11. –S. 69. http://turkiyat.gazi.edu.tr/posts/download?id=44233. Асарнинг янги нашри Огаҳий асарлар тўпламининг 9-жилдида жой олди: Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. Гулистон. Ҳафт Пайкар. Субутой Долимов нашри асосида қайта нашрга тайёрловчи А.Ўрозбоев. –Т., 2019. – 9-ж. –Б. 157-262.

[40] Ж. Шарипов Огаҳийнинг бизгача етиб келмаган 4 та таржима асарини эҳтиётсизлик билан, етиб келган асарлар орасида кўрсатади (Ўзбекистонда таржима тарихидан. Революциядан олдинги давр. –Т.: Фан, 1965.–Б. 108-109).

18) «Yusuf va Zulayho». Abdurahmon Jomiy dostoni. Muhammadrahimxon soniy buyrug‘iga ko‘ra, hijriy 1285 yili sha'bon oyida (1868 yil, noyabr'-dekabr') tarjima qilingan (RMK, № TNS 117. –V. 8b, 9a). Asarning 7 qo‘lyozmasi bor[41] .

19) «Shoh va gado». Badriddin Hiloliy (1470-1529) asari, Muhammadrahimxon soniy farmoni bilan tarjima qilingan (RMK, № TNS 91. –V. 133a-b). Tarjimaning ikkita qo‘lyozma nusxasi saqlangan[42].

Aynan 10 va 11 raqam ostidagi “Guliston” va “Bahoriston” asarlari maqolamizning asosiy yangiligi hisoblanadi. Sa'diy Sheroziyning ushbu asar tarjimasi o‘zbek tarjimonlari tomonidan yaxshi tadqiq etilgan. Vahob Rahmon va Najmiddin Komilovlarning ilmiy ishlarida sa shahzoda Muhammadrahim II buyurtmasi bilan amalga oshirilgan.

Xulosa o‘rnida shuni qayd qilish kerak, Ogahiy davlat arbobi miroblik kasbida rasman faoliyat yuritganiga qaramay, Qo‘ng‘irot xonlari uni o‘tkir qalam sohibi, tarjimon, shoir va muarrix sifatida qadrlashgan. Adibning salmoqli ijodini tarjimonlik faoliyati tashkil qilganiga qaramasdan, uning ushbu qirrasi hali to‘laligicha yoritilmagan. Bu esa o‘z navbatida, O‘rta Osiyo turkiy tiliga “eng ko‘b va eng xo‘b” tarjima qilgan mutarjimning faoliyati chuqur tadqiqotlarga tortilishi lozimligini ko‘rsatadi.

“BAHORISTON”NING OGAHIY TARJIMASIDAGI ILK QO‘LYOZMASI

PhD Nazirova H., O‘zR FA Sharqshunoslik instituti k.il.xod.,
TDShU qoshidagi Xalqaro ogahiyshunoslar kengashi ilmiy kotibi,

Annotasiya: Mazkur maqola Muhammadrizo Ogahiy sohibi iqtidor va ijod ko‘lami nuqtai nazaridan mumtoz adabiyotimizda haqli ravishda Alisher Navoiydan keyin ikkinchi o‘ringa qo‘yilgan. Undan bitta devon, oltita tarixiy va o‘n to‘qqizta tarjima asar meros bo‘lib qolgan. Fathulla G‘anixo‘jaev tuzgan Ogahiy asarlarining fihristida 72 ta qo‘lyozma, sanoqda 78 taga yetishi ushbu jixatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Shajarayi turk, gurlan, mirob, badiiy tafakkur, manba, qo‘lyozma.

Аннотация: данная статья Мухаммадризо Огахи по размаху таланта и творчества по праву ставится на второе место в нашей классической литературе после Алишера Навои. От него унаследовали один диван, шесть исторических и

[41] РМК, № ТНС 117; ЎзР ФА ШИ-1, № 1231, 6728, 7787 (СВР, VII, № 5052-5054); 809/I, 9576/I, 9983/II (ОАТ, № 62-67); РМК, № ТНС 117, матн охири Тошкент нусхалари билан бир хилдир. Бироқ, Ф.Ғанихўжаев каталогида “Юсуф ва Зулайҳо” асарининг Тошкент нусхаларида охирги байт йўқ, деб маълумот берилган (ОАТ, № 61). № ТНС 117 нусха бошида Тошкент қўлёзмаларида учрамайдиган байт бор. Асар сўнггида “Лу” (илон, аждар) йили қайд этилган. Аммо мазкур сана Тошкент нусхаларида “бу” шаклида кўчирилган ва “бу йил” маъноси англашилиб қолган (№ ТНС 117. –В. 114^{б}; ЎзР ФА ШИ-1, № 1231. –В. 144^{а}; № 6728. –В. 143^{б}; № 7787. –В. 143^{б}; № 809/I. –В. 145^{б}; № 9576/I. –В. 144^{б}).

[42] ЎзР ФА ШИ-1, № 809/II (ОАТ, № 60); РМК, № ТНС 91 (ОАТ, № 59).

№ ТНС 91 қўлёзма тавсифида Ф.Ғанихўжаев асар кўчирилган йил (1282/1865) билан таржима санасини чалкаштирган. Бошқа маълумотларга кўра, таржима ҳижрий 1285 йили (1868-1869) амалга оширилган (Ғ.Каримов, С.Долимов. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Девон. // Огаҳий. Асарлар. Нашрга тайёрловчи Ғ.Каримов; масъул муҳаррир С.Долимов. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – I-ж. –Б. 28. Тошкент нусхасида таржима санаси берилмаган.

девятнадцать переводных работ. В фихристе произведений Огахи, составленном Фатхуллой Ганиходжаевым, насчитывается 72 рукописи, из которых 78 дошли до наших дней.

Ключевые слова: родословная турка, гурлан, мироб, художественное мышление, источник, рукопись.

Abstract: This article by Muhammadrizo Ogahi is rightfully ranked second in our classical literature after Alisher Navoi in terms of the scope of talent and creativity. One sofa, six historical and nineteen translated works were inherited from him. There are 72 manuscripts in the fihrist of Ogakhi's works, compiled by Fathullah Ganikhodzhayev, of which 78 have survived to the present day.

Keywords: Turk's pedigree, gurlan, microbe, artistic thinking, source, manuscript.

Yaqinda “Shajarayi turk” asarining Gurlan nusxasi topilgani haqida Oyina.uz portali xabar qilgandi. Xorazm ahli bisotida noyob qo‘lyozmalar hamon bisyorligiga qayta-qayta guvoh bo‘lmoqdamiz. Buning yana bir isboti sifatida Xiva shahar ichki ishlar bo‘limi to‘qqizta nodir kitobni Xorazm Ma'mun akademiyasi tasarrufiga topshirganini keltirish mumkin.

Quvonarlisi, tarixiy xazina orasida Sa'diy Sheroziyning “Guliston” asari turkiy tarjimasi ham borligi, ayniqsa, uni Muhammadrizo Ogahiy shaxsan o‘z qo‘li bilan yozgani aniqlanishi o‘zbek manbashunosligida katta yangilik bo‘ldi. Tadqiqot asnosida esa bizni yanada muhim ilmiy kashfiyot kutib turganini hali bilmas edik.

Shoir, muarrix va mutarjim Muhammadrizo Ogahiy sohibi iqtidor va ijod ko‘lami nuqtai nazaridan mumtoz adabiyotimizda haqli ravishda Alisher Navoiydan keyin ikkinchi o‘ringa qo‘yiladi. Undan bitta devon, oltita tarixiy va o‘n to‘qqizta tarjima asar meros bo‘lib qolgan. She'riy va tarixiy kitoblarining qo‘lyozmalari bizgacha to‘liq yetib kelgan, tarjimalari esa hali yaxlit tadqiq etilmagan.

Xiva xonligida badiiy ijodning tarjimonlik yo‘nalishi ham rivojlangan edi. Kim qaysi kasb egasi bo‘lganidan qat'i nazar, qalamga aloqadorligi bormi, albatta, tarjima ishiga jalb etilardi. Bu davrda bir asarning hatto besh xil tarjimasini uchratish mumkin. Mutarjim mahoratiga esa saroyda xon boshchiligidagi anjumanlarda baho berilardi, eng yaxshi ishlar pul mukofoti va sovg‘alar bilan taqdirlanardi. Tarjimonlarning peshqadamlaridan biri esa Muhammadrizo Ogahiy mirob edi.

Ogahiy ijodining ilk yillarida fors tilidan tarixiy asarlarni tarjima qilishga tutingan. Mahorati oshib borgani sari badiiy asarlarni nazmdan nazmga o‘gira boshlagan. Uning tarjimonligi xususida ilk ma'lumot Arminiy Vamberi (1832–1913) kitobida keltirilgan.

Vengriyalik sayyoh-olim Xorazmda she'riyatga qiziqish kuchliligi to‘g‘risida so‘z yurita turib, shunday yozadi: “Xivada ikki aka uka bilan tanishdim. Biri Munis bo‘lib, ajoyib she'rlar bitadi; ayrimlarini keyinchalik nashr qildirmoqchiman. Ikkinchisi Mirob. Ulkan sabr bilan Mirxondning katta tarixiy asarini farzandi uchun, garchi o‘g‘lining o‘zi ham fors tilidan xabardor bo‘lsa da, o‘zbek turkiy lahjasiga o‘girmoqda. Bu ish yigirma yil davom etgan, lekin biror kimsa oldida e'tirof etishdan uyalardi. Zero, diniy ilmlardan boshqasi bilan shug‘ullanish yuzakichilik hisoblanadi”.

Ogahiy fors tilidan o‘n sakkizta va usmoniy turkchasidan bitta asar tarjima qilgan. Yirik olim Yuriy Bregel (1925–2016) adibning tarjima asarlari ro‘yxatini yillar ketma-ketligida tuzishga qiynalgan. Ammo ogahiyshunos olim Nuryog‘di Toshev xuddi shunday xronologiyani shoirning o‘zi devonida berganini aniqlagan.

Fathulla G‘anixo‘jaev tuzgan Ogahiy asarlarining fihristida 72 ta qo‘lyozma sanalgan. Keyingi tadqiqotlarga ko‘ra sanoq 78 taga yetdi va quyidagi jadvallarda o‘z aksini topdi.

1-jadval

Muhammadrizo Ogahiyning “Ta'viz ul-oshiqin” devoni nusxalari

№	Asar nomi	Nushalar, №	Saqlanish joyi	Jami
1.	Ta'viz ul-oshiqin	S-1944, D-19 TNS 18 1493 938, 7443 289, 727, 1529 10-nusxa	RFA ShQI RMK Dushanbe nusxasi O‘zR FAShI-1 O‘zR FAShI-3 Hazorasp nusxasi	2 та 1 та 1 та 2 та 3 та 1 та
Jami				**10 та**

2- jadval

Muhammadrizo Ogahiy tarixiy asarlarining qo‘lyozmalari ro‘yxati

№	Asar nomi	Nushalar, №	Saqlanish joyi	Jami
1.	Firdavs ul-iqbol	C-571, E-6/I TY00082/I HYK or.46, 5071, 7422, 9979/I, 821/I, 5364/I 1495, 275/I	RFA ShQI Turkiya, fond Finlandiya O‘zR FAShI-1 O‘zR FAShI-3	11 та
2.	Riyoz ud-davla	D-123, E-6/III TY00082/II 821/II, 5364/II 275/II	RFA ShQI Turkiya, fond O‘zR FAShI-1 O‘zR FAShI-3	6 та
3.	Zubdat ut-tavorix	THC 22 E-6/V TY00082/III 821/III, 5364/III 275/III	RMK RFA ShQI Turkiya, fond O‘zR FAShI-1 O‘zR FAShI-3	6 та
4.	Jome ul-voqeoti sultoniy	9786 E-6/VI	O‘zR FAShI-1 RFA ShQI	2 та
5.	Gulshani davlat	E-6/VIII B-1891 7572 12552	RFA ShQI RFA ShQI O‘zR FAShI-1 O‘zR FAShI-1	4 та
6.	Shohid ul-iqbol	C-572	RFA ShQI	1 та

Jami	30 та

3- jadval

Muhammadrizo Ogahiy tarixiy asarlarining qo‘lyozmalari ro‘yxati

№	Asar nomi	Nushalar, №	Saqlanish joyi	Jami
1.	“Ravzat us-safo”ning ikkinchi jildi turkiy tarjimasi; “Ravzat us-safo”ning uchinchi jildi turkiy tarjimasi	7307 908/I, 1515/II THC 27 1812, 7414 908/II, 1500	O‘zR FAShI-1 O‘zR FAShI-3 RMK O‘zR FAShI-1 O‘zR FAShI-3	4 та 4 та
2.	Durrayi nodira	D 125 THC 23	RFA ShQI RMK	2 та
3.	Zafarnoma	**Qo‘lyozmalari topilmagan**		
4.	Zafarnoma Qo‘lyozmalari topilmagan	1274/ I 12229/II	O‘zR FAShI-1	2 та
5.	Miftoh ut-tolibin	8473	O‘zR FAShI-1	1 та
6.	Axloqi Muhsiniy	1597/I, 8446 C 1773	O‘zR FAShI-1	3 та
7.	Badoi' ul-vaqoe'	2628	O‘zR FAShI-1	1 та
8.	Nasihatnomayi Kaykavus / Qobusnoma	1274/II, 7577/II, 12229/III	RFA ShQI	3 та
9.	Salomon va Absol	**Qo‘lyozmalari topilmagan**		
10.	Guliston	899, 7768, 9983/I, 11462	O‘zR FAShI-1	4 та
11.	Bahoriston	**Qo‘lyozmalari topilmagan**		
12.	Ravzat us-safoyi Nosiriy	D 119	RFA ShQI	1 та
13.	Daloyilul-xayrot (sharhi)	THC 3	RMK	1 та
14.	Tazkirayi Muqimxoniy	THC 105	RMK	1 та
15.	Tabaqoti Akbarshohiy	THC 106	RMK	1 та
16.	Haft paykar	7695	O‘zR FAShI-1	1та
17.	Hasht behisht	**Qo‘lyozmalari topilmagan**		
18.	Yusuf va Zulayho	1231, 6728, 7787, 809/I, 9576/I, 9983/II THC 117	O‘zR FAShI-1 RMK	7 та
19.	Shoh va gado	809/II THC 91	O‘zR FAShI-1 RMK	2 та
Jami				**38 та**

Jadvalda ko‘rinib turibdiki, “Zafarnoma”, “Salomon va Absol”, “Bahoriston”, “Hasht behisht”ning tarjimalari qo‘lyozmasi hanuzgacha topilmagan.

Maqola avvalida yozganimizdek, yaqinda Xorazm Ma'mun akademiyasiga topshirilgan nodir kitoblar orasida “Guliston”ning turkiy tarjimasi ham bo‘lib, aynan o‘sha jildga bugungi o‘zbek manbashunosligi uchun nihoyatda muhim topilma – “Bahoriston”ning turkiy tarjimasi ham kiritilgani aniqlandi.

Ikki didaktik mazmundagi asar yagona muqova ichiga biriktirilgani bejiz emas, albatta. Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”i (1487) Sa'diy Sheroziyning “Guliston”i (1256) ta'sirida bitilgan. Muallif asarni o‘n yashar o‘g‘li Ziyovuddin Yusuf uchun darslik-qo‘llanma sifatida yaratgan.

Yangi topilgan to‘qqiz qo‘lyozmadan biri “Guliston”ning turkiy tarjimasi va Ogahiyning dastxati ekani to‘g‘risida olimlar Komiljon Xudoyberganov, Abdulla O‘rozboev xulosa bergan. Nodir manbaning foto nusxasi maqola muallifiga yuborilgach, mazkur fikr yana bir bor tasdig‘ini topdi.

Qo‘lyozma 220 varaqdan iborat bo‘lib, sharq qog‘oziga ko‘chirilgan, hoshiyada tuzatish va qo‘shimchalar bor. Asosan she'r tarjimalarining qo‘shimchalari hoshiyada berilgan. Qo‘lyozmada kolofon yo‘q, bu ham uning dastxat nusxa ekaniga bir dalil. Hijriy 1279/1862-1863 yillar sanasi ko‘rsatilgan.

Qo‘lyozma hali kodikologik jihatdan tavsiflanmagan va sahifalariga raqamlar qo‘yilmagan. Taxminan 5–126-betlarida “Guliston” tarjimasi joylashgan. So‘nggi varag‘ini sinchiklab qaraganimizda ushbu asarning yakuniga o‘xshamasdi. Ustiga ustak, kitob 220 sahifadan oshiqroqligi ham jildda ikkita asar bo‘lishi mumkin, degan taxminni kuchaytirdi.

Ogahiyning tarjima kitoblari ro‘yxatida “Guliston”dan keyin “Bahoriston” keltirilgan, lekin haligacha birorta nusxasi topilmagan. Demak, bu asarning Shoislom Shomuhammedov tomonidan hozirgi o‘zbek adabiy tiliga o‘girilgan variantini qo‘lyozmaning so‘nggi varag‘i bilan solishtirish kerak bo‘ladi.

Ikki tarjimani bir asrlik katta davr ajratib tursa-da, matnning bir-biriga juda o‘xshashligi chindan ham hayratlanarli edi. Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub “Bahoriston” asaridan Muhammadrizo Ogohiy amalga oshirgan turkiy tarjimaning hozircha dunyoda yagona nusxasi shu tariqa kashf etildi.

Ogahiyning shaxsiy dastxatini aniqlash uslublari bugungi kunda mutaxassislarga yaxshi ma'lum. Avvalambor, dastxat nusxalarining kolofonida kotib ismi ko‘rsatilmaydi. Qolaversa, shoirning qo‘l yozuvi osonlik bilan tanib olish mumkin bo‘lgan xususiyatlarga ega: «Hoyi xutti» – ح, «nun» – ن, «sin» – س kabi harflarning bitilishi, hamza – ء belgisidan foydalanishdagi o‘ziga xosliklar.

Dastxat qo‘lyozmasida Markaziy Osiyo mintaqasiga xos va Ogahiyda ham uchraydigan imloviy farqlarni ko‘ramiz.

4-jadval

Ogahiyda	So‘zning to‘g‘ri yozilishi	Kiril alifbosida
نصرت	نصرة	nusrat
عیسا	عیسی	Iso
سراه	ثراه	sura
خذف	خزف	xizf

Yana bir qiymatli tarafi, mazkur qo‘lyozma nafaqat dastxat, balki qoralama nusxa hamdir. Ya'ni to‘ldirish va o‘chirishlar bilan ko‘chirilgan. Bu esa adibning ijodiy laboratoriyasini ichkaridan o‘rganish, tarjimonlik mahorati va so‘z qo‘llash usullarini aniq misollar asosida tadqiq etishga boy material beradi.

Qo‘lyozmaning ayrim sahifalari foto nusxasi bilan tanishish asnosida to‘liq variantini ham ko‘rishga ehtiyoj sezildi. Bunda Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi Dilmurod Bobojonov yaqindan ko‘mak berdi. Shu o‘rinda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti qoshidagi Xalqaro ogahiyshunoslar kengashi nomidan Xorazm Ma'mun akademiyasi direktori, biologiya fanlari doktori, professor Ikrom Abdullaevga ham hamkorlik uchun minnatdorlik bildiramiz. Umum turkiy mumtoz adabiyotimiz yana bir tarjima asar bilan boyidi va bu olamshumul yangilik bilan ilm ahlini qutlaymiz.

OGAHIY HAYOTI VA IJODINING G‘ARB MAMLAKATLARIDA O‘RGANILISHI

t.f.n. Toshov N.I..,
O‘zRFA Sharqshunoslik instituti k.i.xi

Annotasiya: Maqola Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning hayoti, faoliyati hamda tarixiy va adabiy merosini o‘rganish bo‘yicha g‘arb mamlakatlarida, xususan, Rossiyada ingliz va nemis tillarida chop etilgan tadqiqotlar tahliliga bag‘ishlangan. Unda mazkur tadqiqotlarning o‘z-o‘zidan ayon yutuqlari qatorida ularda yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklar qayd etilib, ularning sabablari to‘g‘risida mulohazalar bildirilib, tegishli xulosalar qilinadi.

Kalit so‘zlar: bibliografiya, biografiya, Ogahiy, Xiva xonligi, g‘arb tillaridagi tadqiqotlar.

Аннотация: статья посвящена анализу опубликованных в западных странах, в частности в России, на английском и немецком языках исследований жизни, деятельности, исторического и литературного наследия Мухаммадризо Эрниязбековича Огахи. В нем, среди очевидных достижений данных исследований, отмечены некоторые допущенные в них недостатки, даны суждения об их причинах и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: библиография, биография, Огахи, Хивинское ханство, изучение западных языков.

Abstract: the article is devoted to the analysis of studies published in English and German in Western countries, in particular in Russia, on the study of the life, work and historical and literary heritage of Muhammadrizo Erniyozbek Oglu Ogahi. In it, among the self-evident achievements of these studies, some shortcomings are noted in them, feedback on their causes is made and appropriate conclusions are made.

Keywords: bibliography, biography, Ogahi, Khiva Khanate, studies in western languages.

Ogahiy hayoti va asarlarining g‘arbda o‘rganilishini yoritishda va uning darajasiga baho berishda bir necha omillar nazarda tutilishi lozim. Shularning eng muhimlari qatorida umuman Xiva xonligi tarixi hamda eski o‘zbek adabiyotining g‘arb sharqshunosligida o‘rganilganlik darajasi, mavzuning manbaviy bazasi, u yoki bu mamlakat yoxud mintaqadagi ilmiy an'analar kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Ogahiy tomonidan bitilgan tarixiy asarlar haqidagi ilk ma'lumot asli kelib chiqishi nemis bo‘lgan rus sharqshunosi, 1873 yilgi Xiva yurishi ishtirokchisi A.L. Kunning nemis tilidagi maqolasida e'lon qilingan [9]. Bu ma'lumot juda qisqa bo‘lib, bunda ham gap asosan Firdavs ul iqbol va Shermuhammad Munis haqida boradi. 1873 yili xon saroyidan olib ketilgan va 1917 yilcha A. Kunning shaxsiy tasarrufida bo‘lgan qo‘lyozmalar Sankt Peterburgdagi Osiyo muzeyi qaramog‘iga o‘tgach, boshqa bir sharqshunos K.G. Zaleman ushbu yangi qo‘lyozmalar ro‘yxatini o‘z ichiga oluvchi nemis tilidagi maqolasini chop etdi [12]. Unda Ogahiyning tarixiy asarlari ham zikr etiladi.

Adibning hayoti, asarlari va tarjimalariga doir qisqa ma'lumotlar Y. Ekmanning “Chig‘atoy adabiyoti” maqolasi [5: 389–390] va H.F. Hofmanning “Turk adabiyoti” nomli bio bibliografik qo‘llanmasidan [6: 48–52], E. Olvorsning “Zamonaviy o‘zbeklar” kitobidan [2: 115–116], B. Kelner-Haynkelening maqolasidan [8] joy olgan. Bu ishlar asosan o‘zbek va turk olimlarining tadqiqotlari asosida yozilgan. Misol uchun, Y. Ekmanning Ogahiy she'riyatida Alisher Navoiyning o‘rni haqidagi fikri o‘zbek tilidagi tadqiqotlarda ko‘p bor ta'kidlangan. H.F. Hofmanning qo‘llanmasida Ogahiy 1879 yilda hali hayot edi, degan yanglish ma'lumot mavjud [6: I, 48]. Hofman bu xato xabarni M.F. Ko‘pruluning turk tilidagi “Islom ensiklopediyasi”da bosilgan “Chig‘atoy adabiyoti” maqolasidan [8: 321] o‘zlashtirgan bo‘lib, Ko‘pruluning o‘zini esa Firdavs ul iqbolning Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanadigan nusxasining kolofoni adashtirgan [11: 53, 302-izoh]. Ogahiyning tarjimai holi, asarlari yoki ularning qo‘lyozmalari haqida qisqa axborotni yana ba'zi umumiy mazmundagi ilmiy ishlarda ham uchratish mumkin [5; 14].

E'tibor berilsa, sanalgan ishlarning barchasi ensiklopediya maqolalari va umumiy xarakterdagi bio-bibliografik sharhlardan iborat.

G‘arbda Ogahiyni nisbatan keng ko‘lamda va jiddiy asosda o‘rganish Yuriy Enoxovich Bregel' nomi bilan bog‘liq. U sobiq Sovet Ittifoqidan emigratsiya qilishdan avval, aniqrog‘i, 1972 yildayoq Firdavs ul iqbolning ilmiy tanqidiy matnini hozirlashga kirishib, bu ishni 1978 yili AQShda nihoyasiga yetkazdi va oradan 10 yil o‘tib, ushbu hajmdor matnni ingliz tilidagi so‘zboshi bilan nufuzli Brill nashriyotida nashr ettirdi [11]. 1982 1989 yillar orasida u asarning ingliz tiliga ilmiy izohli tarjimasini amalga oshirib, 1999 yili tarjimani ham mazkur nashriyotda nashrdan chiqardi [12].

Firdavs ul iqbolning tanqidiy matni va inglizcha tarjimasiga yozilgan batafsil, biroq asosan bir birini takrorlovchi so‘z boshilarida Yu.E. Bregel' Ogahiyning (Munis bilan bir qatorda) tarjimai holi, xizmat faoliyati, ijodi, tarix yozish uslublari to‘g‘risida atroflicha so‘z yuritgan. Bu materialning bir qismi uning 1980 yili “Islom ensiklopediyasi”ning inglizcha variantida bosilgan “Muhammad Rizo Mirob Ogahiy” nomli maqolasida ixcham shaklda berilgan edi [3]. Bu ishlar, bir tomondan, Ogahiy hayoti va ijodi bilan bog‘liq talay ilmiy masalalarning yechimiga, ikkinchi tarafdan esa, Firdavs ul iqboldan foydalanuvchilar sonining sezilarli oshishiga xizmat qildi.

Yu.E. Bregelning sanab o‘tilgan ishlari uning barcha tadqiqotlariga xos bo‘lgan yuksak salohiyat, g‘oyat puxtalik bilan bajarilgan. Ammo, afsuski, mukammal ishlarda

ham kamchiliklar uchrab turishi tajribada ko‘p bor sinalgan. Yu.E. Bregelning tadqiqotlarida ham ularning umumiy saviyasiga batamom nomuvofiq ayrim xatolar mavjud. Masalan, u “tuz koni” so‘z birikmasini “Tuzgon” va “Tuzgoni” shakllarida o‘qib, uni ko‘l nomi o‘laroq talqin qiladi [12: 65, 135, 420, 577, 358-izoh]. Holbuki, Ogahiyning, aytaylik, quyidagi jumlasidan bunday ma'no chiqarish qiyin: “... (Xon hazratlari) Hazorasbg‘a nuzul etti. Chahorshanba kuni ondin rukub etib, Sulton saroy g‘akim, tuz konidur, tushti” [11: 923]. Bunday misollarni yana ancha keltirish mumkin. Ammo hozir adolat yuzasidan boshqa bir holatga to‘xtalgan ma'qulroq. Firdavs ul-iqbolning kirill yozuviga tabdili nashriga yozilgan so‘z boshida o‘qiymiz: “Ishimiz jarayonida “Firdavs ul-iqbol”ning mavjud qo‘lyozma nusxalari bilan Bregel' nashrini solishtirish ham amalga oshib, mazkur nashrdagi talay chalkashliklar aniqlandi. Masalan, nashrda asar aslidagi “nisholo” (shirinlik) so‘zi “zi sholo” va “ri sholo”, “sirpilib” esa “sir bilib”, “er” esa “bir”, “takomishiy” (ot choptirib quvlash) ma'no bermaydigan “nikomishiy” shakllarida havola etilgan va bunday o‘rinlar anchagina uchraydi” [16: 15]. Aslida Firdavs ul-iqboldan boshqa Xorazm manbalarida ham nisholo (variantlar: nishallo/nishollo, nishaldo/nisholdo/nisholda) shirinligining “risholo” shaklida berilganiga tez-tez guvoh bo‘lish mumkin [masalan, 1: 49; 18: 14b]. Bu o‘rinda asli forscha bo‘lgan “risha/resha” va “nish” so‘zlarining “ildiz” va unga yaqin bo‘lgan “kurtak” ma'nolari borligini, nisholo esa beh o‘simligining ildizidan tayyorlanishini eslatish kifoya qilsa kerak. “Ta'qib” ma'nosidagi “takomishi” harbiy atamasiga kelsak, o‘rta asrlar narrativ manbalarida “nikomishi” (yoki “nakomishi”) so‘zi ayni shu ma'noda, ya'ni “takomishi”ning boshqa bir varianti sifatida ko‘plab uchraydi [4: № 391].

Ba'zan yuqorida sanalgan hamda boshqa ayrim xatolar o‘zga olimlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar sababli yuzaga kelgan, zero bir xato boshqasini yetaklab kelishi – bor haqiqat. Misol uchun, L.V. Dmitrieva, A.M. Muginov va S.N. Muratov tomonidan tuzilgan kataloglarda Ogahiyning Riyoz ud davla asari Allohqulixon (1825-1842) davri va Rahimqulixon (1842-1846) hukmronligining dastlabki ikki yili tarixini o‘z ichiga oladi, deyiladi [15: № 63; 16: № 100]. Yu.E. Bregel' ham o‘z ishlarida bu fikrni takrorlagan [11: 11; 12: XXIV]. Aslida esa Riyoz ud davlaning na Sankt Peterburg, na Toshkent nusxalari va na Istanbul qo‘lyozmasi Rahimqulixon hukmronligi davri voqealarini o‘z ichiga oladi; asar Allohqulixon vafotidan so‘ng yakunlangani bois, uning oxirlarida Rahimqulixon hukmron podshoh sifatida tilga olinadi, xolos. Ogahiyning hayoti, xizmat faoliyati va ijodi bilan bog‘liq boshqa noaniqliklar va yanglish fikrlarning yana bir nechtasini Yu. Bregel' o‘zi foydalangan katalog va tadqiqotlardan, jumladan, o‘zbekistonlik olimlarning ishlaridan o‘zlashtirgan [1: iv–xvii].

Mavzuga doir adabiyotlar bilan tanishish quyidagicha xulosalar chiqarish uchun asos beradi. G‘arbda Ogahiy va uning merosi bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlar sanoqli bo‘lib, buni chet ellarda Xiva xonligi tarixini o‘rganish o‘zining dastlabki bosqichlarida ekanligi bilan izohlash mumkin. Qolaversa, xorijda Ogahiy ijodiga bo‘lgan nisbatan kam e'tibor uning qalamiga mansub asarlar qo‘lyozmalarining O‘zbekiston va Rossiyadan tashqari boshqa mamlakatlar qo‘lyozmalar jamg‘armalarida yo‘qligi (Tojikiston, Turkiya va Finlyandiyadagi uchta qo‘lyozmani istisno etganda) bilan ham belgilanadi. Yana shu hol ham ko‘zga yaqqol tashlanadiki, jahon ilmida shoirning she'riyatiga bo‘lgan qiziqish uning tarixga oid asarlariga qaraganda sustroq. Ogahiyning tarixiy asarlari bilan bir qatorda Ta'viz ul oshiqin devonining asliyatdagi ilmiy tanqidiy matnini tayyorlab nashr etish bu borada ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi shubhasiz.

Adabiyotlar:

1. Āgahī Muḥammad Riżā Mīrāb. Jāmi‘ al-vāqi‘āt-i sulṭānī / Ed. by N. Tashev. Samarkand–Tashkent, 2012.

2. Allworth E. A. The modern Uzbeks: from the fourteenth century to the present: a cultural history. Stanford, 1990.

3. Bregel Yu. Āgahī // EI2, Supplement, I. 46-bet.

4. Doerfer G. Türkische und mongolische Elemente im Neupersischen. Band I. Wiesbaden, 1963.

5. Dorn B. Über die vom General-Adjutanten von Kaufmann dem Asiatischen Museum verehrten morgenländischen Handschriften // Mélanges asiatiques, tirés du Bulletin historico-philologique de l’Académie Impériale des sciences de St.-Pbg, 1876. T. VII. 395–415-betlar.

6. Eckmann J. Die tschaghataische Literatur // Philologiae Turcicae Fundamenta. Vol. II. Wiesbaden, 1964. 304–402-betlar.

7. Hofman H.F. Turkish literature: A bio-bibliographical survey. Section III, pt. I, vols. 1-6. Utrecht, 1969.

8. Kellner-Heinkele B. Glimpses at the cultural Life of 19th Century Khiva // Rocznik Orientalistyczny. XLIX/2 (1994). 119–127-betlar.

9. Köprülü M.F. Çagatay yedebiyati // İslam Ansiklopedisi. T. 3 (1977). 270–323-betlar.

10. Kuhn A.L. Bericht über meine Riese durch das Chanat Chiwa während der Expedition im Jahre 1873 // Russische Revue: Monatsschrift für die Kunde Russlands 4 (1874). 58–74-betlar.

11. Mūnis Shīr Muḥammad Mīrāb and Āgahī Muḥammad Riżā Mīrāb. Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm / Yed. by Yu. Bregel. Leiden, 1988.

12. Munis Shir Muhammad Mirab and Agahi Muhammad Riza Mirab, Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm / Transl. from Chaghatay and annotated by Yu. Bregel. Leiden, 1999.

13. Salemann C. Das Asiatische Museum im Jahre 1890 // Mélanges asiatiques, tirés du Bulletin historico-philologique de l’Académie Impériale des sciences de St.-Pbg, 1894. T. X. 271–292-betlar.

14. Togan Z.V. Zentralasiatische türkische Literaturen, II: Die islamische Zeit // B. Spuler (ed.). Turkologie, Handbuch der Orientalistik. Abteilung 1, Band 5, Abschnitt 1. Leiden–Cologne, 1963. 229–249-betlar.

15. Dmitrieva L.V. Katalog tyurkskix rukopisey Instituta vostokovedeniya Rossiyskoy akademii nauk. Moskva, 2002.

16. Dmitrieva L.V., Muginov A.M., Muratov S.N. Opisanie tyurkskix rukopisey Instituta narodov Azii, I: Istoriya. Moskva, 1965.

17. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol (Baxtu saodat jannati) / Arab yozuvidan tabdil, kirish va izohlar mualliflari Sh. Vohidov, I. Bekchanov va N. Polvonov. Toshkent, 2010.

18. Munis Shermuhammad mirob b. Avazbiy mirob. To‘ynoma. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Asosiy fondi qo‘lyozmasi, inv. № 7617.

OGAHIYGA QIZIQQANIM SABABLARI

Komil Xorazmiy
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Annotasiya. Adabiyot yosh avlod tarbiyasida hamisha muhim o‘rin tutgan. Mumtoz adabiyotda didaktikaga alohida e'tibor berilib, ko‘pgina asarlarning mohiyatida yosh avlodni tarbiyalash maqsadida ilm va adabiyotning kuchidan, quvvatidan ogoh bo‘lgan Ogahiy xalq ma'naviyati yo‘lida ko‘b va xo‘b xizmatlar qilganligi, shuningdek, Xorazmni qirq yetti yil boshqargan Feruzshoh ham ul zotning shogirdlaridan biri bo‘lganligini “Ogahiynoma” dostoni orqali Ulug‘ ustoz xotirasiga bag‘ishlangan she'riy tarzda doston yaratildi.

Kalit so‘zlar: Qiyot, mirb, Ogahiynoma, haqiqatparast, badiiy tafakkur, manba, Feruz, tut, sandiq.

Аннотация. Литература всегда занимала важное место в воспитании подрастающего поколения. В классической литературе особое внимание уделяется дидактике, в сущности многих произведений рассказывается о том, как Огахи, осознавая силу и мощь науки и литературы с целью воспитания подрастающего поколения, оказал МСП и ХБ услуги на пути к народной духовности, а также о том, что Ферузшах, правивший Хорезмом сорок семь лет, также был одним из учеников уль-джута. был создан эпос в стихотворной форме, посвященный.

Ключевые слова: Кият, мирб, Огахийнома, истина, художественное мышление, источник, Феруз, шелковица, сундук.

Abstract. Literature has always occupied an important place in the education of the younger generation. In classical literature, special attention was paid to didactics, and in order to educate the younger generation in the essence of many works, a poetic epic was created in memory of the Great Master through the epic “Obahiyname”, in which Feruzshah, who led Khorezm for forty-seven years, was one of the disciples of ul.

Keywords: Qiyat, mirb, Ogahiyname, truthfulness, artistic thinking, source, Feruz, tut, Ark.

Kamina Xorazm viloyati, Xonqa tumanining Olaja qishlog‘ida tavallud topganman. Bizning qishloqqa Eski Qiyot ancha yaqin. Eski Qiyotda, ko‘pchilikka ma'lumki, jahonda dovruq qozongan shoir, tarjimon, tarixnavis, mirob Muhammadrizo Ogahiy hazratlari tug‘ilib, o‘sgan.

Ogahiy 1809 - 1874 yillar oralig‘ida yashagan. 1829 yilda amakisi shoir, nasrnavis, davlat arbobi Shermuhammad Munis fano olamini tark aylagach, Xorazm podshohi Olloqulixon ul zotni bosh miroblik lavozimiga tayinlagan. Manbalarda qayd etilishicha, Olloqulixon ilm, adabiyot, san'at va madaniyat ahllarini ham moddiy, ham ma'naviy tarafdan qo‘llab-quvvatlab turgan. Ana shuning uchun Olloqulixonni Ogahiy benihoya hurmat qiladi.

Bosh miroblik lavozimi nufuzli lavozim hisoblanib, bu ish ma'naviyati yuksak, haqiqatparast, qattiqqo‘l kishilarga ishonib topshirilgan. Tirikchilikning asosiy omillaridan biri sanalgan suv yumushini hech narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Men Ogahiyning o‘sha ulkan xizmatlari miqyosini astoydil o‘rganib, “Ogahiynoma”

nomli dostonni yozishga jazm etdim. Kitobning ilk varag‘ida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning hikmatli so‘zlari o‘rin olgan. Shundan bir parcha keltiraman: “Agar Ogahiyning bosh miroblik ilmi va tadbirkorligi Xorazm zaminini suv bilan yashnatgan bo‘lsa, uning badiiy tafakkuri va ko‘ngil ziyosi millatimiz qalbini so‘nmas qadriyatlar bilan nurafshon etdi”.

Haqiqatan ham shunday. Ilm va adabiyotning kuchidan, quvvatidan ogoh bo‘lgan Ogahiy xalq ma'naviyati yo‘lida ko‘b va xo‘b xizmatlar qilgan. Jumladan, Xorazmni qirq yetti yil boshqargan Feruzshoh ham ul zotning shogirdlaridan biri edi. Bu to‘g‘rida “Ogahiynoma”da ham ta'kidlaganman:

Ogahiy shogirdi xon bo‘lmish, ne so‘z –
Taxtga chiqdi yigirma yoshida Feruz.

U haqda yozmoqlik edi ko‘p oson,
Ustoz mehr nurin etmish namoyon:

“Har qachon so‘z desa fasohat ila,
Jonni mahzuz etib malohat ila.

Garchi har fan aro erur mohir,
Lek ko‘b she'r ilmida qodir.

Kotibi suvn' qildi ro‘zi azal,
Tab'ig‘a xos masnaviyu g‘azal.

Masnaviyda qilib durafshonlig‘,
Shuaroga yeturdi hayronlig‘.”

Go‘zallik bobida misli Yusufdir,
Ustozga qilgani, bil, takallufdir.

She'r yozgan insonni ko‘tarmish baland,
Har bitta she'r uchun tortiq novvot, qand.

Tillo qilichlarni aylamish in'om,
Shoirlar she'r o‘qib topdilar orom.

Manbalarda ta'kidlanishicha, Feruz ham shoirlarni, tarixnavislarni moddiy va ma'naviy jihatlardan rag‘batlantirib turgan. Shu asnoda ma'naviyat gullab-yashnagan.

Men mazkur dostonimda Ogahiyning dov-daraxtlarga qiziqishlarini tasvirlaganman. Jumladan, ul zot, o‘lganimdan so‘ng jasadimni tutdan yasalgan sandiqqa joylang, deb yaqinlariga vasiyat qiladi. Vasiyat bajo keltiriladi. G‘aroyib jihat shundaki, Ogahiy qabrining topilishida o‘sha sandiq dalil o‘rnida xizmat qiladi. Men dostonimni yozishdan oldin buyuk shoir tutlaridan birini ziyorat etdim. Bir yuz ellik yildan beri yashayotgan tutni ko‘rib, marmar yodgorlikni ushlab suratga ham tushdim. O‘sha surat “Ogahiynoma” kitobiga kiritilgan. Eng qizig‘i

shuki, men Ogahiy vidosini obrazlarga gavdalantirdim. “Tutlarga vido” nomli bo‘lak quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

“Tutlarim, siz mendan rozi bo‘linglar,
Savobu gunohga qozi bo‘linglar.

Mevangiz oppoqdir - basmisoli qor,
Ko‘klam chog‘larini kutib intizor –

Shirin hidingizga talpingan edim,
Suv yanglig‘ mavj urib, so‘ng tingan edim.

Sizlarga ochardim ko‘ngil asrorin,
Tortiq etar edim ruimda borin.
Tushlarda shivirlab turar edingiz,
Pari suvratida kular edingiz...”

Kuni kecha daraxtlar odam ovozini eshitishi, erkalashlardan yayrashi, so‘kinchlardan xafa bo‘lishi to‘g‘risidagi maqolani “Fermer” jurnalida o‘qib hayratlandim. Ilgari bundoq bo‘lishi mumkinligi borasida o‘ylab ham ko‘rmaganman. Yuqoridagi misralar fantaziya mevalari sifatida qabul qilingan. Qarangki, daraxtlar birovlarning gapini tinglasharkan, o‘zaro suhbatlashar ekanlar. Faqat ularning tillarini biz bilmaymiz, xolos. Dostonimda ikkita tutni gaplashtirganman. Biri savol beradi, ikkinchisi javob qaytaradi. Birinchi tutning savoli shundoq boshlanadi:

“Sen bilan basma-bas o‘sgan edik-ku,
Shamollar yo‘lini to‘sgan edik-ku?!

Kurtaklar qitiqlab qo‘ygandi shu on,
Kulib yuborardik zavq ila chunon.

G‘o‘raga shiraning inishin kutib,
Chumchuqdan qo‘rqardik yurakni yutib.

Qor parchasi yanglig‘ oqarsa meva,
Iforga chulg‘anib ketardi Xeva.

Ogahiy kaftida paydo bo‘lgan choq,
Meva tovlanardi misli oq munchoq.

Tilloga aylansa kuzda yaproqlar,
Ta'zim aylar edik yerni quchoqlab.

Qishda bir- birimiz qilardik pana,
Ko‘klam kelishini kutardik yana.

Bulbul ko‘klam payti aylasa xonish,
Boshlanar edi-ku vujudda yonish...”

Birinchi tutni Ogahiy jasadiga sandiq yasash maqsadida kesayotirlar. O‘zi aytganiday, u qaro yerning qo‘yniga kiradi. Ammo, jufti - ikkinchi tutning motam tutishini istamaydi; uni ovuntirmoqchi bo‘ladi. Baribir, juftidan uni eslab aytim aytishni so‘raydi:

“... Oppoq nishonalar qolmish o‘tmishda,
Tanim kesmoqdalar qahraton qishda.

Yig‘lab turibdi-ku tortilsa yorg‘i,
Meni qo‘rqitadi mudom qorong‘i.

Ammo, sen yig‘lama, o‘rtama bag‘ir,
Sohibimga sandiq bo‘lurman axir?!

Uni saqlagayman mozorga borib,
Xush bo‘ylarin hidlab chiqqay xumorim.

Ne-ne parivashlar bunga yetmagan,
Ichimga jo bo‘lur shaffof shu badan!...”

Ikkinchi tut juftining so‘zlarini eshitib, javob tariqasida ta'sirli so‘zlar aytadi. Ammo, “Ko‘nglimda bor edi xavotir, hadik,/ Lekin tushga kirmas bundoq judolik./ Sensiz, o‘zing aytgin, bunda netarman,/ Olloh amri bilan men ham ketarman” deya vafodorlik tuyg‘ularini izhor qilib ham qo‘yadi. Pirovardida faxrlanadi:

“...Shunday deyajakman o‘zimni tutib:
Bizlarning ismimiz - Ogahiy tuti!

Muborak qo‘llardan biz oldik quvvat,
Bizni eslagaylar hamisha albat!..”

Xullasi kalom, ayrim do‘stlarimning aytishiga qaraganda tutlarni gapirtirganim ayni muddao bo‘libdi. “Dostondagi qaymoqli joy ham shu!” deya xitob etdi bir muxlisim.

Eshitishimga qaraganda, Ogahiy hazratlari to‘g‘risida ko‘plab nasriy, dramatik asarlar yozilgan ekan-u masnaviy doston yozilmagan. Ma'lumki, masnaviy - qadimgi tur. Kamina o‘sha qadimgi turda doston bitishga jur'at etdim. Ulug‘ ustoz xotirasiga she'riy tarzda haykal yasadim. Mazkur haykalga baho berish esa muxlislardan kutiladi. Xudo xohlasa, xalqimiz yana yetti yildan so‘ng, ya'ni 2029 yilda Ogahiy hazratlari tavalludining 220 yilligini keng nishonlaydi. O‘sha tabarruk kunlarda mening “Ogahiynoma” otlig‘ dostonim tilga olinishini Yaratgandan so‘rab qolaman.

OGAHIY IJODIDA DINIY-TARIXIY OBRAZLAR

Ashurova M.A.,
TDSHU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ogahiy she’riyatida diniy rivoyatlarning taraqqiyot bosqichlarini ko‘zdan kechirish, islom bilan bog‘liq bo‘lgan payg‘ambarlar obrazi xalq og‘zaki ijodida maromiga yetib, folklor asarlari va Qur‘oni Karim orqali yozma adabiyotga ko‘chgani va shoir g‘azallaridagi yetakchi ma’no g‘oyaviy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: g‘azal, hadis, payg‘ambar, Qur‘oni Karim, qissa va rivoyatlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы развития религиозных повествований в поэзии Огахи, достигнута ритмичность в устном народном творчестве, образы пророков, связанных с исламом, перенесены в письменную литературу через произведения фольклора и Священный Коран, идейно проанализирован ведущий смысл Газелей поэта.

Ключевые слова: Газель, хадис, пророк, Коран, рассказы и повествования.

Abstract: this article examines the stages of development of religious narratives in the poetry of Ogahi, describes the image of prophets associated with Islam as being consistent in the oral work of the people, moving folklore works and the Quran into written literature through Karim, and ideologically analyzed the leading meaning in the poet gazelles.

Keywords: Ghazal, Hadith, Prophet, Quran, short stories and narratives.

Har bir ulug‘ shoirning dunyoga kelishi alohida hodisa. Alohidaligi shundaki, chin shoir ijodiyoti millat ma’naviy hayotida yangi o‘zgarishlar, tafakkurda esa yuksalishlar paydo etadi. Shuningdek, haqiqiy shoir har qanday sharoitda ham xalqining ishonchlarini oqlash bilan bir qatorda, uning qalb tayanchi ham bo‘la oladi.

Muxammad Rizo Ogahiy ham o‘zidan qoldirgan boy ma’naviy me’rosini o‘rganar ekanmiz g‘azallarida o‘zining diniy qarashlarini ham ifoda etib ketganligiga guvoh bo‘lamiz. Bir qator g‘azallarida diniy-tarixiy obrazlardan foydalanganligi, ularning ma’zmun mohiyati nechog‘lik yuqori ekanligiga uni mutolaa qilish jarayonida ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Shu o‘rinda aytish joizki, diniy rivoyatlarning taraqqiyot bosqichlarini ko‘zdan kechirish, islom bilan bog‘liq bo‘lgan payg‘ambarlar obrazi xalq og‘zaki ijodida maromiga yetib, folklor asarlari va Qur’oni Karim orqali yozma adabiyotga ko‘chgani, uning obrazlarga xos belgi va xislatlarga ijodkorning ishoralar qilishi orqali obrazli ifoda yuzaga kelishi mumtoz adabiyotimizda ko‘p uchraydi.

Ogahiy ijodiga chuqurroq nazar tashlasak, g‘azallarida Isoning samoga ko‘tarilishi va u erda makon tutib qolishi haqidagi rivoyatlarga ishoralar ko‘plab uchraydi. Quyidagi baytda shoir ma‘shuqani ulug‘lash maqsadida Iso bilan bog‘liq sifatlardan foydalanadi:

Nega eldin sochib er tutti ko‘kda Isiyu Maryam,
O‘lukni tirguza olsa labi mo‘jiz bayoningcha.

Ma‘shuqaning yuzi shu qadar go‘zal va nurafshonki, u sharqni kun chiqishni yoritganidan quyosh ham xijolatda qoladi. Va bu lahzada o‘z nafasi bilan o‘likni jonlantiruvchi Iso ham xijolatda o‘rtanadi:

Ey, yuzingdin munfa’ildur oftobi hovari,
Vay damingdindur xijil Iso dami jonparvari.

Ma’shuqa a’zolaridan bo‘lgan yuzni borliqdagi unsurlarga tashbexlash orqali o‘xshatishning rang va shakl, holat va ko‘rinishlari bilan aloqador mubolag‘ali tasvir yuzaga kelgan.

Shoir lirik qahramonining ruhiy holati o‘zgarib turadi. U hamisha ham tushkunlikka berilmay, yorning lutfu ehsoniga sazovor bo‘lishiga umid ko‘zi bilan qaraydi. Sadoqat va vafoning timsoliga aylanib ketgan oshiq bir kun kelib o‘z sevgisi mahbuba tomonidan yuksak baholanishiga ishonib yashaydi.

Gar o‘luk jismimga kirsa toza jon, ermas ajab
Kim, etushti lutf etib Isoyi davronim bukun.

Ulug‘ ishq kuychisi lirik qahramon qalbida tug‘yon urayotgan sog‘inch hislarini, visol armonlarini qanday ifoda etish yo‘llarini izlaydi. Uning nazdida mahbuba vasfida muhabbat dunyosiga, inson va ilohiy go‘zallikka yuksak baho berishdan ortiq maqsad bo‘lmasa kerak. Shoirning lirik qahramoni o‘zini shu qadar gunohkor va xokisor qilib ko‘rsatadiki, bu orqali oshiqlik dardi dunyoning barcha malomatu haqoratlariga bardosh beraolishga qodir mislsiz ruhiy qudrat ekani mubolag‘ali ifoda etiladi.

Ogahiy ma’lum bir o‘rinlarda Yusufning ayrim xususiyatlariga ishora qilib o‘tadi. Bevosita yuqoridagi baytga qaytadigan bo‘lsak, qissa va rivoyatlarda aks ettirilgan Yusuf jamolining nuri Bobil chohida ravshanlik taratganini eslamasak, baytni izohlash mushkul. Baytda ma’shuqa husnining beqiyosligi Yusuf go‘zalligiga qiyoslanib, lirik qahramonning sog‘inch va hijron azoblari, iztiroblari, samimiyati ko‘tarinki kayfiyatda ifodalanadi. Ma’shuqaning tashrifi oshiqning kulbasini yoritadi, nainki kulbasini, dilini ravshan qiladi.

Illo, ma’shuqaning jamoligina emas, balki buyuk qalb egasi sifatidagi mehr - shafqati, uning tashrif buyurib, ko‘rsatgan iltifotlarida, hijron sitamlariga barham berishida namoyon bo‘ladi:

Chun erursan husn Misrining Azizi, yor ajab,
Kulluq aylab tegranga gar Mohi Kan’on evrulur.

Bunday misollarni shoirning ko‘plab g‘azallarida uchratish mumkin.

Quyidagi baytda Ogahiy «Yusuf» surasida mahzun ohanglarda tasvirlangan Ya’qub alayhissalom ko‘zining ko‘r bo‘lishi voqeasiga ishora qiladi:

Xiradur sansiz ko‘zum, ko‘rguz yuzingni kim, erur Ko‘rsa Yusufning jamolin diydai Ya’qub xo‘b

Ogahiy talmeh san’ati orqali oshiq va ma’shuqaning turli xil holatlari, majoziy va haqiqiy ishq iztiroblarini yoritib beradi. Shoir chohi Bobil, Mohi Kan’on, Ya’qub singari obrazlarni qo‘llab, Yusuf obrazini to‘ldiradi.

Yusufi Misriy ango gar qulluq etsa tong emas
Kim, bori olam aro husn ahliga sulton erur.

Ya'ni lirik qahramon sevgilisiga husn elining sultoni bo'lgan Yusuf ham kulluq qiladi. Chunki yorning kamoli Yusufni ham hayratga solishi shubhasizdir. Bunday baytlar zamiriga e'tibor qilinsa, mantiqan husn elining sultoni vujudi mutlaq ekanligi ayonlashadi. Shuning uchun ham bu kabi baytlarni irfoniy nuqtai nazardan taxlil qilmoq maqsadga muvofiqdir.

Ogahiy Nuh obrazi vositasida dunyo, hayot, insoniy qadr-qimmat haqidagi o'z falsafiy qarashlarini ilgari surishga dunyoqarashini ochib berishga harakat qiladi:

Ki ko'b rahravni nokam o'tkaribdur,
Na topti Nuh maqsudin, na Yofis.

Baytda inson hayotda bir yo'lovchidek ekani aytilib, dunyoning o'tkinchiligi, bevafoligi haqida so'z boradi. Shoir kishilarni hayotning, umrning qadriga etib yashashga chaqiradi.

Nuh payg'ambarlar ichida eng uzoq yashaganlardan biri sifatida e'tirof etilgan va bu haqda turli manbalarda turlicha ma'lumot berilgan.

Umuman, Ogahiy ijodi Nuh va u haqdagi rivoyatlarda tilga olingan jihatlar o'zining yangicha talqinini topgan. Bu obrazning nechog'lik mahorat bilan yaratilganligi mazmun va ma'no ko'lamining kengligi bilan belgalanib, Nuh obrazining mohiyatini to'la anglashimiz esa Ogahiy ijodini yaxshiroq tushunib etishimizga imkon beradi.

She'rlarda Ayyub alayhissalomga ishora qilish yor vasliga bo'lgan umidvorlikni, hijron azoblriga sabr-bardoshni ifodalashning o'ziga xo's vositasidir. Fikrimiz tasdig'ini Atoiy va Gadoiy ijodidan keltirilgan baytlar misolida kuzatishimiz mumkin:

Atoiyda:

Sango bersun ilohi Nuh umrin,
Mango ham furqatingda sabri Ayub.

Gadoiyda:

Sunbuling tutsuncha ne jabru jafokim chekmadim,
Sabri Ayyub ettim, ammo topdim oxir umri Nuh.

Har ikkala shoir ham judolik va hijron jabru jafolarida sabr-toqatli bo'lish g'oyasini ilgari surishda mashaqqat va sinovlarga bardosh bergan Ayyub payg'ambarlarga, ayni paytda zalolatga botgan qavmni sabr- bardosh bilan haq yo'lga da'vat etgan va uzoq umr ko'rgan Nuh payg'ambarga ham ishora qilinadi. Lirik qahramonning o'z yoriga Nuh umrini tilashi yoki oshiqning «sabri Ayyub» tufayli Nuh umriga musharraf bo'lishi bir-birini to'ldiradi.

Har ikkala baytdagi lirik qahramon ham mustahkam iroda egasi. Shu bois ular ma'shuqa nomini e'zozlash, unga samimiy tilaklar bildirish, yor vasliga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarga sabr bilan chidashga, ezgu maqsadga etishga intiladilar.

Mumtoz shoirlarimiz ichida Ayyub obrazi eng ko'p Ogahiy she'riyatida uchraydi. Shoir lirikasida uchraydigan Ayyub bilan bog'liq baytlarni quyidagicha tahlil etish mumkin:

1. Lirik qahramon ruhiy dunyosini tasvirlashda Ayyubni o‘rnak qilib ko‘rsatuvchi baytlar.

2. Ayyubning sabr-qanoatda tengsizligini uqtirish orqali tasavvuf falsafasi g‘oyalarini ilgari suruvchi baytlarga murojat etamiz:

Ey ko‘ngulu osoyishi bazmi visol istar esang,
Chek baloyi hajr aplab sabr aro Ayyubluq.

Baytda Ayyub haqidagi rivoyat va afsonalarga ishora qilish yo‘li bilan shiqning hijron iztiroblari, qalb kechinmalari ifoda etilib, «baloyi hajr» chekmay turib, ma‘shuqa vasliga etish mumkin emasligi aytiladi. Oshiqqa Ayyubni o‘rnak qilib ko‘rsatadi.

«Osoyish bazmi» va «baloyi hajr» bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi natijasida tazod san’ati yaratilgan.

Ayyub bilan bog‘liq baytlar qatoriga tasavvufiy ohanglar singdirilgan bo‘lib, ularda shoir ilohiy yor visoliga erishish uchun oshiq ko‘pdan-ko‘p ruhiy qiynoqlar va azoblarga sabr bilan bardosh berishi, ana shundagina haqiqiy maqsadga erishish mumkinligini aytadi. Shoir bunda an’anaviy Ayyub obrazining o‘ziga xos talqinini yaratadi:

Ey kungulu vasl istasang sabr et balou dardga
Kim, muqarrib tangriga bu shevadin Ayyub erur.

Ya’ni Ayyub balolarga sabr etib, Haqqa yaqinlashdi. Lirik qahramon ham ko‘ngilga xitob qilib, «balou dardg‘a» sabrli bo‘lishni uqtiradi. Zero, sabr maqomida bo‘lgan kishi oqibat istagiga etadi.

Shoir boshqa bir baytida ham ta’kidlaydi:

Hech kim mandek toza olmas jafou javringa
Kim, balo anvoiga sabr etkali Ayyub ho‘b.

Umuman, Ogahiy lirik merosidagi Ayyub obrazi kishini qalb, yurak, ishq, e’tiqod kabi mavhum tushunchalarning mohiyatini to‘la anglab etishga undashi bilan birga iroda mustahkamligini ta’min etishda katta o‘rin tutadi. Ayyub obrazi atrofiga shoir xilma-xil ma‘nolarni jam etib, ular orqali kishi ma‘naviy yuksakligini kuylagan. Bu kabi she’rlarni o‘qib mulohaza qilgan kishi har qanday qiyinchilik qoshida mustahkam iroda bilan turishga ruhan quvvat topa oladi.

Xullas, Ogahiy ijodida Sulaymon, Ayyub obrazlarining qo‘llanilishi katta ahamiyatga ega bo‘lib, shoir univg an’anaviy sifatlarini o‘ziga xos talqin qilish yo‘li bilan mahbubaning etakchi belgilarini bo‘rttiribroq ko‘rsatishga diqqatini qaratadi, mo‘jizaviy go‘zallik timsoli bo‘lgan yorning sifatlari o‘quvchi ongiga ta’sirli singishiga astoydil harakat qiladi.

Anglashiladiki, shoir yashagan davrda ham Sulaymon haqidagi rivoyatlar ancha mashhur bo‘lgan. Ogahiy Sulaymonga Ayyubga xos sifatlarni chuqur bilgan hamda o‘z she‘rlarida ulardan mohirona foydalangan.

Adabiyotlar:

1. Zoxirov V. Ogahiy. T., 1961. Munirov K. Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. T., 1960.
2. Jumanazarov U. Tarix, afsona va din. T., 1990.
3. Mallaev N.M. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: Adabiyot va san`at, 1974. – 383 b.
4. Adabiyot nazariyasi. 2 tomli. t.I, Toshkent, 1978.

“MIFTOH UT-TOLIBIN” ASARINING OGAHIY TARJIMASI VA UNING FORSIY QO‘LYOZMALAR BILAN QIYOSIY TADQIQI

Mirkomilov E.A.,
O‘RFA A.R.Beruniy Sharqshunoslik instituti, k.i.xi

Annotasiya: Mazkur maqolada Ogahiy amalga oshirgan “Miftoh ut-tolibin” asarining turkiy tarjimasini O‘zRFAShI xazinasida saqlanayotgan asliyat forsiy qo‘lyozmalarga qiyoslab tadqiq qilingan natijasida yuzaga kelgan ma'lumotlar haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, G‘ijduvoniy, asliyat, tarjima, qiyoslash, tadqiq, qo‘lyozma, katalog.

Аннотация: В данной статье речь идет о данных, полученных в результате проведенного Огахи сравнительного исследования тюркского перевода произведения “Мифтах ут-талибин” на персидские рукописи, хранящиеся в сокровищнице Узрфаши.

Ключевые слова: Agahiy, ajuvaniy, asliyat, перевод, сравнение, исследование, рукопись, каталог.

Abstract: this article discusses the Turkish translation of the work “Miftoh ut-talibin” carried out by Ogahiy as a result of research in comparison with the original Persian manuscripts stored in the treasury of Uzrfashi.

Keywords: Ogahiy, Qijduvani, original, translation, comparison, research, manuscript, catalog.

Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti xazinasida Movarounnahr xususan hozirgi O‘zbekiston hududidan yetishib chiqqan mualliflar tarafidan ilmu fan va madaniyatning turli sohalari bo‘yicha yaratilgan minglab qo‘lyozma asarlar saqlanadi. Bu asarlar Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti tarixini o‘rganishda asosiy manba bo‘la oladi. Bu manbalarning muayyan qismi Markaziy Osiyoda vujudga kelgan tasavvufiy tariqatlar – Xojagon-Naqshbandiya, Yassaviya va Kubraviya tarixi va ta'limoti hamda ularga mansub yirik shayxlarning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan.

Shunday yirik siymolardan biri – Najmiddin Kubro Kubraviya tariqatiga asos solgan. Najmiddin Kubro vafotidan keyingi asrlarda Kubraviya ta'limotining mustaqil shaxobchalari vujudga kelgan. Masalan, Hamadoniya tariqatiga Sayyid Ali Hamadoniy (1314-1385), Husayniya silsilasiga esa Maxdum Husayn Xorazmiy (1466-1551) asos solgan.

Shulardan biri Husayn Xorazmiy haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, uning otasi Shahobiddin Husayn asli andijonlik bo‘lib, keyinchalik Xorazmda yashagan.

Kamoliddin Maxdum Husayn Xorazmiy 899/1493 yili Xurosonga borib, Maxdumi A'zam nomi bilan mashhur bo‘lgan Hoji Muhammad al-Xabushoniyning xizmatida o‘n bir yil bo‘ladi va tasavvuf asoslarini to‘liq egallaydi. 910/1504-05 yilda Xorazmga qaytadi. 923/1517 yilda hajga borish maqsadida Buxoroga kelganida, muridlarining iltimoslari bilan 924/1518 yili Samarqandda qolishga to‘g‘ri keladi va shu yerda G‘ori Oshiqon degan joyda yashay boshlaydi.

Kamoliddin Husayn Xorazmiy Markaziy Osiyoning ko‘plab shaharlarida safarda bo‘ladi. U 956/1549 yildan so‘ng bir guruh muridlari va o‘g‘li Sharafiddin bilan hajga, so‘ng Shom (hozirgi Suriya) viloyatiga keladi va shu yerda qolib 958/1551 yilda shu yerda vafot etadi. Kamoliddin Husayn Xorazmiy qalamiga mansub o‘nga yaqin nasriy va nazmiy asarlar bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ularning noyob qo‘lyozma nusxalari Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanib kelmoqda. Shuningdek, shayxning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab, uning shogirdlari va avlodlari tarafidan yozilgan bir qancha asarlar mavjud.

Kamoliddin Husayn Xorazmiy hayoti va faoliyatiga oid birlamchi manba, ya'ni Mahmud G‘ijduvoniyning 950/1543 yilda fors tilida yozilgan “Miftoh ut-tolibin” (“Toliblar kaliti”) asaridir.

Joni Mahmud ibn Shayx Ali ibn Imoduddin al-G‘ijduvoniyning “Miftoh ut-tolibin” asarining bir necha qo‘lyozma nusxalari mavjud hamda ularning tavsiflari kataloglarda keltirilgan [2; 8; 11;]. V.V.Bartol'd 1902 yilda Turkistonga safar qilganida Samarqand shahrida ham bo‘lib, V.L.Vyatkinning shaxsiy jamg‘armasidagi qo‘lyozmalarni ko‘zdan kechiradi [10:119-210]. U ba'zi qo‘lyozmalarni qisqacha, ayrimlarini birmuncha kengroq tavsiflaydi. Bular orasida Mahmud G‘ijduvoniyning “Miftoh ut-tolibin” asari bo‘lib, uning tavsifiga bir necha sahifa ajratilgan [10:145-151]. V.V.Bartol'd asar yirik shayx hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, o‘sha davr jamiyati maishiy sharoitlarini hamda ayrim tarixiy voqealarni, karvon yo‘llarini o‘rganish uchun muhim ma'lumotlar berishini qayd etib o‘tgan.

“Miftoh ut-tolibin”ning Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy tomonidan 1275/1859 yilda amalga oshirilgan turkiy tarjimasi yagona nusxada Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanadi. Ushbu qo‘lyozmaning qisqacha tavsifi Q. Munirov [9:29] va F. G‘anixo‘jaev [14:№47] kitoblarida keltirilgan. Shuningdek, “Miftoh ut-tolibin”ning mazkur turkiy tarjimasi haqida G‘.Karimovning ilmiy tavsifi Germaniyada nashr etilgan “XVIII-XX asrlarda yaratilgan yoki tarjima qilingan tasavvufga oid asarlar” katalogidan o‘rin olgan [1:41-47].

Ushbu Ogahiyning tarjima matnini tabdil qilib, nashrga tayyorlash jarayonida “Miftoh ut-tolibin”ning institutda mavjud asliyat (forsiy) qo‘lyozmalariga qiyoslab chiqishga to‘g‘ri keldi. Birinchi navbatda №1493 qo‘lyozmaga qiyoslab ko‘rildi. Bu qo‘lyozma 1250/1834-35 yili nasta'liqda ko‘chirilgan bo‘lib, 307 varaqdan iborat. Oxirida kolofoni mavjudligi bilan boshqalarga qaranda to‘liq nusxa edi. Sharq qo‘lyozmalari katalogida (SVR) ham to‘liq nusxa deb tavsiflangan [11:319].

Avval tarjima matnini asliyat №1493ga qiyoslash natijasida ba'zi bir forsiy ruboiylar va she'riy parchalar o‘girilmasdan tashlab ketilganga hamda Ogahiy she'riy parchalarni erkin, ba'zi hollarda qisqartirib tarjima qilganga o‘xshab ko‘rindi. Lekin asardagi muhim ma'lumotlar asosan uning nasriy qismida bayon qilingani uchun bu hol mazmunga putur yetkazmas edi. Shuningdek, she'riy parchalarning forsiy asliyatlari ularning turkiy tarjimalari keltirilgan varaqlar hoshiyalariga bitilgan. Ogahiyning

dastxat nusxasi saqlanib qolmagani tufayli mazkur forsiy she'riy parchalar tarjimon matnida ham bo‘lganmi yoki xattot tarafidan forsiy qo‘lyozmadan olinib, hoshiyaga bitilganmi – bu xususda biron xulosa qilish mushkul edi.

Ikkinchi marta tarjima matnini asliyat № 6920 forsiy qo‘lyozmaga qiyoslab chiqdik. Bu qo‘lyozma ham to‘liq bo‘lib, Mirak Husayn ibni G‘ulom Husayn tomonidan ko‘chirilgan, 156 varaqdan iborat. 1a-varag‘ida turli ranglar bilan bezatilgan unvon bor. Matn chiroyli nasta'liq xatida bo‘lib, oyat-hadislar, boblar nomi va shaxs nomlari qizil rangda ajratilib yozilgan hamda tilla va zangori ranglar bilan jadvalga olingan. Qo‘lyozmaning tavsifi SVR katalogiga kiritilmagan. Ogahiy tarjimasi №8473 bilan №6920 qiyoslab, o‘rganib chiqilganda bir biriga yaqin va o‘xshash joylari ko‘pligi aniqlandi. Ya'ni, baytlarning keltirilmagan joylari ko‘proq to‘g‘ri kelib, ishlatilgan lug‘atlardan ham sezilib turardi. Quyida № 6920 bilan Ogahiy tarjimasi bilan qiyoslanganda shu belgilar orqali asliyat bilan bir xil ekanligi aniqlangan joylarini keltiramiz:

1) Masalan xatanayn so‘zi № 8473 181b varaq va № 6920 134a varaq ham shu so‘z bor. Matnda ... az zohiri in suxan tafzili xatanayn lozim ... . Bu jumlani o‘rniga qolgan ikki nusxada № 1493 va № 5426 da ... nazari bo in suxan nuqson meoyad ... . keltirilgan.

2) Shuningdek, tarjima nusxa № 8473 182b-183a varaqlarda va ham forsiy nusxa № 6920 da 135a varaq o‘n birinchi majlisni o‘rniga o‘n ikkinchi majlis deb bir xil yozilgan. Boshqa nusxalarga, ya'ni № 1493 va № 5426 ga solishtirilganda ikkisida matn bir xil bo‘lib, o‘n birinchi majlis ham bor.

3) Yana bir misol: Bu jihatdin tiladikim barchag‘a rahmatin oshkora qilg‘ay to va annahu rahmatan lilmo‘minin rahmati xosu omning holig‘a shomil (184a). Va annahu – o‘rniga forsiy qo‘lyozmalar № 1493da 290a varaq va № 5426 qo‘lyozma 141b varaqda “va oyati” deb yozilgan. № 6920 da esa “va annahu” 136b varaq. Bu yerda “va oyati” so‘zi ko‘proq to‘g‘ri keladi. Chunki “va annahu” deb olsak Qur'oni karimga so‘zma-so‘z to‘g‘ri kelmadi.

4) № 8473 tarjima nusxaning 189b betidagi arabcha so‘zlar ham forsiy qo‘lyozma № 6920 140b betdagi kamchiliklar bilan aynan o‘zi keltirilgan. № 5426 qo‘lyozmada esa bular to‘g‘rilanib yozilgan.

5) № 8473 tarjima nusxaning 173b varag‘ida “munojot” keltirilmagan. № 6920 nusxada ham yo‘q. Lekin № 1493 raqamli qo‘lyozmada 274-275 varaqlar va № 5426 qo‘lyozmada esa 132b varag‘ida mavjud.

6) Ogahiy tarjima nusxaning 206a varag‘ida yana bir belgi bor. U yerda shunday deyilgan “Andoqkim Zahiriddin Muhammad Bobir va aning otasi Humoyun va birodarlari va yana ba'zi Islom sultonlaridin inobat saodatin topmish erdilarkim ...” matn kelyapti. Matnda otasi deyilgan so‘z o‘z o‘rnini topmayapti. Chunki Boburning otasi Husayn Xorazmiy davridan oldin o‘tgan. Bu yerda “aning farzandi Humoyun” deyish to‘g‘riroq. Buni aniqlash uchun № 6920 forsiy qo‘lyozmaga murojaat qildik. Qo‘lyozmaning 154b varag‘ida ham – bu forsiy so‘z – “volid” yozilgan. Bundan ko‘rinadiki, Ogahiy bu matnga suyanib “otasi” deb ketgan. Forscha so‘zdagi bir alifni ortiqcha deb olsak, albatta farzand degan ma'no chiqadi. Shunda hamma ma'no joy-joyiga tushadi. Boshqa qo‘lyozmalarning esa oxiri mavjud bo‘lmagani uchun ular bilan qiyoslab tekshirishni iloji bo‘lmadi. Shunday bo‘lsa ham keltirilgan ma'lumotlar Ogahiy aynan shu № 6920 qo‘lyozmadan tarjima qilganini ko‘rsatib turibdi.

Qo‘lyozmani ko‘zdan kechirib chiqqanda yana shu narsa ayon bo‘ldiki, forsiy qo‘lyozmaning № 6920 hoshiyalarida (masalan 93b; 94b; 97b; 98b; 145a; 146a; 148a; 150a) aynan matnda keltirilgan jumlalar takroran boshqa shaxs orqali hoshiyada bitilgan. Bular orqali shuni xulosa qilish mumkinki, Ogahiy tarjima davomida tarjimani to‘xtatib, keyin davom ettirish uchun belgilab o‘z dastxati bilan yozib qo‘yganini ko‘rsatadi hamda 142a varaq hoshiyasida ham turkiy baytlar yozilgan. Balki, bular ham Ogahiyning ijodidan bo‘lsa ajab emas.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasidagi qo‘lyozmalarning Davlat inventar' daftarida keltirilgan ma'lumotlar buni quvvatladi. Chunki, Davlat inventar daftarida ham № 6290 raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma aynan, Xiva kutubxonasidan 1945 yil 15 sentyabr' kuni keltirilgani qayd qilingan. Bu shuni ko‘rsatadiki, qo‘lyozma Xiva xoni Sayyid Muhammad Bahodir (1856-1864) kutubxonasida bo‘lgan. Keyingi tadqiqotlar natijasida so‘zimizni tasdig‘i topildi. Ya'ni, O‘zRFAShI qo‘lyozmalar xazinasining Hamid Sulaymon fondi № 269 raqam ostida saqlanayotgan “Xorazm xon kitobxonasidagi kitoblar ro‘yxati” nomli qo‘lyozmada “Miftoh ut-tolibin” asari shu ro‘yxatdan o‘rin olgan. Shuningdek, asarni Sayyid Muhammad Bahodirxonning buyrug‘i bilan 1275/1858-59 yilda Muhammad Rizo Mirob tarjima qilgan deb qayd qilingan [12:17a]. Ogahiy ham xonning farmoyishiga ko‘ra asarni forsiydan o‘zbek tiliga o‘girganligi haqida tarjimaning muqaddimasida keltirgan. Sayyid Muhammad Bahodir Yaqubxoja orqali “Miftoh ut-tolibin” asarini berib yuborib, tarjima qilishga farmon bergan [7:3a].

“Xorazm xon kitobxonasidagi kitoblar ro‘yxati” nomli qo‘lyozma asar hozirgi kunda A.S.Erkinov, N.T.Polvonov, H.A.Aminovlar tomonidan nashr qilingan [12]. “Xorazm xon kitobxonasidagi kitoblar ro‘yxati” nomli qo‘lyozmani ko‘zdan kechirganimizda yana bir narsa e'tiborimizni o‘ziga jalb qildi. U ham bo‘lsa, “Miftoh ut-tolibin” asari tib kitoblari ro‘yxatiga kiritilgan. Bu yerda shuni etmoqchimizki, umuman olganda “Miftoh ut-tolibin” manoqib asar. Manoqib asar ekanligi nashr bo‘lgan kitobda ham qayd qilingan [12:67]. Ammo asarda Husayn Xorazmiy o‘zining faoliyati davomida bir qancha kasalliklarni hech qanday tabobat ilmini qo‘llamasdan davolagani keltirilgan. Chunki odamlar bemor uchun barcha choralarini qilib, hech qanday natija bermagidan nochor va majburlikdan murojaat qilishgan. Hozirgi kunimizda bizga ma'lumki, medisina hamda tabobat yo‘li bilan davolanishda insonlar har xil giyohlar, tabletkalar iste'mol qilish orqali davolanishadi. Asardan ma'lum bo‘ladiki, kasallikdan qutulishning yana shunday yo‘llari bor ekanki, Husayn Xorazmiyga o‘xshagan ilm-ma'rifatga ega bo‘lgan ulug‘ zotlarga murojaat qilib, ularning ta'sirida ham davolanish imkoniyati bor ekan. Asardan bir voqeani misol tariqasida keltiramiz.

Husayn Xorazmiy Samarqandda ekanlarida bir onaxon farzandining “ochlik” (asarda “ju'” deb keltirilgan. Bu illatga yo‘liqqan odam aslo to‘ymaydi) kasaliga mubtalo bo‘lib qolganligi haqida murojaat qilib keladi hamda hakimlar (tabiblar) ko‘p muolajalar qilgan bo‘lsa ham naf bermaganlidan mahzun ekanligini izhor qiladi. Husayn Xorazmiy bir oz taom keltirishlarini buyuradi va non bilan sharbat keltiriladi. Yigitga o‘zlari tanovul qilgan taomni beradi hamda shu orqali bemorning ochligi to‘xtaydi. Xatto u yigit butunlay sog‘ayib, oilali bo‘lib, bir qancha vaqt umr ko‘rganligi keltirilgan [7:164a-165b]. Mana shunga o‘xshagan rivoyatlar e'tiborga olingan holda tib kitoblari

ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lishi mumkin. Albatta bunga o‘xshagan mavzudagi rivotlarni yanada chuqurroq tadqiq qilish kelajakda tadqiqotchilarimiz oldida turgan masalalardan biri deb hisoblaymiz.

Qo‘lyozmalarni qiyoslab o‘rganish jarayonida zarur o‘rinlarda boshqa noto‘liq forsiy nusxalar ham ishga jalb qilindi. O‘zRFAShI xazinasining asosiy fondida saqlanayotgan №394 raqamli qo‘lyozma qadimiyroq bo‘lsa ham oxiri nuqsonli bo‘lgani uchun keyingi navbatga qoldirildi. Qo‘lyozmaning boshida chiroyli unvon chizilgan bo‘lib, matn matn zar va zangori ramkaga olingan. Oxiri suqutli bo‘lgani sababli xattot va ko‘chirilgan vaqti noma'lum [11:318].

Nusxalarga qiyoslab chiqilganda shu narsa ma'lum bo‘ldiki, №1493 va № 5426 bir biriga yaqinroq agarchi №5426da ba'zi baytlar qisqartirilib berilgan bo‘lsa-da. Ogahiy tarjimasi №8473 bilan №6920 bir biriga yaqin. Baytlarning keltirilmagan hamda qisqartirilgan joylari ko‘proq to‘g‘ri keladi. Shuningdek, Ogahiy tarjimani №6920 qo‘lyozma orqali amalga oshirganligi ma'lum bo‘ldi hamda hech qanday qisqartirishsiz asliyatga suyangan holda tarjima qilgan. Yuqorida №1493 qo‘lyozmaga qiyoslash natijasida xosil bo‘lgan savollarga hech qanday o‘rin qolmadi.

Adabiyotlar:

1. Каталог суфийских произведений XVII-XX вв. из собраний Института Востоковедения им. Абу Рейхана Беруни Академии Наук Республики Узбекистан. Stuttgart: Frans Steiner Verlag, 2002. – № 13.

2. Костигова Ж.И. Персидские и таджикские рукописи Государственной библиотеки им. М.Е.Салтыкова-Щедрина. Т. II. – Ленинград, 1989. № 1235;

3. Mahmud G‘ijduvoniy. Miftoh ut-tolibin. O‘zRFAShI xazinasining asosiy fondi. Qo‘lyozma №349.

4. Mahmud G‘ijduvoniy. Miftoh ut-tolibin. O‘zRFAShI xazinasining asosiy fondi. Qo‘lyozma №1493.

5. Mahmud G‘ijduvoniy. Miftoh ut-tolibin. O‘zRFAShI xazinasining asosiy fondi. Qo‘lyozma №5426.

6. Mahmud G‘ijduvoniy. Miftoh ut-tolibin. O‘zRFAShI xazinasining asosiy fondi. Qo‘lyozma №6920.

7. Miftoh ut-tolibin. Ogahiy tarjimasi. O‘zRFAShI xazinasining asosiy fondi. Qo‘lyozma №8473.

8. Munzaviy A. Fihristvaro-yi kitobho-yi farsi. T. III. Tehron, 1376. B.2285

9. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. Toshkent: Fan. 1960 . B.29

10. Otchet o komandirovke v Turkestan // Bartol'd V.V. Sochineniya. T. VIII. Moskva: Nauka, 1973.

11. Sobranie vostochnix rukopisey Akademii nauk Uzbekskoy SSR, T. III. / Pod redaksiey i pri uchastii A.A.Semenova – Tashkent: Fan, 1955. – №№2580, 2581.

12. Xorazm xon kitobxonasidagi kitoblar ro‘yxati. O‘zRFAShI xazinasining Hamid Sulaymon fondi. Qo‘lyozma №269. 17a-varaq.

13. Erkinov A.S., Polvonov N.T., Aminov H.A. Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehristi (Xorazmda kitobat va kutubxonachilik tarixidan). Toshkent:- “Yangi asr avlodi”, 2010.

14. G‘anixo‘jaev F. Ogahiy asarlarining tavsifi (katalog). Toshkent, 1986. № 47.

“OGAHIY TARJIMON, ADIB IJODIDA AN'ANA VA NOVATORLIK”

Mutalov D.A., Oriental universiteti o’qituvchisi

Annotasiya: Mazkur ilmiy maqolada shoir Muhammad Rizo Ogahiy hayoti va ijodiga bir nazar tashlab, u yaratgan Xorazm tarjimonlik maktabi an'analari va namunalari bilan tanishamiz**.**

Kalit so‘zlar: Ogahiy, adabiyotshunoslik, filologiya, sharq adabiyoti, tarjima.

Аннотация: В данной научной статье мы рассмотрим жизнь и творчество поэта Мухаммада Резы Огахи, познакомимся с традициями и образцами созданной им Хорезмской переводческой школы.

Ключевые слова: Огахи, литературоведение, филология, Восточная литература, перевод**.**

Abstract: in this scientific article, we will take a look at the life and work of the poet Mohammed Reza Ogahi and get acquainted with the traditions and examples of the Khorezm translation school created by him.

Keywords: Ogahiy, literary studies, philology, Oriental Literature, Translation.

Yangi O‘zbekistonimizning bugungi kunlarida milliyligimizni, qadriyatlarimiz va o‘zligimizni anglash yo‘lida jamiyatimizning barcha jabhalarida, jumladan, Oliy ta'lim tizimida tahsinga sazovor ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.07.2020 dagi 502-sonli “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy me'rosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda Adiblar hiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori mazkur xayrli ishlarning huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelajagimiz bo‘lmish yosh avlod ongida buyuk ajdodlarimiz siymosini to‘laqonli gavdalantirish, ularning boy madaniy me'rosini chuqur anglab yetish yo‘lida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik” kafedrasi tashabbusi bilan “Ogahiy ijodiy me'rosi va sharq adabiyotida adabiy an'ana masalasi” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Adabiyotshunoslar tomonidan olib borilgan qator ilmiy izlanishlarga tayangan holda, shoirning ilmiy me'rosiga nazar tashlab, o‘sha davrning adabiy muhiti haqida ma'lumotlarni bugungi kun o‘quvchisiga yetkazishga ehtiyoj bor degan xulosaga keldik.

Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li - Ogahiy hijriy 1224 – melodiy 1809 yilda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida ma'rifatli va badavlat oilada dunyoga keldi. O‘zining faxr bilan guvohlik berishicha, uning ota – bobolari uzoq yillar davomida Xiva xonligida miroblik mansabini egallab kelganlar. Xorazm sharoitida miroblik davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan lavozimlardan biri edi. Ogahiy dunyoga kelganda uning amakisi – mashhur shoir va muarrix Shermuhammad Munis xonlikda mirob edi. Ogahiyning otasi (Munis Xorazmiyning ukasi) Erinyozbek Ogahiy uch yoshligida vafot etgan. Shundan so‘ng Ogahiyning tarbiyasini va bu oilaga g‘amxo‘rlikni Munis o‘z zimmasiga oladi. Maktab va madrasada tahsil olgani holda, amakisi Munis dargohida o‘sha zamonning tolibi ilmlari, shoirlari va adabiyot muxlislarining subhatlarida qatnashib yurgan, bu esa shoirning adabiyotni chuqur anglab yetishida muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

1829 yildan boshlab mirob sifatida saroy ishlarida ishtirok eta boshlab, xalq hayotini o‘rgangan Ogahiy katta turmush tajribasiga ega bo‘ldi. Hayotning hamma

baland-pastini, dabdabali saroy hayotidan tortib, talangan, gadoylarcha umr kechirishga majbur bo‘lgan kosib hunarmandlar hayotini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Ogahiy o‘z nazmiy va nasriy ijodiyoti bilan XIX asrning 30 - yillaridayoq kichik lirik she'rlar yozish bilan tanilgan, keyinchalik katta epik asarlarni, ilmiy-ta'limiy risolalarni forschadan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Shoir ijodining dastlabki davridagi quyidagi satrlar uning o‘sha vaqtdagi kayfiyatidan darak berib turardi:

Qadam aylabon ilm yo‘lida bosh,
Hunar kasbida aylar erdim talosh.
Ne tunlar menga xobi rohat,
Ne kunlar zamoni farog‘at edi.

Ma'lumot o‘rnida shuni aytish kerakki, Ogahiyning butun hayoti Xiva xonligini Muhammadrahim-I, Olloquli, Rahimquli Muhammad Amin-II, Sayid Abdullo Qutlug‘murodxon, Sayidmuhmmadxon va nihoyat Muhammad Rahim-II idora qilgan davrlarga to‘g‘ri keladi.

O‘zbek xalqi juda qadim zamonlardan beri arab, hind, eron, xitoy kabi Sharq mamlakatlari xalqlari bilan, shuningdek Yevropa xalqlari bilan madaniy aloqa va hamkorlik qilib keladi. Ko‘p asrlik o‘tmishga ega bo‘lgan bu hamkorlik tarixida Ogahiy sharafli o‘rinlardan birini egallaydi.

Ogahiy XIX o‘zbek xalqining madaniy aloqalari rivojiga katta hissa qo‘shib, zo‘r g‘ayrat va katta mahorat bilan sharq xalqlari madaniy me'rosiga mansub bo‘lgan qator noyob asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qildi.

U o‘z devoni “Ta'vizul-oshiqin”ga yozgan “Debocha”sida boshqa masalalar qatorida o‘z faoliyati davrida qilgan tarjimalariga ham to‘xtaladi va ularni birma-bir tilga olib, ularning to‘liq ro‘yxatini beradi.

“Faqirning turkiy tili bilan tarjima qilg‘on kitoblari: “Tavzat-us Safo”ning ikkkinchi daftaridin chahoryor izomning voqeasi va uchinchi daftari va “Nodirnoma” va “Zafarnoma” va “Zubdat-ul hikoyat” va “Miftoxud tolibin” va “Axloqil muxsiniy” va “Vosifiy” va “Nasixatnomai Kaykovus” va “Salamonu ipsolu Jomiy” va “Gulistoni Sa'diy” va “Bahoristoni Jomiy” va “Ravzat-us safoi Nosiriy”ning bir daftari va “Daloilul hayrat” sharxikim, rum turkiydin chig‘atoy tiliga o‘tkarildi va “Xaftpaykari Nizomiy” va “Xasht bexishti Hisravi” va “Tazkirai Muqimxoniy” va “Taboqati Akbarshoxi” va “Yusuf va Zulayxo” Jomiykim, manzum bo‘ldi va “Shoxu gadoi Xiloliy”kim manzum bo‘ldi.

Hozirgacha Ogahiyning jahon madaniyati durdonalaridan qilgan quyidagi tarjimalari fondlarda bor:

1 - “Guliston”. Sa'diy She'roziyning (1184-1292) bu nodir asari o‘zbek tiliga bir necha bor tarjima qilingan. Uning birinchi tarjimasi Sayfi Saroyi tomonidan 1390-91 yillarda amalga oshirilgan. Ogahiy esa bu asarni 1862-63 yillarda tarjima qildi. Ogahiydan keyin ham bu asarga murojaat qiluvchilar bo‘ldi. So‘nggi tarjima shoir G‘afur G‘ulom, adabiyotshunos Shoislom Shomuxamedov va Rustam Komilovlar qalamiga mansubdir.

Ogahiy o‘z tarjimasida “Guliston”ning to‘liq matnini berib, uni qisqacha so‘zboshi bilan ham ta'minladi. Tarjimon so‘zboshida kitobning mazmuni, uning muallifi haqida ba'zi ma'lumotlarni bergandan so‘ng, uning ijodiga yuqori baho berib, Sa'diyga nohaq hujum qiluvchilardan uni shunday himoya qiladi:

“Sa'diyning aksar so‘zi tarabangiz va faraxomuzdir. Bu illat bila ba'zi ko‘taxnazarlar ta'na tilin shundoq uzaturlarkim muncha “behuda so‘z demak va dumog‘ ma'zin befoyda yemak xiradmandlarning ishi emastur.””

2 - “Xafti paykar Nizomiy”. Ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning (1141-1203) bu mashhur asarini Ogahiy nasrda tarjima qilgan. Tarjimaning 1917-18 yillarda Mulla Qurbon Niyoz ismli kotib tomonidan Xorazmda ko‘chirilgan bir nusxasi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. (inv№ 7695)

3 – “Yusuf va Zulayho”. Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) bu asarini Ogahiy 1868-69 yillarda she‘riy yo‘lda tarjima qildi.

4 – “Shox va Gado”. Alisher Navoiyning kichik zamondoshi Bahriddin Hiloliyning (....-1523) bu asarini Ogahiy she'riy yo‘lda 1868-69 yillarda tarjima qildi.

5 – “Qobusnoma”. Bu asar manbalarda “Mav'izatnomai Kaykovus”, “Pandnoma”, “Nasihatnoma” – deb ham yuritiladi. Qobusnoma jahondagi “Shoxnoma”, “Kalila va Dimna”, “Ming bir kecha” kabi mashhur kitoblardan biri bo‘lib, uni Kaykovus binni Iskandar binni Qobus binni Vushangir o‘z o‘g‘li Gilonshox uchun yozgan.

Qobusnoma birinchi marta o‘zbek tiliga Ogahiy tomonidan tarjima qilindi. Ogahiy o‘z tarjimasi uchun asarning forscha variantini asos qilib olgan va uning to‘liq matnini (44 bob) bergan. Ogahiy kitobning bosh qismida so‘zboshi yozib, unda kitob va uning muallifi haqida so‘zlaydi. Lekin tarjimaning qachon qilingani ma'lum emas. Topilgan tarjima nushalarining biri 1902-03 yillar orasida, 2-esa 1911-12 yillarda ko‘chirilgani haqida ma'lumotlar uchraydi.

6 – “Zubdat-ul Hikoyat”. Ahloqiy-ta'limiy xarakterdagi hikoyalardan iborat bo‘lgan bu asarning muallifi, Ogahiyning ko‘rsatishi bo‘yicha Muhammad Vorisdir. Forschadan qilingan bu tarjimaning 1902-03 yillarda kotib Mulla Ro‘zi Muhammad tmonidan ko‘chirilgan bir qo‘lyozma nusxasi mavjud.

7 – “Miftox-ut Tolibin”. Falsafiy va ahloqiy xarakterga ega bo‘lgan bu asarning muallifi mashhur olim Mahmud binni Shayx Ali binni Imomiddin G‘ijdivoniydir. Ogahiy uni forschadan 1858-59 yillarda tarjima qilgan. Tarjimaning shoir qo‘li iblan yozilgan bir nusxasi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. (inv№ 8473)

8 – “Tazkirai Muqimxoniy”. Balx hokimi Muhammad Muqimxonga bag‘ishlangan bu muhim tarixiy asarning muallifi Muhammad Yusuf munshiy ibn Xo‘ja Baqodir. Asar XVIII asr boshlarida yozilgan deb taxmin qiliniadi. Tarjimaning tarixi noma'lum. Bir qo‘lyozma nusxasi Sankt – Peterburgdagi Saltikov – Shchedrin nomidagi kutubxona fondida saqlanadi.

9 – “Taboqati Akbarshohiy”. Kitob va uning muallifi haqida kitobga yozgan so‘zboshisida Ogahiy quyidagilarni ta'kidlaydi: “...Hindiston kishvarining tarixinikim, Nizomiddin Ahmad binni Muhammad Muqim Hirotiyning tasnif etgan kitobidur va oti Taboqati Akbarshohiydur, turkiy tili bilan tarjima qilmoq va ilkimga jur'at qalami olib kamol g‘ayrat bilan raqam qilmoq ishiga mashg‘ul bo‘ldim.

Kitob Hindiston tarixini bayon qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur ta'sis etgan imperiya tarixi haqida ham ancha ma'lumotlar bor.

Kitobni Ogahiy 1864-65 yillarda tarjima qildi.

10 – “Ahloqi Muhsiniy.” Asar qirq bobdan iborat bo‘lib, ahloqiy, ijtimoiy va tarbiyaviy masalalardan bahs ochadi. Husayn binni Ali Koshifiyning bu asarini Ogahiy forschadan umrining ohirlarida 1873-74 yillarda tarjima qilgan.

11 – “Daloil-al Hayrat.” Diniy xarakterga ega bo‘lgan bu asarni Ogahiy 1870-71 yillarda Usmonli turkchasidan tarjima qildi.

12 – “Tarixi Nodiri.” “Nodirnoma”, “Tarixi jahonkushoi Nodiri” nomlari bilan yuritiladigan bu asarning avtori Muhammad Madxiy Astrabodiy binni Muhammad Nosir bo‘lib, Nodirshox xukmronligi davri (1736-1747) voqealaridan bayon qiladi. Bu tarjimaning ham ikki qo‘lyozma nusxasi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi.

Olima Shahnoza Nazarovaning “Ogahiy ijodiga yangicha bir nazar” risolasida ta'kidlashicha, “Xorazm tarjima maktabida Ogahiy mislsiz o‘ringa ega. Hech bir millatda o‘z asarlaridan tashqari bunchalar ko‘p va nayob tarjimalarni amalga oshirgan daho bo‘lmasa kerak.” – deb ta'kidlagan[43]. Yuqorida keltirilgan faktlardan ko‘rinadiki, Ogahiy davri Xorazm adabiyoti Buxoro va Qo‘qon adabiy markazlaridan ham original ham tarjima asarlarga boy ekanligi bilan ajralib turgan. Xorazmda tarjima san'atining yuksaklikka erishgani haqida olim Subutoy Dolimov bunday yozgan: “...tarjimonlik mahorati o‘sha davr shoirlarining kundalik vazifalari bo‘lib qoldi.” Olim buning sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi: Birinchidan xonlar boshqa xalqlarning ustiga hujum qilish bilan ikki xalq (o‘zbek va tojik, o‘zbek va eron, o‘zbek va hind) orasidagi do‘stlikni buzishga harakat qilsalar, shoir tarjimonlar esa boshqa xalq yozuvchilarining asarlarini tarjima qilib, ikki xalq orasidagi do‘stlikni tiklashga va mustahkamlashga intildilar; Ikkinchidan, tarjimonlar qo‘shni xalqlarning yetuk yozuvchilari asarlarini tarjima qilish bilan o‘zbek xalqini insoniylik, ma'rifatparvarlik, do‘stlik g‘oyalari bilan tarbiyalash va o‘zbek kitobxonlarini shunday asarlardan bahramand qilishni ko‘zda tutganlar; Uchinchidan, ichki va tashqi nizolarning quliga aylanayotgan xonlarni adolat va xalqparvarlikka chaqirganlar.[44]

Xalqimiz ma'naviyati kun sayin yuksalib, kitobga, badiiy asarlarni o‘qishga bo‘lgan talab ortib borayotgan bugungi kunlarda Ogahiyning adabiy me'rosi, hususan tarjima asarlari ham ezgu g‘oyalarga xizmat qilishda davom etmoqda.

Adabiyotlar:

1. Ogahiy. Asarlar. (5 tomlik.) G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1978 y.

2. V.A. Abdullaev. “O‘zbek adabiyoti tarixi”. (4tomlik.) “O‘qituvchi” 1978-80 y.
3. Sharq klassiklari merosidan “Ogahiy she'riyatidan”. Toshkent 1983 y.
4. Muhammad Rizo Ogahiy “Ishq ahlining tumori”. Toshkent 1999 y.
5. Shahnoza Nazarova “Ogahiy ijodida yangicha bir nazar”. O‘zMU 2010 y.
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/ZiyoNet

[43] Sh. Nazarova “Ogahiy ijodiga yangicha bir nazar” 9-bet.

[44] S.Dolimov. Ogahiy-tarjimon. Ilmiy asarlar to‘plami (№258) ToshDU – 1964. 192-bet.

OGAHLARNING OGAHI BO‘LGAN SHOIR

Jumaniyozova I.,
A.Qodiriy nom. ijod maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Xorazm adabiy muhiti, unda Ogahiyning tutgan o‘rni, shoir yaratgan g‘azallarda tasavvufiy g‘oyalar, javonmardlik ildizlarining talqini kabi masalalarga e‘tibor qaratilgan. Ogahiy o‘z davri donishmand ijodkori sifatida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga faol munosabati, ijodida aks etishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: fasohat, haqiqat yog‘dusi, xalqchillik, shakarlang, didaktik, davr, muhit, ijod, badiiy mahorat.

Аннотация: статья посвящена таким вопросам, как литературная среда Хорезма, роль в ней Огахи, мистические идеи в газелях, созданных поэтом, интерпретация корней джаванмардлика. Огахи как мудрый творец своего времени освещает активное отношение к общественно-политическим процессам, отражение их в творчестве.

Ключевые слова: красноречие, дождь истины, народность, шугаринг, дидактика, эпоха, среда, творчество, художественное мастерство.

Abstract: the article focuses on such issues as the literary environment of Khorezm, the role of Ogahi in it, mystical ideas in the ghazals created by the poet, the interpretation of the roots of javonmardism. Ogahi as a wise creator of his time, his active attitude to socio-political processes, reflection in his work are covered.

Keywords: eloquence, rain of truth, peopletalk, sugarcane, didactic, period, environment, creativity, artistic skill.

Xorazm vohasi qadim-qadimdan o‘zining boy, sermahsul va fusunkor adabiyoti, san‘ati, betakror tarixiy-madaniy obidalari bilan dunyoni hayratga solib kelgan. Bu qadimiy zamin tuprog‘idan qanchadan qancha buyuk avliyolar, dunyo tan olgan adabiyot va madaniyat arboblari kamol topgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

XIX asrning birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti, xususan, Xorazmda vujudga kelgan adabiy va madaniy muhitning eng iste‘dodli vakillaridan biri Ogahiydir. Fasohat mulkining shohi bo‘lgan Muhammad Rizo Ogahiy Navoiydan keyin buyuk va takrorlanmas siymo sifatida tan olingan.

Zero, har bir shoir xalq qalbini, dardini his qilib uning yuragiga aylansagina dillarda doston bo’la oladi. Ogahiy ana shunday xalqparvar, xokisor, qalbi ezgulik va poklikka limmo-lim to‘lgan betakror adib edi. Uning ijodi takrorlanmas, boy va haqiqat yog’dusi ufurib turgan xazinadir. Bu xazina yillar o‘tsa-da, o’z qadrini yo‘qotmaydi, aksincha, yana-da yangi-yangi sahifalarini ochib boraveradi. Shoir she‘rlarining insonlar qalbini tez zabt etishi va xalqchilligining sababi shundaki, u mehnatkash xalq dardini, iqtisodiy tang ahvolda ekanligini chinakam his qilgan, ularning hayotini o‘zining hayotidan ayro tasavvur qila olmagan shoirdir.

Shu o‘rinda, Komil Xorazmiyning Ogahiy haqidagi quyidagi baytlarini esga olmasdan ilojimiz yo’q:

Ulki ogahlarning ogahidur.
Fahmu donish sipehrining mahidur

So'zi ortiqdur guhardin ham
Fazlu donishda olam ichra olam

Ogahiy g'azallarining mavzu ko'lami juda keng: unda umrning o'tkinchiligi, shohlarni adolat va xalqparvarlikka chaqirish, dunyoga ko'ngil qo'ymaslik, ilohiy ishq va majoziy ishq, go'zal yor madhi aks etgan. Bundan tashqari, shoir g'azallarida Najmiddin Kubro boshlab bergan javonmardlikni, tasavvufiy g'oyalarni ham sezish qiyin emas.

Bizga ma'lumki, Insoniyat – ma'naviyat olamida eng yetuk va eng murakkab ta'limot - tasavvuf ilmiy ta'limotidir. Bu ta'limot Ollohga intilish bo'lib, o'zligini anglab, qalbining ochilmagan imkoniyatlarini ishga solish, bu bilan Ollohning karomat nuridan bahramand bo'lish uchun o'z kamoloti sari yo'l tutib, ya'ni inson o'z ruhini Ollohga yaqinlashtiradi[1]. Javonmardlik mardlik va poklik, qahramonlik va fidoyilik, ma'rifat va jismoniy-ruhiy qudrat, inson kamolotida axloqiy yuksaklik kabi buyuk insoniy fazilatlarni o'z ichiga oladi. Buyuk ijodkor Ogahiy ijodida shu kabi g'oyalarni uchratishimiz mumkin.

Ey ko'ngil, gar xurram o'lmoq istasang, bo'l xoksor
Kim, ko'karmak mumkin ermas, yerga tushmay donadan.

Bizga ma'lumki, inson tuproqdan yaralgan va yana xokka aylanadi. Shunday ekan, inson bu o'tkinchi dunyoda kamtarlikni o'ziga odat qilishi, kibr va manmanlikka berilmasligi kerak. Ogahiyning yuqorida keltirilgan baytida bunga guvoh bo'lamiz. Urug' yerga tushgach, ming mashaqqat ila zahmat chekib, yerni yorib unib- o'sa boshlaydi. Inson ham umri davomida turli qiyinchiliklar, riyozatlarni chekib, hayotning achchiq- chuchugini tatib ko'radi. Hayot yo'llarida ming mashaqqatlarga guvoh bo'ladi, yomonlardan ibrat, yaxshilardan saboq olib sayqallanib komil inson darajasiga ko'tariladi.Insonni kamolot darajasiga ko'taradigan, ulug'laydigan fazilatlardan biri kamtarlikdir.

Bundan tashqari, Ogahiy lirikasida ilohiy ishq, ya'ni insonning Ollohga muhabbati, mardlik, qalb pokligi aks etgan g'azallarni ham uchratishimiz mumkin.

Gar erursan mard, qil ishq o'tidin bag'ringni suv,
Kibru naxvat chirkidan ul suv bila ilgingni yuv

Yoki:

Jahondur bebaqo, fursat erurkim, umr musta'jil,[45]
Boshingdin qo'y havasni-yu yuz ur taqviyu toatga[2]
Bu misralarni o'qib hayratga tushmasdan ilojimiz yo'q.

Quyida berilgan she'rida esa tuproqning muqaddasligi, har bir qadamimizni o'ylab bosishimiz kerakligi , bu xok nechog'lik qadrli ekanligi, qanchadan qancha insonlar qo'nim topganiga guvoh ekanligini eslatib o'tadi:

Bu gulshan sayrin etsang, bosma gustohona tufroqni,
Ki, har rom ostida paykari ozoda madfundir.

[1] D. Bobojonov, M.Abdurasulov "Abadiyat farzandlari" 2009. Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyoti, 2009.

Bizga ma‘lumki, Ogahiy Xiva xoni bo’lmish Feruzxon davrida xon saroyida ijod qilish bilan birga, jamoat arbobi sifatida ko‘p xizmatlar qilgan. Qizg’in ijtimoiy- siyosiy mehnat bilan mashg’ul bir paytda otdan yiqilib, oyog’i “shakarlang” (shol) bo’lib qoladi. 1857- yildan miroblik vazifasidan iste’fo bergan. Umrining oxirigacha moddiy muhtoj, g’amgin, kasalmand ahvolda kun kechirgan.

O’zim xorazmlik bo‘lganim uchunmi, shoirning hayot yo’llariga juda qiziqqanman, ular haqida juda ko’plab rivoyatlarni eshitganman. Shulardan birini keltirib o‘tmoqchiman. Ogahiy umrining oxirlarida juda nochor ahvolda qoladi, lekin ijoddan to’xtamagan. Shoir g’azallari yozilgan paytdayoq xalq orasida tez ashhur bo’lib, qo‘shiq qilib kuylanar edi. “Ustina” g’azali ham uda mashhur bo’lib ketadi, masshoqlar tomonidan kuylana boshlaydi. Shunday kunlarining birida Ogahiy xon saroyidagi bazmlarda qo’shiq kuylaydigan bir mashshoqqa murojaat qilib, ushbu g‘azalning qo’shig‘ini xon saroyida aytishini iltimos qiladi. Mashshoq bunga aslo rozi bo‘lmasligini aytadi, chunki xon g‘azabidan, boshi ketishidan cho‘chiydi. Nihoyat, Ogahiy uni ko‘ndiradi. Saroydagi bazmlaring birida mashshoq “Ustina” g‘azalini kuylay ketadi, qo‘shiq o‘rtasida shunday joylari aytilib o’tiladi:

Ey shah, karam aylar chog‘i teng tut yamon-u yaxshini,
Kim mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

Xoki taning barbod o‘lur oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.

Qo‘shiq tugagach, hamma o‘yga to‘ladi, saroy a‘yonlari yon atroflariga qarashsa, hech qayerda Feruzxon yo‘q emish. Saroydagilar xonni qidirishga tushib ketishibdi, hech qayerdan topisha olmabdi. Oxiri Feruzxon Ogahiyning g‘aribona kulbasida shoir tevaragida yig‘lab o‘tirganini ko‘rishibdi. Shundan keyin Feruzxon shoirga alohida e‘tibor bergan, uy-joyini yangidan ta‘mirlab bergani haqida eshitganman.

Ogahiy shunday og‘ir zamonda yashasa ham qalbidagi og‘riqli nuqtalarni, ya‘ni davrning, muhitning nosog‘lom ekanligini, yuqori tabaqa vakillarining xalq manfaatini emas, faqat o’z manfaatlari yo‘lida hech nimadan qaytmasliklarini qo‘rqmasdan ochiq-oydin tarzda ayta olgan shoirdir. U o‘z zamonida buyuk ijod ahllarining qiyin va nochor ahvolda qolganliklarini, ilmsiz, johil kishilarning esa yuqori amallarni egallaganlarini ko’rib qattiq qayg‘uradi. Masalan:

Zuhaldek tiyra dillar izzat avjida maqom aylab,
Quyoshdek sof dillar tushdilar xoki mazallatga

Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi g’azallaridan tashqari shoirning didaktik mavzudagi, ya‘ni axloqiy- tarbiyaviy ruhdagi g‘azallarini ham ko’plab uchratish mumkin:

Parvarish bila tikan gul bo’lmas,
Ham tarbiyat ila zog‘ bulbul bo’lmas

Yoki:

Gar asli yomonga yaxshilik ming qilsang,
Yaxshilik oning niyati bilkull bo’lmas.[3]

Ogahiyning betakror asarlari, purhikmat g‘azallari asrlar o’tsa-da, kuy bo’lib, qo’shiq bo’lib, qalblardagi nozik kechinmalarga ta‘sir qiladi, ularga iliq bir harorat olib kiraveradi. Donishmand va faylasuf shoir yaratgan dur-u javohirlar abadiyatga daxldor bo’lib, insonlarni ezgulikka chaqirib kelaveradi.

OGAHIY IJODIDA BADIIY–ESTETIK TAFAKKUR

Yusupova D.A., TDSHU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ogahiy she’riyatida folklor motivlar, ularning g‘azallardagi anglashilgan mohiyati, shuningdek, shoorningt mifologiyadan, xalq og‘zaki ijodidan va folklor motivlardan keng foydalangani tahlilga tortiladi. Ogahiy g‘azallaridagi lirik qahramon, uning qalb tug‘yonlari, afsona va rivoyatlardan keng foydalanganligi, an’anaviy obrazlar orqali o‘z badiiy-estetik tafakkuri hamda badiiy mahoratini nechog‘lik yuqori ekanligi maqolada o‘z aksini topadi.

Kalit so‘zlar: folklor va yozma adabiyot, mifologik obrazlar, lirik qahramon, afsona va rivoyatlar, an’anaviy obrazlar.

Аннотация: В данной статье в поэзии Огахи анализируются фольклорные мотивы, их осмысленная сущность в газелях, а также широкое использование шорнингом мифологии, устного народного творчества и фольклорных мотивов. Лирический герой Газелей огахи, его пороки сердца, широкое использование мифов и повествований, его художественно-эстетическое мышление и художественное мастерство передаются через традиционные образы.

Ключевые слова: фольклор и письменная литература, мифологические образы, лирический герой, мифы и повествования, традиционные образы**.**

Abstract: this article deals with the analysis of folklore motives in Ogahi poetry, their perceived essence in gazelles, as well as the extensive use of shoorningt mythology, folk oral creativity and folklore motives. The lyrical hero in the ghazals of ogahi, his fervor of the soul, his extensive use of myths and legends, his artistic and aesthetic thinking through traditional images, as well as his artistic skills, are reflected in the article.

Keywords: folklore and written literature, mythological images, lyrical hero, myths and legends, traditional images.

Malumki, mumtoz adabiyotimizning buyuk namoyandalari o‘zlarining ma’naviy jihatdan yetuk asarlari bilan milli merosimizga munosib hissa qo‘shib kelishmoqda. Muhammad Rizo Ogahiy ham o‘zining bizlarga qoldirgan madaniy merosi bilan milliy ma’naviyatimizni yuqori cho‘qqilarga olib chiqdi. Qadimdan mumtoz adiblarimiz o‘z tafakkurlarini, asarda aks ettirmoqchi bo‘lgan g‘oyalarini teranroq ifoda etish, o‘quvchi qalbidan o‘rin olish maqsadida mifologiyadan, xalq og‘zaki ijodidan va folklor motivlardan keng foydalanishgan, shu bilan birga an’anaviy qadriyatlar ham o‘zining ifodasi topgan.

Muhammad Rizo Ogahiy ham o‘z g‘azallarida lirik qahramon ruhiy olamini kashf etishda folklor va yozma adabiyotda faol qo‘llaniladigan mifologik obrazlarga murojaat qilgan.

Mumtoz san’atkorlar asarlarida mifologik obrazlar oshiq va ma’shuq xarakteri, sifatlari, kechinmalarini yoritishda vosita, asos bo‘lishdan tashqari she’riyatning xalqchil ruhi va xalq qalbiga hamohang bo’lishini, hayot bilan uzviy bog‘lanishini ta’minlashga xizmat qilgan.

Ogahiy lirikasi ham an’anaviylikka hamohang bo‘lgani holda, unda shoirning poetik mahorati, falsafiy-estetik qarashlari ifodalangan. Shu bois, Ogahiy g‘azallarida o‘zi yashagan davr hayoti haqidagi realistik tushunchalar, o‘ziga xos (o‘xshatish, ramz, istiora va ifatdoshlar) tasvir vositalari qatnashadi.

Ogahiy o‘z ijodida faol qo‘llagan mifik obrazlardan biri Xizrdir. Xizrning tiriklik suvi jonsizga jon ato qilishga qodir. U kecha-yu kunduz olam kezib yuradi. O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan tasavvurlariga ko‘ra, unuroniy chol sifatida gavdalanadi. Xizrga yo‘liqqan kishi go‘yo bir umr baxtli bo‘ladi. Xalq uni Xojai Xizr, Xizr bobo, Xazrati Xizr deb ham ataydi.Lirik qahramon ko‘nglining toza va tiniqligi holati Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida hayratlanarli tarzda ifodalangan. Majnunning firoq g‘amida “tandir ichidagi o‘tdek o‘rtanishi”, “ko‘ngil o‘tidan temirbandi suv bo‘lgani” haqida so‘z yurituvchi ushbu doston Ogahiy ijodiga ham ta’sir etganligini ilg‘ash mumkin.

Shoir yozadi:

Ul pari hajrida o`rtandi fig`onimdan falak,
Ohidin tushsa tong ermas kulbai Majnunga o`t.

Ogahiy lirik qahramon ham hijron azoblarida qiynalayotgan oshiq. uning ishq o‘ti g‘ussasi ko‘nglinigina emas, falakni ham o‘rtaydi. Qayg‘udan azob chekayotgan ko‘ngilning o‘rtanib “oh chekishi”, falakka fig‘on solishi muqarrar. Ana o‘shanda ko‘ngilni o‘rtayotgan ayriliq o‘tining yolqinlariMajnun kulbasiga ham o‘t solsa ne ajab. Baytda Navoiyning qahramoniMajnun qismatiga ishora qilinib, oshiqning ham ilohiy yor – “ul pari” hajrida qiynalayotgani aytiladi. Ayni choqda u yuzlarcha hasta notavonlar ko‘ngliga ham o‘t solmoq ilinjidadir.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Ogahiy ijodiga chuqur nazar tashlasangiz,Navoiy dostonlaridagi Layli va Majnun, Farhod va Shirin kabi oshiq va ma’shuqalarning ichki va tashqi holatlari, ruhiy iztiroblari bilan yaxshi tanish bo‘lganligi hamda ta’sirlanganligi ayon bo‘ladi:

Ul pari ko`yiga gar kirsa salomat ahli,
Ey junun ahli, xujum aylab olarni qovolang.

Ogahiy lirik qahramoni Majnun hissiyotlariga izdoshligidan baxtiyor. Ujamiyat, zamon va muhit qarshisida taslim bo‘lmagan, haqiqiy ishqning fano bosqichiga ko‘tarilib, ruhim qushini boqiy hurlikka erishtirishga intilgan oshiq.

Shoirning devon tartib berishdan ko‘zlagan bosh maqsadi ham ana shu botiniy mazmunga ishq ahlining diqqat-e’tiborini qaratishdan iborat:

Chun uqubon ul pari qilmas amal mazmuniga,
Bas sanga, ey Ogahiy, tartibi devondin ne sud .

Ogahiy pari haqidagi xalq ishonch-e'tiqodlari, afsona va rivoyatlar mazmunidan, mumtoz adabiyot an'analaridan chuqur xabardorbo'lgan. Pari obrazi sifatlariga ishora qilish orqali shoir keng ma'nodagi yor husn-u jamolini, oshiq qalbidagi botiniy kechinmalarni ifodalagan. Mehr va vafo, sabr va bardosh, sadoqat va samimiyat kabi pokiza insoniy tuyg'ularni ulug`lagan, komil inson bo'lishga da'vat qilgan. go'zal poetik lavha va manzaralar yaratgan.

So'z san'atining dastlabki namunalari qadim zamonlarda dunyoga kelib, unda insoniyatning porloq kelajak haqidagi orzu niyatlari turli mifologik obrazlar orqali aks ettirilgan. Ibtidoiy odamning o'ziga sirli ko'ringan tabiatni bilishga intilishi natijasida dastlabki mif va afsonalar yaratilgan bo'lib, ularda mifologik obrazlarning ilk namunalari o'z aksini topgan. Miflarda yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar mujassamlashgan. Shuning uchun ko'pgina mifologik obrazlar ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash fonida gavdalanadi.

Ogahiy Xizr obrazini Iso-Masih, Ilyos, Iskandar kabi obrazlar bilan birgalikda qo'llar ekan, haqiqiy tiriklik chashmasi yor labida bo'lgani uchun ularning talablarini, xatti-harakatlarini behuda amallar deb biladi:

Hayot afzo labing uzra xati jonparvaring ko'rgach,
Masiho birla hamdam Xizr payg'ambar xayol etdim.

Ogahiy lirik qahramoni irodasi mustahkam, sabotli va matonatli inson. U ko'nglini saodatga etaklovchi ma'rifatga musharraf bo'lishga chog'lagan:

Agar hayvon zulolin Xizr bersa og'zimga olmon – Ki, durdi boda lutf etsa manga gulchehra soqiy bas.

Ma'lumki, mumtoz she'riyatda "soqiy" – ma'rifat ilohiy ishq mayini tarqatuvchi, "durdi boda" (may quyqasi) – ma'rifat va qanoatning timsoli.

Binobarin, baytning mazmunida oshiqning ishq, ma'rifat sirlaridan ogohbo'lishga intilishi, ishtiyoqmandligi mujassam. Mayning poklovchilik xususiyati inobatga olinsa, ma'rifat bdasidan ichib, ya'ni "ilmu irfonga ega bo'lib olib, haqiqat sirlarini egallamasang, komilikka erishmasang abadiy tiriklikdan va foyda bor?", degan fikr ifodalayotgani anglashiladi.

Demak, Haq siridan ogoh (shoirning tahallusi Ogahiy ekanligi bejiz emas) ulug'vor shoir Xizr va uning xususiyatlari vositasida jamiyatni sog'lomlashtirish, amalparastlik va nafsparastlik, xurofot va diniy taassub natijasida kelib chiqadigan turli illatlarning oldini olish, aql-idrok, ma'rifat nuri bilan hayotni bezamoq kerak, degan fikrni ilgari surgan:

Bazmgohing ishratafzo jomining,
Loyiqidur obi hayvon tuhfasi.

Bu o'rinda ham "bazmgoh" – ma'rifat hosil bo`ladigan joy, "jom"ning ma'rifat ekanligidan intilish samarasiz ketmaydi, albatta, munosib taqdirlanadi. Ma'rifatli kishi abadiyatga dahldordir qabilidagi fikr ifodalanmoqda.

Ogahiy Xizr obrazi bilan bog'liq o'rinlarda Sharq adabiyotidagi badiiy tasvir vositalaridan ham ijodiy foydalanadi, poetik vositalarning imkoniyatlarini kengaytiradi

va ularni yanada boyitadi. Bu esa hayotiy manzaralarni yorqinroq gavdalantirishga, baytlarning lafziy nazokatini, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotda mifologik sub’ektlar antropologik qiyofaga ega bo‘ladilar. Faqat syujet tahliligagina tayanib, mifning shakliy transformatsiyasi, diffuziyasi, funktsional xususiyatlari haqidagi to‘la tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas.

Pari obrazi ham xalqning qadimiy tasavvurlari bilan bog‘liq. Uningpaydo bo‘lishi, o‘zbek she’riyatiga kirib kelishi, ma’no qirralarining rivojlanishi bevosita xalq mifologiyasiga borib taqaladi.

Ogahiy lirik qahramoni xayolan o‘z mahbubasi bilan so‘zlashadi. Unga maftunlikdan parishon bo‘lgan ko‘ngilning bunday suhbati e’tiroz tug‘dirmaydi:

Chu deding telba ko‘nglung kimgadur shaydou oshufta,
Eshitkil, ey pari paykar, sangodur bu, sangodur bu.

Shaydo va oshufta oshiq samoviy yuksaklikdagi ko‘ngil intilishlaridan mamnun. Uning ma`naviy-ruhiy olami nihotda go‘zal. Shuning uchun ham u

ruhiy olamning sirli teranligini, mo‘jizakor qudratini, “tafakkur boshi aylanib” – ko‘ngil telbalik ixtiyor etganini, bularning barchasi mahbuba tufayligina ekanligini faxr va iftixor hissi bilan e‘tirof etadi.

Yuqoridagi bayt badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishi jihatidan ham alohida e’tiborga molik bo‘lib, unda “badiiy tasviriy vositalarning eng ko‘p uchraydigan xilidan bo‘lgan lafziy san’atlardan” biri takrorga murojaat qilingan. Takror she’rda u yoki bu so‘zni takrorlashni nazarda tutib, shoir misra yoki bayt tarkibida muayyan so‘z yoki so‘z birikmasi bir necha bor yangi maqsadlarda takrorlanishi mumkin. Bu san`atning asosiy xususiyati takrorlash vositasida so‘z ma`nosini, uning mohiyatini ta’kidlab ko‘rsatishdir.

Ogahiy mazkur baytda “sangodur bu” jumlasini takror qo‘llash orqali oshiqning mahbubaga bo‘lgan otashni sevgisini bo‘rttiribroq tasvirlashga harakat qiladi. Shu bilan birga, takror lirik qahramon qiyofasini yorqinroq gavdalantirish, uning dil dardlarini ta’sirliroq mujassamlashtirish vazifasini bajaradi.

Shoir ijodiga oid yana bir baytga e’tibor qaratamiz:

Ul pari ishqi aro jonbozlar ko‘pdur,
valePokboz ermas biri bu oshiqi miskin kibi.

Parivash yor surati bilan o‘ziga uchragan har bir kishini azobga giriftor qiladi. Uning go‘zalligi qoshida ne-ne oshiqlar aqlu hushidan judo bo‘lib, kecha-kunduz ohu fig‘on chekishadi. Baytda keltirilishicha, ularning hech biri halollik, pokizalik va sadoqatda lirik qaxramoncha emas. Ushbu o‘rinda parining pokiza va halol kishilarga yo‘liqishi haqidagi xalq tasavvurlariga tayanilgan holda, oshiq sadoqatda yagonalik ramzi sifatida ulug‘langan.

Ogahiy lirikasida pari obrazi bilan bog‘liq ayrim o‘rinlarda yor paridan ustun qo‘yiladi. Shoirning tasavvuricha, ma’shuqa go‘zalligi qoshida parilar yoqa ushlab qolishadi. Jumladan:

Qoshlarining imosidin yuz huru g`ilmon evrulur,
Yuzlaring siymosidin ming bog`i Rizvon evrulu.

Baytda ifodalanishicha, mahbuba qoshlarining imosiga yuz pari, yuzlarining go`zalligiga “bog`i Rizvon” ta`zim qiladi. “huru g`ilmon” “bog`iRizvon” tashbehlari orqali mukammal go`zallik namunasi bo`lgan mahbubaning sifatlari ochib berilgan, ogahiy ma’shuqani yuksak sanashorqali tasavvufiy she`riyat an`anasiga ergashadi.

Demak, yo shu qadar go‘zalki, bu yuksak go‘zallikdan barcha aylanib- o‘rgilsa arziydi. Chunki u xusni latofatda “yuz huru g‘ilmon”dan, mingjannatdan ziyodadir.

Muallifning fikr va tuyg‘ularini aniqroq tasvirlashida tasdir san’ati unga qo‘l keladi. Takrorga asoslangan san’atlardan biri bo‘lgan bu tasviriy vositada bir so‘z baytning ikki joyida qaytariladi. Qo‘llanilish o‘rniga ko‘ra takrorlanuvchi so‘z baytning turli o‘rinlarida qaytarilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Ogahiy mumtoz adabiyotimiz tasavvufiy mantig‘iga xos an’ananing ham ijodiy davomchisi sanalib, uning lirik qahramoni ilohiy go‘zallik oshig‘idir. Sadoqat, halollik, iymon, e’tiqod, iroda, sabru qanoat, xokisorlik, faqirlik, bardosh, shukr, go‘zallik, insoniy nafosat, latofat singari tuyg‘ular egasidir. Bunday sifat va xususiyatlarni aks ettirishda shoir an’anaviy obrazlardan san’atkorona foydalandi.

Ogahiy lirik she’riyatida an`anaviy obrazlar vositasida go’zal poetik lavhalar yaratildi. Lirik qahramonning orzu hayollarini, kayfiyati, kechinmalarini, ruhiy-ma’naviy olamini ifodalashda mazkur obrazlar muhim o‘rin tutadi. Ular orqali oshiqning zohiriy va botiniy sifatlari, pokiza insoniy tuyg‘ulari ulug‘lanadi.

Adabiyotlar:

1. Zoxirov V. Ogahiy. T., 1961. Munirov K. Munis, Ogahiy vaBayoniylarning tarixiy asarlari. T., 1960.

2. Komilov N. “Axtarii ashk etdiyu...” // Alisher Navoiy. G`azallar,sharhlar. – T., 1991.

3. Komilov N. “Erur ko`ngulda safo ishq...” // Alisher Navoiy. G`azallar,sharhlar. – T., 1991.

4. Mif, folklor, literatura. – L.: Nauka,

YOSH AVLOD TARBIYASIDA OGAHIY IJODINING AHAMIYATI

Husanova SH., Oripova G.
Toshkent shahri , Yunusobod tumani 17 maktab o‘qit.

Annotasiya: Mumtoz adabiyotimizning mashhur namoyandasi Muhammad Rizo Ogahiy shoir, tarjimon, tarixnavis, ulkan davlat va jamoat arbobidir. Ogahiy devonidagi ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy-didaktik, tabiat tasviri va boshqa mavzudagi she'rlarda tabiat tasviriga bag‘ishlangan bir qator g‘azallar, qish va bahor tasviri chizilgan she'rlarida Ogahiyning peyzaj ustasi, o‘tkir nigoh egasi ekanligi namoyon bo‘lishi, fasl tarovati, go‘zalligini berishda shoir tashbeh, tashxis, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalarini qo‘llashi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Adabiy muhit, mumtoz, g‘azal, radif, matla, maqta, namoyandasi, madrasa, tolib.

Аннотация: Мухаммад Реза Агахи, известный представитель нашей классической литературы, поэт, переводчик, историограф, крупный государственный и общественный деятель. В ряде Газелей, посвященных изображению природы в стихах на социально-политические, нравственно-дидактические, природоведческие и другие темы в Девоне огахи, в стихотворениях, посвященных изображению зимы и весны, исследуется проявление Огахи как мастера пейзажа, обладателя острого взгляда, использование поэтом средств художественного изображения, таких как аллюзия, диагностика, квалификация, для придания свежести времени года, красоты.

Ключевые слова: Литературная среда, классика, Газель, Радиф, Матла, Макта, аяндаси, медресе, Талибан.

Abstract: the famous figure of our classical literature, Mohammad Reza Ogahi, is a poet, translator, historian, a huge statesman and public figure. In a series of poems on socio-political, moral-didactic, image of nature and other topics in Ogahiy Devon, poems on the drawing of the image of nature, gazelles, winter and spring, it was studied to show that Ogahiy is a master of landscape, the owner of a sharp gaze, to apply artistic means of image, such as poet tashbeh, diagnosis, adjective, ***Keywords:*** literary environment, classical, gazelle, radif, matla, maqta, exponent, madrasa, Talib.

Adabiyot yosh avlod tarbiyasida hamisha muhim o‘rin tutgan. Mumtoz adabiyotda didaktikaga alohida e'tibor berilib, ko‘pgina asarlarning mohiyatida yosh avlodni tarbiyalash maqsadi yotgan. O‘zbek adabiyoti boy adabiy merosga ega. Lutfiy, Atoiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Rizo Ogahiy, Mashrab, Muqimiy, Furqat va boshqalar. Bu ro‘yxatni yana uzoq davom etdirish mumkin. Mumtoz adabiyotimizning eng buyuk, mashhur namoyandasi Alisher Navoiy bo‘lsa, undan keyingi yirik ijodkorlardan biri Muhammad Rizo Ogahiydir. Ogahiy shoir, tarjimon, tarixnavis, ulkan davlat va jamoat arbobi bo‘lib, XIX asr Xorazm adabiy muhitida katta ahamiyatga ega ijodkordir.

Ogahiy tarixnavis olim sifatida “Firdavs ul iqbol” (Munis yozib ulgurmagan. Baxt bog‘i) asarini, Muhammad Rahimxon bir xonligi (1806-1825), Olloqulixon davriga oid (1825-1842) “Riyozud-davla” (Saodat bo‘stonlari), Rahimqulixon davriga haqida (1843-1846) “Zubdat ut-tavorix” (Tarixlar sarasi), Muhammad Aminxon davriga oid (1846-1855) “Jom'e ul-voqeoti Sultoniy” (Sultonlik voqealari to‘plami), Sayyid Muhammadxon davri xususida (1856-1865) “Gulshani davlat” (Davlat gulshani), Muhammad Rahimxon Ikkinchi Feruz davrining (1865-1873) boshlanishi haqida “Shohidi iqbol” ilmiy-tarixiy asarlarini yozgan. U tarjimon sifatida 20ga yaqin qimmatli asarlarini o‘zbek tiliga o‘girgan. Mirxondning (XV asr) ko‘p jildlik “Ravzat us safo” (Poklik bog‘i) asarining II-III jildlari, Astrobodiyning “Tarixi Jahonkushoyi Nodiriy” (Jahonni zabt etgan Nodir tarixi), Vosifiyning “Badoe' ul-vaqoe” (Ajoyib voqealar), G‘ijduvoniyning “Miftoh ut-tolibin” (Ilm toliblarining kaliti), Xirotiyning Hindiston tarixiga oid “Tabaqotiy Akbarshohiy” (Akbarshoh tabaqalari), Muhammad Yusuf Balx hokimi Muhammad Muqumxonga bag‘ishlangan “Tazkirayi Muqumxoniy”, Rizoqulixon Hidoyatning “Ravzat us safo Nosriy” (Nosirning boklik bog‘i), Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Muhammad Vorisning “Zubdat ul-hikoyot” (Hikoyalar qaymog‘i), al-Juzuluyning Muhammad s.a.v. va avliyolar hayotidan olingan naql, rivoyat hamda madhiyalardan iborat “Daloyil al-

hayrot” (Yaxshilik dalillari) sharhini, Sad'iy Sheroziyning “Guliston”, Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho”, Badriddin Hiloliyning “Shoh va gado”, Nizomiy Ganjaviyning “Havt paykar” (Etti go‘zal asar) asarlari shular jumlasidandir. Shuning uchun ham Ogahiyni mumtoz adabiyotimiz tarixidagi ulkan tarjimonlardan biri deyishimiz mumkin.

Mana shu ulug‘ ijodkorimizning hayoti va ijodi o‘rta maktablarning 9-sinfida o‘rganiladi. Qozoqboy Yo‘ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo‘ldoshbekovlar hammualifligida yozilgan 9-sinf adabiyot darsligida (Toshkent.“O‘zbekiston” 2019 yil) Ogahiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berilib, asarlari tahliliga o‘tiladi. “Ogahiy devonidan turli: ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy-didaktik, tabiat tasviri va boshqa mavzudagi she'rlar joy olgan. Lekin ularning aksariyati ishqiy mavzudadir. Shoir ijodida tabiat tasviriga bag‘ishlangan bir qator g‘azallar bor. Qish va bahor tasviri chizilgan bu she'rlarda Ogahiyning peyzaj ustasi, o‘tkir nigoh egasi ekanligi namoyon bo‘ladi. Fasl tarovati, go‘zalligini berishda shoir tashbeh, tashxis, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalarini qo‘llaydi. “O‘yla yetkurdi jahong‘a ziynat-u oro bahor” g‘azalida o‘qiymiz : “Obi hayvondek suzuk suv har taraf aylab ravon, Qildi sahrog‘a tarovat o‘zgacha paydo bahor”. Suvni “obi hayvon” – tiriklik suviga o‘xshatish qadimdan bor. Lekin uni suzuk deb sifatlash adabiyotda yangilik edi. Tashxis san'atini mohirona qo‘llagan shoir tog‘lardan mayin oqib kelayotgan suvni noz bilan suzilib borayotgan go‘zalga o‘xshatadi. Bahor ana shu suzuk suvi bilan sahroga o‘zgacha tarovat bag‘ishlagan. Keyingi misralarda bahoriy yel rayhonlarga Masihdek “toza jon” ato qilgani, gul yuzi ochilib, qumri-yu bulbullarning unga vola-yu shaydo bo‘lganlari, lola soqiysi qo‘lidan ishrat ahliga qadah tutilgani kabi tasvirlar orqali bahor ko‘tarinki zavq, hayajonli shavq bilan vasf qilinadi. Bu go‘zalliklarni madh etgan shoir uni g‘animat bilib, qadrlashga chorlaydi: "Gulshan ichra bazm etib jomi tarab no‘sh aylali Kim, g‘animatdur necha kun, ey qadi ra'no, bahor"...". Buningdek tahlil o‘quvchi tushunishi uchun ason va maroqlidir. Yana shoir g‘azallaridan “navro‘z” radiflik g‘azali beriladi va tahlil qilinadi. Shuningdek:

Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun “nas” kelturur “nun” eltibon “sod” ustina.

matlasi bilan boshlanadigan “ustuna” radiflik g‘azali tahlili bilan berilgan. Mustaqil tahlil uchun:

Qotig‘roq kelmadi hargiz jahong‘a ushbu qishdin qish,
Ki aql-u hisg‘a yansar mone o‘ldi borcha ishdin qish

matlasi bilan boshlanuvchi “qish” radifli g‘azali keltirilgan. Ogahiy g‘azallarining tahlili yaxshi be'rilganini ta'kidlash kerak.

Adabiyot tarixida kamdan kam shoirlarda uchraydigan musoviyat- tarafayn (ikki tomonlama teng, bir xil) shaklida yozilgan to‘rtlikning berilgani ham Ogahiy badiiy mahoratini ko‘rsatishga yaxshi misol bo‘lgan.

Bizning fikrimizga ko‘ra Ogahiy hayoti va ijodini o‘rganishda, uning ilmga chanqoqligi, yoshligidanoq madrasa ta'limini ko‘rganligini yaxshi aks ettirgan misralari bor. Masalan:

Qadam aylbon ilm yo‘lida bosh
Hunar kasbida aylar erdim talosh,
Ne tunlar manga xobu rohat edi,
Ne kunlar zamoni farog‘ot edi

Mana shunga o‘xshash ilm, shoirning ma'rifat targ‘ibiga oid fikrlari kiritilsa yaxshi bo‘lardi. Tarixiy va tarjima asarlaridan qisqa matnlar berish ham Ogahiyning olim va tarjimon sifatidagi qiyofasi ochishga yordam qilardi. Hayoti, ijodi haqidagi ma'lumotlar ham, kitob o‘qish, ilm olishga doir bir –ikki hayotiy faktlar bilan boyitilsa o‘quvchilar tarbiyasi uchun yanada ta'siri kuchli bo‘lardi. Bu qarashlarni aytishdan maqsad maktab paytdanoq yoshlarimizga Ogahiy ijodini kengroq tanitishdir.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Rizo Ogahiy. Ishq ahlining tumori. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-1999.
2. O‘zbek adabiyoti tarixi (kollektiv). 4-jild. O‘zbekiston. “Fan” nashriyoti. 1978.
3. Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshev. Adabiyot. 9-sinf uchun daraslik. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2019.

MUHAMMAD ERNIYOZBEK O‘G‘LI OGAHIYNING TARIXIY ASARLARI QO‘LYOZMALAR XUSUSIYATLARI

Tursunaliyeva M.
TDSHU o’qituvchisi

***Annotatsiya*:** Ushbu maqola Ogahiy tarixiy asarlarining qo‘lyozmalari haqida to‘xtatilib o‘tilgan. Har bir asarning qaysi kutubxona yoki qo‘lyozmalar fondida saqlanishi haqida berilgan.

***Kalit so‘zlar*: “**Riyoz ud-davla”, “Jome ul-voqeoti Sultoniy”, “Zubdat ut-tavorix”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol”

Аннотация: эта статья посвящена рукописям исторических трудов Огахи. Приводится информация о том, в какой библиотеке или рукописном фонде хранится каждая работа.

Ключевые слова: Рияд уд-давла“,” Джоме Ул-хакоти Султани“,” Зубдат ут-таворих“,” Гульшани давлат“,”Шахиди Икбал"

Adstract: this article is suspended about the manuscripts of the historical works of Ogahi. It is given in which library or manuscript fund each work is kept.

Keywords: Riyadh ud-davla", "Jome ul-Ayat Sultani", "Zubdat ut-tavorikh", "Gulshani state", Shahidi Iqbal"

Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li – Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri bo‘lib, Navoiydan keyin eng “ko‘p va xo‘b” she’r aytgan shoirlardandir.

Ogahiy 1809 yil 17 dekabrda Xiva atrofidagi Qiyot qishlog‘ida (Hozirgi Ogahiy nomli jamoa xo‘jaligi) dunyoga kelgan.

Otasi Erniyozbek vafot etgach, yosh qolgan Ogahiyni tog‘asi munis o‘z tarbiyasiga oldi. Munis atrofiga to‘plangan ijodkorlar bo‘lg‘usi shoir Ogahiy ijodiga katta ta’sir qildi. Ogahiy dastlabki bilimni Munis Xorazmiydan oldi, keyichalik Xiva madrasalarida tahsil ko‘rdi. 1829 yil Munis vafot qilgandan keyin Ollohqulixon uning o‘rniga Ogahiyni bosh miroblik vazifasiga tayinlaydi. Shoir xizmat yuzasidan Xorazm vohasining ko‘p joylarida bo‘lib, dehqonlarni, hunarmandlarni ayanchli hayotini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Bu Ogahiy ijodiga ta’sir etmay qolmadi.

Ogahiydan boy ijodiy meros qoldi. U madrasada o‘qib yurgan paytlaridayoq “Bayozi mutafarriqai forsiy” nomli bayoz tuzdi. Bu bayozga Jomiy, Navoiy, Hofiz, Sheroziy, Bedil, Fuzuliy g‘azallarini kiritish bilan bir qatorda ularga ergashib yozgan o‘zining o‘n besh g‘azali va ikki muxammasini qo‘shdi. Ogahiy ustozi Munis boshlab qo‘ygan, ammo, tamomlay olmagan tarixiy “Firdavs ul-iqbol” asarini yozib tugatdi. Bundan tashqari Xiva xonligi tarixiga oid “Riyoz ud-davla”, “Jome ul-voqeoti Sultoniy”, “Zubdat ut-tavorix”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” nomli tarixiy asarlar yozdi. Ogahiy jahon madaniyatini nodir durdonalari hisoblangan Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Nizomiyning “Haft paykar”, Hiloliyning “Shoh va gado”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, Jomiyning “Yusuf va Zulayho” kabi badiiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, didaktik asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Ogahiy 1872 yilda parokanda bo‘lgan badiiy merosini jamlab “Ta’viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) nomli devon tuzib qoldirdi. Madaniyatimizning durdonasi bo‘lgan bu devon o‘zbek mumtoz she’riyatining 22 janrini o‘z ichiga qamrab olgan.

Ogahiy ijodida XIX asr Xiva xonligidagi ijtimoiy hayot o‘z ifodasini topgan. Bu davrga kelib, Turkiston Rusiya tomonidan bosib olingandi, xalq ikki yoqdan zulm ostida qolgandi. Ogahiy bundan qattiq qayg‘urardi, xalq hur, ozod yashashini orzu qilardi.

Ogahiy tarixga oid asarlar yaratib Munisning bu sohadagi an’analarini ham yanada rivojlantirdi va yuksaklikka ko’tardi. Munis va Ogahiy hamkorlikda yozgan “Firdavs-ul iqbol” asari va o’zining Xorazm tarixiga oid beshta asari faqat o’zbek xalqining tarixini o’rganish jihatdan ahamiyatli bo’lib qolmasdan, balki qardosh tojik, qozoq, turkman, qoraqalpoq, rus, eron, afg’on xalqlarining tarixi, madaniyati, san’ati, urf-odatlari, psixologiyasi, shu xalqlarning kelib chiqishi, tirikchiligining manbai, qabilalarning tarixini o’rganishda boy manba bo’lib xizmat qiladi. Shunisi xarakterliki, bu asarlar iste’dodli shoir, taraqqiyparvar adiblar Munis, Ogahiylar tomonidan yozilganligi sababli ularda xalqlarning tarixi, hayoti, kundalik mashg’uloti, masjid, madrasalarning qurilishi, turli hil hodisalar bayoni, xalq qo’zg’olonlari, urushlar tarixi, buyuk kishilar, olimlar, shoir-yozuvchilar va shu kabi ma’lumotlar proza, poeziyada realistik asosda, to’g’ri, aniq ifodalab berilgan.

Ogahiy Olloqulixonga bag’ishlab “Riyoz ud-davla” (“Davlat riyozatlari”, 1844) asarini yozgan. Bu asarda Ogahiy o’zi to’g’risida shunday yozadi. “Yoshlik chog’larimda, har tarafdan boshimga balo toshi yog’di, hamisha ko’nglimda tinchsizlik va ta’bimda xon hukmi surar edi. Lekin jahondan etgan har xil alamlarni olimlar va shoirlarning suhbatida bo’lish bilan bir oz tarqatar edim”.

Xiva xoni Eltuzarxon (1804-1806) Munisga Xorazm tarixini bitishni topshirdi. Munis bu asarga “Firdavs-ul iqbol” (“Baxt bog’i” yoki “Baxt-saodat bog’i”) deb nom qo’ydi. Asar Munis va jiyani Ogahiy qalamiga mansub bo’lib, u afsonaviy rivoyatdan

boshlanib, 1825 yilgacha Xorazmda sodir bo’lgan tarixiy voqealarni o’z ichiga oladi. Munis bu asarni yozib tugata olmagan, u qadim zamonlardan boshlab Muhammad Rahimxon (1806-1825) hukmronligining 7-yili, ya’ni 1813 yilgacha bo’lgan voqealarni yozib ulgirgan, 1813 yildan 1825 yilgacha bo’lgan voqelar Ogahiy qalamiga mansub bo’lib hijriy 1255 (milodiy 1839) yili yozib tugallangan.

Asar Xiva xonligi hududida yashovchi o’zbeklar, turkmanlar, qozoq va qoraqalpoq xalqlari tarixini aks ettiradi. Asarni mukammal nusxasi Munis va Ogahiy qo’lyozmasiga mansub bo’lib 613 bet, asar Samarqand qog’oziga, qora siyoh bilan nastaliq xatida yozilgan.

“Firdavs ul iqbol”ning mzkur nusxasi Rossiya Fanlar Akademiyasining, Sankt-Peterburg bo’limida KP-938 raqami bilan saqlanmokda, uni rus sharqshunosi A.Kun 1874 yilda topshirgan. Asar keyinchalik, 1856 yilda mulla Nurniyoz ibn mulla Muhammadniyoz tomonidan ko’chirilgan. Asarga 1879 yilda Muhammad Rizo oxund ibn Muhammad Karim devon tartib bergan.

“Firdavsu-l-iqbol”ning to‘qqizta qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, ulardan ikkitasi, Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari intitutida (inv. S 571 (590 oa), Ye-6-1 (590 ov), oltitasi O’zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida (inv. 821/1, 5364/1, 9979/1, 5071, 7422, H. Sulaymonov nomidagi fond. 275/1), yana bir nusxasi esa Xelsinkida saqlanmoqda.

Zubdat ut-tavorix ikki qismdan iborat bo'lib, asarning birinchi qismida Rahimqulixonning tug'ilishi, ilm o'rganish va harbiy mahorat egallash yo'lidagi sa'y harakatlari, shuningdek bo'lg'usi xonning Hazorasp hokimi sifatida olib borgan. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor. ... Shuningdek, asar qo'lyozmasi O'zR FA ShI tomonidan nashr etilgan "Собрание восточных рукописей" katologida (VII,35. N_5023) tavsiflangan.

“Jome’ - ul voqeoti Sultoniy” 1856 yilda yozilgan bo’lib, Muhammad Aminxon davriga bag’ishlangan.

Muhammadrizo Ogahiy (1809-1874) qalamiga mansub “Jome ul voqeoti sultoniy” asari 1856 yili yozib tugallangan bo‘lib, unda uch nafar Xiva xoni – Muhammadaminxon (1846-1855), Sayid Abdullaxon (1855) va Qutluqmurodxon (1855 1856) davri tarixi hikoya qilinadi. Mavjud tarixnavislik an’anasiga muvofiq, asarda xonlarning harbiy yurishlariga keng o‘rin ajratilgan. Ayni paytda, biz bu yerda qo‘shni davlatlar bilan elchilik almashish, turli shaxslarning mansablarga tayinlanishi, tavallud va vafot sanalari, xonlikda amalda oshirilgan bunyodkorlik ishlari (madrasalar qurilishi, kanallar chiqarish va hokazo) va boshqa qator mavzularga doir ma’lumotlarni topishimiz mumkin.

Matn asarning Sankt Peterburg va Toshkentda saqlanayotgan ikkita mavjud qo‘lyozmasi asosida tuzilgan. Shuni ta’kidlash joizki, barcha qo‘lyozmalarni sinchiklab tadqiq qilgan N.Toshev O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Toshkent nusxasi Ogahiyning dastxati ekanligini isbot qildi. Bu hol esa matnning ishonchliligini oshirishi barobarida Ogahiy ijodini yanada chuqurroq tadqiq etish uchun ham juda muhimdir.

Mazkur nashr adabiyotshunoslarga Ogahiyning nazmiy merosini ham yanada to‘liqroq tadqiq qilish uchun imkoniyatlar yaratib berdi. “Jome ul voqeoti sultoniy”da

jami 160 ta o‘zbek va fors tillaridagi she’riy parchalar keltirilgan bo‘lib, bularning aksariyati muallifning o‘z qalamiga mansubdir.

Matnga olti turdagi ko‘rsatkichlar (shaxs ismlari, joy nomlari, toifalar, mansablar, Qur’on oyatlari, hadislar ko‘rsatkichlari) tuzilgan bo‘lib, ular kitobdan foydalanishni ancha qulaylashtiradi.

“Gulshani davlat” 1865 yilda yozilgan bo’lib, Sayid Muhammadxon davriga bag’ishlangan.

“Shohidi iqbol” (“Iqbol shohidi”) asar Muhammad Rahimxon soniy davriga bag’ishlangan bo’lib, 1865-1873 yillar voqealarni yozish bilan uzilib qolgan, ayrim sahifalarida suv dog’lari bor, Qo’qon qog’oziga, sarlavhalari qizil siyoh bilan yozilgan, qizil charm muqovada, ko’chiruvchining ismi va yili ko’rsatilmagan, 227 varaq, 14-25 sm o’lchamda. Asarda faqat Xorazm tarixi emas, Buxoro amirligi va Qo’qon xonlarini Rossiya bilan olib borgan urushlari, bitimlari va uning oqibatlari mukammal ravishda yoritilgan.

Adib qalamiga mansub 26 asardan hozirgi kunda 4 tasi topilganicha yo’q, uning asarlarining 22 tasidan 16 tasi saqlngan. Jumladan, 6 asari (11 nusxada) Beruniy nomidagi Respublika Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Sank Peterburgda 10 ta va Dushanba shahrida 8 ta asari mavjud.

Hozirgi kunda adib asarlarining 22 tasi, 72 ta qo’lyozma nusxada dunyo fondlarida saqlanmoqda. Uning asarlarini birinchi bo’lib Armeni Vamberi Sayid Muhammadxon davrida Xivaga kelgan vaqtida olib ketgan, 1873 yilda A. Kun xon xazinasidan 300 ta nodir kitoblarni olib ketganda Munis va Ogahiylarni asarlarini ham olib ketgan.

Adabiyotlar

1. Ғанихўжаев Ф. Огаҳий асарлари каталоги. –Т., 1980.
2. Жўраев Ж. (2017) “Шарқ қўлёзмалари – маънавиятимиз манбаси” Электрон мақола: ҳттп://уза.уз/уз/сосиетй/шарқ-қо-лёзмалари-манавиятимиз-манбаси-10-05-2017
3. Комилов Н. Шоир ва таржимон Муҳаммад Ризо Огаҳийнинг бадиий маҳорати:Филол.фан.номз... дисс.–Т., 1970.
4. Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1974. – 423 б.
5. Огаҳий. Сарвқомат кўрмишам. – Т.: Янги аср авлоди, 2007.

OGAHIY ASARLARIDA RUHIYAT VA MA'NAVIYAT TALQINI

Husainova F.A.,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, mustaqil tadqiqotchi

Annotasiya: Ushbu maqolada shoir Ogahiyning ilm-ma'rifat, kasb-hunar egallash to‘g‘risidagi badiiy asarlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ilm-ma'rifat, insoniylik, ogohlik, kasb- hunar, devon, ruboiy.

Аннотация: в этой статье рассматриваются художественные произведения поэта Огахи о науке, просвещении, профессионализме.

Ключевые слова: наука-просвещение, человечность, осведомленность, профессия, девон, рубаи.

Abstract: this article provides an idea of the artistic works of the poet Ogahi on science and education, occupation.
Keywords: science, enlightenment, humanity, awareness, profession, devon, ruboi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risidagi qonuni”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta'lim stadartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida barcha o‘quv fanlari, shu jumladan adabiy ta'lim mazmunini tubdan yaxshilash vazifasi belgilab berilgan. Maktabda adabiyot o‘qitishdan maqsad o‘quvchini har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashdir. Shaxsni komil inson ruhida tarbiyalash esa, ma'lumki, har bir davrning muhim vazifalaridan bo‘lib kelgan.

XIX o‘zbek adabiyotining yirik nomoyondalaridan biri Ogahiy ijodida komil insonni tarbiyalash, uning ma'naviyatiga e'tibor berish mavzusi yetakchilik qiladi. Ogahiyning ijodini kuzatar ekanmiz, u o‘z zamonasiga ko‘ra, ancha keng ma'lumotli, ilmsevar inson bo‘lganligini ko‘rish mumkin. U o‘z devonida bu haqda shunday deydi:

Qadam aylabon ilm yo‘lida bosh,
Hunar kasbida aylar erdim talosh.
Ne kunlar manga xobu rohat edi,
Ne kunlar zamoni farog‘at edi[46].

Quyidagi misralarda ham shoir “ilm inson farzandi uchun shunday foydali bir boylikdirki,kim bunday boylik sohibiga aylansa, uning har ikki dunyosi obod bo‘ladi”,- deb ta'kidlaydi:

Ilm andoq ganji naf'idur bani odamgakim,
Kimda ul bo‘lsa, iki olam bo‘lur obod anga.(257)

Ogahiy lirikasida ilm- ma'rifatga, insoniylikka ixlos-e'tiqod, ogohlik, pandu nasihat mavzusi bosh mavzulardan biridir. Shoirning taxallusi ham ogohlikka ishoradir:

Ne tong ogoh bo‘lsa Ogahiy ishqing siridir kim,
Onga behuda ermas osmondan bu laqab paydo.

Lekin bu ogohlik quruq pandu nasihatdan iborat bo‘lmay, ma'rifiy ogohlikdir. “Ma'rifiy ogohlikda komillik mavjud. Komillikda millat taqdiri”, elu yurt taqdiri, navodir nasihatda esa ikki olamga, vatanga, do‘sti birodarlarga muhabbat talqini mujassamdir”. [47]

U ko‘plab g‘azallarida ilm-ma'rifatni ulug‘lab, uni chuqur egallashga chaqiradi:

Ilm ichra kamoloti ul xadg‘a yetibdurkim,
So‘z aqidasi fikrning tirnog‘i bila haddur.
Aql ila farosatkim, inson sharafi ondin,
Sha'nida oning go‘yo bir oyati manzildir.(269)

[46] Ogahiy devoni. (“Ta'vizul oshiqin”) 1905 yilgi Xiva tosh bosma nashri, 2-b.
[47] Komil Avaz. Ko‘nglimga maktublarim. A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti. – Toshkent, 2018. - B 24-25.

Ogahiy devonida ikki murabba, 5 musaddas, 3 musamman va bir necha ruboiy bor. Odatda, a-a-a-b tarzida qofiyalanib keladigan ruboiy janrida ham shoir jamiyat hayotiga doir muhim fikrlarni ifodalagan:

Ey keldi fununu ilm taslim sanga,
Qilmoq manga lozim o‘ldi ta'zim sanga.
Garchi yo‘q erdi quvvat ayog‘imda, vale
Keldim bosh ila olgani ta'lim sanga.

Ushbu ruboiy “ilm- fanni egallash uchun har qanday holatda ham harakat qilish lozim” degan fikrni ifodalaydi.

Ogahiy ishq- muhabbat mavzusidagi g‘azallarida ham ma'shuqaning ichki dunyosini, uning aqli farosati, ilm- ma'rifatga bo‘lgan munosabati, madaniy saviyasi masalalarini birinchi o‘ringa qo‘yadi:

Ul malak siymoki, barcha ilm bo‘lmish yod anga,
Ro‘zi shab darsu sabaq takroridur mu'tod anga.

Sarfu nahfu mantiq ichra toki sa'y etti ayon,
Sibhvay ruhi qilur taqsinu ham imdod anga...

Kasbi ilm etmay kishi, gar qolsa mahzi jahl ila,
Ikki olam obro‘yi bo‘lg‘usi barbod anga.

Shoir Muhammad Rahim II (Firuz)ning Xivada bino qilingan madrasasining tarixi haqida quyidagi misralarni bitdi:

Tarix bar binoi xushash guft Ogaxi,
Omoda yodgori Muhammad Rahimxon.

Tarjimasi: Ogahiy bu yaxshi binoga ta'rix aytib, uni Muhammad Rahimxon yodgorligi (1288 yil demak) deb atadi.

Yuqoridagi baytlardan ko‘rinishicha, Ogahiyni ko‘proq madrasa qurilishlari qiziqtirgan. Shuning uchun Sayid mahmud To‘ra va Muhammadniyoz Devonbegi madrasalariga ikkitadan, Muhammad Aminxon va Rahimxon madrasalari tarixiga to‘rttadan she'r yozgan. Bu ham Ogahiyning ilm, madaniyat va maorifga ishtiyoqmandligini ko‘rsatadi. Shoir bunday qurilishlardan xursand bo‘lganidan Muhammad Amin madrasasini “dilkashu dilkusho, dilkashu jonparvar” va “ikkinchi jannat” deb ta'riflaydi. Madrasa toqilarini qizlarning qoshiga o‘xshatadi. Muhammad Rahimxon tomonidan soldirilgan madrasani esa

“ahli ilm” uchun “binoi sharafnishon” va “lamoqatu fayzi sharofat” i bilan “ahli fazl” uchun dunyoning “toza behisht”i deb baholaydi va uning tarixini “madrasai fayz afzo” deb ataydi.

Umumta'lim maktablarida Ogahiyning ijodi 9-sinfda o‘rgatiladi. Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekovlar muallifligida tayyorlangan maktab darsligiga uning “Navro‘z”, “Ustina”, “Qish” radifli g‘azallari kiritilgan. Ushbu darslikka Ogohiyning

ilm – ma'rifatga, kasb-hunar egallashga doir fikrlari ham kiritilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Shunday qilib, buyuk ma'rifatparvar bo‘lgan Ogahiyning ilm- ma'rifatga bag‘ishlangan asarlari hozirjavobligi bilan diqqatga molikdir. Uning asarlaridan kelib chiqadigan umumiy xulosalarda, falsafiy qarashlarida, pandu nasihatlarida olam sirlaridan, adabu ikrom xislatlaridan voqiflik tuyg‘usi bosh mezon sanaladi. Shoir barcha badiiy asarlarida, hatto ishqiy mavzuda bo‘lgan g‘azallarida ham barchani ulug‘likka yetaklovchi bilim, ma'rifat olishga targ‘ib etadi.

OGAXIY XAFT PAYKAR DOSTONI NASRIY TARJIMASINING MATNIY TATQIQI

Abdullayeva D.M.,
TDShU 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar*: *f.f.d. dots. Alimuhamedov R.

Anotatsiya: Maqolada Xorazm adabiy muhiti, davr, ijtimoiy hayot va unda Ogahiyning tutgan o‘rni kabi masalalarga e’tibor qaratilgan. Ogahiyning o‘z davri ziyolisi sifatida jarayonlarga faol munosabati, ijodida aks etishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Adiblar xiyoboni, Ichan-qal‘a, Ta‘viz ul-oshiqin, Guliston, “Riyoz ud-davla”, “Jome ul-voqeoti Sultoniy”, “Zubdat uttavorix”, “Gulshani davlat”, «parivash», «pari», «pariro‘y», “dastparvardai Munis”, mustazod, muhammas, musaddas.

Аннотация: данная статья посвящена таким вопросам, как литературная среда Хорезма, эпоха, общественная жизнь и роль Огахи в ней. Освещается активное отношение Огахи к процессам как интеллегентного представителя своего времени, отраженное в его творчестве.

Ключевые слова: авеню мудрецов, Ичан-Кала, Тавиз уль-ашикин, Гулистан, “Рияз уд-давла”, “Джоме уль-хахути Султани”, “Зубдат уттаворих”, “гульшани давлат”, «париваш», «Пари», «парирой», “дастпарвардай Мунис”, мустазад, мухаммас, мусаддас.

Abstract: the article focuses on such issues as the literary environment of Khorezm, the era, social life and the role of Ogahi in it. The active attitude of ogahi as an intellectual of his time to processes, its reflection in his work is covered.

Keywords: alley of the Adib, Ichan-Kala, Taviz ul-Ashikin, Gulistan, Riyadh ud-davla, Jome ul-ayatti Sultani, Zubdat uttavorikh, Gulshani state, parivash, pari, parириru, dastvardai Munis, mustazod, muhammas, musaddas.

Xiva xonligi davrida turkiy tilda eng ko‘p bitilgan nazmiy va nasriy asarlarning muallifi, Turkiy til tarjimonlik maktabining Zahiriddin Muhammad Bobur lafzi bilan aytganda “eng ko‘b va eng xo‘b” ijodkori va peshqadami edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 may kuni “Adiblar xiyoboni”ga tashrifi chog‘ida adabiyot tarixida munosib o‘rin tutgan ijodkorlar asarlarini o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarning ongiga singdirish vazifalari bo‘yicha

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti jamoasiga “Ogahiy hayoti va ijodi – yoshlar tarbiyasi uchun namuna” yo‘nalishi berildi. Mumtoz shoir, sermahsul tarjimon, xassos muarrix, davlat arbobi – mirob, Xiva shahri Ichan-qal’a devoriy naqshin binolarining so‘z bunyodkori – bosh epigrafi Muhammadrizo Ogahiy haqida so‘z yuritamiz.

Ogahiy Navoiydan keyingi ulkan siymolardan biridir. Ogahiy xalqimiz ma’daniyati, adabiyoti va ilm-fani tarixida iste’dodli shoir, mohir tarjimon, yirik muarrix, ma’rifatparvar shaxs sifatida yorqin iz qoldirgan. Atoqli madaniyat arbobi, klassik she’riyatning mohir ustasi, Xivadagi adabiy harakatning yuksak siymosidir. Ogahiy nihoyatda barakali ijod qilgan. Shoirning “Ta‘viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) nomli ulkan devoni bir necha janrlarda yaratilgan 20 ming misradan ziyod she’rdan tarkib topgan.

U Xorazm xonligi tarixining turli davrlarini yoritishga bag‘ishlab 5 ta mustaqil yirik tarixiy asar yaratgan. Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Abdurahmon Jomiyning “Salamon va Absol”, “Bahoriston”, Nizomiyning “Haft paykar” kabi o‘lmas badiiy asarlarini, o‘nlab tarixiy kitoblarni mahorat bilan tarjima qilgan. Ogahiy ijodining qimmatli va harakterli tomoni shundaki, u Alisher Navoiy ijodiyotida yuqori pog‘onaga ko‘tarilgan adabiyotdagi eng ilg‘or, eng xalqchil g‘oyaviy-badiiy an’analarni 19-asr sharoitida yuksak darajada rivojlantirdi. Ogahiy she’riyati har qanday bachkanalikdan, o‘rtamiyonachilikdan tamomila xoli yuksak ishqiy-tasavvufiy she’riyatdir. To‘g‘ri, unda falsafiy tasavvufiy, ijtimoiy-siyosiy, ta‘limiy-axloqiy ohanglar yo‘q emas. Umuman, uning she’riyati rangin. Lekin bu mavzularning aksariyatini birlashtiruvchi narsa ishqdir, muhabbatdir.

Ogahiy she‘riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo‘lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Uning timsollar olami, tashbeh-u qiyoslar silsilasi o‘ziga xos, yangicha. Shoir har san’atning, har bir detalning, ungacha ilg‘amagan qirralarini, borilmagan ma’naviy hudud kengliklarini kashf etishga harakat qiladi. Ogahiy lirikasining, umuman Ogahiy 112 ijodining salmoqli qismini ishq-muhabbat mavzusi, oshiq va ma‘shuqa obrazlari, bular orqali kishining tabiiy tuyg‘usi, sevgi haqidagi fikrlari egallaydi. Jamiyatda, hayotda sevgiga munosabat dastlab Ogahiy lirikasining umumiy ruhida hazinlik, nadomat motivini ustun qiladi. Oshiqlar, ko‘pincha yoriga yetolmaslik xususida chuqur hayajon, nadomat bilan hasrat qiladi.

Umrining oxirgi yillarida tuzgan lirik kulliyoti — «Ta‘viz ul-oshiqin» («Oshiqlar tu-mori», 1872) bizgacha to‘la yetib kelgan. Devon an’anaviy tartibda tuzil-gan, 470 g‘azal, 3 mustazod, 89 muhammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarje’band, 7 qit’a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 munojot, 1 oshiq va ma‘shuq savol-javobi, 20 ta‘rix, 19 qasida — jami 18000 misradan iborat. Devonga «Ash‘ori forsiy» nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra she’ri ham kiritilgan. Devondagi asarlar mazmun-mundarijasi markazida ishq mavzui turadi.

Shoir aruzning juda ko‘p bahrlaridan foydalangan. Uning g‘azallari „Shashmaqom“ning hamma kuylariga tushadi, Xorazm xalq ohanglariga mos keladi.

Ajdod, bo‘g‘im: “...nasabi olti orqada hazrati a‘lo xoqoniyning muborak nasabig‘a qo‘shulur”. Orqa so‘zi ushbu ma’noda “Haft paykar” tarjimasida ham uchraydi: “bu bandayi haqir va ixlostaxmir Muhammad Rizo mirob al-mutaxallas bi-l-Ogahiy g‘afarallohu zunubahugakim, yetti orqadin, balki yetmish orqadin beri ul hazratning

davlatlig‘ostonining ixlosmandu dilxohi...durmen,..” Asarda orqa so‘zi yana quyidagi ma’nolarda ishlatilgan:

1. Orqa, oldning ziddi: “... orqa jonibg‘a yuz urdilar.

2. Shimol, janubning ziddi: “... orqa jonibida Tamoch mavze’inkim, ahli fasodning yig‘noqig‘a yovuq erdi”.

3. Badanning orqasi: “... xandaqining osti hazozati doir ostidag‘i baliq orqasig‘a yetti.

Shuningdek, qibla so‘zi shevalardagi kabi janub tomonni anglatgan o‘rinlarni ko‘plab uchratamiz: “Ko‘hna Urganch qal’asining qiblasidin o‘tgan Ko‘hnadaryo rudxonasig‘akim, Shorqiroviqg‘a mavsumdur,..”.

Ogahiydan boy ijodiy meros qolgan. U madrasada o‘qib yurgan paytlaridayoq “Bayozi mutafarriqai forsiy” nomli bayoz tuzadi. Bu bayozga Jomiy, Navoiy, Hofiz, Sheroziy, Bedil, Fuzuliy g‘azallarini kiritish bilan bir qatorda ularga ergashib yozgan o‘zining o‘n besh g‘azali va ikki muxammasini qo‘shgan. Ogahiy ustozi Munis boshlab qo‘ygan, ammo, tugallab ulgurmagan tarixiy “Firdavsu-l-iqbol” asarini oxiriga yetadi. Bundan tashqari Xiva xonligi tarixiga oid “Riyoz ud-davla”, “Jome ul-voqeoti Sultoniy”, “Zubdat uttavorix”, “Gulshani davlat”, “Shohidi iqbol” nomli tarixiy asarlarni yozgan. Ogahiy jahon madaniyatini nodir durdonalari hisoblangan Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Shayx Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”, Hiloliyning “Shoh va gado”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” kabi badiiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, didaktik asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. Shoir o‘z she’rlarida kishi ruhiy boylikka ma’rifat orqali erishmog‘i mumkinligi haqida uqtirib, nodonlik-johillikka qarshi jamiyatni ilmma’rifatga chaqiradi

Sharq shoirlari pariga yuksak aql-idrok va ideal go‘zallik ramzi deb qaraganlar. Alohida baytlar, ba’zan butun boshli g‘azallar mazmuniga u haqdagi sifatlar singdirilgan. She’riyatda pari obrazi bilan bog‘liq fikr-tuyg‘ular xalq afsonalari, ertak va dostonlari mazmunidan oziqlansa-da, yangi-yangi ma’no qirralarini kasb eta borgan. Natijada, pari obrazi badiiy vosita sifatida qo‘llanilib, tengsiz go‘zallik, ma’naviy yetuklik, insoniylik sifatlari ulug‘langan, romantik orzular tasvirlangan. Ogahiy o‘z ijodida pari obraziga qayta-qayta murojaat qilib, har gal uning turli-tuman sifatlarini aks ettiradi. Shoir lirikasida pari bilan bog‘liq she’rlarning ko‘pchiligini ma’shuqaga «parivash», «pari», «pariro‘y», «pari paykar», «pari ruxsor» deb nisbat beruvchi baytlar tashkil etadi. Oshiq ko‘pincha evgilisiga «ey pari» deb murojaat qiladi: Gul yuzingni toki ko‘rdi, ey pari ruxsora gul, Jaybini devonalardek ayladi yuz pora gul Ma’shuqa – pari. U oshiq ta’biricha, husnda yagonalik ramzi.

Ma’lumki, mumtoz she’riyatda gul go‘zallik timsoli sifatida qo‘llanilib, ma’shuqa bilan bog‘liq fikr-tuyg‘ularni ifodalashda vosita rolini o‘ynaydi. Ogahiyning tasviricha, ma’shuqani ko‘rganda husnda tengsiz bo‘lgan gul ham yoqasini yuz pora qiladi. Chunki yorning go‘zalligi aqlu hushdan judo qila olish xususiyatiga egadir. Tasavvufiy mantiq nuqtai nazaridan esa yuzda ilohiy nur jilvalanadi. Sayyid Ja’far Sajjodiyning bu xususdagi fikrlariga tayangan adabiyotshunos S.Rafiddinov shunday yozadi: «Yuz deb nur va suratlar ma’nosi yuzasidan zavq bilan oxiriga yetuvchi tajalliyni, shuningdek, imon nurlari va irfon eshiklarining ochilishi va haqiqiy jamol pardalarining ko‘tarilishini aytadilar». A.Rustamov fikriga ko‘ra, gul – oshiqning ma’rifatni egallash uchun ishtiyoqi kuchaygan yoshlik davridir.

“Bu yil mohi mazbur, ya’ni zu-l-qa’daning o‘nunda shanba kuni Erniyoz bekg‘akim, faqirning inisidur, hazrat vohibilatoyo bir farzandi arjumand va valadi saodat payvand ato qildi. Va ul nuri hadiqai jalol va navvari hadiqai kamol Muhammadrizobekka mavsum bo‘ldi. “Anbatuhulloh nabotan hasanan”. Bu jumlada biz Shermuhammad Munisning “Firdavs ul-iqbol” asarida Muhammadrizo Ogahiy haqidagi ilk ma’lumotni, ya’ni 1224 yil 10-zu-l-qa’da/1809 yil 17 dekabrda Munisning inisi Erniyozbekning o‘g‘li Muhammad Rizobek – Ogahiy tug‘ilgani haqida ma’lumot olamiz. Va Qur’oni karim, 3-sura Al-Imronning “Ollohi taolo uni ko‘rkam o‘stirdi” 37-oyatidagi ishorani ko‘ramiz.

Bilamizki, sharq mumtoz she’riyatida har bir shoir devon tartib beradi. Devonning kirish qismida, ya’ni debochada shoir o‘z hayoti va ijodi haqida ma’lumot berib, Ogahiy ham birlamchi manbalarni devoni “Ta’viz ul-oshiqin” (Oshiqlar tumori) da keltiradi.Sayyid Muxammadxon hukmronligi davrida, uning shogirdi, taxt vorisi Muhammad Rahim II – Feruz (1864-1910) farmoniga ko‘ra tuzilgan. Devon 1288 / 1872-1873 oldin tuzilgan bo‘lib, 810 ta forsiy va turkiy she’r – 18000 misradan tarkib topgan. Hozirda devonning 10 ta qo‘lyozmasi va 2 ta toshbosma nashrlari mavjud. Bugungi ko‘rsatuvimiz, bobomiz Ogahiy o‘z hayot, faoliyat va ijodlarini o‘zlari devonda tavsif qilgan yo‘ldan boramiz:

Ogahiy o‘zbek elining qiyot urug‘idan bo‘lib, uning hayotida Shermuhammad Munis katta rol o‘ynagan. Birinchi navbatda, shoir devonida yoshlik chog‘idan ilmga chanqoqligini, shoiru olimlar davrasida bo‘lishga intilganini yozgan. U maktabni tugatgandan so‘ng, madrasanishinlik, zamonaviy til bilan aytganda Oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirib, ilm olishni davom ettirganini yozadi.Ogahiy odatdagi 7-8, 10-11 yoki 12-13 baytlik g‘azallar yozish tartibini buzib, mazmun talabi bilan 20 baytlik va 23 baytlik g‘azallar yozdi. Rahnamosi, maslakdoshi, shogirdining – davr hukmdorlari bo‘lgani, ularga so‘z qadrini bildira olgani, turkiy nazmni davlat siyosati darajasiga ko‘targani sohibiqalamning katta yutug‘idir. Ogahiyning pusht-u kamari bo‘lmasa-da, bir necha yuz yillardirki, ijodlarining sadoqatli izdoshlari bor. “Ogahiy Feruz shohning ijodga rag‘batlantirganini, natijada “ko‘ngliga quvvat va tab’iga jur’at” bilan ko‘pdan-ko‘p she’rlar yozganini so‘zlaydi, bu ham Navoiy debochalari mazmun-ruhini eslatadi. Ogahiy debochasidan quyidagi parcha ham Navoiyga “etishgan hukm”ning bir ko‘rinishi darajasida:

“… dilnavozlik yuzidin xitob qilib dedikim: – Barcha musavvadalardagi va bayozlardagi va o‘zga yerlardagi parishon bo‘lgan she’rlaringni jam’ etib, devon suvratida tartib bergil va anga debocha ham yozib so‘ngra aytilgan ash’oringni dag‘i hamul devonda o‘z mahalida raqam silkiga gavhar yanglig‘ tergil!” Qo‘ng‘irotlar sulolasining Alisher Navoiyga ergashish adabiy prosopografiyasining boshida Shermuhammad Munis turgan edi. Shoir Navoiyni ma’nan ustoz va piri deb biladi. Aynan Munis ijodi Ogahiyni Navoiy ijodiga bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajargan. Chunki Munis Muhammadrizo Ogahiyning ustozigina emas, rahnamosi ham bo‘lgan. Ogahiy Navoiy singari otadan erta yetim qolgan. Hazrat Alisher tarbiyasiga tog‘alari – yetuk shoirlar Mirsaid Kobuliy va Muhammadali G‘aribiylarning ta’siri kuchli bo‘lganidek, Munis ham Muhammadrizoning tog‘asi sifatida uning hayoti va ijodida yetakchi shaxs edi. U “dastparvardai Munis” ekanligini, tog‘asining devoniga o‘xshatib debocha yozganidan bilsa bo‘ladi. Muhammadrahimxon I Munisga, Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga homiylik qilganidek, Muhammadrahimxon II Ogahiyga

rahnamolik qilgan. Shuning natijasida Munis saroy mushoiralariga jiyani, amakizodasi Muhammadrizo Ogahiyni jalb qila olgan. Ogahiy iqtidori va fenomenal mehnatkashligi bilan MuhammadrahimxonII davriga kelib, sadrnishin martabasida erishadi: “Mirobliq mansab-i oliysig‘a mansub va sadrnishinlik martaba-yi mutolisig‘a mansubdurman”.

Adabiyotshunoslar ikki shoirning lirikasi bilan yaqindan tanishgach, Alisher Navoiy ijodidan so‘ng barakali ijod qilgan sa’natkor sifatida haqli ravishda Muhammadrizo Ogahiyni qo‘yadilar O‘rta asrlarda tarixiy Xuroson, Movarounnahr va Xorazm hududlarda hukmronlik qilgan sulolalar so‘z sehrini va undagi kamol zavqini davlat siyosatiga ko‘targanlar. Alisher Navoiy chig‘atoy turkiy adabiyotining bunyodkori edi. Uning devonlari debochasini ko‘rganimizda, rus matnshunos olimi D.S. Lixachevning “yagona adabiyot binosi yaratuvchilari” degan teoriyasini eslaymiz. Arab adabiyotining nazariyotchisi Ibn Roshiq (XII asr) “qadimgi va yangi davr shoirlari ikki inson kabidir, birinchisi adabiyot binokori, uni mustahkam va yaxshi quradi. Ikkinchisi binoga naqsh va bezaklar beradi. O‘rta asr shoiri adabiyotga yaxlit bino sifatida qaragan. Ogahiy lirikasi yangi davrning “qayta quruvchisi” edi, uning so‘zlaridan foydalanib, Muhammadrahimxon II Feruz (1864 – 1910) Xorazm adabiy muhitini yaratgan.

Ichan-Qa’la majmuasidagi eng ko‘p epigrafik yozuvlar Ogahiy qalamiga mansub. Shoirning so‘zlari vositasida Feruz, devorlarda ham insonlarni ilmga targ‘ib qilgan. Vengriya olim A.Vamberi shunday deb yozgandi: Istalgan ma’rifatli millatga nisbatan O‘rta Osiyolik ko‘chmanchining musiqa va xalq turkiy she’riyatiga berilishi nisbatan kuchlidir. Qo‘qon, Buxoro va Qashqarga nisbatan Xiva xonligida bunday ehtiros yanada yuksakroqdir.

Adabiyotlar:

1. Devoni Komil. Qo‘lyozma. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondi, Inv. №1949.

2. Jabborov N. Ogahiyning adabiy-estetik va ma‘naviy-axloqiy mezoni. Ogahiy – shoir, muarrix, tarjimon //Respublika ilmiy anjumani materiallari. – Urganch.: 2019.

3. Komil. Devon. – T.: Adabiyot va san‘at, 1975.111 66

4. Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. II jild. – T.: Adabiyot va san‘at, 1972.

5. Ogahiy. Gulshani davlat. Qo‘lyozma. O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar fondi, Inv.79.

6. Yunusov M. Komil Xorazmiy. – T.: Badiiy adabiyot, 1960.

MUHAMMAD RIZO OGAHIY “DARDI DILIM ANGO DEDIM...’’ RADIFLI G‘AZALI BADIIYATI

Alijonova M.A.,
TDShU kechki bo‘lim 3-bosqich talabasi
Ilniy rahbar*: *o‘qit. Yusupova D.

Annotasiya: Muhammad Rizo Ogahiy g‘azallarini tahlil qilish orqali adibning yuksak mahoratini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqolada shoir qalamiga mansub “Dardi dilim ango dedim...” g‘azalidan ayrim baytlarni tanlab olinib, unda ishlatilgan ayrim badiiy san’at turlari va ular orqali ifodalangan ma’nolar olami ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ogahiy ijodi, badiiy mahorat, g‘azal, inson, qalb, tashbex, tardi aks, nido, tanosub, tasbe.

Аннотация: Анализируя Газели Мухаммеда Резы Огахи, мы можем увидеть высокое мастерство мудреца. В этой статье представлен список известных людей, удостоенных звания “Dardi dilim ango dedim...” из газели были отобраны отдельные строфы, в которых были раскрыты некоторые виды искусства, используемые в ней, и мир значений, выражаемых через них.

Ключевые слова: Творчество Огахи, художественное мастерство, газель, человек, душа, ташбех, тарди акс, нидо, таносуб, тасбе

Abstract: Analyzing the Ghazals of Muhammad Reza Ogahi, we can see the high skill of the sage. This article presents a list of famous people awarded the title “Dardi dilim ango dedim...” separate stanzas were selected from the gazelle, in which some of the art forms used in it and the world of meanings expressed through them were revealed.

Keywords: Creativity of Ogakhi, artistic skill, gazelle, man, soul, tashbex, tardi aks, nido, tanosub, tasbe.

Buyuk o‘zbek shoiri, tarjimoni va tarixchisi Muhammad Rizo Ogahiy mirob[48] oilasida tug‘ilgan. Xiva madrasasida tahsil ko‘rib, arab turk va fors tillarini mukammal o‘rgangan adiblardan biri hisoblanadi. Sharq mumtoz asarlarini, ayniqsa, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning ijodini qunt bilan o‘rgangan. Umrining aksar qismini mashaqqat bilan o’tkazgan hamda ota-onasidan erta ajrab, amakisi Munis qo’lida ta’lim tarbiya olgan. Shunga qaramay, u nekbin orzularidan vos kechmadi. U o’z orzulari bilan yashadi va izlandi. Adib ko’plab she’rlar yozdi va u she’rlari, g‘azallari orqali o‘z biografiyasini ochdi. Jumladan, uning eng katta devoni “Ta‘viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) g ‘azalida hayoti va ijodi haqida batafsil gapirib o’tadi.

Muhammad Rizo Ogahiy XIX asrda hukmronlik qilgan Xiva xonlari davri voqealariga bag‘ishlangan besh badiiy-tarixiy asar yozdi. Ollohqulixon hukmfarmoligi davri (1825–1843) to‘g‘risidagi "Riyozu-d-davla", Rahimqulixon saltanati voqealari (1843–1846) tasvirlangan "Zubdatu-t-tavorix", Muhammadaminxon (1846–1854), Sayyid Abdullohxon (1854) va Qutlug‘murodxon (1855) hukmronlik yillaridagi murakkab va ziddiyatli hodisalar haqidagi "Jome‘u-l-voqeoti sultoniy", Sayyid Muhammadxon zamoniga (1856–1865) doir "Gulshani davlat" hamda Muhammad Rahimxoni soniy – Feruz davri (1865– 1910)ga bag‘ishlangan "Shohidu-l-iqbol" asarlari shular jumlasidandir. Garchi tarixiy voqealar tasvirlangan bo‘lsa ham, bu asarlar saj’ asosida yozilgani, poetik ifoda uslubi, turli janrlarga doir nazm namunalari berilgani jihatidan yuksak badiiy ahamiyatga molikdir. Ular tarixiy jihatdan qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, badiiyatiga ko‘ra ham shunchalik qimmati baland. Shunga ko‘ra, bu asarlarni badiiy-tarixiy nasr namunalari deyilsa, to‘g‘ri bo‘ladi.

Ogahiy Nizomiy Ganjaviy, Muslihiddin Sa’diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy va yana ko‘plab shoir va adiblar asarlarini tarjima qilish asnosida katta adabiy maktablarga xos an‘analardan bahramand bo‘ldi. Sharq she’riyatining an‘anaviy va o‘ziga xoslik masalalarini ilg‘adi. Biroq Ogahiyga hech kim Navoiychalik kuchli ta’sir etolmadi. Devon tuzish va nomlashda ham u o‘z salafiga ergashdi.

[48] Mirob- suv taqsimoti va sug’orish tarmoqlarini nazorat qiluvchi shaxs

Devondagi ko‘plab misralar yoki g‘azallar, ularning radiflari beixtiyor Navoiyni yodga soladi. Biroq Ogahiy she’rlari hech qachon taqlid yo‘lida bitilgan she’rlar degan bahoni olmaydi.Chunki ularning hammasi – tuyg‘ulari yangilangan she‘rlar. Yangi she’rlar. Sharq she‘riyatiga xos, hali hamma ham oxirigacha tushunib, anglab ololmayotgan, an‘anaviylik va o‘ziga xoslik degan muhim masalani Navoiy kabi shoirlar an’anasi chambarida yaratilgan Ogahiy g‘azallari misolida o‘rganish mumkin:

Dahr bog‘i gullari ranginu dilkashdur base,
Hayfkim, mehru vafo bo‘yi erur noyob anga, – deb yozadi Ogahiy.

Hazrat Navoiy g‘azalida esa bu mavzu mana bu tarzda maromiga yetgan: *Dahr bog‘idin vafosizlig‘agar fahm etmadi, Nega shabnam ashkidin fan qildi nargis yig‘lamoq?!*

Navoiy g‘azallariga naziralar bitgan, taxmislar bog‘lagan shoir bu ulkan ildizdan yaxshi oziqlangan, undan ta’sirlangan. Jumladan, Ogahiy *Dardi dilim ango dedim, dema ani mango dedi...* misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalining ikkinchi baytida: *Yuz uza ikki nargising, vah ne balo qaro dedim, Ko‘nglungu joning olg‘uchi ikki qaro balo dedi* bayti beixtiyor hazrat Navoiyning: *Ko‘zing ne balo qaro bo‘libtur,/ Kim jong‘a qaro balo bo‘libtur,* – matla‘baytini yodga soladi. Biroq bu o‘rinda taqlid sezilmaydi. Nega? Chunki dard va tuyg‘ular Ogahiyga tegishli – faqat uniki. She‘riyatda mana shu – tuyg‘ularning rostligi muhim. Zero, shoirning o‘zi: *She‘ring o‘lg‘ay, Ogahiy, ishq ahlig‘a muzdin sovuq,/Dard o‘tidin bo‘lmasa maxlut agar mazmung‘a o‘t*, – deydi.

Chindan, agar uning mazmunida dard – ishq dardining o‘ti bo‘lmasa, u aralashmasa, Ogahiy she‘rlari sovuq bir taqlid bo‘lib qolardi. “Dardi dilim ango dedim...” g‘azali oshiq va ma‘shuqaning o‘zaro suhbati –dialog tarzida bitilgan g‘azal hisoblanadi.

Ogahiyning “Dardi dilim ango dedim...” g‘azalini qisqacha tahliliga diqqat qaratamiz:

Dardi dilim ango dedim, dema oni mango dedi,
Kim manga oshiq o’lsa ul lozim erur ango, dedi.

Yuz uza ikki nargising, vah, ne balo qaro, dedim,
Ko’nglung-u joning olg’uchi ikki qaro balo, dedi.

“Dardi dilim ango dedim” radifli g‘azalining ushbu baytida “Balo qaro – qaro balo” so‘zlari qo‘llanganligi sababli bu baytda tardi aks san’ati yuzaga kelgan. Tardi aks – “qaytarib berish”, “qochirish”, “uzoqlashtirish”, “chappa” ma’nolarini bildiradigan san’at turidir.

Lablaring og‘zima yetur jon topoyin ango, dedim,
La‘li tabassum aylabon yo‘qmu o‘lum sango, dedi.

Quchmoq erur beling hazin ko‘ngluma muddao, dedim,
Yo‘qmu uyoting ushbu so‘z degali, beibo, dedi.

Yuqoridagi misralarda foydalanilgan “la’li tabassum” so‘zi orqali tashbeh[49] badiiy san’ati yuzaga kelgan. Bu baytda oshiqning tabassumini la’lga qiyoslanadi. *La‘l –qimmatli, qadrli, bebaho.*

Husnunga aylayin nazar man sori bir qara, dedim,
Yoshurbon yuzin, ket, ey masxara, behayo, dedi.

Bo‘sayi lab savob uchun ayla mango ato, dedim,
Qoshu-u qapog‘ini chetib, qo‘y, bu so‘zning xato, dedi.

Ushbu baytlarda esa nido san‘ati[50] “ey masxara” so‘zi orqali yuzaga kelgan.

Yuqoridagi misralarda qo‘llangan qosh, lab, qopog‘ kabi so‘zlar orqali tanosub san’ati ifodalangan.

Tanosub san’ati- baytda, umuman, she’riy bandlarda ma’no jihatdan bir biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llash orqali hosil qilinadi.

Vah, erkan etmagung hech vafo mango, dedim,
Zohir o‘lubdurur qachon husn elidin vafo, dedi.

Xasta ko‘nglunga qilg‘asan muncha nedin jafo, dedim,
Dema jafo oni saning dardingadur davo, dedi.

Ogahiy komini nedin aylamagung ravo, dedim,
Kom topormu jonin ul qilmog‘ ucha fido, dedi.

G‘azalning so‘ngi baytlarida ham o‘ziga xos badiiy san‘at turlaridan foydalanganini ko‘rish mumkin. Jumladan; jafo so‘zi orqali “tasbe” badiiy san‘ati yuzaga kelgan.

Tasbe – birinchi misra oxiridagi so‘zning ikkinchi misra boshida takrorlanishi tasbe bo‘ladi.

Umuman olganda Ogahiy ijodini o‘rganish barcha avlod vakillariga bir xil tushunarli. U o‘z g‘azallarini hayotiy faoliyati bilan bog‘laydi. Shu bilan birga uning g‘azallari mumtoz san’at turlari bilan yo‘g‘rilgan. Foniy hayotidayoq boqiy nom qozongan shoir Muhammad Rizo Ogahiy ijodi o‘zining badiiy mahorati, nafosati bilan ajralib turadi. Qolaversa, tahlillar natijasida shu ma’lum bo‘ldiki, bir qarashda oddiy va sodda ko‘ringan g‘azallarida adabiyotshunoslikning mumtoz va murakkab badiiy san‘at turlaridan keng foydalanganligini yaqqol ko‘rish mumkin.

Ogahiy – katta shoir. Uning qarashlari, idrok ko‘lami ulkan. Ularning badiiy talqinlari diltortar, jozibali. Shu bois kichik maqolada ularning hammasi haqida yozish mushkul. Biroq uning ijodidagi ulkan haqiqatni uning, bitta she’ridan, bir bayt yoki misrasidan ham anglash mumkin. Ularning har birida Ogahiyning ogoh ko‘ngli bor.

---

[49] **Tashbeh-** she‘riyatda keng qo ‘llanib kelingan san ‘at turidir. Bu ikki narsa yoki tushunchani ular o ‘rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko‘ra o‘xshatish san ‘atidir.

[50] **Nido-** insonning ichki tuyg‘ulari junbushga kelganda lirik qahramon olamdagi har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi istalgan narsaga, o‘zining qalbiga, suhbatdoshiga murojaat etishi.

Adabiyotlar:

1. Q.Yoldoshev, V.Qodirov, J. Yoldoshbekov. 9-sinf. Adabiyot. Toshkent. “O ‘zbekiston”. 2019.
2. S.Rajabova. Ogahiy g’azallari tahlili. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 2013. №11.
3. Z.Hamidov. Ogahiy sheriyatining tili xususida. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 2009. №10.

OGAHIY IJODIDA VATANPARVARLIK VA YOSHLAR TA‘LIM-TARBIYASI

Beshimov N.N., FVVA 4-kurs kursanti
Ilmiy rahbar: Badalbayeva M.Yu
FVVA Tillar kafedrasi boshlig‘i

Annotatsiya: Maqolada Ogahiyning qalamiga mansub she‘rlar, ruboiylar, dostonlaru romanlaridan olingan parchalarda aks ettirilgan pand-nasihat, o‘gitlar va hikmatli so‘zlar yoshlarga ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishining ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: shoir, lirik meros, ishq va tabiat, mumtoz, kelajak avlod, ijodkor, baytlar, misralar, kuch-g‘ayrat, ezgulik.

Аннотация: В статье говорилось о важности того, чтобы поучения, поучения и мудрые слова, отраженные в отрывках из поэм, рубаи, эпосов и романов, принадлежащих перу Огахи, служили образцом для подражания для молодежи.

Ключевые слова: поэт, лирическое наследие, любовь и природа, классика, будущее поколение, креатив, стихи, стихи, энергия, доброта.

Abstract. The article discusses the importance of pand-exhortation, O'ghites and wise words, which are reflected in poems belonging to Ogahi's pen, excerpts from rubies, epics and novels, serving as an instructive school for young people.

Keywords: poet, lyrical heritage, romance and nature, classical, future generation, creator, stanzas, verses, power, goodness.

Adib, buyuk shoir, tarixchi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy o‘ziga xos ijod, an’ana va novatorlik hamda adabiy ta’sir masalasiga alohida e’tibor qaratgan va o‘zidan iz qoldirgan ijod sohibi egasi. Shaxsiy iqtidori, adabiyotimiz va madaniyatimiz oldida qilgan xizmatlari, badiiy talanti va qudrati jihatlaridan adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiydan keyin turadigan Ogahiydek ijodkor bo‘lmasa kerak. Navoiyning hikmatli so‘zlari Xuroson, Movarounnahr va Qo‘qon xonligi hududlarida joylashgan me’moriy yodgorliklarida xali-hanuz aks-sado bermoqda. Ogahiy qalamiga mansub bo‘lgan Ichan-Qa’la majmuasidagi eng ko‘p epigrafik yozuvlar shu kunga qadar saqlangan. Shoir so‘zlari yozilgan devonlarida ham insonlarni ilmga targ‘ib qilgan. Vengriya olimi A.Vamberi shunday deb yozgandi: “Istalgan ma’rifatli millatga nisbatan O‘rta Osiyolik ko‘chmanchining musiqa va xalq turkiy she’riyatiga berilishi nisbatan

kuchlidir”. Qo‘qon, Buxoro va Qashqarga nisbatan Xiva xonligida bunday ehtiros yanada yuksakroqdir.

Ogahiy haqida so‘z yuritar ekanmiz, u tinimsiz ijodiy mehnat qilib, o‘z davrida iste’dodli shoir, yirik tarixchi olim sifatida shuhrat qozongan. Shoir bizga katta hajmli yigirma bir ming misraga yaqin she’rni o‘z ichiga olgan lirik meros qoldirgan ulug‘ shoirdir.

Mashhurligiga ko‘ra, uch toifa shoirlar bor. Birinchisi hayot davrida mashhur bo‘lib, keyin unutilgan. Ikkinchisi hayotligida nomi chiqmasa-da, vafotidan so‘ng dovrug‘qozongan. Uchinchisi foniy hayotidayoq boqiy nom qozongan. Muhammadrizo Ogahiy so‘nggi toifaga mansub shoirdir. Xiva xonligi davrida turkiy tilda eng ko‘p bitilgan nazmiy va nasriy asarlarning muallifi, Turkiy til tarjimonlik maktabining Zahiriddin Muhammad Bobur ta’rifi bilan aytganda “eng ko‘b va eng xo‘b” ijodkori va peshqadami edi.

Ogahiy o‘zbek elining qiyot urug‘idan bo‘lib, uning hayotida Shermuhammad Munis katta rol o‘ynagan. Shoirning devonida uning yoshlik chog‘idan ilmga chanqoqligi va shoiru olimlar davrasida bo‘lishga intilganini yozgan. U maktabni tugatgandan so‘ng oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirib, oliy ma’lumotga ega bo‘lganligini yozadi. Ogahiy noodatiy tarzda mazmun talabidan kelib chiqib yigirma yoki yigirma uch baytlik g‘azallar yozdi. Uning rahnamosi, maslakdoshi, shogirdlarining bo‘lgani, turkiy nazmni davlat siyosati darajasiga ko‘targani buyuk qalam sohibining katta yutug‘idir. Ogahiyning pusht-u kamari bo‘lmasa-da, ammo bir necha yuz yillardirki, ijodining sadoqatli izdoshlari bor. Ogahiy Feruz shohning ijodga rag‘batlantirganini, natijada “ko‘ngliga quvvat va tab’iga jur’at bilan ko‘pdan-ko‘p she’rlar yozganini” so‘zlaydi.

Ma’lumki, muhabbat mavzusi qadim zamonlardan buyon adabiyotimizda qalamga olib kelinayotgan yetakchi mavzudir. Chunki muhabbatsiz hayot ma’nosiz o‘tgan umrdir. Haqiqiy muhabbat vafodorlik, samimiyat va jo‘shqin his-tuyg‘ular bilan ifodalanadi. Subutsizlik, hiyonat va razillik haqiqiy ishq-muhabbatga begonadir. Shoir Ogahiy ham chinakam oshiq, u poklik, samimiy muhabbat kuychisidir:

Ogahiy holini gar ishq ichra bilmoq istasang,
Chashmi ibrat birla dardangiz devoniga boq.

Shoirning fikricha, samimiy oshiq bilan ma’shuqa orasiga raqiblar, ag‘yorlar, xusumatchilar suqulib kirib, turli fitnalar qilganida ham sevishganlar bir-birlaridan voz kechmasligi, ranjimasligi, o‘zlarini dadil tutishlari, ruhsizlanmasliglari, chuqur mushohada yuritib, so‘ngra harakat qilishlari lozim. Jumladan Ogahiy o‘zinig “Oshiq” sarlavhali she’rida shunday yozadi:

Agar ming javr qilsang, dardi ishqing tarkin etmon kim,
Bo‘lur shavqi fuzunroq nechakim cheksa jafo Oshiq.
Qilurman etsa sandin har jafou javr yuz ming shukur,
Ki qilmoqdur shikoyat er javridin xato oshiq.
Aga javr et va gar ehson, na qilsang nomim uldurkim,
Rizoi yorsiz hech ishni qilmas muddao oshiq.

Buyuk adib muhabbatdan boshqa turli mavzularda ham she’rlar yozgan, ijod namunalarining asosoy qismida yoshlarni ilm olishga da’vat etuvchi, tabiat mavzulari, bahor faslining naqadar go‘zalligi haqida tarannum etgan. Ogahiyning ko‘plab mumtoz g‘azallari va dostonlari o‘zbek folklorida musiqiy ohangda kuylangan. Ijod namunalari orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, xarakteri va ruhiy olamini ochib beriladi. Har bir yozilgan baytlarda bir nechta go‘ya uyg‘un mujassamlashtirilgan. Ogahiy ijod namunalarida o‘zi yaratgan badiiy asar qahramonlarining qiyofasida o‘zining ham ichki kechinmalari, ichki dunyosini yoritgan. Bizgacha yetib kelgan adabiy me’ros namunalari orqali yuqoridagilarni guvohi bo‘lishimiz mumkin. Jumladan,

Oltmish uchdan o‘tdi yoshim, vodarig‘,
Sarhisobga chorlar shuur tunu kun.
Yorug‘lig‘ing faqirdan tutmag‘il darig‘,
Pajmurdayi ahvoldadurman bugun.

Mazkur yozilgan ruboiyda Ogahiy o‘z umrini sarhisob qila turib, yoshlikdan to umrining oltmish uch yoshigacha bo‘lgan davrda qanday ezgu ishlarga qo‘l urganligini sarhisob qilib so‘roqlaydi. Keyingi baytida esa “Yorug‘lig‘ing faqirdan tutmag‘il darig‘” ya’ni qo‘lingdan nimayiki yaxshilik kelsa, u yaxshilikni o‘zgalardan ayama, ulardan darig‘ tutma degan ma’no mujassamlashtirilgan.

Ogahiy asarlarini o‘qir ekanmiz, bizning ham qalbimizda o‘zgacha ishtiyoq paydo bo‘lib, ilm o‘rganishga intilish, kelajakka mas’uliyat bilan qarash, qo‘limizdan kelgunicha boshqalarga ezgulik qilish, qilgan xatolarimiz ustida tinimsiz ishlashimiz va halol mehnatdan qochmasligimiz lozim, degan his-tuyg‘ular bizni qamrab oladi.

Ogahiy kelajak avlodni ilm olishga, ertangi kunga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga, yoshlikdagi kuch-g‘ayratni behuda sarflamaslikka, ilm olishning naqadar muhim ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan. Ogahiyning quyida keltirilgan dostonidan olingan satrlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u yoshlarni o‘zi yashagan o‘tmish davridan farqli kelajakka ishonch bilan qarab yashashga, farovon kunlarni kelishiga umid qilishga undab “bir kun kelib, meni ham yod etarsizlar va ruhimni shod etarsizlar” degan fikrlarni bildirgan. So‘nggi misralarda esa “Men sizlarga doimo baxt saodat tilab qoluvchi Ogahiydurman” deya kishi yodida qoladigan misralari bilan yakunlaydi.

Inshoolloh, erklik, hurlik bo‘lg‘uvsidur yor
Inshoolloh kelar farahbaxsh kunlar.
Yasharsiz hurlikda, dorulomonda,
Bilmayin qayg‘u ne baxtli zamonda.
Shunda men faqirni aylarsizlar yod,
Ruhim shod etarsiz ey baxtli avlod
Va kim, men siz bilan boqiydurman,
Sizlarga baxt tilar Ogahiydurman.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidklash joizki, Ogahiyning asarlarida chuqur ma’no-mazmun aks etgan. So‘zlarining tanlanganligi, misralarning mazmunan go‘zal

tugallanganligi, o‘ylagan fikr-mulohazalarini kitobxonga asl mohiyati bilan, yosh avlodga saboq bo‘ladigan darajada tushunarli tilda yetkazib berilgan.

Adabiyotlar:

1. “Ogahiy – shoir, muarrix, tarjimon” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Urganch. 2019.
2. R.Majidiy. Ogahiy lirikasi. Toshkent. O‘zbekiston “Fan” nashriyoti, 1953.
3. I.Adizova. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. “Fan” nashriyoti, 2009.
4. https://ogahiy.tsuos.uz/adib-hayoti-va-ijodi/

XIVA VA QO‘QON ADABIY MUHITIDAGI IZDOSHLIK FIROQIYNING OGAHIYGA TAXMISI MISOLIDA

Zokirova D.S., TDSHU II bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n. Eshonova S.N.,
katta ilmiy xodim,
O‘zRFA A.R.Beruniy nom. ShI.

Annotatsiya: Xiva adabiy muhitida yashab ijod qilgan Ogahiy o‘zbek mumtoz adabiyotimizda Alisher Navoiydan keyin eng ko‘p adabiy merosi qoldirgan shoirlar biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Ogahiy ijodi va uning adabiy merosi haqida so‘z boradi. Shuningdek maqolada boshqa bir adabiy muhit vakili bo‘lmish Do‘stmuhammad Firoqiy, Ogahiy g‘azaliga bog‘lagan taxmisi tahlili ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xiva adabiy muhiti, “Majmuai shoiron”, “Ta'viz ul-oshiqin”, Qo‘qon adabiy muhiti, Do‘stmuhammad Firoqiy Xo‘qandiy, “Junun dashtida qochma”.

Аннотация: живя и работая в литературной среде Хивы, Огахи считается одним из поэтов, оставивших после себя наибольшее литературное наследие в узбекской классической литературе после Алишера Навои. В этой статье рассказывается о творчестве Огахи и его литературном наследии. В статье также раскрывается анализ предположения, которое дуст Мухаммад фираки, представитель другой литературной среды, приписывает Газели Огахи.

Ключевые слова: хивинская литературная среда, “комплекс поэт”, “Тавиз уль-ашикин”, Кокандская литературная среда, Дост Мухаммед фираки Худжанди, “бегство в джунгарскую степь”.

Abstract: Ogahi, who lived and worked in the literary environment of Khiva, is one of the poets who left the most literary heritage in our Uzbek classical literature after Alisher Navoi. This article talks about Ogahi's work and his literary legacy. The article also reveals the analysis of the assumption attributed to Dostmuhammad Firaki, Ogahi Ghazali, who represented another literary environment.

Keywords: Khiva literary environment, “Complexi poyiron”, “Tawez ul-inşikin”, Kokand literary environment, Dostmuhammad Firoqi Khoqandiy, “do not escape in Junun steppe”.

Xorazm diyori azaldan ilm-ma'rifat, madaniyat o‘chog‘i bo‘lib kelgan. Bu

Hududda yetishgan aksariyat allomalar merosi aniq va tabiiy fanlardan tashqari adabiyot rivojiga ham munosib ulush bo‘lib qo‘shilgan. Ayniqsa, Xiva adabiy muhitining mumtoz adabiyot tarixida alohida o‘rni bor. Uning yorqin namondalaridan biri Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy (1809-1874) bo‘lib, musammatnavislikda ham sermahsul shoirlardan hisoblanadi. Navoiyga ustoz qadar ergashib, nafaqat ko‘plab mumtoz janrlarda ijod qilgan, balki g‘azallarga taxmis bog‘lashda ham o‘ziga xos imkoniyatlarini namoyish etgan [3: 221-226]. Shoirning badiiy mahorati yuksakligi u bog‘lagan taxmislardan ham ko‘rinadi. 83 taxmisidan qariyb 30 tasi Navoiy g‘azaliga bog‘langan.

Ayni paytda shoir g‘azallariga Komil (1825–1899), Doiy (1831–1909), Feruz (1845–1910), Tabibi (1869–1910), Habib (1864–1914), Umidi (vaf. 1906), Kamoli (vaf. 1914), Xayoli (vaf. 1915), Yusuf (1850-1918), Shinosiy (o‘l. 1918), Avaz (1884–1919), Bayoniy (vaf. 1923), Oqil (vaf. 1923), Sultoniy (vaf. 1920dan keyin), Sa'diy Xorazmiy (vaf. 1937), Xolis Xorazmi (vaf. 1811 yildan keyin), Haqiriy (19–20), Niyoziy (vaf. 1928) kabi shoirlar tomonidan ko‘plab muxammaslar bog‘langan. Mazkur shoirlarning deyarli barchasi Xiva adabiy muhitiga mansubdirlar.

Biz o‘rganayotgan qo‘qonlik shoir Firoqiy (1891–1965) ijodida ham Ogahiy g‘azaliga bog‘langan taxmis mavjud ekan. Xiva va Qo‘qon adabiy muhitidagi an'ana va ijodiylik mazkur she'riy namuna orqali ham namoyon bo‘ladi. Taxmis tahliliga to‘xtalishdan avval Do‘stmuhammad Firoqiy tarjimai holi haqida qisqacha so‘z yuritsak.

Do‘stmuhammad asli Chustdan bo‘lib, 1891 yilda Mulla Hoji Muhammad oilasida dunyoga kelgan. Ho‘qand shaharidagi Zanjirli madrasasida tahsil olib, shariat ilmlari bilan birga sharq mumtoz adabiyoti, xattotlik san'atini ham puxta egallagan [9:643]. Madrasani bitirgach, taqdir taqazosi bilan Olmaotaga yo‘l oladi. U yerda 1925 yilda Robiyaxon ismli qiz bilan oila quradi. 1933 yilda Qo‘qonga qaytadi. Ota kasbi qassobchilik bilan umr kechirib, 1965 yil 25 fevral‘ kuni 74 yoshida vafot etadi [7].

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929) ustozi bo‘lib, unga bir qator she'rlar bag‘ishlagan [6]. Zamondoshlari Yoriy (1853–1944), Nasimiy (1866–1941), G‘aribiy (1877–1961), Charxiy (1900–1979), Chustiy (1904–1983), Javdat (1905–1964), Sobir (1905–1972) kabi shoirlar bilan do‘st bo‘lgan, ijodiy uchrashuvlar, mushoiralar qilgan.

U zullisonayn shoir bo‘lib, har ikki tilda ham devon tuzgan. Adabiy merosi avlodlari shaxsiy kutubxonasida hamda Qo‘qon adabiy muzeyi fondida saqlanadi. Shoirning ayrim she'rlari Qo‘qondagi “Yangi Farg‘ona” gazetasi (1960-61), “Abadiyat daraxti” (1989) antalogiyasi, “Tazkirai Qayyumiy”da (1998) nashr etilgan [1, 9, 10, 11, 13].

Qo‘qon adabiy muhitida sayqallangan Firoqiy ijodida turli janrlarni uchratishimiz mumkin. Shoir she'riy mahoratni oshirishda sharq mumtoz adabiyoti boy xazinasidan, buyuk ijodkorlari merosidan barakali foydalandi. Xususan, Ogahiy ijodidan ilhomlanib, uning “Junun dashtida qochma ...” deb boshlanuvchi g‘azaliga ham taxmis bog‘lagan .

Bu g‘azal Ogahiyning “Ta'viz ul-oshiqin” devoniga kirgan bo‘lib, 11 baytdan iborat. Aruzning hazaji musammani solim, ya'ni mafo'ilun-mafo'ilun-mafo'ilun-mafo'ilun (Taqte'si: V – – – / V – – – / V – – – / V – – –) vaznida bitilgan. Tasavvufiy didaktika ruhida yozilgan g‘azalning 7 baytiga Firoqiy she'r ruhiyati, mazmuni, vazni, qofiyasini saqlagan holda taxmis bog‘lagan.

Agar chin odam ersang qurmag‘il ba'zi adovatdin,
Hazar qilg‘il hamisha el apo otulg‘on mahoratdin,

Balo yog‘durar boshingga qoch fisqu sharoratdin,
Junun dashtida qochma, ey ko‘ngil, sangi malomatdin,
Ki bu vodiyga kirgan yuz o‘gurmas hech ofatdin.

Firoqiy taxmisni “chin odam” timsoliga murojaatdan boshlab, sen adovat qilma, el orasidagi bunday ishlardan xazar qilginki, aks holda bu ishlar boshingga balolar yog‘iladi qabilida nasihat qiladi. Ogahiyning ko‘ngliga murojaati vositasida bildirgan, lekin ey ko‘ngil junun – majnunlik dashtida oshiqqa otiladigan malomat toshidan qochmaginki, bu maydonga qadam qo‘yganlar (mashuqadan) keladigan ofat (sinov)dan yuz o‘girmaydilar,.

Agar sen chin odam-komil inson bo‘lmoqchi bo‘lsang, adovat qilma, el orasidagi bunday ishlardan xazar qilginki, aks holda bu ishlar boshinga balolarni yog‘diradi. Lekin ey ko‘ngil junun – majnunlik dashtida oshiqqa otiladigan malomat toshidan qochmaginki, bu maydonga qadam qo‘yganlar (mashuqadan) keladigan ofat (sinov) dan yuz o‘girmaydilar. Haqiqiy oshiqlar bunga ne'mat deb qaraydilar.

Taxmisning keyingi bandida bevafolarga o‘zni fido yetishdan qaytarilgan:

Giriftor etma o‘zni bevafo qosh qarolarga,
Yashur siringni aytma har qayu no oshnolarga,
Yo‘liqg‘aysen davosiz darde qolgan bedavolarga,
Agar oshiq esang sabr ayla shod yanglig‘ balolarga,
Ki ishq ichra qutulmoq mumkin ermas ranji kulfatdin.

Bevafolarga o‘zingni fido yetmagin, barcha sirlaringni ulardan yashir har kimga sirlaringni oshkor yetma. Bu ishq yo‘lida bedavo dardkashlarni uchratarsan, ammo agar sen chin oshiq bo‘lsang ishq azoblariga sabr qilginki, haqiqiy ishq senga komili shifo bo‘lib, ranj-u kulfatdan halos etsin. Uchinchi bandda nafs hiylalaridan ogoh bo‘lishga chaqirilgan:

Qabul etma sanga in'om etilsa bu fano shahrin,
Sani g‘arq aylagay bu ajdaxoyi nafsingni nahrin,
Qanoat pesha qil kelturma Qahhori qahrin,
Ichursa soqiy davron agar nokomlig‘ zahrin,
Er ersang oni shirin angla shahdomiz sharbatdin.

Majoziy ma'noda fano so‘zi yo‘qlik, o‘zlikdan kechish, baqosizlik ma'nolarini bildiradi. Shu jixatdan, agar senga fano shahrini sovg‘a qilishsa, uni rad etginki, sening ajdarxo nafsing seni maxv etmasin. Qahhor g‘azabini keltirmaslik istasang, sabrli bo‘l, qanoat qilgin. Agar zamon soqiysi yoqimsiz zahar ichirsa, mard kishilik alomatidan uni shirin sharbat kabi qabul etgin. Keyingi bandda esa yaxshi odatni kasb qilishga targ‘ib etilgan:

O‘zinga pesha qil har doimo bir yaxshi odatni,
Topib bir go‘shai xilvatni qil xolis ibodatni,
Chin oshiq sen harom ayt o‘zga dunyoda halovatni,
Sipar qil boshinga bu razmgoh ichra qanoatni,
Agar maqtul bo‘lmoq istamassan tiyg‘i minnatdin.

Hamisha bir yaxshi odatni o‘zinga kasb aylaginki, ibodatingni xolis yolg‘izlikda ado etgin. Bu dunyo halovati chin oshiqlar uchun haromdir. Agar minnat tig‘i seni halok etshini hoxlamasang, razmgohdan kelgan nazarlarga qanoatni boshinga qalqon qil. Beshinchi bandda shoir shunday deydi:

O‘zingni anjumandin holi tutgil Kibar oldida,
G‘arazgar, behimmat so‘zi noxush zahar oldida,
Qochib borma, yiroq o‘l, odami badqahr oldida,
Desang xor o‘lmayin mardud(– haydalgan) o‘lib bu daxr oldida,
Dami so‘z ochmagil kayfiyatiy go‘ri qiyomatdin.

O‘zingni buyuklik oldida uzoq tutki, yomon niyatli, qadrsiz gaplar seni zaharlantirmasin. Zahar egalaridan yiroq bo‘lginki, o‘lim xotimang xorlikda o‘lish bo‘lmasin. Bunday kishilar oldida so‘z ochsang kayfiyating qiyomatning go‘ri bo‘ladi. Keyingi bandda shoir oshiqqa murojaati:

Ko‘paygay yor, ulfatlar muruvvat xonani ham oching,
Qutulmassen alardin ko‘h saxrolarga ham qoching,
Quritagaylar agarchi chashmalardek ham to‘lib toshing,
Agar shirin so‘zingla dahr aro yuz ming shakar soching,
Ani talx aylagay bir nukta birlan ahli g‘iybatdin.

Muruvvat xonani ochgan zahoting do‘st u yorlar ko‘payadi, ulardan tog‘- u sahrolarga ham qochib qutila olmaysan. Shirin so‘zingni shakar kabi sochsang ham, g‘iybat ahli bir jumla bilan shirin so‘zingni achchiq zaharga aylantirgay deya oshiqqa ishora qilinyapti. Taxmisning so‘nggi quyidagi band bilan yakunlaydi:

Hayolim mahv qildi mahvash bar qomati diljo‘,
Ajab hayrona qildi mani nigohi ila boqib har no‘,
Firoqu noz ila aqlimni oldi yori shakkar xo‘,
Agarchi Ogahiy do‘zax o‘ti muhriqdur asru,
Vale yo‘q bir shararcha ochti so‘zon furqatdin.

Go‘zal bir ko‘ngil ovchisi hayolimni o‘g‘irlab, bir boqishida meni hayrona qildi. Bir shirin nozi ila Firoqiy aql-hushini oldi. Agar do‘zax olovi asrlarcha kuyduruvchi bo‘lsa ham, lekin yonib turgan ayriliq uchquni oshiq uchun do‘zax olovidan azoblidir deya g‘azal yakullanadi. Tasavvufiy hamda didaktik ruhda yozilgan taxmis g‘azal bilan har tomonlama ma'no-mazmun, qofiya, vazn jixatdan mutanosiblikni saqlab qolgan.

Xiva va Qo‘qon adabiy muhitlari bir qarashda o‘xshash, ammo tom ma'noda o‘zaro farqli jihatlari bo‘lishiga qaramasdan Do‘stmuhammad Firoqiy Ogahiy ijodiga hurmat bilan qaragan va uni she'rlaridan ilhomlangan. Shuni natijasi o‘laroq unga taxmis bog‘lagan. Ogahiy qoldirgan adabiy merosga keyingi davr ijodkorlari e'tirofida va e'tiborida bo‘lgan. Bu esa shoir uchun yuksak mukofotdir. Xulosa o‘rnida mumtoz adabiyotimiz namoyondasi, Xiva adabiy muhitining yorqin vakili Ogahiy adabiy merosi chinakam xazinadir. Uni o‘rganib, tadqiq qilish biz yoshlari oldidagi sharafli vazifadir.

Adabiyotlar:

1. Abadiyat daraxti / Tuzuvchi: N. Lukashov, H. Saidg‘aniev, Toshkent: G‘afur

G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
2. Abdullaev V. A. O‘zbek adabiyoti tarixi. -Toshkent. O‘qituvchi, 1960.
3. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent. Fan, 2009.
4. Do‘stmuhammad Xojimuhammad. Firoqiy devoni. Qo‘lyozma / Mastura Nazirova shaxsiy kutubxonasi.
5. Do‘stmuhammad Xojimuhammad. Firoqiy forsiy devoni. Qo‘lyozma / Mastura Nazirova shaxsiy kutubxonasi.
6. Zohidova D. G‘aribiy va uning devoni / Filol.fan. nomz. … diss, avtoreferati. Toshkent, 2006.
7. Mastura aya Nazirova xotirasi // Dala ekspedisiyasi. 3.01.2020/ C. Eshonova shaxsiy kutubxonasi.
8. Ogahiy. Ta'vizul oshiqin. Nashrga tayyorlovchi: Sh. Sharafiddinov. - Toshkent. O‘z. SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960.
9. Po‘latjon Domulla Qayyumov. Tazkirai Qayyumiy /Nashrga tayyorlovchi: akad. A. Qayumov. III jild. Toshkent: O‘zRFA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1998.
10. Firoqiy arxivi. G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondi, KP № 5420.
11. Firoqiy. Hakimzodaga. // Yangi Farg‘ona. 1961yil, 7 fevral', 17 (7146).
12. Xiva adabiy muhiti// URL: xorazmiy.uz/pages/view/519
13. Charxiy arxivi. G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondi, KP № 5419.
14. Erkinov A. An'anaviy va modern muhitlar qiyosi: Komil Xorazmiyning Toshkentga bag‘ishlangan qasidasi// URL: shosh.uz/ ananaviy va modern muhitlar qiyosi komil xorazmiyning toshkentga bag`ishlangan qasidasi.

OGAHIY G‘AZALLARIDA YOR TASVIRINING IFODASI VA UNDA TASHBEH SAN‘ATINING O‘RNI

Tursunova D.B. TDSHU talabasi
Ilmiy rahbar: Azizova N.B.
TDSHU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada XIX asrning mashhur shoiri va tarjimoni Ogahiy ijodi o’rganilgan bo’lib, xususan shoirning g’azallarida yor tasvirining ifodasi va unda tashbeh san’atining mohirona qo’llanilishi haqida ma’lumot berilgan. Uning g’azallaridan namunalar keltirilib tahlil qilingan.

***Kalit so’zlar*:** g’azal, tashbeh, yor, tasvir, ifoda, san’at.

Abstract: In the article, the work of the famous poet and translator of the 19th century Ogahi is studied, in particular, information is given about the expression of the image of the “yor” in the poet’s ghazals and the skillful use of the art of tashbeh in it. Samples of his ghazals are given and analyzed.

Key words: ghazal, tashbeh, poem, image, expression, art.

Sharq mumtoz she‘riyatining yigirmaga yaqin janrida mohirona qalam tebratgan XIX asr o‘zbek adabiyoti tarixining yetuk namoyondalaridan bo‘lgan, tarixnavis, tarjimon, shoir sifatida Navoiydan keyingi eng ko‘p adabiy meros qoldirgan ijodkor Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy ijodiyoti eng keng ko‘lamda adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘rganilib kelingan ijodkorlardandir. Ogahiyning “Tanlangan asarlari” nomida (1958-1960), “Ta‘vizul-oshiqin” devoni (1960), 1970 yillarda she‘rlari, tarixiy va tarjima asarlaridan namunalar jamlangan 6 jildlik “Asarlar” to‘plami chop etilgan. Uning ijodi ustida R.Majidiy, Q.Munirov, N.Komilovlar yirik ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Shuningdek, Sh.Umarovaning “Ogahiy lirikasining o'ziga xos xususiyatlari” nomli maqolasi, E.Ochilovning “Jamoling jilvasi/Ogahiy” (2013) nomli Ogahiy ijodiy merosi na‘munalari to‘plamidan, F.G‘anixo‘jayevning “Ogahiy she‘riyatidan” (1983) nomli to‘plamlaridan ma‘lumot olishimiz mumkin.

Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda o‘z asarlarida keltirilgan ma‘lumotlarga asosan Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida Erniyozbek mirob oilasida dunyoga kelgan bo‘lib, 3 yoshida otasidan yetim qolgach, o‘sha davrda Xiva xonligida miroblik lavozimida faoliyat yuritgan amakisi Shermuhammad Munis uni o'z tarbiyasiga olib, diniy va dunyoviy ilmlarni madrasa tahsilida ko’rgan. Xiva tarixini aks ettiruvchi “Riyoz ud-davla” (“Saodat bog‘lari”, 1825-1842), “Zubdat ut tavorix” (“Tarixlar qaymog‘i”, 1846-1855), “Jome ul voqeoti Sultoniy” (“Sultonlar voqealari to’plami”, 1856-1865), “Gulshani davlat” (“Davlat gulshani”, 1865-1872), “Shohidi Iqbol” (1872). nomli 5ta tarixiy asar va bir qator o‘zbek tiliga tarjima qilingan tarjima asarlari o‘ziga xosligi bilan adabiyot olamida o‘z o‘rniga ega.

Shoir g'azaliyotida chuqur falsafiy qarashlar, dunyoviy va ilohiy ishq, didaktik tushunchalar, ijtimoiy-siyosiy va tabiat mavzularini, insoniy ichki va tashqi axloqiy go'zallikni ifoda etgan holda bir qator lafziy va ma'naviy san'atlarni, shu jumladan, talmeh, tashbeh, tazod, musoviyat-tarafayn, mustazod, g'azal, husni ta'lil kabi adabiy san'atlarni qo’llash salohiyatiga ko'ra, Ogahiy ko‘p ijodkorlardan farqli ravishda, daryodan durlar teruvchi emas, balki durlar zamirida daryolar kashf etuvchi alloma sifatida tasavvurimizda paydo bo’ladi.[51] Shoirlarning aksariyat qismining ijod na'munalarida bo'lgani kabi Ogahiy she'riyatida ham asosiy va eng keng yoritilgan mavzu ishq ekanligini inobatga olgan holda, uning ijodida yor tasviri tashbeh san'ati yordamida yoritilishi va uning xususiyatlari masalalarining tahlilini ko’rib chiqamiz.

Ma’lumki, *Tashbeh* – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan bo'lib, “o'xshatish" ma'nosini ifodalaydi.[52] Ikki narsa yohud tushunchani ular orasidagi o'zaro haqiqit yoki majoziy munosabatlariga ko'ra o'xshatilishi san'atidir. Bunda ushbu san'at tasvirlanayotgan shaxs, narsa yo tushuncha haqida aniqroq, jozibaliroq tasavvurni gavdalantirish va timsolning ma'naviy ko'rinishini aks ettirish uchun xizmat qiladi. Hayotimizda mavjud bo'lgan aniq yohud mavhum tushuncha va buyumlarga timsollarning o'xshatilishiga ko'ra tashbeh *haqiqiy* va *majoziy* turga bo'linadi.

Nafaqat Ogahiy ijodida balki, bir qator shoirlar, ular qatorida Navoiy, Lutfiy, Furqat, Muqimiy kabi namoyondalar ijodida ham yor jamolining quyoshga, gulga, oyga o'xshatilishini, labi g'unchaga, qaddi sarvga, sochlari sumbulga o’xshatilishini kuzatishimiz mumkin. Ogahiy lirikasida esa ushbu ro'yxatning yana da kengaytirilib boyitilgan holdagi betakror namunasini ko'rishimiz mumkin.

[51] Jumaxo’ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. “Noshir” nashr., Toshkent – 2019. -B.408.
[52] Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. “Sharq” nashr., Toshkent-1998. -B.14.

Ogahiyning *“Sallamno”* radifli g'azalida quyida keltirilgan parchada tashbeh san’atining yorqin misolini ko’rishimiz mumkin:

Olur har lahza yuz jon chashmi fattoning'a sallamno,
*To'kar har damda ming qon **tig'i mujgoni**ng'a sallamno.*[53]

Shunigdek,

Vasliga yetushkan chog' bag'rim o'ldi yuz pora,
*Oni **tig’i mujgon**i tildimu ekan oyo.*[54]

“... Ekan oyo” radifli g’azalida tilga olingan *tig'i mujgon* tasvirida kiprikning (forscha - mujgon) tig' ya'ni xanjarga o'xshatilgan.

Shoir g'azaliyotida nafaqat yorning chehrasi, balki uning ko’rishishidagi mavjud holi ila oyga qiyoslanishi tashbeh san'atida *oy* timsolining faqatgina yuz ko'rinishining tasviri timsoli sifatida emas, balki yorga yetishish imkonsiz bir darajada ekanligini, oyning uzoqda joylashganini nazarda tutgan holda oyga qiyoslanishini ifodalash maqsadida ham qo'llanilishini quyidagi parchada ko'rishimiz mumkin:

*Holima nazar ul **oy** qildimu ekan oyo,*
Jonda dog’i hijronin bildimu ekan oyo.[55]

Quyidagi ikki baytda esa shoirning o'ziga xos mahoratining guvohi bo'lishingiz mumkin. Ushbu satrlarda ijodkor yorning yuzini go’zalligini tasvirlash uchun tashbeh san'atida juzvlarining qo'llanish darajasiga ko'ra tashbehi mufassal, tashbehi mujmal, tashbehi muyqqad usullariga asoslanib o'xshatishning bir-biridan farqli ravishda qo’llashning mohirona namunasidir:

Bulbul oso nolam ermas tongki xori hajr urub,
*Javr qilsam ul **chaman ruxsor** mandin o'zgaga.*[56]

Ogahiyning ushbu “...Mandin o'zgaga" radifli g'azalidan olingan parchasida shoir tashbehi muyaqqad asoosida yor vaslining go’zalligini chamanga qiyoslamoqda. Va quyidagi baytga solishtirsak, yor chehrasini aniq bir gul-lolaga o’xshatilishini ko'rsak, yuqoridagi baytda alohida gul emas, chamanzordagi bulbulni maftun etguvchi istalgan gul misolida tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Bo'ldi ko'ngluma ayon ishqing o'tidin dog'lar,
***Lola yanglig' yuzda anbar bo'y xolin**gni ko’rub.*[57]

Yanglig' - o'xshash, monand, kabi ma’nolarini ifodalovchi so'z qo'llagan holda Ogaahiy tashbehi mufassal san'atidan na'muna keltirganining guvohi bo'lamiz.

Ohu fig'onim bulbulu qumrini xomush etkanin,
*Ul **qomati sarvu**, **yuzi gul bargi handonim**g'a ayt.* [8]

---

[53] G'anixo'jayev F. Ogahiy she'riyatidan. “O'KMK". Toshkent-1983. -B.12.
[54] G'anixo'jayev F. Ko’rsatilgan manba. -B.12.
[55] G'anixo'jayev F. Ko’rsatilgan manba. -B.12.
[56] “Asarlar" 1-jild. Devon. “G'.G'ulom” nashr., Toshkent- 1971. -B.95.
[57] “Asarlar" 1-jild. Devon. “G'.G'ulom” nashr., Toshkent- 1971. -B.104.
[8] Ochilov E. Jamoling jilvasi/Ogahiy. “O'zbekiston” nashr., Toshkent-2013. -B.37.
[9] G'anixo'jayev F. Ogahiy she'riyatidan. “O'KMK". Toshkent-1983. -B.40.

Ijodkor mahoratining yuksak darajasini adabiy san'atni bir misrada ikki karra qo'llaganidan ham anglamoq mumkin. Yuqorida berilgan “Ayt” radifli g'azalidan keltirilgan parchada bir misrada ham yor qomatining savrga, ham yuzining gulga o'xshatilganini, shuningdek, quyidagi misrada tashbehi muyaqqad asosida yozilgan bayt misolada shoirning tasvir ifodasini qo'llash jarayonida so'zlarning ma'nodoshlik xususiyatidan keng foydalangan holda so'zlarni durdek terganining shohidi bo'lamiz:

*Jilvalar bo'lib har yon, ochibon **guli husnung**,*
Fayz ila chamanlarni bog’i jannoso qil. [9]

Yana bir o'rnak keltirsak, Ogahiyning “O’xshaydur” radifli g'azalidan quyida keltirilgan baytda yor vaslini bu safar oyga qiyoslagan holda uninig sifatini ham ta'riflash mahi anvar- to’lin va porloq oy xususiyatini keltirib mirsani yanada boyitganini ko'rishimiz mumkin:

***Yuzung** avji sabohatda **mahi anvar**g'a o'xshaydur,*
***So'zung** xoni malohatda **tuzu shakkar**g'a o'xshaydur.* [10]

Tashbihi mujmal asosida baytning har ikki misrasida: birida yor yuzini to'lin oyga, ikkinchisida yor so'zining to'g'ri va shakardek shirinligiga ishora qilmoqda.

Yana bir bayt misolida “Ko'rmisham" radifli ga'zalidan olingan parchaga nazar solsak, bu kez ijodkor yor jamolining nurafshon oftobga qiyoslanganini ko'rsak bo'ladi:

***Oftob oso munavvar tal'ati** farxundasin,*
Olamoro axtari avji saodat ko'rmisham.[11]

Yuqoridagi misralarda keltirilgan so'zlar **tal'at** – yuz, chehra, go'zal husn, **munavvar** - nurli, **oso** – kabi, **farxunda –** baxtli, tole'li, qutlug' kabi sifatlardan foydalangan holda yorning chehrasini shunchaki oftobga emas, balki uning xususiyatlarining ta'rifi bilan bezatilgan tarzda ifodalanganini ko'rishimiz mumkin.

***Ikki qoshing** kamolu iqbol avji uzra,*
***Ikki hiloldur**kim qilmish xudo muboorak.*[12]

Ushbu misralarda yorning yarim oy shaklidagi ikki qayrilma qoshi ikki yangi chiqqan uch kunlik oyga qiyoslangan holda tasvirlanmoqda.

Oldi ko'nglumni mening birgina dilbarginai,
***Tishi guhar**ginai **lablari shakkar**ginai* [13]

Yuqorida keltirilgan misrada shoir yor tasvirida yorning tishini gavharga, lablarini shakarga qiyoslab tasvirlashida ijodkorning ijodiy faoliyatida tashbeh san'atidan keng ko'lamda foydalanganligini guvohi bo'lamiz.

[10] Ochilov E. Jamoling jilvasi/Ogahiy. “O'zbekiston”. Toshkent--2013. -B.55.
[11] G'anixo'jayev F. Ogahiy she'riyatidan. “O'KMK" Toshkent- 1983. -B.44.
[12] G'anixo'jayev F. Ko’rsatilgan manba. -B.35.
[13] Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. “Sharq". Toshkent-1998. -B.23.

Xulosa o'rnida shunin aytishimiz mumkinki, Ogahiy ijodiga nazar solar ekanmiz, uning so'z qo'llash salohiyatining yuqori darajada ekanligining, o'zbek mumtoz adabiyotining boshqa vakillaridan farqli ravishda o'z ijodida tashbeh san'atidan keng foydalangan holda yor timsolining tasvirida o'xshatilgan tomonlarning nafaqat o'zini ularning belgi va xususiyatlarini, ayni emas farqli va ma'nodosh so'zlar yordamida bezaganining, so'z boyligining kengligini va shu tomonlama adabiyot olamida o'ziga xos betakror o'ringa egaligi yana bir bor o'z tasdig'ini topgan.

Adabiyotlar:

1. “Asarlar” 1-jild. Devon. “G’.G'ulom” nashr., Toshkent. 1971.
2. Jumaxo’ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. “Noshir” nashr., Toshkent. 2019.
3. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. “Sharq” nashr., Toshkent. 1998.
4. Ochilov E. Jamoling jilvasi/Ogahiy. “O'zbekiston” nashr., Toshkent. 2013.
5. G'anixo'jayev F. Ogahiy she'riyatidan. “O'KMK”. Toshkent. 1983.

XORAZMNING ZABARDAST SHOIRI

Kenjayeva M.T.,
TDSHU 4 kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d. Kenjayeva P.,
TDSHU, v.b. professori

Annotatsiya: Ushbu maqola mohir tarjimon, shoir hamda mashhur davlat arbobi hisoblanmish Muhammad Rizo Ogahiyning Xorazm adabiy muhitiga qo‘shgan hissasini ochib berish, g‘azallaridagi mohiyatni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada adib g‘azallari misolida Xorazmning qadimdan saqlanib kelayotgan e’tiqod masalalari ham atroflicha muhokama qilinadi. Bundan tashqari adibning faoliyatiga ham biroz to‘xtalib yetarli xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: she’riy san’atlar, shoir, g‘azal, quyosh ramzi, sheva, tazod.

Аннотация: данная статья посвящена раскрытию вклада Мухаммада Резы Огахи, искусного переводчика, поэта и известного государственного деятеля, в литературной среде Хорезма, анализу сущности его газелей. В статетье также подробно рассматриваются вопросы веры, сохранившихся с древних времён, на примере газелей поэта. Кроме того, достаточно будет сделать выводы, коснувшись творчества поэта.

Ключевые слова: поэтическое искусство, поэт, газель, символ солнца, диалект, тазад.

***Abstract*:** This article is dedicated to revealing the contribution of Mohammad Reza Ogahi, a skilled translator, poet and famous statesman, to the literary environment of Khorezm, and analyzing the essence of his ghazals. In the article, the issues of faith, which have been preserved since ancient times, are also discussed in detail in the

example of the poet's ghazals. In addition, enough conclusions will be made by touching on the work of the poet.

Key words: poetic arts, poet, ghazal, symbol of the sun, dialect, tazad.

Ko‘hna Xorazm eli dunyo tamadduniga hissa qoshgan buyuk olim va shoirlar-u fuzalolar yurtidir va ular qoldirgan bunday boy meros bugungi yangi Renessans davri bunyodkorlariga poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Ilm-fan, san’at va adabiyotning qadim maskanlaridan bo‘lgan Xorazmning ulug‘ shoir-u olimlaridan gap ketganda serqirra iste’dod sohibi Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning muborak nomi, albatta, tilga olinib, she’riyat, tarjima, tarixnavislik jabhasidagi faoliyati faxr bilan e’tirof etiladi. Ma’lumki, badiiy til keng imkoniyatlarga egaligi, adabiy tildan farqli o‘laroq, shevalarga xos bo‘lgan so‘zlar (dialektizmlar), turli kasb-hunar sohalari, uslubiy qatlamlar, tarixiy, eskirgan so‘zlarni qo‘llay olishi bilan ajralib turadi. Adabiyotning asosiy quroli – so‘zning kuchidan samarali foydalanib, asarlarini bashariyat uchun mangu tuganmas xazina sifatida qoldirgan shoir, tarixnavis, tarjimon hamda davlat va jamoat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy serqirra ijod sohibidir. Uning “Ta’viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”)[59] deb nomlangan devonida g‘azal, muxammas, murabba’, musaddas, masnaviy, shuningdek, fard, tuyuq, qit’a, ruboiy, muammo kabi yigirmadan ortiq janrdagi salkam yigirma ming misrali lirik merosi jamlangan.

Ogahiy Sharqning xilma- xil she’riy shakllaridan to‘liq foydalangani holda ularda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri bilan bog‘liq mavzularni haqqoniy aks ettirdi. Lekin shoir she’riyatining aksariyat qismi ishqiy mavzudadir. Ogahiy lirikasida ishq-muhabbat yetakchi motivlardan biridir. Bu motiv nafaqat ko‘hna, an’anaviy, ayni vaqtda zamonaviy va betakror xususiyatlarga ham ega.

Shoir badiiy tafakkurining ko‘lami va ko‘rkamligiga nazar tashlar ekanmiz, Ogahiy o‘z ijodida turli she’riy san’atlar- mubolag‘a, tashbeh, istiora, tamsil, tazod, husni ta’lil, talmeh, tardi aks, kitobat, tazmini muzdavaj kabilardan mohirona foydalanganligining guvohi bo‘lamiz[60]. Bu til vositalari shoir she’riyati, xususan, g‘azallari qurilishining zuvalasi pishiq, puxta, ta’sirchan va jozibadorligini ta’minlagan. Ogahiy an’anaviy ishq mavzusida qalam tebratgan shoir. U hayot, tiriklik va go‘zallik mazmunini shu ishqdan axtargan va topgan. U ishq va muhabbat zavqini – insonni sevish, insonga mehr ko‘rsatishda deb bilgan va shu ma’noda ko‘rgan, bilgan haqiqatlarini xilma-xil ohanglarda she’rlarida aks ettirgan. Shu ishq uning qalbini ilohiy va samoviy hislarga oshno aylagan. Ana shunda u ilohiy sirlar bilan chuqurroq qiziqqan va tabiiy ravishda ahli haqiqat dunyosiga yuz burgan. Aynan ishq mavzusida iste’dodli shoir, tarjimon Ogahiyning *“Ey, quyosh yuzing ochgin…*[61]*”* deb boshlanuvchi g‘azali o‘zining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. G‘azal Xorazm xalqining otashparastlik bilan bog‘liq qadriyatlariga ishora qiladi. Rasman islom dini adib yashagan davrda o‘rnatilgan bo‘lsa-da Xorazm xalqining asrlar davomida shakllanib kelgan zardushtiylik-otashparastlik an’analari muqim holda saqlanib qolganligini ko’rish mumkin. Misol tariqasida, “Xorazm” so’zining o‘zagiga etibor qaratsak, uning “quyosh yeri” degan ma’nosiga duch kelamiz.

---

[59] Ogahiy. Ta’viz-ul oshiqin. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014. – B. 54.

[60] Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar. 6 jildik / Nashrga tayyorlovchi S.Dolimov, 1-2-jildlar. – Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. – B. 18.

G‘azal mazmuniga ko‘ra oshiqona ya’ni oshiqning hijrondagi iztiroblari, kechinma hislarini ifodalagan ishqiy mavzuda yozilgan g‘azaldir. Tor ma’noda, yorning hajrida qiynalayotgan oshiq timsolini gavdalantirgan bo‘lsa, keng ma’noda tasavvufiy ishq tarannum etilganiga guvoh bo‘lamiz. Ogahiy g‘azallari o‘zining ham mazmuniy, ham shakliy jihatdan yetukligi bilan adabiyot bo‘stonida o‘zining alohida o‘rniga egaligi bilan ajralib turadi. Ogahiy qalamiga ushbu *“Ey, quyosh yuzing ochgin”* g‘azali bir qarashda oddiy tabiat hodisalari: quyosh chiqishi, tun kirishi, iqlim haqida yozilganga o‘xshasa ham uning tag ma’nosida yorning vasfi, jamoli madh etilib, mashuqani deb furqatda yorsizlikdan qiynalayotgan oshiq timsoli nafis misralar bilan tasvirlab berilgan. Xususan, mazkur g‘azalni o‘qigan kitobxon ham bir tomondan oshiq qalbidagi tuyg‘ularning sof va samimiyligidan ilhomlansa, boshqa tomondan, g‘azalning go‘zal va o‘ynoqi ohangidan zavq tuyadi. Matla’da berilgan ifodaga nazar tashlaymmiz:

Ey quyosh, yuzing ochgin, g‘am tunida zoringman.
Sidq ila nafas urg‘on subhi beg‘uboringman[62].

Ushbu baytda ma’shuqaga qarata “ey, quyosh” deya nido qilinyotganiga qarab mashuqani dunyoni yoritguvchi nurga qiyoslanishi hamda ma’shuqaning yo‘qligi bamisoli zimiston tun ekanligi badiiylik bilan ochib berilgan. Ma’shuqa ishqida telba bo‘lgan oshiq yorining visoli yo‘lida sidqidildan nafas olib umid uchquni bilan yashayotgani oshiqning tong misol pokligi bilan qiyoslanmoqda. “Gam tuni”, “subh” so’zlari bilan tasvirni ideallashtirib o‘zaro qarama-qarshilik keltirib chiqargani ahamiyatlidir.

Shuningdek, *“Bo‘lmasa bo‘lmasun, netay”* radifli g‘azali Ogahiy lirikasining eng e’tiborli va jilolarga boy g‘azallaridan biri hisoblanib ishq mavzusidadir. Uning lirik qahramonining taqdiri ham o‘zgacha tarzda namoyon bo‘ladi. Ishq dardiga mubtalo bo‘lgan oshiq tun-u kun ishq o‘tidan nola-fig‘on chekadi, jism-u joni azoblanadi. Hattoki, shu qadar uzoq ko‘z yosh to‘kadiki, ko‘z yoshlari daryo misol mavjlanadi, ummonga aylanadi. G‘azalning bir baytida “ohi hazinim o‘tig‘a”, “shu’la bila sharora” olov ramzlari keltirib o‘tiladi. Shuning uchun otashparastlikning belgilariga ko‘zga tashlanmay iloj yo‘q:

Hajrida za’fim o‘ylakim, ohi hazinim o‘tig‘a,
Shu’la bila sharora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay[63].

Baytda o‘ziga xos bo‘lgan davr adabiy muhitida ko‘p qo‘llanadigan “hazin”, ya’ni oshiqning g‘am qayg‘u, mungli istirobni anglatuvchi va “sharora[64]” - uchqun alanga ma’nosini beruvchi so‘zlar qo‘llanib, g‘azalning mazmundorligi va ta’sirchanligini oshirgan. Bundan tashqari quyidagi g‘azalda ham otashparastlikning yaqqol namoyondasi bo‘lgan “shu’la” so‘zi o‘rin olgan:

Bizki bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz,
Boshimiz uzra ohimiz shu’lasidur kulohimiz[65].

[62] Tafakkur sayti “www.tafakkur.net/ey-quyosh-yuzing-ochgin/muhammad-rizo-ogahiy.uz
[63] Ogahiy she’riyatidan. –Toshkent, 1983. www.ziyouz.com kutubxonasi.
[64] “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” – T.: O‘zbekston nashriyoti. 2021. – B. 189.
[65] Ogahiy she’riyatidan. –Toshkent, 1983. www.ziyouz.com kutubxonasi.

Shuningdek, baytda badiiy tasvir vositalaridan unumli tarzda foydalanib tazod (farq-shoh), tanosub (kishvar-jahon) san'atlari orqali jilokorlik o'zida aks ettirgan. Baytda keltirilgan "kuloh" so'zining o'ziga to'xtalsak, bu qadimiy bosh kiyim hisoblanib qalin, dag'al matodan, asosan, jundan konussimon shaklda ichiga paxta solib tikilgan va uni ko'pincha shayxlar va qalandarlar kiyganligi manbalarda keltirilgan[66].

Ko'rinib turganidek, Ogahiy ijodini o'rganib tahlil qiladigan bo'lsak unda ishq, e'tiqod, tasavvuf tushunchalari qorishib yaxlit holatda bir butunlikni namoyon qilishini ko'rishimiz mumkin

Aytish kerakki, XIX asr o'zbek adabiyoti, Xorazm adabiy muhitining zabardast shoiri Muhammad Rizo Ogahiy ham xalq og'zaki ijodi, ham yozma adabiyotda keng tarqalgan tabiat ramzlariga ma'lum bir g'oyaviy-estetik maqsad bilan murojaat etganligi shoirning ushbu g'azali orqali yorqin namoyon bo'lganligini ko'ramiz.

O'zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan zabardast shoir Ogahiy she'riyatida tong, tun, quyosh obrazlari g'oyatda rang-barang bo'lib, ularning ayrim belgi va xususiyatlari she'riyatda ramzga aylanib ketgan. Ularni o'rganish esa shoir dunyoqarashi, badiiy mahorati, betakror iste'dodi qirralarini teran bilib olishga yordam berishi barobarida xalqimiz badiiy tafakkuri tadrijini, folklor va yozma adabiyotning o'zaro hamkorlik va aloqadorlik asosida rivojlanib kelganligini anglashga ham xizmat qiladi. Ogahiy g'azallarida ma'shuqani tasvirlash va sifatlash uchun quyosh obrazidan foydalangan. Bu boshqacha ramziylikni ham ifodalab bevosita Xorazmda qadimdan saqlanib kelayotgan otashparastlik dini bo'lmish zardushtiylikka ham borib taqaladi. Quyosh Xorazm xalqi uchun energiya manbayidir, barcha hayot tarzi, o'simliklar quyoshga bog'liq holda rivojlanadi. Xorazm so'zining o'zi ham *"quyoshli yer"* degan ma'noni anglatishi fikrimiz dalilidir. Quyosh, shu'la, olov, sharora bu g'azallarda nafaqat yor ruxsori yoki dard qayg'uni ifodalaydi, balki ilohiylik timsoli hamdir. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, Ogahiyning ijodiy merosi biz uchun mukammal ijod namunalari hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar. 6 jildik / Nashrga tayyorlovchi S.Dolimov, 1-2-jildlar. – Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
2. Ogahiy she'riyatidan. –Toshkent, 1983. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Ogahiy. Ta'viz-ul oshiqin. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2014.
4. Otaxanova M. Ogahiy lirikasi badiiyati // "Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Toshkent – 2020
5. Tafakkur sayti "www.tafakkur.net/ey-quyosh-yuzing-ochgin/muhammad-rizo-ogahiy.uz
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston nashriyoti. 2021.

[66] Otaxanova M. Ogahiy lirikasi badiiyati // "Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Toshkent – 2020. – B. 72.

OGAHIY IJODIDAGI QUTLUG‘ HAMOHANGLIK

Sadullaeva M.B. TDSHU 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d. dots. Turdiyeva O.

Annotasiya. Ushbu maqola Muhammad Rizo Ogahiy ruboiylari tahliliga bag‘ishlangan. Ularda mazmun, g‘oyalar, Navoiyga, Pahlavon Mahmudga izdoshlik va hamohanglik masalalari, ruboiylardagi badiiy tasvir vositalari hamda badiiy san’atlarning qo‘llanishi ochib berilgan.

Kalit so‘z va iboralar: Ogahiy, ruboiy, pand-nasihat, tazod, mavzu, xalqchillik, Navoiy, Pahlavon Mahmud

Adabiyot ma’naviyat chirog‘i, yorug‘lik taratdigan bir mayoqdir. U tarqatgan nur insonni badiiyatga yetaklaydi. Adabiyot insonning, shuningdek jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, ma’anaviy qiyofasini ochib beradi. Adabiyot insonni tarbiyalaydi, uning ma’naviyatini yuksaltiradi. Adabiyot ruhiy olam yaratadi. Jadid adabiyoti vakili Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon: “Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan, qoralangan, o‘chgan, majruh yaradir, ko‘ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qarab singishgan, qora balchiqlarni tozalaydurg‘on, o‘tkir yurak kirlarini yuvadigan toza ma’rifat suvi, xiralangan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladurg‘on buloq suvi bo‘lganligidan bizga juda kerakdir” deb adabiyotga yuksak darajada ta’rif beradi. Darhaqiqat adabiyot jonning badiiy ozuqasi.

O‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan qator shoirlar orasida Muhammad Rizo Ogahiyning ahamiyati beqiyos. Ulug‘ o‘zbek shoiri, tarixnavis, tarjima maktabining asoschisi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida Erniyozbek mirob oilasida (1809) tug‘ildi. Uch yoshligida otasi o‘lib, amakisi Munis tarbiyasida qoldi. 1829 yilda Munis vafotidan keyin Ogahiy bosh miroblik vazifasiga tayinlandi. 1857 yilda miroblikdan iste’fo beradi. Qolgan umrini ijodga bag‘ishlaydi.

Ogahiy ijodiga Alisher Navoiy va Pahlavon Mahmudning ta’siri katta. U o‘zining ustozlaridan bir umr o‘rgandi, ulardan ta’sirlandi, ularga ergashdi. Muhammad Rizo Ogahiy an'anaviy mavzu va uslubda, xususan ishqiy, didaktik, axloqiy mavzularda ko'plab she'rlar yozgan, ijodini hayotga bir qadar yaqinlashtirgan shoirlardan biri hisoblanadi. Shoir ijodida hayotiy asosga ega bo‘lgan, kundalik turmushdan, xalq hayotiy tajribalaridan olingan she'rlar ko'p uchraydi. "Badiiy so'zning xalqchil ruh egallashida, she'riyatning omma hayotiga, jamiyat muammolariga, kundalik turmushga bevosita yaqinlashtirishda Ogahiyning asarlari muhim o'rin egallaydi."[67]

Mazkur maqolada shoirning pand-nasihat va kundalik turmush tajribasidan kelib chiqib bitilgan ruboiylari tahlil uchun tanlab olindi. Ana shunday ruhda yozilgan ruboiylaridan biri quyidagicha:

Zarra uchubon nayyiri a'zam bo'lmas,
Yer bolish etib, avji falak xam bo'lmas,
Inson aro nodonni biling hayvondir,
Hayvon necha zo'r aylasa odam bo'lmas.

[67] Muhammad Rizo Ogahiy. Jamoling jilvasi. T. “O‘zbekiston”. 2016. 8-bet

Mazkur ruboiyni ilk o‘qigan lahzada Alisher Navoiyning quyidagi bayti yodimizga tushadi:

Kim, kuchuk birla xo‘tukka necha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmaslar aslo odami.

Ogahiy Navoiyning baytdagi g‘oyasini ruboiyga singdirganiga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni, mazmunan fikrni boyitgan. Shoir bu ruboiy orqali insonlarda uchraydigan fe’l, xulq-atvor muammolariga e‘tibor qaratmoqchi bo'lgan. Birinchi misrada “nayyiri a’zam” deganda eng ulug‘ nur sochuvchi quyoshni nazarda tutmoqda. Ya’ni kichkina zarracha har qancha yuksaklikga ko'tarilsa ham, u osmonda muallaq turadigan, olamga, barcha jonzotlarga nur taratuvchi quyosh kabi bo'la olmasligini ta’kidlagan. Shoir ikkinchi misra orqali Yer sayyorasini falak uchun “bolish” – “yostiq”qa mengzagan. Falak yerdan bolish sifatida foydalanadi. Biroq bu ishi bialn falak hech qachon xam bo‘lib qolmaydi, ya’ni egilmaydi. Ma’lumki, inson yaratilgan maxluqotlar ichida eng oilysidir. Agar u aql-u farosatini ishlatib, ilm o‘rgansa yanada yuksaklashadi. Biroq shunday odamlar bor-ki, na ilm oladi, na farosati bor. Ana shunday odamlarni nodon deya ta’riflaydilar. Shoir uchinchi misrada insonlar orasida uchraydigan nodonlarni hayvonga o‘xshatmoqda. Ya’ni shoir ta’birich, nodon insonlar hayvon kabidirlar. Hayvon esa qanchalik yaxshi tarbiya ko'rsa ham o'z nomi bilan hayvon bo'lib qoladi, inson nomini ololmasligi haqida bayon etgan.Yuqoridagi ruboiysi bilan Ogahiyning mantiqan Navoiyga izdoshligini, hamohanglikni kuzatamiz. Shuningdek ruboiyda badiiy tasvir vositalari, baddiy san’atlardan ham unumli foydalangan. Xususan keltirilgan ruboiyda “Yer” va “Falak”, “Inson” va “Hayvon” soz‘lari tazod baddiy san’atini namoyon qiladi va o‘zaro zid qo‘yilgan. Ma’lumki, tanosub - she‘r baytlarida bir-biriga bog‘liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llash san‘ati. Mazkur ruboiyda ham “zarra” va “Nayyiri a’zam” soz‘lari biri ikkinchisini taqozo qiluvchi tushunchalardir va shoir ular vositasida tanosib san’atini namunasini yaratgan.

Tahlil qilmoqchi bo‘lganimiz - Ogahiyning navbatdagi ruboiysi quyidagicha:

Qilmoq birla parvarish tikan gul bo'lmas,
Har tarbiyat ila zog' bulbul bo'lmas,
Gar asli yomong'a yaxshilik ming qilsang,
Yaxshilik oning niyati bilkul bo'lmas.

Mazkur ruboiy ham o‘z mohiyatiga ko‘ra betakror san’at namunasidir. Shuday bo‘lsada, mazkur ruboiyda ham Ogahiyding ustoz shoir Pahlavon Mahmud ruboiysidagi mazmunga hamohanglikni kuzatishimiz mumkin. Pahlavon Mahmud hazratlari yozadi:

Hech qora tosh dur kabi ma'dan bo‘lmas,
Murch ila zanjabil shirin ta'm bo‘lmas.
Tinglaki, Puryorvali aytadi so‘z,
Aslida nomard sira odam bo‘lmas.

Mazmunan Ogahiyning ruboiysi Pahlavon Mahmud ruboiysiga juda o‘xshaydi. Bunda ham insonlarning xulq-atvoriga e’tibor qaratilgan. Birinchi misralar ham

yuqoridagi birinchi ruboiy kabi Navoiy baytiga hamohang. Tikan insonlarga ozor beruvchi, tirnaguvchi gul bandi hisoblanadi. U o'z nomi bilan tikan. U tikan qanchalik yaxshi muhitda parvarish qilinsa ham u gul bo‘la olmasligi, shu tarzda qoladi. Endi keyingi masala ham xuddi shunga o‘xshash bo‘lib, zog‘, ya’ni qarg‘a tarbiyasiga bag‘ishlanadi. Ma’lumki, qarg‘a yomon xulq-atvorga ega, ovozi yoqimsiz qush hisoblanadi. Bulbul esa insonlarni o'ziga chorlovchi, maftun etuvchi, yoqimli ovoz sohibi bo‘lgan go‘zal qush. Birinchi misralarda bu ikki qush taqqoslangan va zidlantirilgan. Ya'ni zog' qanchalik yaxshi tarbiya ko'rsa ham u bulbul bo'la olmasligi aytilgan. Ruboiyning oxirgi misralarida esa ham juda muhim masala ko‘tarilgan. Shoir yomon insonlarga qancha yaxshilik qilinsa ham, asli yomon inson yaxshi fazilatlarini bilmasligi, hamda ulardan hech qachon yaxshilik chiqmasligi haqidagi fikr ilgari surilgan. Ushbu ruboiyda ham she’riy san’atlardan foydalanilgan. Xususan “gul” va “tikan”, “zog‘” va “bulbul”, “yaxshilik” va “yomonlik” so‘zalari orqali tazod san’ati; bir-birini taqozo qiluvchi “tikan” va “bulbul” so‘zalari orqali esa tanosib san’ati namunalarini yaratgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, shoirning ijodiy merosi beqiyos, mavzulari ko'lami nihoyatda keng. Ogahiy asarlarini qanchalik o'qisak hayotni shunchalik teran tushuna boshlaysiz. Uning ijodida ustoz shoirlar Navoiy va Pahlavon Mahmudlarga hamohanglik kuzatiladi.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Rizo Ogahiy. Jamoling jilvasi. T. “O‘zbekiston”. 2016
2. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/matnazar-abdulhakim-siymoda-aks-etgan-siymo.html
3. Муҳаммад Ризо Мироб Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. V жилд. Тарихий асарлардан парчалар. Тошкент 1978.

OGAHIY IJODIDA NAVOIY AN’ANALARI

Shaydullayeva R.X. TDSHU talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., dots.D.Z.Muxiddinova

Annotasiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy va Muhammad Rizo Ogahiy ijodida obrazlarning badiiy talqinlari orqali yoritilgan mavzular tahlil etilgan. Har ikkala ijodkorning badiiy mahorati qiyosiy o‘rganilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются темы, затрагиваемые художественными интерпретациями образов в произведениях Алишера Навои и Мухаммада Резы Огахи. Художественное мастерство обоих творцов изучалось сравнительно.

Abstract: This article analyzes the topics covered by artistic interpretations of images in the works of Alisher Navoi and Muhammad Reza Ogahi. The artistic skills of both artists were studied comparatively.

Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy o‘zbek mumtoz adabiyotining Alisher Navoiyning keying ulkan siymolaridan biridir. O‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy ijodiy merosining keyingi davr adabiyotiga ko‘rsatgan ta’siri ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Navoiyning Xorazm adabiy muhitiga ta’siri o‘rganilganda, iste’dodli shoirlar qatorida Ogahiyning ijodi alohida ahamiyatga ega. Xorazm adabiy muhitini ta’siri o‘rganilganda bu ikki shoirning ijodini tarjima adabiyoti bog‘laydi. Aynan Ogahiy ijodida XIX asr Xiva xonligidagi ijtimoiy hayoti o‘z ifodasini topgan. Tarjima asarlar ustida faoliyat, matn ustida ishlash, mazmunni qayta tiklash katta mashaqqat talab etadi. Bu jarayonda tarjimon ham asar ruhiga ko‘chib o‘tadi, adabiy zavq va ijodiy mashaqqat uni yuksaltirib boradi. Ogahiy lirikasida ufurib turadigan Sharq adabiyotining boy an’analari, takrorlanmas badiiy mahorat va tinimsiz mehnat Navoiy ijodiga bo‘lgan muhabbat hosilasidir.

Ogahiy lirikasidagi ishqiy,ijtimoiy,axloqiy mavzudagi g‘azallar o‘zaro qiyoslanganda ,ishqiy mavzudagi g ‘azallarida Navoiyga izdoshlik,ba’zida shaklva mazmunni to‘g‘ridan to‘g‘ri davom ettirganlikni ko‘rish mumkin. Ogahiy ijodida komil inson to‘g‘risidagi qarashlardan tartib, obraz, timsol, tasviriy vositalarni qo‘llashgacha Navoiyga ergashish sezilib turadi. Bunga shoirning o‘zi quyidagicha iqror bo‘ladi:

Ogahiykim, topqay erdi sozi nazmingdin navo,
Bahra gar yo‘qtur Navoiynning navosidin sango.
[Ogahiy,1971:69]

Ogahiy she’riyati yuksak ishqiy-tasavvufiy she’riyatdir. Uning she’riyati rangin, mavzularni birlashtiruvchi narsa ish va muhabbatdir. Shoir she’riyati mazmuna chuqur, falsafiy teran bo‘lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir.

Ogahiy har san’atning, har bir detalning, ungacha anglanmagan qirralarini, borilmagan ma’naviy hudud kengliklarini kashf etishga harakat qiladi. U bir tomondan, mavjud an’analarga yuksak muhabbat bilan qaragan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, poetik an’analarni ham o‘ziga xos tarzda takomillashtirgan. Shuning uchun ham Ogahiy ijodi mumtoz adabiyotimizning yorqin bir sahifasini tashkil etadi.

Navoiy ijodida ham Ogahiy ijodida ham yetakchilik qiluvchi mavzu bu – ishq. Ogahiyning aynan shu mavzudagi bir nechta g‘azallari Navoiy g‘azallari ta’sirida yozilgan. Navoiyning ***“Ey sabo, holim borib sarvi gulandonimg‘a ayt”*** matla’li g‘azaliga nazira tarzida bitilgan Ogahiy g‘azalini mazmun jihatidan olib qiyoslash mumkin:

Lutf aylab, ey payki sabo, holimni sultonimg‘a ayt,
Ya’niki jonim dardini ishqida jonimg‘a ayt.

Navoiy g‘azalida tong shamoli orqali sunbul sochli, gul yuzli, sarv qadli diloromga oshiqning ahvolidan xabar yo‘llanadi. Birgina baytda oshiqning holati, yorning ta’rifi va vositachi – subh nasimi birgalikda betakror kompozitsiyani tashkil etadi. Bu o‘rinda oshiqdan ko‘ra ma’shuqaning ta’rifi diqqatni tortadi. Ogahiy g‘azalida esa har ikki misrada ham oshiqning jonini o‘rtagan dardlar cheksiz ekanligi mazmunan davom etadi.

Navoiy:

Buki la’li hasratidin qon yutarmen dam-badam,
Bazmi aysh ichra labolab bodaoshomimg‘a ayt.

Ogahiy:
Hijron tunida zarradek besabru orom o‘lg‘anim,
Avji latofatda yuzi xurshidi tobonimg‘a ayt.

Keyingi baytlarda oshiqning dardu holi kuchayib boradi. Subh orqali xabar yo‘llanar ekan, yor hajrida o‘zining qay holatga tushganini ta’riflash orqali voqealarni davom ettirishadi. Ogahiy o‘z ahvolini ta’riflar ekan, yor ta’rifiga uchinchi misrada o‘tib boradi, latofatda etilgan oy yuzli dildorga hajrida tunlari oromini yo‘qotgan oshiqdan xabar yo‘llanadi. Umuman olganda, Ogahiy Navoiy g‘azaliga nazira bog‘lashda baytlararo asosga tayanib, cheklanib qolmagan.

Mustaqil, badiiy jihatdan mukammal g‘azalning yangi namunasini yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Man lol o‘lub ko‘rgan chog‘i bir so‘z xud aytolmag‘um,
Bori san ahvolimni ul oshubi davronimg‘a ayt.

Agar Navoiy g‘azalida yorini sog‘ingan oshiq tong shamoli orqali butun o‘zining holatini, sog‘inch ishtiyoqlari, ko‘rgan-kechirganlarini yo‘llar ekan maqsad yor sog‘inchi, degan xulosa chiqadi. Ogahiy g‘azalida oshiqning maqsadmuddaosi yarq etib ko‘zga tashlanib qoladi. Ya’ni, yorini ko‘rgan mahalda hushini yo‘qotib, sevgisini izhor qilolmaydi. Shunday bo‘lgach, uning dil izhorlarini etkazish uchun vositachi – sabo kerak. Aks holda u qanday o‘zligini anglatadi. Lirik g‘azaldagi asosiy etakchi obrazlar ham Ogahiy lirikasida o‘ziga xos yo‘sinda ifoda etiladi. Oshiqning jonini o‘rtagan ma’shuqa haddan ortiq bevafo, uning vafo qilishiga umid yo‘q. Jumladan, quyidagi g‘azalda yorning nag‘malari bir-bir ta’rif etilar ekan, g‘azaldagi ta’rif-tavsiflarnnig o‘zgarib borishi ohangdagi muqom-o‘ynoqilikni o‘zgarib borishini ta’minlagan:

Tunu kun karaming o‘qini otasan hama olam elini nishona qilib,
Vale navbat agar manga etsa, xato qilasan necha nav’ bahona qilib.

Ya’ni, marhamatidan hech kimni benasib qoldirmayotgan yor faqat oshiqni ko‘rmaydi, ko‘rib-ko‘rmaslikka oladi, atay xato qiladi, xullas bahonasi ko‘p. Ishqiy mavzudagi g‘azallarda bu kabi nozik topilmalar ijodkorning taxayyyul olamining kengligini ko‘rsatadi. Sharq adabiyotinnig boy an’analari, Navoiyning badiiy mahoratidan ta’sirlangan Ogahiy o‘ziga xos betakror ijod namunalari orqali o‘z davrining ko‘plab shoirlariga ijodiy ta’sir ko‘rsatdi. Lirikadagi badiiy topilmalar, nozik qochirimlar, badiiy san’atlar vositasidagi ifoda bo‘rtiqligi Ogahiy she’riyatining o‘ziga xosligini ta’minlagan omillardir.

Shoir merosidagi barcha fikr va g‘oyalar ishq tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Barkamol inson barkamol dunyoni, buyuk vatanni, qudratli millatni yaratadi. Inson barkamol bo‘lishi uchun, avvalambor, ruhan ozod bo‘lishi shart. Ruhan ozodlik bu parhezkorlik, halollik, adolat, qanoat, sadoqat, mehr-oqibat kabi qator amallar bilan chambarchas bog‘liq. Xo‘sh, ruhiy ozodlikka qanday erishish mumkin? Bu juda mashaqqatli, iztirobli yo‘l. Ammo, insonni haqiqiy hurlikka, ruhiy kenglikka olib chiquvchi birgina vosita bor. U ham bo‘lsa - ishq. Ana shu ishq orqali kishi Ollohga yetadi. O‘zining va olamning mohiyatini, sir-asrorini anglaydi. Ogahiy ijodida ishq

mavzusi shunday g‘oyalarni ilgari suradi. Har birimizga ishq atalmish ilohiy tuyg‘u nasib qilsin.Ogahiy shu kabi rango-rang tasvir vositalari bilan o‘z asarlariga badiiy sayqal berdi va o‘zbek adabiy tilini boyitdi, xususan, she’riyatimizni behad yuksaltirdi. Shoir ijodiyotining yuqori badiiy-estetik xususiyatlari bugungi kun kitobxonlari uchun g‘oyat qimmatlidir.

Adabiyotlar

1. Hojiahmedov A. She’r san’atlarini bilasizmi? Toshkent, Sharq. 1999. 94
2. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O‘qituvchi, 1964. B-347- 376
3. https://n.ziyouz.com
4. Omonov. Q Ogahiy hikmatlari. Toshkent: TDSHU, 2021.-224 bet.
5. Dolimov.S Alisher Navoiy va XIX asr Xorazm adabiyoti. O‘zbek mumtoz adabiyotshunosligi antologiyasi.-Toshkent:2026.26-27 b

2-SHO‘BA. SHARQ MUMTOZ ADABIYOTI VA ADABIY AN’ANA

“FIRDAVS UL-IQBOL” ASARINING FINLYANDIYADA SAQLANAYOTGAN QO‘LYOZMA NUSXASI XUSUSIDA

prof. Xallieva G., UzDJTU, ToshDU loyiha a'zosi
dosent, Adambaeva N., ToshDU loyiha a'zosi

Annotasiya: Ushbu maqolada Ogahiy va Munis birgalikda yozgan “Firdavs ul-iqbol” asari va uning Finlyandiyaning Xel'sinki kutubxonasida saqlanayotgan noyob nusxasi xususida fikr mulohazalar yuritilgan. Fanga ushbu qo‘lyozmaning 9 ta nusxasi ma'lum bo‘lib, ilmiy jamoatchilikni ilk bor bu haqda amerikalik olim Yu.Bregel' xabardor qilgan.

Kalit so‘zlar: XIX asr, Xorazm, turkiy, adabiy-tarixiy manbalar, Ogahiy, Munis, Yu.E.Bregel', “Firdavs ul-iqbol”, Finlyandiya, Xel'sinki.

XIX asr Xorazm turkiy, adabiy-tarixiy manbalari o‘zbek mumtoz adabiyotining hali to‘liq o‘rganilmagan jihatlaridan biridir. Bu eng avvalo ko‘pgina asarlarning hali ham qo‘lyozma holida ekanligi, tabdil qilinmagani, ilmiy-tanqidiy matnlar yetishmasligi bilan ham belgilanadi. Munis va Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol” asari ana shunday, filologik jihatdan kam o‘rganilgan, ammo katta ahamiyatga ega asarlardan biridir.

“Firdavs ul-iqbol” asari tarixiy-badiiy asarlar sirasiga kiradi. Chunki unda tarixiy voqealar bayonini yanada qiziqarliroq yetkazish maqsadida bir qancha she'rlar, rivoyatlar, maqol va matallar keltirilgan. Bu asarni tarixiy-badiiy manba sifatida o‘rganishga to‘la asos beradi.

Asarni shoir, tarixchi tarjimon Munis boshlab bergan bo‘lsa, uning jiyani, iqtidorli shoir va davlat arbobi Ogahiy davom ettirgan. “Firdavs ul-iqbol” asarida qadim davrlardan tortib, 1825 yilgacha bo‘lgan Xorazm tarixi bilan bog‘liq voqealar tarixiy badiiy shaklda juda qiziqarli yoritilgan. Asarning bebaho qimmati haqida o‘zbek va xorij ilm fanida juda ko‘plab fikrlar bildirilgan.

“Firdavs ul-iqbol” asarining tarix ilmidagi ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qadim davridan boshlab, Muhammad Rahimxon I (1806-1825yy.) davrigacha bo‘lgan siyosiy tarixi xronologik tartibda bayon etiladi. Munis qadim zamonlardan boshlab Abulg‘ozixon davrigacha Xorazmda bo‘lgan voqealarni bayon etarkan, Abulg‘ozi davridagi Xiva va Buxoro xonliklarining o‘zaro munosabatlariga ham to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, asarda XVIII asr va XIX asrning birinchi choragi, ya'ni Qo‘ng‘irot sulolasi vakillarining Muhammadamin inoq (1755-1790), Avaz inoq (1790-1804), Eltuzarxon (1804-1806) va Muhammad Rahimxon I (1806-1825)larning Xorazmda hukmronlik qilgan yillaridagi tarixiy voqealar bayon qilingan, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga doir ayrim ma'lumotlar ham berilgan»[68] .

[68] Shermuhammad Munis Xorazmiy, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul–iqbol // nashrga tayyorlovchilar: Sh.Vohidov, I. Bekchonov, N.Polvonov — Toshkent: Yangi asr avlodi , 2010. -9 b.

1988 yilda amerikalik olim Yu.Bregel' Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarini izohlar bilan ilmiy-tanqidiy matnini, o‘n yillik tanaffusdan keyin, 1999 yilda esa ingliz tiliga tarjimasini nashr qildiradi.[69]

“Firdavs ul-iqbol” asarining yaralganidan salkam ikki asr o‘tgach, birinchi marta, 2010 yilda O‘zbekistondagi nashrlari amalga oshirildi va kitobxonlarga yetkazildi[70]. Ushbu nashrlar aynan Yu.Bregel' tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn asosida amalga oshirilgan. Jumladan, Sh.Vohidov, I. Bekchonov, N.Polvonovlar birgalikda tayyorlagan asar tabdili so‘zboshisida mazkur tabdilga Yu. Bregel' tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy nashri asos qilib olingani, tabdil matnini Yu. Bregel' tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy nashri bilan taniqli olim Ismoil Bekjonov solishtirgani, matndagi arab tilidagi jumlalar, oyat va hadislarni to‘g‘ri o‘qish va tarjima qilishga Nozimjon Iminjonov yaqindan yordam bergani ma'lum qilingan[71].

Fanda isbotlanganidek, “Firdavs ul-iqbol” va «Shohidi iqbol» asarlarining asl nusxalari aynan Sankt-Peterburgda, Sharq qo‘lyozmalari instituti kutubxonasida saqlanib kelinmoqda.[72]

«Firdavs ul–iqbol» asari rossiyalik ruhoniy olim Avraam Amirxanyans tadqiqotida nisbatan mukammal o‘rganilgan. Bu haqdagi ma'lumotlar ayrim ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan[73], ammo mazkur manba ilmda to‘liq o‘rganilmagan.

Ushbu noyob manba haqida O‘zbekistonda ilk bor xabar bergan olim yetuk tarixshunos Q.Munirov hisoblanadi. U o‘z tadqiqotida “Munis va Ogahiy tomonidan yozilgan “Firdavs ul-iqbol”ning bir nusxasi 1890 yili A.Amirxanyansga beriladi. Amirxanyans asar bilan mukammal tanishib, asarning muallifi va ilmiy qimmati haqida o‘z mulohazalarini yozib beradi” deya ta'kidlaydi.[74] Keyinchalik boshqa bir kitobida fikrlarini davom qildirib, A.Amirxanyansning “Firdavs ul-iqbol” asari haqidagi ayrim mulohazalarini ham keltiradi[75].

Ushbu ma'lumotlar haqiqatda A.Amirxanyans “Firdavs ul-iqbol” asari ustida jiddiy izlanish olib borganidan darak beradi. O‘rganib chiqqanimiz, A.Amirxanyansning ilmiy ishi hozirda Sankt-Peterburgda, sharqshunoslar arxivida saqlanadi .

Arxivda saqlanayotgan mazkur muhim manbaning oxirgi betida rus olimi N.I.Veselovskiyning ham qaydlari berilgan. Unda olim Munis va Ogahiy asarlaridagi

---

[69] Firdavs al iqbal History of Khorezm, edited by Yuri Bregel. Leiden. New York. 1988. –1280 p; Firdavs al iqbal History of Khorezm. Translated from Chaghay and Annoted by Yuri Bregel, Leiden Boston, 1999. –718 p.

[70] Shermuhammad Munis Xorazmiy, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul–iqbol // nashrga tayyorlovchilar: Jumaxo‘ja, S.Ro‘zimboev, A.Ahmedov. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010. — 381 b; Shermuhammad Munis Xorazmiy, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul–iqbol // nashrga tayyorlovchilar: Sh.Vohidov, I. Bekchonov, N.Polvonov — Toshkent: Yangi asr avlodi , 2010. —518 b.

[71] Shermuhammad Munis Xorazmiy, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul–iqbol // nashrga tayyorlovchilar: Sh.Vohidov, I. Bekchonov, N.Polvonov — Toshkent: Yangi asr avlodi , 2010. – B.17 .

[72] Shu asar. - b. 17

[73] Munirov Q. Munis, Ogahiy .Toshkent: FAN,1959. – B. 27; Xallieva G. Novie svedeniya o «Firdavs ul- ikbal» po arxivnim dannim Instituta Vostokovedeniya RAN // Ilm sarchashmalari. – Urganch. 2010.−№1. –B.67−74; Zapiska pastora Amirxanyansa ob istorii Xivi (po arxivnim dannim Instituta Rukopisey RAN) Problemi Vostokovedeniya. –UFA.2010. №2(48). – S.60-64 Shermuhammad Munis Xorazmiy, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul–iqbol // nashrga tayyorlovchilar: Sh.Vohidov, I. Bekchonov, N.Polvonov — Toshkent: Yangi asr avlodi , 2010. -B. 14

[74] МунировҚ. Мунис, Огаҳий .Тошкент: ФАН, 1959. – Б. 60-61.

[75] МунировҚ. Хоразмда тарихнавислик. Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти,2002. – Б. 14-15.

tarixiy faktlar ruslarga allaqachon elchilar va rus bandilari tomonidan ma'lumligidan unchalik ahamiyatga ega emasligini yozadi. Lekin 1660 dan 1800 yillar oralig‘idagi voqealarining yoritilishi alohida qiziqish uyg‘otishni ta'kidlaydi. Shuningdek, A.Amirxanyans foydalangan qo‘lyozma aynan L.Kun Xiva xoni saroyidan olib chiqqan nusxaning o‘zi bo‘lishi mumkin degan taxminni qiladi. Ammo bu taxmin xato bo‘lib, L.Kun olib kelgan qo‘lyozma hozirda Sankt-Peterburgdagi Sharq qo‘lyozmalari instituti kutubxonasida saqlanadi. Ushbu nusxa 613 varaqdan iborat . A.Amirxanyans esa o‘zidagi qo‘lyozmani 906 varaq deya ma'lumot bergan. Yu.Bregel' «Firdavs ul-iqbol» asarining fanda to‘qqizta nusxasi mavjudligi, bu nusxalardan 2 tasi Rossiya FA Sharq qo‘lyozmalari institutida, 5 tasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida, 1 tasi Istanbul kutubxonasida hamda yana biri Xel'sinki universiteti fondida saqlanishini ma'lum qiladi. Tavsifda aynan Xel'sinki nusxasi hajmi 906 varaq deb ko‘rsatilgan Demak, A.Amirxanyans foydalangan qo‘lyozma xozirda Finlyandiyada, Xel'sinki kutubxonasida asrab kelinmoqda.

Ushbu ma'lumotlar haqiqatda A.Amirxanyans “Firdavs ul-iqbol” asari ustida jiddiy izlanish olib borganidan darak beradi. O‘rganib chiqqanimiz, A.Amirxanyansning ilmiy ishi hozirda Sankt-Peterburgda, sharqshunoslar arxivida saqlanadi.[76]

Arxivda saqlanayotgan mazkur muhim manbaning oxirgi betida rus olimi N.I.Veselovskiyning ham qaydlari berilgan. Unda olim Munis va Ogahiy asarlaridagi tarixiy faktlar ruslarga allaqachon elchilar va rus bandilari tomonidan ma'lumligidan unchalik ahamiyatga ega emasligini yozadi. Lekin 1660 dan 1800 yillar oralig‘idagi voqealarining yoritilishi alohida qiziqish uyg‘otishni ta'kidlaydi. Shuningdek, A.Amirxanyans foydalangan qo‘lyozma aynan L.Kun Xiva xoni saroyidan olib chiqqan nusxaning o‘zi bo‘lishi mumkin degan taxminni qiladi. Ammo bu taxmin xato bo‘lib, L.Kun olib kelgan qo‘lyozma hozirda Sankt-Peterburgdagi Sharq qo‘lyozmalari instituti kutubxonasida saqlanadi. Ushbu nusxa 613 varaqdan iborat[77]. A.Amirxanyans esa o‘zidagi qo‘lyozmani 906 varaq deya ma'lumot bergan. Yu.Bregel' «Firdavs ul-iqbol» asarining fanda to‘qqizta nusxasi mavjudligi, bu nusxalardan 2 tasi Rossiya FA Sharq qo‘lyozmalari institutida, 5 tasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida, 1 tasi Istanbul kutubxonasida hamda yana biri Xel'sinki universiteti fondida saqlanishini ma'lum qiladi. Tavsifda aynan Xel'sinki nusxasi hajmi 906 varaq deb ko‘rsatilgan.[78] Demak, A.Amirxanyans foydalangan qo‘lyozma xozirda Finlyandiyada, Xel'sinki kutubxonasida asrab kelinmoqda[79].

Yevropa fondlarida saqlanayotgan, O‘zbekistonda mavjud bo‘lmagan turkiy qo‘lyozmalarning ma'lumotlar bazasini va “Yevroturcologica.uz” elektron platformasini yaratish” rejasi asosida biz 2022 yil avgust oyida Finlyandiya, Xel'sinki

---

[76] Записка пастора Амирханянца об истории Хивы .Архив востоковедов ИВ РАН.

[77] Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института народов Азии. I. – С.106-108.

[78] Firdavs al iqbal History of Khorezm, edited by Yuri Bregel. Leiden. New York. 1988. – p.44 .

[79] Halèn H. Handbook of Oriental collection in Finland: Manuscripts, xylographs, inscriptions, and Russian minority literature. London–Malmö, 1979. – P. 100.
Шермуҳаммад Мунис Хоразмий, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул–иқбол // нашрга тайёрловчилар: Ш.Воҳидов, И. Бекчонов, Н.Полвонов — Тошкент: Янги аср авлоди , 2010. -Б. 16

kutubxonasiga ilmiy safarimiz chog‘ida ushbu qo‘lyozmani topishga va o‘rganib chiqishga muvaffaq bo‘ldik. Loyihani amalga oshirish jarayonida xorijda saqlanayotgan, O‘zbekistonda mavjud bo‘lmagan Yevropadagi turkiy qo‘lyozmalarning umumiy ma'lumotlar bazasi va shu asosda veb sahifasi yaratiladi. Loyihaning muhim ahamiyati xorijiy fondlardagi turkiy qo‘lyozmalar haqidagi yangiliklarni yuzaga chiqarish bilan bog‘liq. Loyiha natijasida ilmiy jamoatchilik shu paytgacha aniqlanmagan qo‘lyozmalar haqida ma'lumotga ega bo‘ladi, bu esa ko‘pgina tadqiqotlarga yo‘l ochadi. Eng asosiysi shu yo‘l bilan biz bir paytlar bizdan olib ketilgan qo‘lyozmalarimizni xakikiy egasiga, xalkimizga kaytaramiz.

XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ ADABIYOT KECHALARI
(Muhammad Rizo Ogahiy asarlari ma‘lumotlari asosida)

f.f.d. QORAEV Sh.,
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining
QIAI dotsenti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Xiva xoni Muhammad Rahimxon adabiy kechalari shoir va muarrix Ogahiy asarlari ma’lumotlari asosida yoritiladi.

Feruz taxallusi bilan she‘rlar yozgan Muhammad Rahimxonga shoir Ogahiy she‘r ilmida ustozlik qilgan.

Muhammad Rahimxonning mashhur she‘riyat majlislarida Ogahiy, Komil Xorazmiy, Tabibiy, Rojiy kabi o‘z davrining mashhur shoirlari ishtirok etib, xon madh etilgan qasidalarini o‘qishgan.

Albatta, Feruz tomonidan o‘tkazilgan bunday she‘riyat yig‘inlari mumtoz adabiyot taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: Saroy shoirlari, g‘azalxonlik, ta’rix, qasida, “Majmuai shuaroi Feruzshohiy”.

Аннотация: В данной научной статье будут освещены литературные вечера хивинского хана Мухаммеда Рахим-Хана на основе данных произведений поэта и Муарриха Огахи.

Мухаммада Рахим-хана, писавшего стихи под псевдонимом Феруз, наставлял поэт Огахи в науке поэзии.

Известные поэты своего времени, такие как Огахи, Камил Хорезми, Табиби, Роджи, присутствовали на популярных поэтических собраниях Мухаммеда Рахим-хана и читали хвалебные касыды хана. Конечно, такие поэтические собрания, проводимые Ферузом, послужили развитию классической литературы.

Ключевые слова: придворные поэты, Газалханлик, Тарих, касида, “комплекс Шуарой Феруз Шахи”.

Abstract: this scientific article will cover the literary nights of Khiva Khan Muhammad Rahimkhan on the basis of information from the works of the poet and muarrix Ogahi.

Muhammad Rahimkhan, who wrote poems under the pseudonym Feruz, was mentored by the poet Ogahi in the science of poetry.

Famous poets of their time, such as Ogahi, Kamil Khorezmiy, Tabibiy, Roji, participated in the famous poetry sessions of Muhammad Rahim Khan and read the Khan's praises.Of course, such poetry gatherings conducted by Feruz served the development of classical literature.

Keywords: Palace poets, gazalkhanate, ta‘rix, qada, “complex shuaroi Feruzshahi”.

O‘zbek mumtoz adabiyotining katta qismi saroyda yaratilganidan hamda o‘tmishimizdagi adabiy yig‘inlar milliy adabiyotning rivojlanishida muhim omil bo‘lganligidan kelib chiqsak, saroy adabiyoti, saroy shoirlari ijodi va adabiy yig‘inlarni chuqur va har tomonlama o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi, adabiy yig‘inlar hamda mumtoz adabiyot vakillari qoldirgan adabiy meros hozirgi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910) hukmronligi davrida o‘z saroyiga ko‘plab olim, shoir, tarixnavis, tabib, tarjimon, xattot, sozandalarni to‘plab, fan va madaniyat rivojiga katta ahamiyat bergan. Har haftada g‘azalxonlik, she’rxonlik kechalari tashkil qilgan.

Davlat arbobi, musiqashunos va hukmdorlar shoiri Muhammad Rahimxon II o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojiga munosib hissa qo‘shgan mutafakkirlardan biri bo‘lgani barchamizga ma’lum. Feruzshohni Muhammad Rizo Ogahiy shunday tasvirlagan:

Bo‘lubon ilm kasbig‘a moyil,
Qildi barcha ulumni hosil.
So‘zidin qadr topti guhari ilm,
Yuzidin ravshan o‘ldi axtari ilm...
Topti ul nav’ har fan ichra kamol,
Ki, kamol ahlin etti hayronu lol...
Garchi har fan aro mohir,
Lek ko‘b she’r ilmida qodir...
Masnaviyda qilib durafshonlig‘,
Shuarog‘a yeturdi hayronlig‘.
Har g‘azalkim, debon mahorat ila,
Lol etib fazl elin iborat ila[1, 32-33].

Aniqroq qilib aytganda, “Xon hazratlari (Feruz) she’rga ko‘p zavq paydo qilib erdilar. O‘zlari ham burundan Feruz taxallusi bila mutaxallis bo‘lub, she’r aytur erdilar. So‘ngroq she’rg‘a ko‘proq haris bo‘ldilar. Har kimning she’r aytmoqg‘a sahl qobiliyati bo‘lsa, nav’i she’rlarni aytib dargohi oliyg‘a olib bora berdilar. Shoirlarning adadlari kam-besh qirqg‘a yovuq bordi[2, 256]”.

Ma’lumotlarga qaraganda, adabiy anjumanlarda ashula ham kuylab yuboradigan “Muhammad Rahim yoshligidan adabiyotga havas qo‘ydi. Alisher Navoiy, Munis, Ogahiy, Komil singari shoirlarning asarlarini qunt bilan o‘rganib, ularga ergashib

she’rlar yozdi, yozgan she’rlariga “Feruz” (G‘olib, baxtli, saodatli) deb taxallus qo‘ydi. Ayniqsa, o‘ziga qadar o‘tgan Sharq adabiyoti vakillarini ustod deb bildi.

Ogahiy bilan Feruz o‘rtasida shogird va ustodlik munosabatlari mustahkam edi. Hatto Ogahiy o‘z shogirdi Feruzga ota-o‘g‘ildek munosabatda bo‘ladiki, bu albatta, Feruz faoliyatiga ta’sir etmay qo‘ymaydi[3, 346]”. Shoir hukmdor shogirdidan o‘z maslahatlarini ayamagan. U Feruzga bag‘ishlab, “Qasidai nasihat” kabi she’rlar yaratgan. Feruzshohning o‘zi ham Ogahiy uztozi ekanini she’rlaridan birida qayt etgan:

Komil ersam nazm aro Feruzdek, ermas ajab,
Ogahiydur she’r mashq aylarda ustozim mening.

Muhammad Rahimxon 1863 yilda otasi vafot etgandan keyin, uning o‘rniga Xiva xonligi taxtiga o‘tiradi. Bu voqeaga bag‘ishlab shuaro va fuzalolar ta’rix va qasidalar bitganlar, masnaviylar yaratganlar. Ogahiy tomonidan bitilgan ta’rix va yozilgan qasida alohida ahamiyat kasb etadi [3, 346].

Shoir Ogahiy xon huzurida o‘tkazilgan adabiy majlislarda qatnashib, unga bag‘ishlangan she’rlarini o‘qigan: *“Andoqkim, ul avonda bu bandai kamtarin ham ul hazratning madhida bir g‘azal tartib berib, muborak mutolaasig‘a yetkurib, iltifoti xusravona va inoyati begaronasidin g‘oyatsiz xursand va bahramand bo‘lmish erdim. Ul g‘azal budurkim, bu avroqda marqum bo‘lur.*

Shahzodai zamonaki, sha’ni azim erur,
Oyinai inoyati hayyu qadim erur...
Har nuktai fasihi takallum qilur chog‘i,
Fazlu kamol bahrida durri yatim erur...
Ko‘ngli nishotin aylagali dambadam ziyod,
Iqboli baxt bazmida ikki nadim erur...
Ismi sharifi xotami davlat niginida,
Shahzodai yagona Muhammad Rahim erur...
Yo‘l, Ogahiy, chu topti oning ostonig‘a,
Emdi anga falak sitamidin na biym erur[1, 34-35].

Xorazmlik ijod ahli yig‘ilgan she’riyat kechalarida Feruzshoh o‘z g‘azallarini o‘qigan va Ogahiy kabi shoirlarni ham mushoiraga chorlagan. Adabiy bazmlarda san’atkorlar tomonidan hukmdorlar shoiri g‘azallari bilan aytiladigan qo‘shiqlar kuylangan: “Va goho mulukona tarab bazmin tuzar erdi va Jamshidona ishrat sog‘arin davrag‘a kirguzar erdi. Va ul bazmda shavqu nishot “ifroti” bila va zavqu inbisot hangomasi qizig‘on hangomda gul yuzlig‘ sumanbarlar husni quyoshining anvori musaffo xotiri gulshanig‘a oroyish va sarvqomatlig‘ pari paykarlar ishqi o‘tining osori mujallozamiri saro bo‘stonig‘a tosh yetkurib, pok tab’i bahridin latif ma’oniy javohiri va sof zehni daryosidin zarif mazomin “zavohiri” mavj urub, hasbi holi oshiqona baytlaru sho‘xona g‘azallar xayol etib, rangin iboratlar bila shirin mazmunlar shohidlarin zuhuri munassasida jilvagar qilib, ma’no arbobining ko‘ngullarin hamul shohidlar husnig‘a volau shaydo etar erdi. Va dilafro‘z g‘azallar maqta’in “Feruz” taxallusi bila muzayyanu mashhun etib, ro‘zgor sahoyifig‘a ishtihor qalami bila bitar

erdi. Andoqkim, “bu dilkash” g‘azal ul hazratning go‘harbor ta’i natoyijidindurkim, kamoli fazilati izhori uchun bu mahallda mastur va marqum bo‘lur.

Tarahhum aylagil, ey sho‘xkim, ishq ichra zoringman,
Giriftori kamandi tori zulfi mushkboringman.
Ko‘ngulda qolmayin bir zarra choqlig‘ tob ila toqat,
Yuzing xurshidi hajrida tunu kun beqaroringman...
Mango aylab labolab dam-badam sog‘ar tut, ey soqiy,
Qo‘lungdin boda ichmay muddatedurkim, xumoringman.
Agarchi baxti Feruz ila davron shohiman, lekin
Saning, ey husn amiri, bandai e’tiboringman[1, 33-34].

Yuqoridagi g‘azalni ham shoir Feruz adabiy kechalardan birida o‘qigan, deyish mumkin.

Feruzning she’riyat kechalari mamlakatda juda mashhur bo‘lgan. Uzoq-yaqindan kelgan shoirlar xon majlislarini bezay boshlaganlar. Muhammad Rizo Ogahiy “Shohidu-l-iqbol”da bu haqda shunday yozgan: “Va ul hazrat (Muhammad Rahimxon) aksar avqot (vaqtini) ulamoyi fazilatshior va fuzaloyi fatonatosorga kamoli dindorlig‘din behishtnamudor majlisig‘a yo‘l berib, ul jamoa bila hamsuhbat bo‘lub, masoyili diniyya va mabohisi “yaqiniya” mukomalasi adosidin so‘ng tavorix va g‘azaliyot kitoblarin arog‘a solib, kitobxonlig‘ va ma’nodonlig‘ sahboyi farahafzosi bila bazmi oliysin qizdurub, ayshu tarab dodin berur erdi. Va shuaroyi zamon ul hazratning muborak otig‘a g‘arro qasidalaru shavqafzo g‘azallar va dilkusho ta’rixlar iboratoro masnaviylar nazm silkiga chekib, in’omi vofir va ehsoni mutakosiridin mahzuzu bahramand bo‘lub, duoyi davlatin virdi zabon va rutbu-l lison qilur erdilar[1, 33-34]”.

Albatta, xon huzurida tashkil etilgan mushoiralarning shuhrati yetti iqlimga yoyiladi. “Muhammad Rahimxon II o‘z saroyi muhitida davlat ishlari bilan shug‘ullanuvchi mansabdorlarni ham badiiy ijod qilishlarini, ma’rifatli bo‘lishlarini istagan. Sababi u o‘z saroyi muhitini temuriylar davriga, aniqrog‘i, ularning madaniy uyg‘onish zamoni –Husayn Boyqaro (1469-1506) hukmronligi davridagi Hirot muhitiga o‘xshash bo‘lishini hoxlagan [5, 104-106]”. Shu bois Komil Xorazmiy quyidagi she’rida o‘z zamonida shuhrat qozongan Husayn Boyqaro majlislari kabi uni ham Feruzshoh she’riyat kechalari “sarxush” qilganini yozgan:

Ne tong Komil Navoiy yanglig‘ o‘lsa so‘z aro sarmast,
Bu sarxushliqg‘a jomi suhbati sulton erur bois.

Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning doimiy xon adabiy majlislarida ishtirok etib kelgani shoir tarjima qilgan “Qobusnoma” debochasidan ham ma’lum bo‘ladi: “Bu bandai faqir Muhammad Rizo mirob Ogahiy, bir kuni ul janob(ning) (Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon) majlisiga borib, duo sharoitin taqdimig‘a yetkurdum va ul janobning lozimul bashorati bila ham ul majlisning bir go‘shasida o‘tirdim. Darhol menga necha turlik mehribonliklar ko‘rguzib, mazkur “Nasihatnomai” (“Qobusnoma”)ni ilkimga berib dediki: “Bu nusxani turkiy tili bila tarjima qil, toki turk tavoyifi (guruhlari)ning avomi (xaloyiq) ham bu pandlardan bahra olg‘ay va bizning otimiz, sening so‘zing olam inqirozig‘acha zamon avroqida boqiy va yodgor qolg‘ay.”

Faqirkim, ul janobdin bundog‘ marhamatlarni ko‘rdim. Qulluq qilib, ta’zim rusumin bajo kelturdim. Xushhollik bila ul behishtnishon majlisdan chiqib, o‘zimning vayrona kulbamg‘a kelib, bir go‘shada o‘lturdim va ixlos qalamin e’tiqod avroqig‘a surdim va qudratim boricha sa’yu - ko‘shish umurin zuhurg‘a yetkurdim[8, 6-7]”. Asar tarjima qilib bo‘lingach esa, Ogahiy yana adabiy majlisga borib, “Turkiy Qobusnoma”ni xonga to‘hfa etadi. Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar[7, 7]” va Muslihiddin Sa’diyning “Guliston[7, 89]” kabi ko‘plab asarlarni o‘zbekchaga o‘girishni ham Feruzshoh adabiy majlislarda ustozi Ogahiydan iltimos qilgan.

Feruz majlislarda saroy shoirlariga o‘zining 101 g‘azaliga ergashib javob yozishni so‘raydi va 30 nafar shoirning javob g‘azallari 2998 donani tashkil etadi. “Majmuai shuaroi Feruzshohiy” bayozidagi she’rlarning umumiy miqdori 3099 ta g‘azaldan iborat: “Ali mahramning Ahmad otlig‘ bir o‘g‘li bor edi. Ul ham o‘zini Tabibiy taxallusi bilan mutaxallis etib she’r aytmoq boshladi. Xon hazratlari o‘z g‘azallaridan yuz g‘azalni shoirlarga berib buyurdilar: “Munga payravlik etib g‘azal aytinglar”. Shoirlarning har biri onga payravlik etib, yuz g‘azal aytdilar. Xon hazratlari Tabibiyga amr etdilar, tokim ul g‘azallarni masnaviy zimnida jam’ qilib bir kitob etgay. Tabibiy farmoni mujibi bila amal qilib, ul g‘azallarni jam’ qilib har g‘azalni yozmoqchi bo‘lg‘onda, masnaviy bila ul g‘azalni aytg‘on kim erkanin bayon etib, bu tariqada tamomi g‘azallarni jam’ qilib tamom etib ul kitobga “Majmuat ush-shuaro” ot qo‘yildi [1, 256-267]”.

Bu davrda Tabibiy singari xorazmlik shoirlar qo‘llab quvvatlanib, bayon va devonlar tuzishga rag‘batlantirilgani, bir so‘z bilan aytganda, benihoyat qadrlangani Komil Xorazmiy tomonidan g‘azallarda zikr etilgan:

Har necha aylabon izhor fasohat shuaro,
Sochar elga duri daryoi balog‘at shuaro.
Emdi soch so‘z duri Komil sadafi tab’ingdin,
Tobti shoh hazratida qadr ila himmat shuaro.

Feruzshoh o‘ttiz olti yil davomida adabiy majlislarga bog‘lanib qoladi. “Ahvol shu darajaga borib yetadiki, xon she’r yozmagan saroy amaldorini jazolagan.

She’rxonlik kechalarida she’riy musobaqalar uyushtirilib, maqomlar ijro etilgan. Bu yig‘inlarda shoirlardan, ayniqsa, musiqa ijrochilaridan kuy ijrosida yuqori darajadagi san’atkorlik mahorati talab qilingan [6, 315-319]”.

Ham shoir, ham amaldor Komil Xorazmiy Feruzshohning bunday adabiy kechalaridan ilhomlangan hamda shoh lutfi uning tab’ini gulzor qilganini zikr etib, she’riy yig‘inlarda o‘qilgan she’rlarni gulga qiyoslagan:

Ko‘rmamish sandek jahonda hech bir gulzor, gul,
Kim sanga bordur badan gul, jabha gul, ruxsor, gul.
Bo‘ldi mutriblarg‘a bazming ichra hangomi surud,
Noxuni mizrob gul, musiqiyu advor gul.
Qildi Komil tab’ini shah lutfi gulzor o‘ylakim,
Masnaviy gul, qit’a gul, ab’yot gul, ash’or gul.

Bundan tashqari, Muhammad Rahimxon Feruz haftaning dushanba va juma kunlari ulamo bilan suhbat qurib, kitobxonlik kechalari tashkil etgan. “Andog‘kim,

Yusuf hoji oxund va Ismoilxo‘ja oxund va Xudoybergan oxund va olimu ulum ma’qul va manqulda Mullo Muhammad Rasul va faqiri haqir (Bayoniy) majlisi humoyunlarig‘a haftada ikki marotaba hozir bo‘lib kitobxonliq etar erduk. Goho domla Muhammad Rasul bila ikkovimiz kirib, suhbati humoyunlarida kitobxonliq bo‘lur erdi va sipohiylar va to‘ralarni ham kitobxonliq etarga targ‘ib etar erdilar [1, 257]”, - deb yozadi Bayoniy o‘zining “Shajarai Xorazmshohiy”” kitobida.

Xulosa qilib aytganda, Feruzshoh she’riyat kechalarini Xorazm adabiy muhiti va adabiy majlislari tarixining “oltin davri” deyishimiz mumkin. Chunki birinchidan, bu adabiy yig‘inlar o‘zbek mumtoz adabiyotining rivojlanishiga hamda yetuk shoirlarning shakllanishiga xizmat qilgan. Ikkinchidan, adabiy kechalar orqali yangi asarlar va to‘plamlar yaratilishiga hamda forscha asarlarning o‘zbekcha tarjima qilinishi turtki berilgan. Uchinchidan, adabiy majlislar Xorazm adabiy muhiti namoyondalarining ilhom manbai hisoblangan.

Adabiyotlar:

1. Muhammad Rizo Ogahiy. “Shohidu-l-iqbol” T.: “Muharrir”-2009.
2. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. T.: Meros-1991.
3. Ma’naviyat yulduzlari. T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi DIN, 2011.
4. Erkinov A. Polvonov N. Aminov H. Muhammad Rahimxon II-Feruz kutubxonasi fehristi. Toshkent-2009.
5. Erkinov A. Muhammad Rahimxon II va uning saroyi adabiy muhiti. // Antik davr sivilizatsiyasi taraqqiyotida Xorazmning o‘rni. Respublika ilmiy anjumani materiallari (2011 yil 20 may, Urganch –Xazorasp). Xiva, 2011.
6. Erkinov A. An’anaviy va modern muhitlar qiyosi: Komil Xorazmiyning Toshkentga bag‘ishlangan qasidasi// Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya materiallari. T.: Fan, 2009.
7. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Asarlar. IV jild. T.:G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1977.-B.7.
8. Kaykovus. Qobusnoma. Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi. T.: Meros, 1992.-B.6-7.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURSHOH - SAN‘ATSHUNOS

f.f.d. (DSc) Hamroeva H.,
O‘zDXA dotsenti

Annotasiya. Mutafakkir shoir, atoqli davlat arbobi, serqirra iste'dod sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining “Boburnoma” asari – jahon adadbiyotining nodir namunasidir. Mazkur maqolada ulug‘ adibning musiqa va raqs san'ati haqidagi fikrlari tadqiq qilindi.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, “Boburnoma”, o‘yun, Sayid Badr, san'at, badiiy tafakkur, musiqa, “Chorgoh”, qonun, Hinduston, naqsh, raqs.

Аннотация: Произведение поэта – мыслителя, выдающегося государственного деятеля, выдающегося таланта Захириддина Мухаммада Бабура

“Бабурнома” - редкий образец мировой литературы. В этой статье были рассмотрены взгляды великого писателя на искусство музыки и танца.

Ключевые слова: культурное наследие, “Бабурнама”, игра, Саид Бадр, искусство, художественное мышление, музыка, “скамья”, закон, Индостан, узор, танец**.**

Abstract: The work “Boburnoma” by Zahiriddin Muhammad Babur, a thinker poet, outstanding statesman, prolific talent, is a rare example of World Justice. This article examined the views of the great writer on music and dance art.

Keywords: cultural heritage, “Baburnoma”, O'yun, Sayid Badr, art, artistic thinking, Music, “quarter”, law, Hindustan, pattern, dance.

Adabiyot va san'atning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini buyuk mutafakkirlarning ijodi, ilmiy merosiga hamda falsafiy mushohadalariga tayanib o‘rganish, yangi talqinda dunyo xalqlariga taqdim etish globallashuv davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Atoqli davlat arbobi, qomusiy olim, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining “Boburnoma” asari turkiy nasrning betakror namunasi bo‘lish barobarida o‘zining noyob kompozision tuzilishi, uslubi, badiiy – adabiy kashfiyotlari bilan bizni nafaqat maftun etadi, balki yangi mushohadalarga, izlanishlarga undaydi. Muallifning tarixchi, adabiyotshunos, etnograf, san'atshunos sifatidagi yorqin tasvirlari, ayniqsa, musiqa, raqs yoki tasviriy san'at haqidagi mulohazalari, ilm – fanning turli sohasiga oid ilmiy tahlillari har qanday kitobxonni o‘ziga tortadi.

Olam va odamni anglash, inson ruhiyati va olam rang – barangligining mohiyatini his etish shakllari ichida san'atning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida san'atga oid terminlarning berilishi, uning mohiyatini o‘rganish masalasi san'atshunoslikning bugungi taraqqiyoti uchun nihoyatda muhimdir.Ularni uch turga ajratish mumkin:

a) rang-tasvir san'atiga oid;

b) musiqa san'atiga oid;

v) raqs san'atiga oid;

Taniqli olim O.Jo‘raboevning fikricha, “Bobur Mirzo san'atni juda yaxshi tushungan va o‘zi ham mashg‘ul bo‘lgan va hattoki musiqa bastalaganiga oid dalillar bor.Misol uchun “Boburnoma”ning hijriy 926 (milodiy 1519-1520) yilga doir sahifalarida bir muxammasga “Chorgoh” savtini (kuyini) bog‘laganini yozadi.Yana aytadi, “Necha mahal edi, mundoq nimalarga mashg‘ulluq qilmaydur edim.Manga ham dag‘dag‘a bo‘ldikim, bir nima bog‘lag‘aymen...” Ma'lum bo‘ladiki, Bobur bir necha vaqt she'rga musiqa bastalash bilan shug‘ullangan.”[80]

Bobur Mirzo ulug‘ mutafakkir Navoiy hazratlarining asarlariga ehtirom bilan yuksak baho beradi va Alisherbekning o‘z davrining eng mashhur sozandalari Ustoz Qulmuhammad, Shayxi Noyi va Husayn Udiy kabi “ahli fazl va ahli hunarg‘a” murabbiy ekanligini aytib, ulug‘ shoir iste'dodining yana bir qirrasini alohida ta'kidlaydi: “Yana musiqida yaxshi nimalar bog‘labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur.”[81]

[80] Jo‘raboev O. Bobur lirikasida musiqa va tasvir. T.: “Bobur va dunyo” j., 2018y, № 4. -B.35.

[81] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: “Yulduzcha” nashriyoti, 1990. -B.154.

“Naqsh”ning yana bir ma'nosi kuy, ashula[82] ekanligini e'tiborga olsak, Hazrat Navoiyning musiqa bastalash darajasidagi yetuk bastakor bo‘lganliklarini anglaymiz.

Har bir adib o‘zi yashab turgan davrdagi qadriyatlar majmuasiga ijodiy yondashadi. Mirzo Bobur hirotlik shoir Binoiyning shaxsi va ijodi haqida so‘z yuritib, yosh ijodkorlarga ibrat bo‘larli tarbiyaviy jihatlarga ham to‘xtaladi. Binoiyning musiqadan bexabarligini hazrat Navoiy tanqid qilganlarini, tanqiddan to‘g‘ri xulosa chiqargan Binoiy bir qish mashq qilib, musiqani savt va naqsh bog‘laydigan darajada o‘rganganidan hayratgatushib, jumladan shunday deydi: ”Alisherbek taajjub qilib, tahsin qilur. Musiqiyda tavr ishlar bog‘labtur, ul jumladin bir naqshi bor, nuhrangga mavsum. Bu to‘qqiz rangning tuganishi va naqshning maylosi rosttadur.” [83]

Tabiatan sinchkov bo‘lgan Mirzo Bobur keyingi sahifalarda Qul Muhammad Udiy, Shayxiy Noyi, Shohquliy g‘ijjakiy, Husayn Udiy kabi o‘sha davrning mohir sozandalari haqida to‘xtalib, Badiuzzamon Mirzo saroyidagi bir voqeani bayon qilar ekan, bu bayonda uning zukko nigohini, estetik qarashlarini, musiqa ilmidagi idrokini his qilamiz:” Yana Shayxiy Noyi edi, udni va g‘ijjakni ham xo‘b cholur ekandur. O‘n ikki – o‘n uch yoshidin beri nayni xo‘b cholur ekandur. Bir navbat Badiuzzamon Mirzoning suhbatida bir ishni naydin xo‘b chiqarur, Qul Muhammad g‘ijjakta ul ishni chiqara olmas. Derkim, g‘ijjak noqis sozdur. Shayxiy filhol Qul Muhammadning iligidin g‘ijjakni olib, ul ishni g‘ijjakta xo‘b va pokiza cholur. Shayxiydin yana bir nima rivoyat qildilar: Nag‘amotqa andoq mustahzar ekandurkim, har nag‘makim, eshitsa, der ekandurkim, falonining falon pardasi munga ohangdur, vale xeyli ish bog‘lamaydur. Bir – ikki naqsh andin derlar.”[84] Muallif voqeani shunchaki bayon etmaydi, balki vaziyatni tahlil qiladi, musiqashunos sifatida munosabat bildiradi.

Zero, san'atda hissiy qabul qilish ustuvorlik kasb etadi. Xususan, raqs san'ati insoniyat boshqa biron yo‘l bilan ifodalay olmagan narsani ifodalash zarurati bilan belgilanadi. Bobur Mirzoning ijodiy xayolot quvvati hayratlanarli darajada yuksak edi. U nafis va jo‘shqin harakatlar qa'rida ko‘zga ko‘rinmas nafosat olamining mukammal to‘kisligini his qiladi. Masalan, favqulodda iste'dod sohibi bo‘lmish Sayid Badr ismli kishining raqsi haqida munosabat bildirar ekan, uning o‘ziga xos ustunligini alohida ta'kidlaydi. “Yana Sayid Badr edi. Bisyor zo‘r va asru shirin harakot kishi edi. Ajab sohib usul kishi edi. G‘arib xo‘b raqs qilur edi. G‘ayri muqarrar raqs qilur edi. G‘olibo ul raqs aning ixtiroidur. Hamisha Mirzo mulozamatida bo‘lur edi.[85]” Muallif Sayid Badr raqsining nozik jihatiga e'tibor qaratadi, bu “g‘ayri muqarrar raqs” muallifga o‘zgacha zavq-shavq bag‘ishlaganligini sezish mumkin. Yoki, Bayoniy taxallusi bilan she'rlar yozgan sozanda Xoja Abdullo Marvoriy haqida so‘z yuritib, “Purfazoyil kishi erdi, qonunni oncha kishi chalmaydur, qonunda girift qilmoq muning ixtiroidur”[86], deydi.

Ya'ni, Mirzo Bobur musiqada ham, raqs san'atida ham oddiy ijro bn “ixtiro”ni farqlaydi, mantiqiy idrok bilan, san'atshunos kabi fikr yuritadi.Asarda o‘sha davr musiqa va raqs san'ati tasvirlanib, muallif tomonidan qimmatli ma'lumotlar beriladi. Musiqashunoslar xususida gap ketganda yana Binoiyni tilga oladi: “Binoiy ham

[82] Akbarov I. Muzika lug‘ati. T.: “O‘qituvchi” nashriyoti,1986. - B.128.
[83] O’sha manba, 162 -b
[84] Akbarov I. Muzika lug‘ati. T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1986. - B.162.
[85] O’sha manba. 156- b
[86] O’sha manba. 157- b

musannif edi. Yaxshi savt va naqshlari bordur."[87] Musannif – (muallif), "Boburnoma"da bastakor ma'nosida ham ishlatilgan.[88]

Milliy tafakkur milliy an'analar ta'sirida shakllanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoni Hindistondagi ko‘chmanchi lo‘lilarning raqs usullari hayratga solgan. Quyidagi parchada muallif hind lo‘lilarining "o‘yun"larini ta'riflar ekan, unda shoirning yuksak estetik qarashlari, sinchkovligi nihoyatda yorqin namoyon bo‘lgan. Kitobxon mutolaa jarayonida lo‘lilar "o‘yun"ining eng kichik detallari ham muallifning o‘tkir nigohidan chetda qolmaganligini his etadi: "Osh tortilg‘ondin so‘ng farmon bo‘ldikim, Hindustonni bozigarlari kelib, o‘yunlarini ko‘rsatgaylar. Lo‘lilar kelib, ishlarini ko‘rsattilar. Hinduston lo‘lilari ba'zi ishlare ko‘rsaturlarkim, ul viloyatlarning lo‘lilaridin ko‘rulmaydur edi. Ul jumladin biri budurkim, yetti halqani peshonasiga va ikki tiziga ta'biya qilib, yana to‘rt halqani ikki ilik barmog‘i bila va ikkini ikki oyog‘i barmog‘i bila tez va bedarang evuradur. Yana biri bukim, raftori tovus yo‘sunluq bir iligini yerga qo‘yub, bir iligi va ikki oyog‘i bila uch halqani tez va bedarang evuradur. Yana biri bukim, ul viloyat lo‘lilari ikki yig‘ochni oyog‘larig‘a bog‘lab "poyi cho‘bin" qilib, yo‘l yururlar. Hinduston lo‘lilari bir yig‘och bila "poyi cho‘bin" qilib, yo‘l yuruydurlar, oyog‘larig‘a ham bog‘lamaydurlar. Yana biri bukim, ikki lo‘li bir-birini tutushib, ul viloyatlarda ikki turluk muallaq bororlar. Hinduston lo‘lilari bir-birlarini tutushib, uch, to‘rt, turluk muallaq boradurlar. Yana biri bukim, olti-etti qari yig‘ochning tubini bir lo‘li beliga qo‘yub, yig‘ochni tik tutub turadur, yana bir lo‘li bu yig‘ochqa chiqib, yig‘och ustida o‘yunlar o‘ynaydur. Yana biri bukim, bir kichik lo‘li yana bir ulug‘ lo‘lining boshiga chiqib, tik turadur,quyig‘a lo‘li ul sari, bul sari ildam yurub, ish ko‘rsatganda, bu kichkina ul lo‘lining boshining ustida tiptik tebranmay turub, ul ham ishlar ko‘rsatadur. Qalin motular ham kelib, raqqoslik qildilar."[89] Bozigar – mohir o‘yinchi, raqqos, raqqosa ma'nolarini anglatishini[90] e'tiborga olsak, Boburmirzo sinonim sifatida "raqqos" so‘zini qo‘llaydi, Hinduston lo‘lilari bilan viloyatdan kelgan lo‘lilarning "o‘yun"larida farq borligini ta'kidlaydi: "viloyat lo‘lilari ikki yig‘ochni oyog‘lariga bog‘lab "poyi cho‘bin"qilib, yo‘l yururlar. Hinduston lo‘lilari bir yig‘och bila "poyi cho‘bin" qilib, yo‘l yuruydurlar, oyog‘larig‘a ham bog‘lamaydurlar".

Madaniy an'analar bir - biriga mushtarak tarzda rivojlanadi. Muallifning yuqoridagi sharhida Hindiston lo‘lilari va bozigarlarining "o‘yun" va raqslari, ularning o‘xshash hamda farqli tomonlari haqida mulohaza yuritilgan. Bu fikrlar tarixiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Anglaymizki, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning salohiyati, zakovati va tafakkur olami shunchalik yuksak va ko‘lami kengki,uning darajasini belgilash amrimahol.

47 yillik umrining ko‘p qismi shiddatli janglar va muhorabalarda, siyosiy nizolar, ichki ziddiyatlar to‘fonida, tahlikalarda o‘tgan Bobur shohning nihoyatda nozikta'blik ila lo‘lilar raqsini sharhlashi uning yuksak salohiyatli qomusiy olim bo‘lganligidan darak beradi.

---

[87] O'sha manba. 165- b

[88] Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. T.:"Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2017.- b.323.

[89] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: "Yulduzcha" nashriyoti, 1990. -B.324.

[90] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild.T.: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -B.298.

San'atshunos olima, O‘zbekiston xalq artisti R. Karimova o‘z tadqiqotlarida “O‘zbek xalqining milliy iftixori bo‘lgan raqs san'ati necha-necha asrlar davomida shakllandi, rivoj topdi. Lekin, bu san'at turi yozma ravishda o‘z aksini topmagan”, degan edi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasining 9-jildida “O‘zbekistonda garchi raqs asrlar davomida yashab, rivojlanib kelgan bo‘lsa-da, o‘tmishda raqs yozilmagan. Natijada qanchadan-qancha mumtoz va xalq raqslari izsiz yo‘qolib ketgan.1936-41 etnograf Iraida Baxta “Katta o‘yin” nomli Farg‘ona raqs turkumini so‘z bilan yozib olgan”ligi[91] ta'kidlanadi. Umuman, ko‘pchilik san'atshunos-mutaxassislar o‘z tadqiqotlarida “raqslarini yozib olish 20- asrning 30-yillaridan boshlandi”, degan fikrni ilgari surishgan. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil odimlayotgan, Uchinchi Renessans poydevori yaratilayotgan mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy kamolotini, estetik saviyasini belgilovchi ko‘plab badiiy qadriyatlarimizning yangi qirralarini kashf etishga, ularning tarixiy ildizlarini o‘rganish va keng targ‘ib qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

Demak, milliy madaniy merosimiz haqida so‘z ketganda, o‘zbek xalqining ko‘hna madaniyati tarixida raqs yozuvi azaldan mavjud ekanligi ilmiy jihatdan tan olinishi shart. Zero, milliy raqs san'ati nafaqat yurtimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham katta qiziqish bilan o‘rganilayotgan ma'naviy-estetik qadriyatlar tizimidir. “Boburnoma” muallifi o‘z zamondoshi Sayid Badrning raqsdagi ixtirosi va Hindiston lo‘lilari “o‘yun”idagi ijro jarayoni haqidagi fikrlarini juda aniq, ilmiy mukammallikda bayon etadi.Bu mukammallik zamirida san'atshunos Bobur Mirzoning teran bilimi, raqs nafosatini bevosita amaliyot bilan bog‘lab tahlil eta olish salohiyati borki, unga qoyil qolmaslikning iloji yo‘q. Va bu mulohazalar biz hali tariximizni to‘liq bilmasligimizni, qadimdan Sharq madaniyatida raqslarni yozma ifodalash ilmi va tajribasi borligini, ular o‘z tadqiqini kutayotganligini anglatadi.

Jahon madaniyati taraqqiyotiga, umumbashariy qadriyatlar silsilasiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shilgan ulkan madaniyat vorislari sifatida har qancha faxrlansak arziydi. Ulug‘ shoirning nozik kuzatuvlari, betakror, falsafiy talqini orqali biz raqs san'ati tarixining hali o‘rganilmagan qirralari haqida ma'lumotga ega bo‘lamiz. Zahiriddin Muhammad Bobur shoh asarlaridagi san'atga oid terminlar tahlili va tadqiqi shoir ijodining muxlislari, tadqiqotchi olimlar va yosh avlodning ko‘hna madaniyatimizga bo‘lgan qiziqishi va hurmatini yanada oshirishi tabiiy.

Adabiyotlar:

1. Prezident Sh.Mirziyoevning A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrifi. O‘zA. 2020 yil 20 may.

2. Akbarov I. Muzika lug‘ati. T.: “O‘qituvchi”, 1986 y.

3. Jo‘raboev O. Bobur lirikasida musiqa va tasvir. “Bobur va dunyo” j., № 4. T; 2018y.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: “Yulduzcha”, 1990.

5. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. T.: “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2017,

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 - j. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

[91] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-jild. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -B.497.

“FIRDAVS UL-IQBOL” DA PAHLAVON MAHMUD VA FUTUVVAT MASALALARI

f.f.n. Mahmudov J.,
O‘zMU dotsenti

Annotasiya: Ushbu maqolada Munis va Ogahiy tomonidan yozilgan “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asaridagi Pahlavon Mahmud va futuvvat masalasi yoritildi. Asarlar va tadqiqotlarda Pahlavon Mahmudning turlicha taxalluslari berilgani haqida mulohazalar yuritildi.

Kalit so‘zlar: Pahlavon Mahmud, futuvvat, Munis, Ogahiy, Firdavs ul iqbol

Аннотация: В этой статье рассматривается вопрос о Пахлаване Махмуде и футуввате в историческом труде “Фирдоуси уль-Икбал”, написанном Мунисом и Огахи. В работах и исследованиях высказывались предположения, что Пахлаван Махмуд получил разные прозвища.

Ключевые слова: Пахлаван Махмуд, футувват, Мунис, Агахи, Фирдоуси уль Икбал

Abstract: this article covered the issue of Pahlavon Mahmud and Futurity in the historical work “Firdavs ul-Iqbal” written by Munis and Ogahi. In works and studies, reflections were made on the fact that Pahlavon Mahmud was given different nicknames.

Keywords: Pahlavon Mahmud, futulat, Munis, Ogahi, Firdavs ul Iqbal.

O‘zbek adabiyoti tarixidagi adabiy, tarixiy asarlarda javonmardlik timsolini ifodalagan qahramonlar ko‘p uchraydi. Jumladan, Shermuhammad Avazbiy mirob o‘g‘li Munis hamda Muhammadrizo Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asaridagi “Bundash Mirzo” bo‘limida o‘qiymiz: “Faqirmashrab va darveshnihod kishi erdi. Aksar avqot ulamo bila suhbat tutib, fuzalog‘a hamnishin erdi. Fuqaro va masokin aning xoni bazlidin bahramand erdi. Hojimxon ani taklif bila otasining o‘rnig‘a nasb qilib erdi. Bir necha muddatdin so‘ng amalni tark tutib, go‘shanishinlik ixtiyor qildi. Xon andin so‘ng har necha amalg‘a taklif qildi, qabul etmadi. Arabxon zamonida sana ming yigirma ikkida vafot topib (1022 h.q.) “qodir Podshoh huzurida rozi bo‘lingan o‘rin” javorida manzil tutdi. Aning uch o‘g‘li bor erdi: O‘mboy va Sulton va kichikning oti ma'lum ermas .

O‘mboy inoq shabob ayyomida saloting‘a kam ixtilot qilur erdi. Himmati qo‘ymas erdikim, kishiga xizmat qilg‘ay. Qushchilik va dehqonchilik amrig‘a mashg‘ul erdi. Chun Habash sulton va Elbars sulton otasi Arabmuhammadg‘a osiy bo‘lub, xon dag‘i alar ta'dibi uchun sipoh tortib, dastgir bo‘lub, sipohi shikast topti, bu dag‘i ul sipohda hozir erdi. Yovdin chiqib, Abulg‘oziyxon bila bir tarafga qochtilar. Yo‘lda Abulg‘ozixonning oti yiqilib, piyoda qoldi. O‘mboy ani o‘z otig‘a mindurub, o‘zi piyoda qoldi. Xon ani tanimas erdi. So‘rashur fursat bo‘lmay, yo‘lg‘a kirdi. Andoqkim, sobiqan zikr topib erdi.

Qit'a:

Ko‘r, na himmat erur, ulkim solibon o‘zni balog‘a,
Yana ofatu balo vartasidin elni chiqarmoq.
Xossa yetganda birov boshig‘a shamshiri halokat,
Qilib o‘z boshini qalqon anga va ani qutqarmoq.

Pahlavon Mahmud siymosi ham aynan shunday timsollardan biridir. Navoiy tomonidan “yoshurun suluk va riyozatga ega” bo‘lgan bu Xorazm polvoni yashirin tashkilot bo‘lgan futuvvat va axiylikka aloqador ekani hatto unga berilgan turli nom va laqablardan ham ma'lum bo‘ladi. Ya'ni, uning taxallusiyu laqablari haqida aniq bir ma'lumotlar keltirilmagani ma'naviy ustozi bo‘lmish Najmiddin Kubroning bashorati tufaylimi yoki yoshurun sulugi sababidanmi, ko‘pchilikka qorong‘u. Zero o‘z vaqtida Najmiddin Kubro shunday bashorat qilgan ekanlar: ul xud bizning nafas o‘g‘limizdur, Xorazm diyorining xullai aqdi oning zimmai iqtidoridadur. Ul pisar (o‘g‘il) bizning nafas o‘g‘limizdur. Oning oti Mahmuddir. Ul farzand ziyoda baquvvat pahlavon bo‘lur. Ul vajhdin ko‘b kishi aning otin bilmay «Pahlavon ota derlar», deb yuborib erkanlar… [92]

Ana shunday ixtilofli ma'lumotlardan birini Oftobroy Lakhnaviyning «Riyoz ul-orifin» tazkirasida uchratamiz. Eronlik davlat arbobi va yozuvchi Rizoqulixon Hidoyatning «Riyoz ul-orifin» tazkirasidan tashqari, shu nomda yana bir tazkira bo‘lib, uning muallifi pokistonlik Oftobroy Lakhnaviydir. U asarida Pahlavon Mahmud haqidagi quyidagicha ma'lumot beradi: “Fanoiy (فنایئ) – asli Xorazmdan bo‘lib, ismi Pahlavon Mahmud; Pirmoivaliy (پرمائ ولی) nomi bilan mashhurdir. Uning jismoniy va ruhoniy qudrati haqidagi ovozalar jahonga ketgan; o‘z davrining benaziri erdi. Vola Dog‘istoniy uni «qof» harfi bilan «taxallusi Qaboiy (قبایئ) deb yozadi (Vallohu a'lam). Alqissa, vafotlari yetti yuz yigirma ikkida sodir bo‘lgan… ”. Tazkirada Pahlavonning «Bo quvvati pil mo‘r meboyad bud..»[93], «Az daftari ishq roz mexonu mago‘y…», «Gar bar sari nafsi xud amiri mardi...» deb boshlanuvchi ruboiylar ham berilgan. Tazkirada Pahlavon Mahmudni Fanoiy taxallusi ostida keltirilganini quyidagicha izohlash mumkin: Ma'lumki, «Majolis ul-ushshoq»da Pahlavon Mahmud nomidan keltirilgan bir g‘azal bo‘lib, aslida bu asar muallifi Kamoliddin Husayn Fanoiyga tegishlidir. Chunki hozirgacha hech bir manbada Pahlavon Mahmudning bunday g‘azali eslab o‘tilmagan.

Ikkinchidan, «Majolis ul-ushshoq» debochasida ta'kidlanganidek, Kamoliddin Husayn Fanoiy asar mobaynida o‘zining, Amir Xusrav Dehlaviy va boshqa shoirlarning baytlarini mos joylarga yozib ketgan. Shu o‘rinda Pahlavon zikri oxirida Xusrav Dehlaviyning masnaviysi keltirilganini eslash fikrimizni tasdiqlaydi. Demak, bundan ma'lum bo‘ladiki, Pahlavon Mahmud tilidan keltirilgan mazkur g‘azal aslida Kamoliddin Husayn Fanoiyning o‘ziga mansub bo‘lgan. Bizningcha, Oftobroy Lakhnaviy mazkur g‘azaldagi taxallusga asoslanib, Pahlavon Mahmud ni Fanoiy taxallusi ostida keltirgan. Vaholanki, boshqa hech bir tazkirada ushbu taxallus uchramaydi.

Uchinchidan, Shamsiddin Somiyning «Qomus ul-a'lom» asarida Fanoiy taxallusli shoirlar haqida eslanar ekan, «Fanoiy – Eron shuarosindan besh kishining muxallasi (taxallusi)dir», deyiladi, ammo mazkur beshlik orasida Pahlavon Mahmud keltirilmaydi. Lakhnaviy tazkirasida esa Fanoiy taxallusi bilan kelganlar oltita bo‘lib, birinchisi Pahlavon Mahmuddir. Demak, shundan ham ma'lum bo‘ladiki, Lakhnaviy «Riyoz ul-orifin»da Fanoiy taxallusli shoirlarni bittaga ko‘paytirgan va bu «Majolis ul-

---

[92] "رياض الذّاكرين" آلله يار بين خدايبردى المتخلّس بيل محزون. ЎзРФА Қорақалпоғистон бўлими, Тарих, археология ва этнография институти фонди қўлёзмаси

[93] تذكِره ٔ رياضُ العارفين. تألیف: آفتاب رای لکهنوی. بتصحیح: سیّد خُسام الدّین راشدی. از انتشارات مرکزی تحقیقات فارسی ایران و پاکستان. 1982 , хурдод 1361 хуршидий, 1402 ҳ.к. – С.104-105. میلادی.

ushshoq»dagi g‘azal bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan, deb taxmin qilamiz. Shu o‘rinda Zahiriddin Muhammad Boburga hamohang tarzda biz ham «ushbu Kamoliddin Husaynning xushomadidan Pahlavon Mahmud ham «Fanoiy»ga va ham «Qitoliy»ga mutaxallas bo‘ldi» deyishimiz mumkin.

Tazkirada keltirilgan Pirmoivaliy laqabi ham bahstalabdir. Zero, bunday laqab haligacha Pahlavonga nisbatan ishlatilmagan edi. Faqat etnograf olim Gleb Pavlovich Snesarev o‘z kitobida Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol» asaridan iqtibos keltirar ekan, shunday yozadi: «Xorazm agiologiyasida Pahlavon Mahmud nomining oxirgi yillarda keng tarqalganligi haqidagi fikrimizni Xivadagi maqbaraning tarixiy yodgorlik majmualarining tahlili yorqin tasdiqlaydi: «Qutb ul-aqtob va ulug‘ yo‘lboshchi Pahlavon Mahmud bin Pirmarvaliy (ularning ikkalasini ham Olloh sirlarini muqaddas qilsin)ning tabarruk maqbarasi»[94].

Demak, G.P.Snesarev monografiyasida Pahlavon Mahmudni «bin Pirmarvaliy» (Pirmarvaliy o‘g‘li) deb keltirgan, tazkirada esa «Pirmoivaliy nomi bilan mashhurdir» deyiladi. Tazkirada, shuningdek, Vola Dog‘istoniyning Pahlavon Mahmud laqabini Qaboiy deb keltirganini ham eslab o‘tadi. Ushbu taxmin ham biror asosga ega emas, negaki, hali hech bir manbada bunday taxalluslar uchramagan.

Xuddi shunday holatlar, ya'ni Pahlavon Mahmud ni turli taxalluslar bilan nomlash yana bir qator olimlar ishlarida uchraydi. Jumladan, eronlik olim Doktor Qosim Ansoriy o‘zining «Maboniyi irfon va tasavvuf» kitobida shunday keltiradi: «Pahlavon Mahmud Qaffoliy (قفّالی) Xorazmiy (vafoti 722 hij.-qam.) – Puryoyvaliy laqabi bilan tanilgan Pahlavon Mahmud Qaffoliy kurashchilar va futuvvat ahlining peshvolaridan edi. U malomat va futuvvat g‘oyalarini birgalikda olib borgan, o‘zida har ikkisining fazilatlarini ko‘rsatgan zot edi. Undan bir nechta ruboiy, qit'a va g‘azallarni o‘z ichiga olgan she'riy parchalar qolgan, «Kanz ul-haqoyiq» nomli kitobni unga nisbat beradilar. Yoshligida kurash tushuvchi pahlavonlardan edi va keyinchalik tasavvufga yuz burib, futuvvat ahlidan bo‘ldi»[95].

“Firdavs ul-iqbol”ning “Avaz inoqning Abdurahmon mehtarga mamlakat intizomining hallu aqdin kamoli marhamatdin topshurub, bu marhamat g‘ururidin ul bedavlatning dimog‘ig‘a savdoyi fosid tushgani va ul savdo shomotidin halokat sarhaddig‘a yetushgani” bo‘limida mualliflar milodiy 1792 yil may oylari voqealarini eslar ekan, shunday yozadi: “Hamisha xoni ehsonlari ommayi fuqaro ollida ochuq va hamvora javohiri in'omlari koffai baroyo boshig‘a sochuq erdi...Xususan aning arshad avlodi (katta o‘g‘li) Abdurahim boy xayrot va mubarrot istikmolig‘a bag‘oyat rog‘ib u haris erdi. Xivaq masjidi jome'ining marammati va hazrat Ismi Mahmud oto qaddasollohu arvohuhuning imorati aning xayrotidin dur ...”. Abdurahmon mehtarning katta o‘ g‘l i Abdurahim boyning qilgan xayr saxovatlaridan biri Xivadagi Ismi Mahmud oto ziyoratgohiga xayr qilish bo‘lgan. Ogahiyning tarixiy asarlarida Pahlavon Mahmud maqbarasi nomi ko‘pincha Ismi Mahm ud ot a nomi bilan ham keltirilgan.

Xullas, Pahlavon Mahmudning nafaqat hayoti va faoliyati, balki taxallusu laqablari ham Navoiy ta'biri bilan aytganda “yoshurun” bo‘lgan va uni ochiqlash bizning vazifamizdir.

---

[94] Снесарев Г.П. Хорезмские легенды как источник религиозных культов Средней Азии. -М.Наука. – С. 176.

[95] 1370/ مبانی عرفان و تصوّف. دکتر قاسم انصاری. تهران. کتابخانه ء طهوری – С. 174.

QO‘QONLIK SO‘FIY SHOIRA NISO IJODIDA ILOHIY ISHQ

f.f.n. Eshonova S.N.,
O‘zRFA A.R.Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi
Sharq mumtoz adabiyoti bo‘limi mudiri

Annotasiya: Maqolada Xiva va Qo‘qon adabiy muhitidagi izdoshlik Ogahiy va qo‘qonlik shoira Nisoning tasavvufiy she'rlari orqali yoritildi. So‘fiy shoir va shoiralar ijodidagi ilohiy yor obrazi talqini, farqlari va sabablari tahlil etildi. Mazkur ruhdagi she'rlarning turkiy adabiyotdagi o‘rni ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: Og‘ahiy, Qo‘qon adabiyot muhiti, Niso, ishq, ilohiy yor, obraz, tasavvuf, tariqat.

Аннотация: последовательность в хивинской и Кокандской литературной среде освещена в статье мистическими стихами Огахи и кокандской поэтессы Нисо. Анализировались толкования, различия и причины образа божественного Яра в творчестве суфийских поэтов и поэтесс. Было показано место стихов в этом духе в тюркской литературе.

Ключевые слова: Агахи, Кокандская литературная среда, Нисо, Ишк, божественный Йор, образ, мистика, тарикат.

Abstract: the article covered the followers in the literary environment of Khiva and Kokand through the mystical poems of Ogahi and Kokand poet Niso. The interpretation, differences and reasons for the image of divine yor in the work of Sufi poets and poets were analyzed. The role of poems in this spirit in Turkish literature was shown.

Keywords: Agahiy, Kokand literary environment, Niso, ishq, divine yor, image, mysticism, sect.

Har qanday ijodkor qalamini tebratuvchi kuch bu ishq, tuyg‘ularni badiiy tasvir talqinida ifodalovchi omil bu obrazdir [4: 33]. Obrazlar ifodasi asrlar mobaynida o‘ziga xos an'anaviy talqin tizimini vujudga keltirgan. Mazkur tizimga e'tibor qiladigan bo‘lsak, undagi asosiy obrazlar bu oshiq – lirik qahramon va uning ruhiy kechinmalari, ma'shuqa va uning ta'rifu tavsifi, vaslga mone'lik qiluvchi ag‘yor va uning kirdikorlaridan iborat bo‘lib, ular asosan, tabiat hodisalari, jonivorlar, turli predmetlar orqali gavdalantirilgan. Biroq xos mazmun, ichki qonuniyat, xususiyatga ega mumtoz adabiyot, ayniqsa, yashirin ma'nolarni badiiy tasvir orqali ifodalovchi tasavvuf she'riyatiga oid obrazlar sistemasi nafaqat boshqa xalqlar, balki Sharq she'riyatining boshqa turlaridan ham farq qila boshladi [6: 32-33; 10: 17; 7: 101].

VII asrdagi zohidlik keyinroq oriflik va oshiqlik rutbasiga ko‘tarildi. Ilohiy yor ishqida kuygan oshiqlar ash'ori XV asrga kelib, xos obrazu maxsus ramzlar orqali mu'jib ma'nolarni bildiruvchi ulkan tasavvuf adabiyotini vujudga keltirdi [3: 156; 4: 224]. Ilohiy ishq mehvarida aylanuvchi tasavvuf she'riyatida, ayniqsa, ilohiy yor obrazining alohida talqini bor.

Darhaqiqat, bu mavzu ko‘plab shoirlar qatorida Xorazm adabiy muhitining yorqin namoyandasi Muhammad Rizo Erniyozbek Ogahiy (1809–1874) ijodining ham bosh mavzusiga aylangan. Shoir bir qancha she'rlarida haqiqiy ishq orqali Allohga yetishish

maqsadida ekani, zohiran majoziy ishqni talqin etsa-da, aslida botinan haqiqat oshuftasi ekanini e'tirof etgan:

Hamisha botinan rog‘ib haqiqat soridur ko‘nglum,
Nechakim, zohiran da'bi oning mayli majoz o‘lsun [3:221-222].

Ma'lumki, XVIII – XX asrlarda shakllangan Qo‘qon adabiy muhiti Qo‘qon xoni Amir Umarxon (1787–1822; xukmronlik yillari 1810–1822) davrida ayniqsa taraqqiy etgan. XIX asrdan boshlab o‘zbek adabiyoti tarixida mazkur muhitda Mohlaroyim Nodira boshchiligida tarbiya topgan shoiralar silsilasining adabiyot maydoniga kirib kelishi butun o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida ham alohida sahifa ochdi. Mazkur ijodkorlarning aksariyati o‘zbek va fors tillarida devon tuzganlar. Tabiiyki, ular an'anaviy hamd, na't, Allohga munojot, tavba ruhidagi she'rlar bilan boshlangan, tasavvufiy mayillar ham bor. Yoriy, Qoriy, Haziniy, Azimiy kabi shoirlar ijodida esa, bevosita Farg‘ona vodiysida tarqalgan yassaviya, naqshbandiya, qodiriya tariqati ta'limotlari ifodalangan.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, garchi Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asari va boshqa tazkiralarda bir qancha valiya, orifa ayollar, so‘fiy shoiralar haqida ma'lumot keltirilgan bo‘lsa-da, ularning devonlarini hozircha uchratmadik [2].

Biz tomondan ilmiy istifodaga kiritilgan, XX asrda Qo‘qonda yashagan Naqshbandiya tariqatiga mansub shoira Niso (1879–1966) ijodining aniqlanishi bu masaladagi mavjud probelni to‘ldirishga xizmat qiladi. Shoira devononidagi aksariyat she'rlari Naqshbandiya tariqati ta'limoti mazmuni, maqsadini yoritgan. Shu sababli, u sho‘rolar tuzumi siyosiy iskanjasi ostida vatanini tark etishga majbur bo‘lgan.

Ismi asosida Niso taxallusini olgan Oyimniso 1879 yili O‘zbekiston Respublikasi Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahriga qarashli O‘rta Oqmasjid qishlog‘ida tug‘ilgan. Boshlang‘ich ta'limni maktabdorlik bilan shug‘ullangan onasi Oydinnisodan olgan, fors va arab tilllarini, mumtoz adabiyotni yaxshi o‘rgangan.

Sho‘rolar davridagi ta'qib sababli, 1927 yili Oyimniso oilasi bilan Saudiya Arabistoniga hijrat qilib, Makka, Madina shaharlaridagi «Isfara takyasi»da, Toif, Tabuk shaharlarida yashagan. Shoira katta o‘g‘li Muhammadxo‘jani muayyan sabablarga ko‘ra olib ketolmagan va 1941 yilgacha mazkur farzandi, yaqinlari bilan mukotaba qilib turgan. Biroq ular bilan boshqa ko‘risha olmay 1966 yilning yozida 83 yoshida vafot etgan.

Bizgacha Nisoning 1914-15 yilda yozilgan jami 6665 misradan iborat 2 qo‘lyozma devoni hamda yaqinlariga yozgan 23 ta nasriy va nazmiy maktubi yetib kelgan. Ular shoiraning O‘zbekistondagi avlodlari qo‘lida saqlanadi [13: 26-29]. Arabistondagi avlodlari haqida hozircha ma'lumotga ega emasmiz.

Niso ijodida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma'rifiy, diniy-tasavvufiy, agiografik mazmundagi asarlar o‘z ifodasini topgani holda tasavvuf ta'limotining mehvari sanalanmish ilohiy ishq mavzusi salmoqli o‘rin egallaydi. Asarlari, asosan, islomiy didaktika, ilohiy ishq ruhidagi tasavvufiy mazmunda yozilgani sababli matbuotda nashr bo‘lmagan, lekin o‘z davrida juda mashhur bo‘lgan. Ko‘plab zikr majlislarida Ahmad Yassaviy va Mashrab she'rlari qatorida o‘qilgan. She'rlaridagi “Ro‘zu shab shukr et, Niso, Naqshbandga san bo‘lding murid...” kabi misralari orqali shoiraning mazkur

tariqatga mansubligi ma'lum bo‘ladi [13: 26-29]. Biroq qaysi pir orqali, qachon bu tariqat yo‘liga kirgani haqida hozircha ma'lumot yo‘q.

Tariqat an'anasiga ko‘ra, muridni voyaga yetkazib, uni sinash huquqiga ega bo‘lgan murshid – shayxga qo‘l bermaguncha solik Haqqa vosil bo‘lolmaydi [11: 9].

Shu o‘rinda eslatish joizki, “Biror kishining murshidga bog‘lanishiga “intisob”, “inoba”, “bay'at” yoki “qo‘l berish” deyiladi. Tariqatga kirmoqchi bo‘lgan har bir murid murshid qarshisiga o‘tirib, qo‘lini uning qo‘li ustiga qo‘ygan holda tavba qiladi, nafsini yengishda riyozat va mujohada qilishga so‘z beradi” [11: 70].

Ayollarning muridlikka qabul qilinishida esa murshid bir parda ortida o‘tirib, o‘zining belbog‘i yoki biror kaltakning bir uchini ushlagan holda ikkinchi uchini undan ma'lum bir masofada o‘tirgan murid bo‘lmoqchibo‘lgan ayolga uzatadi. Ayol uning ikkinchi uchini ikki qo‘li bilan mahkam ushlagan holda pirga murid bo‘lishga bay'at qiladi [9: 125].

Odatda, tariqatga mashaqqatlarga chidamli erkaklar mansub bo‘lgan va ular ijodida Yor obrazi dastlab go‘zal nasoro o‘g‘loni yoxud zangi hinduga bo‘lgan muhabbat orqali tasvirlangan. Asta-sekin bu timsol ayol obraziga yaqinlashgan. Biroq dastlab go‘zal ayolga Haqqa yetish yo‘lidagi g‘ov deb qaralgan Keyinroq ayol timsolidagi majoziy yor obrazi – Alloh jamoli tajalliysi sifatidagi ilohiy yor obraziga aylangan [13: 168].

Garchi tariqat yo‘lidagi riyozatlar qanchalik zalvorli bo‘lmasin, Robiya Adaviya (VIII), Fotima Vodiya (XI), Masturaxonim (XV), Bibi Xadicha (XVI) kabi valiya, murshida ayollar ham tasavvuf olamida muayyan maqomlarga erishganlar. Odatda, shoiralar lirik she'rlarida muhabbat go‘zal barno yigit obrazi orqali izhor etilgan bo‘lsa, so‘fiy ayollar ijodida ayni shu timsol o‘ziga xos talqinga egadir. Xo‘sh, so‘fiy ayollar ijodidagi ilohiy yor timsoli qanday talqinga ega? So‘fiy shoiralarning oshiq-lirik qahramoni qalbidagi ishqiy kechinmalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma'shuqi Allohga murojaat orqali yoki mahbubi matlubi Muhammad sallollohu alayhi vasallam obrazlari vositasida ifodalangan. Bu ikki obraz aksariyat asarlarda bir-biriga parallel tarzda namoyon bo‘ladi [12:330-332].

Niso ijodida mazkur ikki holatga oid she'rlarni uchratish mumkin. Muayyan she'rlarida ilohiy ishqqa eltuvchi ko‘prik bo‘lmish majoziy ishqqa toqat qilmay, ishqi haqiqiyga yaqin bo‘lmoqlikni bevosita ilohiy yori bo‘lmish Allohga to‘g‘ridan-to‘g‘ri iltijo etadi:

Ki bul osiy Nisoni iltimosi shul sango, yo Rab!
Haqiqiy ishq ato qil, iltijosi shul sango, yo Rab!
Majoziydan yiroq ayla, duosi shul sango, yo Rab!
Visolingga qariyb et, muddaosi shul sango, yo Rab!
Ko‘zumning yoshini ishqingda, yo Rab, jo‘ybor etgil,
Boshimga yog‘dirib rahmat bulutin obshor etgil.
[13: 107; 3: 157b].

Yana bir tur she'rlarida ilohiy yor sog‘inchi Muhammad alayhissalom obrazlari orqali ifodalanadi:

Yo Rasulo, ravzangizga jon fido aylab ketay,
Ushbu dunyodin ko‘ngulni mosivo aylab ketay,

Man gadongiz «shay'anlilloh» deb sado aylab ketay,
Bul g‘arib, bekasligimdin ohu voh aylab ketay,
Bori g‘amdin bul «alif» qaddim duto aylab ketay...

Yo Rabo, ishqing mayin jomi muhabbatdin ichur,
Bog‘u rog‘u mulku molu xonumonimdin kechur,
Dudi dilni dur etib, ko‘ngulni zangorin ketur,
Markabi lutfing bilan Bayt al-Muborakka yetur,
Ka'batullo mehrini ko‘ngulga jo aylab ketay. [3: 187a,b].

Ayni paytda bu munosabat shoira ijodidagi ishq, sog‘inch, umid va iztirob tuyg‘ularini go‘zal va nafis ranglar ila muzayyan tarzda ifodalash imkonini ham yaratgan. Binobarin, lirikada oshiq o‘z yorini qanday ta'rifu tavsif etgan bo‘lsa, Niso ham na'tlarida mahbubi – Muhammad alayhisalom obrazi orqali xuddi shunday madh etadi:

Bulbuli go‘yandalar guftoringizdin lol o‘lub,
Gar takallum qilsangiz to‘tiyi xushxon o‘xshamas.
Durri shahvori Adandur purbaho dandoningiz,
Gar tabassum etsangiz, ul g‘uncha xandon o‘xshamas
[3:117b–118a].

Endi, so‘fiy shoiralar she'riyatida nima uchun Muhammad mustafo sallallohu alayhi vasallam ilohiy yor obrazi sifatida talqin etilgani masalasiga to‘xtalsak.

So‘fiyona adabiyotning vahdati vujud nazariyasiga ko‘ra, “al-haqiqati Muhammadiya - aslida borliqning mohiyati, mag‘zini tashkil etadi” [11: 130]. “So‘fiy Muhammad alayhissalom ruhiga, juzning kullga bo‘lgan munosabatidek munosabatda bo‘lib, Odam Ato yaratilishidagi sir, nurlarning nuri, sirlarning siri, ruhlarning ruhi sifatida qaraydi” [9: 223]. Zero, “tasavvufiy adabiyotlarda “Ey Odam farzandi, albatta, Men bir maxfiy kon edim, bas o‘zimni oshkor etib, tanilayin deb iroda qildim va butun xalqni yarattim” [11: 140], “Sen bo‘lmaganingda falaklarni yaratmagan bo‘lardim” [9: 139] kabi qudsiy hadislarni, “Men ilohiy nur va barcha narsalar mening nurimdan xalq etilgan» singari hadisi shariflarni yuqoridagi talqinlarga asos sifatida keltiradilar [9: 136]. Ulardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, “Alloh o‘z ruhi, nuridan bir ruh (nur) yaratdi. Bu Muhammad alayhissalom nurlaridir va u zoti sharif nurlaridan olamu odamni yaratdi. So‘fiyona adabiyotda Muhammad alayhissalomga komil inson, juzdan kullga yetkazuvchi, ya'ni Allohga yetishishdagi vosita o‘laroq qaralgan. Shuning uchun ham u har qanday so‘fiyona tajribalarning mohiyatidur” [9: 135–136]. Albatta, bu talqinlar jumhur ulamolar o‘rtasidagi ko‘plab bahslarga sabab bo‘lgan [15: 39-60]. Va shunga qaramay, u tasavvuf adabiyotning eng jo‘shqin talqinlaridan biriga aylangan. Binobarin, ayni shu ruhdagi she'rlarning yorqin namunalarini shoiralar Niso va Xoniy ijodida ham ko‘plab uchratish mumkin. Jumladan, quyidagi she'riy parchalar fikrimizga dalildir:

Ayo, ey ibni Odam, kelmag‘ingga na erur bois,
Ki bo‘l ogoh, ul nuri habibulloh erur bois.
Dedi ul Haq Taolo: «Ey Muhammad Mustafo do‘stum,

Bino ettim iki olam, sani nuring erur bois [3:18ab].

Manbalarda keltirilishicha, tariqatda solik muayyan martabaga erishganidan so‘ng dunyoviy ajrdan kechgani holda uxroviy ajrdan ham voz kechadi va faqat ishqi Iloh hajrida o‘rtana boshlaydi [11: 83-84]. Shoira Niso ham mazkur holni kashf etgan chog‘i, salafi Robiya Adaviya yanglig‘ do‘zax xavfiyu, jannat orzusidan voz kechib, vasli haqiqiy umidida zoru afg‘on chekkani asarlari orqali namoyon bo‘ladi:

Rabbano, dursan mango jondin laziz,
Jon na bo‘lg‘ay, balki iymondin laziz.
Ishq jomida zahar no‘sh aylasam,
Jannat ichra shakkaristondin laziz.
Bo‘lmasa firdavs aro vasli aning,
Bo‘lmag‘ay ul manga zindondin laziz [3: 74ab].

Zikr etilganidek, yuqorida tahlilga tortilgan she'riy parchalardan shoiralar ijodida ilohiy yor deya bevosita Alloh murojaat qilingani idrok etish mumkin. Obrazlar silsilasini misralardagi ma'nolar zamiriga e'tibor qilgan holda o‘rganish esa shoiraning tom ma'nodagi haqiqiy ishqi Allohga yo‘naltirilgani va uni ifodalovchi obraz esa Muhammad payg‘ambar timsoli orqali talqin etilganini anglash mumkin.

Demak, tasavvuf adabiyotidagi ma'shuq – ilohiy yor deyilganda bevosita Alloh idrok etilgan. Ammo uning ta'rifu tavsifini Mutasavvif shoirlar Allohning tajalliysi hisoblanmish go‘zal ayol obrazi vositasida ifodalaganlar. So‘fiy shoiralar esa bu holatni Allohni tanitilishiga, dunyoning yaratilishiga sabab bo‘lgan uning eng yaxshi ko‘rgan payg‘ambari Muhammad mustafo sallollohu alayhi vasallam obrazlari asosida talqin etganlar.

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon adabiy muhiti so‘fiy shoiralar va ularning shu ruhdagi devonlarining mavjudligi bilan ham boshqa adabiy muhitlardan ajralib turadi. Qo‘qonlik mutasavvif shoira Niso adabiy merosi esa nafaqat XX asr turkiy tasavvuf adabiyoti namunasi o‘laroq, balki so‘fiy shoiralarning o‘ziga xos jihatlarini namoyon etuvchi manba sifatida ham mumtoz adabiyot tarixi rivojiga samarali ulush bo‘lib qo‘shilayotgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI – XIX asr I yarmi). Toshkent: Fan, 2006.
2. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Toshkent:, 2018.
3. Devoni Niso // Qo‘lyozma. 1914-15 y. Avlodlari shaxsiy kutubxonasi
4. Ishoqov Yo. Poetik an'ana va indivudual uslub // O‘zbek tili va adabiyoti. - 1978. - №1.
5. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. - Toshkent: Yozuvchi, I-kitob. 1996. Niso devonining A. Madaminov sh/k saqlanayotgan nusxa.
6. Mirhaydarov H. Tradision poetik obrazlar masalasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. 1980. №1.

7. Пригарина Н.И. Образное содержание бейта в поэзии на персидском языке. / В книге: Восточная поэтика. Специфика художественного образа. - Москва: Наука, 1983.
8. Суфизм в контексте мусульманской культуры. - Москва: Наука, 1983.
9. Trimingem Dj. Суфийские ордена в исламе. - Москва: Наука, 1989. - S.136.
10. Umrqulov B. Tradision poetik so‘z va obraz // O‘zbek tili va adabiyoti. - 1982.- 2-son.
11. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi / Tarj: Hasan N. - Toshkent: Istiqlol, 1999.
12. Shimmel A.M. Женский элемент в суфизме. / В книге: Мир исламского мистицизма.- Москва: 2000.
13. Eshonova S. XX asr boshlaridagi Qo‘qon shoiralari Niso va Xoniy. Fil. F.n. ... diss. Toshkent: O‘zMU, 2006.
14. Hadisi qudsiy / Mas'ul muharrir: Abdulloh Ismoil. Toshkent: Movarounnahr, 1998.
15. Dr.Saffet Sancarli. Günümüzde zayif va mavzû hadislerin sahih hadislerle kariştirilma problemi // DIYANET ILMI DERGI. Ankara. - 2001. - mart,cild.37. B.39-60.

JOMIY VA NAVOIY “ARBA'IN”LARINING QO‘SHMA KITOBAT QILINGAN NUSXALARI

(PhD) Pulatova M.R.

Annotasiya: Ushbu maqolada Sharq xalqlari adabiyoti tarixida arba'in asarlar yozish an'ana bo‘lganligi va bu an'ananing o‘ziga xosligi yoritib berilgan. Jumladan, ar'bain an'anasi, uning janr xususiyatlari, nasr va nazmda yaratilgan arba'inlarning badiiyati uning arab, fors-tojik, turkiy xalqlar orasida keng tarqalganligi arba'in janrining adabiy an'ana darajasiga ko‘tarilganligi, uning Qur'on va hadislar bilan uzviy bog‘liqligi ochib berilgan.

Tayanch so‘z: “Qur'on” oyatlari, hadislar, arba'in, “Arba'in” – “Chihil hadis”, arab, fors, turkiy tillar, an'ana, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy.

Аннотация: В данной статье освещаются традиции написания произведений арбаъин в истории литературы народов Востока и их особенности. В данной статье освещаются традиции написания произведений “арбаъин” в истории восточной литературы и их особенности. В частности, раскрыты популярность традиции “арбаъин”, его жанровые особенности, проза и поэзия среди арабского, персидско-таджикского и тюркского народов, их возведение в литературную традицию, а также показана ее связь с Кораном и хадисами.

Опорные слова: Аяты Корана, хадисы, арбаъин, “Арбаъин”–“Чихил хадис”, арабский, персидский, турецкий языки, традиция, Абдурахман Жами, Алишер Наваи, Мухаммад Физули.

Abstract: This article highlights the traditions of writing the Arbain's works in the history of Eastern literature and their features. In particular, the popularity of the Arbain's tradition, its genre features, prose and poetry among the Arab, Persian-Tajik and Turkic peoples, their elevation to the literary tradition, as well as its relationship with the Qur'an and Hadith are revealed.

Keywords: The verses of the Qur'an, Hadith, Arbain, "Arbain"–"Chihil Hadith", Arabic, Persian, Turkish languages, tradition, Jami, Navai, Fusuli.

Sharq mumtoz adabiyotida "Arba'in" – "Chihil hadis" asar yozish, ya'ni 40 ta hadisni bir yerga jamlab, uning ma'nosini oddiy xalqqa tushuntirib berish, unga sharh yozish an'ana bo‘lgan. Har bir davrning o‘z "Arba'in"lari mavjud bo‘lib, ularda aniq mavzu va maqsad ilgari surilgan. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)dan "Kimki, mening hadislarimdan qirqtasini yod bilsa, unga amal qilsa va uni boshqalarga o‘rgatsa, qiyomat kuni mening shafoatim ostida bo‘ladi", – degan hadis yetib kelgan. Shunga ko‘ra hadislardan 40 tasini yodlab olishga va ularni xalqqa yetkazishga intilganlar**.** "Arba'in"ning lug‘aviy ma'nosi: 40 demakdir. Shuningdek, 40 kun chilla o‘tirish ya'ni, sufiylarning 40 kun xilvatda riyozat chekishlari va ibodatlari hamda, inson dunyoga kelgan kundan 40 kunni, nikoh o‘qilgandan keyingi 40 kun va vafotidan keyingi 40 kunni ham anglatadi[96]. Qirq kun –"poklanish" davri deb, ataladi.

O‘rta asr mutafakkirlarining payg‘ambar Muxammad (s.a.v.) ning turli mazmundagi ahloqiy hamda islom ahkomlariga oid hadislardan 40 tasini tanlab, bir yerga jamlaganlar. Jamlangan qirqta hadisning ma'no-mohiyatini oddiy xalqqa osonroq tushuntirishga intilganlar.

Hadislar Sharq mumtoz adabiyotida, shu jumladan, o‘zbek adabiyotiga ham ma'naviy, ham badiiy jihatdan katta ta'sir ko‘rsatgan. Alisher Navoiyning ustozi Abdurahmon Jomiy (1414-1492) arba'in asarlar yaratish ana'nasiga amal qilib, 1481/886 yilda yod olinishi oson va yozilishi qisqa bo‘lgan odob-axloq doirasidagi 40 ta hadisni saralab olib, qirq hadisning har biridagi mazmuni asosida fors tilida qit'a – to‘rtlik yaratdi va uni "Chihil hadis"ya'ni "Arba'in" deb nomladi. Alisher Navoiy ustoziga ergashib, xuddi shu "Chihil hadis"ni o‘zining ta'biri bilan aytganda "forsiydonlar idrok aylagan 40 hadis mahiyatidan turkiyzabon xalqlarni bahramand etishni" niyat qilib, "Arba'in"g‘a turkicha til bila tarjima orzusi ko‘ngulg‘a tushti....[97]" va uni fors tilidan o‘zbek tiliga o‘girgan.

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharq qo‘lyozmalari markazi fondida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning "Arba'in"asarlarining o‘nlab qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, ularning ba'zilari inv. № R: 11342-II, inv. № R: 11703-II, inv. № R: 5726-I, inv. № R: 1821-I, inv. № R: 670-I, inv. № R: 4351-I, R: inv. № 3975-IV, inv. № R: 6236-I, inv. № R: 11342-II, inv. № R: 282-VI, inv. № R: 1266-II, inv. № R: 3014-VI, inv. № R: 3636-II, inv. № R: 3386-XXVII, inv. № R: 4535-I, inv. № R 8220-I, inv. № R: 8848-I, inv. № R: 11315-I, inv. № R: 9361-III, inv. № R: 13237, inv. № R: 7732-III, inv. № R: 9762-III, inv.№8, va inv.№316 raqamlari ostida saqlanadi.

[96] Муҳаммад Ғиёсуддин. "Ғиёс ул-луғат". 1-жилд. (Нашриёти адиб). 1997-й.
[97]Навоий. Асарлар XIV т. – Т., 1967. 46 б.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qo‘qon Adabiyot muzeyi qo‘lyozmalar fondida yagona nusxada inv. R-35. KP-4096 raqami ostida Jomiy va Navoiyning “Arba'in” asari saqlanmoqda. Mazkur maqolamizda shu nusxa haqida ma'lumot beramiz. Bu qo‘lyozma noyob nusxalardan bo‘lib, matnshunoslik, manbashunoslik fani va xattotlik, kitobot san'ati uchun ham e'tiborli manbadir. Respublikamiz qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan nashr kataloglari tavsifiga kirmagan Jomiy va Navoiy “Arba'in” asarlarining birgalikda kitobot qilingan 35 KP-4096- raqamli qo‘lyozma nusxa aniqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Qo‘qon Adabiyot muzeyi qo‘lyozmalar fondida “Arba'iniya manzuma Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy” deb nomlangan yagona nusxada 35 KP-4096-raqami ostida Jomiy va Navoiyning “Arba'in” asari saqlanmoqda. Bu qo‘lyozma noyob nusxalardan bo‘lib, matnshunoslik, manbashunoslik fani va xattotlik, kitobot san'ati uchun ham e'tiborli manbadir.

Bu qo‘lyozma manba qachon, qaerda, kim tomonidan ko‘chirilganligi noma'lum, kitob yaxshi saqlangan, qalin karton bilan muqovalangan. Muqovaga naqsh bilan bezak berilgan. Muqovaning ka'bi va qolgan uch tomoniga yashil rangdagi qalin charm ishlatilgan. Muqovaning tashqi yuzasiga to‘q yashil rangli qog‘oz yopishtirilgan. Muqovaga to‘q qizil rangda bostirma naqsh ishlatilgan. Naqshda muqovachi (sahhof)ning ismi “Sahhof Mulla Umar Muhammad” deb yozilgan. Kitob ta'mirlangan. Kitobning ichki yuzasiga jigar¬rang teri yopishtirilgan. Bu teri asl muqovaniki bo‘lishi mumkin. Ko‘rinishidan kitob muqovasi boshqa asar muqovasi. Varaqlar soni 102 ta. Qo‘lyozma qog‘ozi sarg‘ish rangdagi Qo‘qon qog‘ozi, xati chiroyli nasta'liqda yozilgan. Qo‘lyozmaning hech bir varag‘i yoki harfi urinmagan. 1- varaqdan boshlab 30-betgacha varaqlar bo‘sh qolgan. Tadqiqotimiz asosi bo‘lgan “Arba'in” asari kitobning 31b dan 71b varaqlariga, ya'ni 38ta varaqda “Arba'in” asari joylashtirilgan.

Kitobning 73-74-varaqlari bo‘sh qoldirilgan. 75 a varaqdan boshlab shoir Amiriy, Vazir, Behjad, Gulhaniyning qit'a va g‘azallari ko‘chirilgan. Shoirlarning she'rlari qora va qizil siyohlarda yozilgan. Jadvalga olinmagan. Oxiri yo‘q, keyingi varaqlari bo‘sh. Kitobning 88b varag‘idan 102 a varag‘igacha bo‘lgan qism bo‘sh qoldirilgan. Kitobning oxirida fors-tojik tilida, chiroyli nasta'liq xatida ikki misra she'r yozilgan. Ko‘ri¬nishidan kitob majmuaga tayyorlanganu lekin tugallanmay qolgan. Majmua oxiriga yetmagan. Biroq “Arba'in” asari alohida “haftrang[98]” qog‘ozga yozilgan bo‘lib, to‘la holda. Qo‘lyozma bitta kotib tomonidan ko‘chirilgan.

Ushbu KP-4096-raqamli qo‘lyozma nusxa kitobot san'atining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lgan oq va sariq siyohlarda ko‘chirilgan. Bunda yaxshi sifatli jigarrang va qora rangli qog‘oz ishlatilgan. Arba'in asari ikki qator jadvalga olingan. Asosiy matn bo‘lgan – qit'a varaqning o‘rtasiga joylashtirilib, qizil va to‘q ko‘k rangdagi xoshiyaga va u yana tashqi oq rangda jadvalga olingan. Matn o‘lchovi 18x9. Qo‘lyozma o‘lchovi 27 x 15,5. Kitob varaqlarida poygir bor.

[98] Ўрта аср китобатчилигида қўлланилган ҳар хил рангли, яхши сифатли қоғоз. Бундай қоғоз кўпроқ баёзлар ҳамда бир қатор шоирлар шеърлари мажмуасидан иборат китоблар тайёрлашда ишлатилган.



Asar an'anaviy “Basmala” bilan boshlangan. Bunda faqat Jomiyning arba'in asari muqaddimasi, ya'ni “Sababi ta'lifi manzuma” to‘liq va chiroyli va nuqsonsiz ko‘chirilgan. Ushbu qo‘lyozma nusxaga Navoiyning “Arba'in” asariga yozgan muqaddimasi kiritilmagan.

Muqaddima to‘rt varaqda 31 -34 betlarda qora siyoh bilan yozilgan, ko‘k va qizil ranglar bilan ikki qatorli xoshiyaga olingan. Muqaddimaning 1- va 2- varaqlari bir ustunda 4 qatorda yozilgan, 3-, 4- varaqlari bir ustunda 6 qatorda yozilgan.

Aslida Jomiyning “Arba'in” asari – muqaddima, asosiy qism va xotima 2 ta qit'a hamda arab tilida yozilgan duo bilan tugallangan. Bu qo‘lyozma kitobda esa faqat an'anaviy “basmala” berilgan, xotima va kolofon yo‘q. Muqaddima so‘ngida kotib o‘zidan “Qala s.a.v.” deb qo‘shib qo‘ygan.

Odatda “Arba'in”ning boshqa qo‘lyozma nusxalarida avval arab tilidagi hadis qizil siyoh bilan ajratib ko‘rsatilar va uning tagidan qora siyohda she'riy sharhi berilar edi. Bu qo‘lyozma nusxada faqat bitta hadis ya'ni birinchi hadis qizil siyoh bilan ajratilmasdan qora siyohda

لايؤمن احدكم حتي يحبٌ لاخيه ما يحبٌ لنفسه

(Tarj.: Birortangiz to o‘ziga ravo ko‘rgan narsani birodariga ham ravo ko‘rmagunicha mo‘min bo‘la olmaydi[99]) berilgan, tagidan Jomiyning she'riy sharhi ham qora siyohda yozilgan. Qolgan 39 ta hadis berilmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qit'alar ko‘chirilgan.

Bunda avval Jomiyning she'riy talqini bitta varaqda, keyingi varaqda Navoiyning she'riy talqini joylashtirilgan. Shu tartibda qit'alar hadislarsiz yozib borilgan. Asar oxirgi

[99] Рустамов А. Алишер Навоий “Арбаъин”. –Т.: Мерос, 1991.32 б.

qirqinchi qit'alar bilan tugallangan. Qit'alar juda chiroyli husnixatda, xatosiz ko‘chirilganligi o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirmaydi. “Arba'in” asari oxiridagi xotima ko‘chirilmagan, xatto kolofon ham yo‘q. Shunga qaramay qit'alar xatti siymiyda ya'ni jigarrang, qora rangli qalin qog‘ozlarga oq hamda sariq siyohlarda, dona-dona qilib, nasta'liq xatida ko‘chirilganligi kitobning qiymatini yanada oshirgan, o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlaydi.

Qo‘qon davlat muzey qo‘riqxonasida yagona nusxada saqlanayotgan ushbu qo‘lyozma tugallanmagan majmua sirasiga kirsa-da, XIX asr kitobot san'ati namunasiga oid noyob nusxalardan hisoblanadi. Shuningdek, matnshunoslik, manbashunoslik fani, xattotlik, ziynatli kitobat san'ati uchun ham bebaho manbadir. Har qanday kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. Kotib va sahhofning chiroyli did bilan ishlagan kitoblari avvalo xalqning hadislarga bo‘lgan e'tibori va she'riyatga bo‘lgan muhabbati mahsulidir.

O‘zbekiston qo‘lyozma fondlaridagi “Arba'in” asarlarining qo‘lyozma nusxalarini manbashunoslik nuqtai nazaridan o‘rganib chiqish shuni ko‘rsatdiki, birinchidan, bunday qo‘lyozmalar juda ko‘p va xilma-xil shakl va mazmunga ega bo‘lib, nasr va nazmda yozilish bilan birga turlicha mavzu yo‘nalishi va o‘ziga xos yondoshuvlarga ega ekan. Ular asosan arab, fors-tojik va turkiy tillarda yaratilgan bo‘lib, eng mashhurlari (ya'ni eng ko‘p ko‘chirilganlari) arab tilida Navaviyning, fors-tojik tilida Jomiy, turkiy tilda Navoiyning “Arba'in”lari ekan.

Har bir davrning o‘z “Arba'in”lari mavjud bo‘lib, ularda aniq mavzu va maqsad ilgari surilgan. XII asrdan boshlab Sharq mumtoz adabiyotida “Arba'in” yaratish va ularga sharh yozish keng tarqalgan. Payg‘ambarimiz (s.a.v)ning va'da qilgan shafoat va xayrli duolariga erishish umidida juda ko‘p muhaddis va ulamolar, adib va shoirlar arba'in hadis asarlarini yozganlar. Xoji Xalfa o‘zining “Kashf uz-zunun” nomli qomusi va uning ilovasi bo‘lgan “Izoh ul-maknun” asarida arba'in hadis haqida yozilgan asarlardan to‘qson beshtasini sanab o‘tadi

Demak, Jomiy va Navoiyning ustoz bilan shogird munosabatlari, do‘stligi, o‘zaro maslakdoshligi, ma'naviy hamkorligi boshqa nodir asarlari kabi “Arba'in”ning yozilishiga ham sabab bo‘lgan. Hadislar fors va o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan bir vaqtda qirq hadislar asosidafors hamda o‘zbek tillarida to‘rtlik-qit'alar yaratilishi Jomiy va Navoiy “Arba'in”larining qimmatini yana ham oshirdi. Xususan “Arba'in” hadislarga bag‘ishlangan maxsus asar bo‘lganligi uchun ahamiyati juda kattadir. “Arba'in” Navoiy asarlari ichida eng ko‘p ko‘chirilgani va eng ko‘p o‘qilganlaridan hisoblanadi.

“NAVOIY ANDIJONIYDURUR!?...”

SATTORIY H.,

Annotasiya. Mazkur maqola Alisher Navoiy hazratlarining tavallud topgan makonlari haqida bo‘lib, unga ko‘ra ushbu makon hozirgi Andijon viloyati ekanligi haqidagi ilmiy- mantiqiy farazlar bilan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Alisher Navoiy, Sohibqiron Amir Temur, “Boburnoma”, Andijon, Hirot, Sulton Husayn Boyqaro, ilmiy-mantiqiy faraz.

Аннотация. Данная статья посвящена пространствам, в которых родился Алишер Навои, в соответствии с научно обоснованными гипотезами о том, что это пространство является нынешней Андижанской областью.

Ключевые слова. Алишер Навои, Сахибкиран Амир Темур, “Бабурнома”, Андижан, Герат, Султан Хусейн Бойкара, научно-логическая гипотеза.

Abstract. This article is about the places of Birth of Alisher Navoi's Highness, which, according to him, is revealed by scientific and logical hypotheses that this space is the current Andijan region.

Keywords. Alisher Navoi, Sahibkiran Amir Timur, “Baburnama”, Andijan, Herat, Sultan Huseyn Boykaro, scientific and logical hypothesis.

Ayni paytda ilmiy davralarda Alisher Navoiy hazratlarining dunyoga kelgan manzillari haqida munozaralar ketmoqda. Qayd etilishicha, Alisherbekning Hirotda tug‘ilgani biror manbada aniq ko‘rsatilmagan ekan, faqat mutafakkirning asosiy faoliyati shu shaharda kechganligi uchun shunday nisbat berilgan emish. Holbuki, buyuk shoirning bolaligida Taftda bo‘lganligi (shu shaharda ulug‘ olim Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashganligi ko‘p ta'kidlanadi), Mashhadda tahsil olganligi ham e'tirof etiladi. “Hirotda tug‘ilgan” degan fikrga muqobil tarzda Alisherbek Andijon (viloyati) da dunyoga kelgan, degan faraz ilgari surilmoqdaki, bu shunchaki taxmin yoki tavakkalchilik emas, balki bu gapda chuqur ilmiy-mantiqiy faraz mavjud.

Bu fikrda “jon bor”ligiga ikki mu'tabar dalil o‘q asos bo‘lib xizmat qiladi: 1). Zahiriddin Muhammad Bobur mashhur asari “Boburnoma”da yozadi: “Andijon eli turkdur. Shahri va bozorisida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannofoti, bovujudkim, Hirida nash'u namo topibtur, bu til biladur”. (“Boburnoma”, 2002 yil, 34-bet); 2). Abdurazzoq Samarqandiy “Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn” hamda Mirxond “Ravzat us-safo” asarlarida Alisher Navoiyning bobosi Amir Temurning o‘g‘li Umarshayx Mirzo bilan emikdosh bo‘lganini ta'kidlaganlar. Agar ana shu ikki dalilning uchidan tutib ketilaversa, juda ko‘p qiziq ma'lumotlarga duch bo‘linadi.

Albatta, birinchi dalil gumon qoldirmaydigan tarzda mutaxassislar tomonidan isbotlangan: Alisher Navoiy asarlarida unli fonemalar soni Andijon lahjasiga mos tushadi, gap qurilishi, leksikasida ham to‘la muvofiqliklar mavjud. Endi ikkinchi dalil: har ikkala sulola nasabnoma (geneologiya)si bilan bog‘liq ma'lumotlarni taqqoslab ko‘raylik.

Avval boshlab bir holatni qayd etib qo‘yish ortiqcha bo‘lmaydiki, o‘tmish tariximiz, xuddi shuningdek, Temuriylar davri tarixi mukammal o‘rganilmagan. Juda ko‘p mu'tabar manbalar yo nazardan xorijda, ya'ni chet ellarda saqlanadi (ulardan foydalanish imkoni yo‘q), yo hali varaqlab ham ko‘rilmagan (o‘zimizda bo‘lganlaridan). Shu tufayli eng oddiy, tarjimai holga doir ma'lumotlarni atroflicha tahlil etish, muqoyasa qilish, xulosa chiqarish, biror farazni asosli ilgari surish ham muammo. Shunga qaramasdan, hozirgacha iste'molga kiritilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar bir tomondan buyuk bobolarimiz tarixi hali to‘la yoritilmaganligini dalillaydi, ikkinchi taarfdan shonli o‘tmishimizning ko‘plab haqiqatlari hamon soyada qolib ketayotganini ko‘rsatadi.

Imkon darajasida davom etamiz.

Sohibqironning ikkinchi o‘g‘li Umarshayx Mirzo kanizak To‘lin oqaning farzandi, 1356 (ba'zi voqealar mantig‘iga ko‘ra - 1354) yilda Samarqand yoki Keshda tavallud topgan. Ayni paytda ba'zi dalillarni ko‘zdan kechirganda, shahzoda oldinroq tug‘ilgani mantiqan ko‘rinib qolmoqda. Xususan, Amir Temurning Balxga yurishini vasf etgan tarixchilar Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy qal'a musoxarasida shahzoda Umarshayxning alohida bahodirlik ko‘rsatganligini ta'riflab, yoshini o‘n oltida edi, deyishadi. Agar bu jang 1370 yilda ro‘y berganini hisobga olsak, unda Umarshayx Mirzo 1354 yilda tug‘ilgan bo‘lib chiqadi.

Muhim tomoni shundaki, o‘sha yillari vatan ozodligi uchun goh sharqqa, goh g‘arbga charx urib yurgan Temurbek ba'zan yonidagi beklarning xiyonatidan qattiq iztirobga tushib qolgan lahzalarda birinchilardan bo‘lib farzandlari Muhammad Jahongir va Umarshayx uning yoniga kiradilar, yurishlarida sadoqat va bahodirlik bilan ishtirok etadilar. Endi Sohibqiron yolg‘iz emas, uning ikkita qanoti bor edi. Ayniqsa, Balx qal'asining olinishida va boshqa jasoratlari bilan Umarshayx Mirzo tezroq ko‘zga tashlangandi. Buni uning 1375 yilda Andijon shahriga hokim qilib tayinlanishida ham ko‘rish mumkin.

Agar Umarshayx Mirzoning Andijon hokimi etib tayinlanish voqeasini sharhlaydigan bo‘lsak, garchi Movarounnahr taxti Temurbek qo‘liga o‘tgan esa-da, ichki fitnalar tinmagan edi. Ayniqsa, taxtdan ayrilgan Chingiziylarning tahdidi kuchli edi. Ular Qamariddin boshchiligida sharqiy hududlarni chopqin qilib turishardi. G‘arbda esa Xorazm so‘fiylari tinchimayotgan, hatto Xonzodaxonimning kelin qilib olib kelinishi ham ular xusumatini bosmayotgandi. 1375 yil bahorida yetarlicha kuch to‘plagan va o‘ziga ishongan Sohibqiron ikkala hududni ham birvarakayiga musaxxar qilishni o‘yladi (“kutib o‘tiriladimi, yerni shudgorlab, arpa-bug‘doy ekish kerak!”). Sharq tomonga (ya'ni Jeta – beboshlar ustiga) ishonchli beklardan Saribug‘a va Odilshoh boshchiligida o‘ttiz ming lashkar jo‘natdi. O‘zi esa g‘arbga yo‘l oldi.

Ajabki, yurish boshlangach, ketma-ket xiyonatlar ro‘y beradi. Sohibqiron o‘zi dorug‘a etib tayinlagan Turkon arlot Shivirg‘ondan qo‘shin bilan chiqib, Xorazm yurishiga qo‘shilish o‘rniga Xuroson ichkarisiga qochib qoldi. Qamariddinga qarshi borayotgan qo‘shin esa Andijonga yetgach, fe'li o‘zgarib, ortga qaytdi va Temurbek yo‘qligidan foydalanib, poytaxt Samarqandni egallamoqchi bo‘ldi. Vaziyat tangligini bilgan Sohibqiron Samarqand mudofaasiga o‘g‘li Muhammad Jahongirni yo‘lladi va izidan o‘zi ham qaytdi.

Fitnachilar daf etildi. Shu harakatlardan keyin Amir Temur ishonch bildirib, o‘g‘li Umarshayx Mirzoni Andijonga hokim qilib tayinlaydi. Bu tayinlovning juda katta ma'naviy-siyosiy ahamiyati bor edi. Avvalo, qatorga to‘la huquq bilan Sohibqironning farzandlari qo‘shilayotgan edi. Shuningdek, Andijon – chegara viloyat, strategik nuqta sifatida muhim joy edi.

Albatta, Umarshayx Mirzoning Andijondagi faoliyati to‘la va atroflicha o‘rganilgan, deb bo‘lmaydi. Dalillarning tasdiqlashicha, u mazkur lavozimda Fors hukmdori etib tayinlangan 1393 yilgacha - 18 yil samarali faoliyat ko‘rsatgan. Bu yillar juda yuksalish davri bo‘lgani, jangovar va bunyodkorlik ruhida o‘tgani shubhasiz. Shu yillardagi obodonchilik ishlari, ko‘plab oromgohlar, chunonchi, Guliston bog‘ining barpo etilgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Mo‘g‘ullarning ketma-ket hujumlarini (masalan, Anqo To‘ra boshliq) bartaraf etdi, Sohibqiron tashkil qilgan uch yillik, besh yillik yurishlarda muvaffaqiyatli qatnashdi. Temuriyzoda shahzodani Bobur o‘z asarida

chuqur hurmat bilan “Ulug‘ Umarshayx” (chunki bobosining ismi ham Umarshayx edi-da) deb ataydi.

Mana, taqdirlarni Andijon o‘z-o‘zidan mantiqiy bir ipga bog‘layapti. Agar bevosita mavzuga qaytadigan bo‘lsak, ijobiy javobi topilishi, shubhasiz, xayrli yangiliklarga yo‘l ochadigan bir necha yorug‘ savollar paydo bo‘ladi. Xo‘sh, Umarshayx Mirzo bilan emikdosh bo‘lgan Alisher Navoiyning bobosi kim bo‘lgan? Hazrat “Vaqfiya” va boshqa asarlarida ajdodlari Temuriylar xonadoniga yaqin bo‘lganini iftixor bilan qayta-qayta takrorlagan (“Otam bu ostonning xokrezi, onam ham bu saro bo‘ston kanizi...” yoki “Agarchi bu xoksorning ota-bobosi ul hazrat (Sulton Husayn ko‘zda tutilgan)ning bobo va ajdodlari xizmatlaridakim, har biri saltanat konining gavhari va shujoat beshasining g‘azanfari edilar – ulug‘ marotibga sazovor va biyik manosibga kogor bo‘lg‘on edilar”). E'tirofda “shujoat beshasining g‘azanfari” jumlasi borki, bu ajdodlar harb va amirlik ishlariga yaqin bo‘lganliklariga ishoradir. (Jumladan, otalari G‘iyosiddin Kichkina bir muddat Sabzavor shahrining hokimi ham bo‘lgan).

Demak, Andijonda harbiylar va bahodirlar orasida Umarshayx bilan emikdosh bo‘lgan zot bor! Ikkinchi muhim dalil – Umarshayx Mirzo hokim bo‘lib tayinlanganda 19 (17) yoshda bo‘lgan va voyaga yetgan yigit sifatida Andijonning nufuzli kishilaridan Xizr O‘g‘lonning qizi Mulkat oqaga uylangan. Mulkat oqadan Pirmuhammad (1379-1410), Iskandar (1384-1415), Ahmad (1388-1425), Boyqaro (1393-1423) ismli o‘g‘illar ko‘rganki, ularning har biri keyinchalik Temuriylar shavkatida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan. Masalan, kenja o‘g‘il Boyqaro Mirzoning uylanish to‘yini 1404 yilda bobosi Sohibqiron Amir Temur olti nabirasi qatorida Konigilda o‘tkazgandi. Boyqaroni zamondoshlari tarovat va jasoratda tengsiz, deya ta'riflashgan. Boyqaro Mirzo Temuriylar saltanatini yana bir necha yillar tarix maydonida barqaror turishini ta'minlaydigan iste'dod sohibi bo‘lgan. Afsuski, shum taqdir fitna qurboniga aylantirgan (bu hol ta'rifi alohida jiddiy mavzu).

Umarshayx Mirzoning ana shu dilovar o‘g‘li Boyqaro Mirzo olti o‘g‘il, olti qiz farzand ko‘rgan, degan ma'lumotlar bor va uch o‘g‘li nasabnomalarda batafsil ta'riflangan. Shulardan biri G‘iyosiddin Mansur 1413 yilda Hirotda tug‘ilgan, hukmronlik ishlariga qiziqmay (otasi banogoh qatl etilganda 10 yoshda bo‘lgan), oddiy odamlardek yashagan. U 33 yil umr ko‘rib, Boyqaro (bobosining ismida), Sulton Muhammad, Sulton Uvays, Sulton Husayn (aynan Alisherbekning do‘sti) degan o‘g‘illari bo‘lgan. Ma'lumki, Sulton Husayn (bu zotga “Boyqaro” nisbasining qo‘shilishi nimadanligiga ilmiy sharh yo‘q. Ko‘rinib turibdiki, bobosi va katta akasining ismi – Boyqaro!) 1438 yilning iyulida Hirotda tug‘ilgan, deb qayd qilinadi. Shu yillarda Temuriylar saltanatida ikki madaniy markaz yuzaga kelib, Samarqand taxtini Mirzo Ulug‘bek, Hirot taxtini esa Shoxruh Mirzo boshqarardi. Saltanatda tinchlik-osoyishtalik, ilm-fan, san'at-adabiyot, iqtisodiyot gullab-yashnagan davrlar edi. Faqat oradan bir oz o‘tib, 1447 yilda Shoxruh Mirzoning vafotidan keyin besaranjomlik boshlanib ketdi.

Andijon hokimi Umarshayx Mirzo Sohibqiron 1392 yil yozida uyushtirgan besh yillik yurishda ishtirok etish uchun 1393 yilning boshlarida Xurosonga chaqirtiriladi va o‘z qo‘shini bilan Kavkaz hududlariga yetib boradi. Yurish yanada avj nuqtada davom etadi va tezda butun Fors o‘lkasi tasxir qilinadi. Sohibqiron bu joylar hukmronligini allaqachon yuksak maqomda e'tirof etilgan o‘g‘li Umarshayx Mirzoga topshiradi.

Zafarli yurish shu maromda davom etardi. Hozirgacha hech kimga darvozasini ochmagan, ko‘plab yo‘lto‘sar va qaroqchilarga panoh bo‘lgan o‘nlab qal'alar musaxxar etildi, tinchlik-osoyishtalik ta'minlandi. Yurish ko‘lami Iroqi Ajam va Iroqi Arab hududlarini qamrab olgandi.

Navbatdagi fath oldidan Fors hukmdori Umarshayx Mirzoga bosh o‘rduga yetib kelish yuzasidan farmon bo‘ldi. U ayni paytda Sirjon qal'asining zabti bilan mashg‘ul edi. Farmon kelgach, o‘rniga odam qo‘yib, o‘zi Sherozga bordi va ko‘chini olib, Kurdiston orqali yo‘lga chiqdi. Afsuski, bu safar uning umriga yakun yasadi. Yo‘lda bir qaroqchining o‘qidan halok bo‘ldi. O‘rniga safarda birga bo‘lgan o‘n yoshli o‘g‘li Pirmuhammad Mirzo tayinlanadi. (Bu – tarix, o‘z o‘rnida qonli, o‘z o‘rnida sharafli, millatni ulug‘laydigan, g‘ururini yuksaltiradigan mag‘rur tarix!). Keyinchalik 1399 yilda Andijonga Umarshayx Mirzoning boshqa bir o‘g‘li, 15 yoshli Iskandar Mirzo hokim qilib tayinlanadi.

Agar mavzuni Sulton Husayn – Alisher Navoiy kesimida davom ettirsak, voqealarning rivoji boshqacharoq kechadi, albatta, bu holga Umarshayx Mirzoning vafoti katta ta'sir etadi. Shunisi aniqki, emikdoshlar – Umarshayx va Alisherning bobosi o‘rtasida birodarlik rishtalari qaror topgan, ular doimo yonma-yon bo‘lishgan va bu robita ancha baquvvat bo‘lgan (keyingi holatlar shuni tasdiqlaydi), ya'ni bu yaqinlik bobolar (1) – o‘g‘illar (Boyqaro Mirzo, G‘iyosiddin Mansur Mirzo va G‘iyosiddin Kichkina - 2), nabiralar (Sulton Husayn Mirzo va Alisher Navoiy - 3) o‘rtasida mustahkam, barqaror davom etganini faraz qilish mumkin. Qolaversa, yuz yillar masofasidan nazar solinsa, o‘tmishdagi kichkina unsurda ham katta ma'ni va mantiq bo‘lishi mumkin. Binobarin, ko‘rinib turgan oddiy dalil: ikki qadrdon do‘st – Sulton Husayn va Alisherbek otalarining otdoshligi (ya'ni ismlari G‘iyosiddin ekani) va birini “Kichkina” nisbasi bilan yuritilishida ham botiniy bir ma'no, o‘ta yaqinlik va samimiylik ifodasi yashirinmaganmikan?! Yoki, umuman, bu holning sharhi nedur?

Voqealar yo‘nalishini o‘zgartirib yuborgan yangilik shu bo‘ldiki, Umarshayx Mirzoning beva qolgan zavjasi Mulkat oqa (o‘ttiz yoshlar atrofidagi juvon) Sohibqironning irodasi bilan o‘sha paytda Samarqand shahri hokimi bo‘lib turgan Shoxruh Mirzoga uzatildi va ko‘p o‘tmay, Shoxruh Xuroson hokimi etib tayinlandi, yangi hukmdor butun o‘rdusi bilan Hirotga ko‘chib o‘tdi.

Bu voqea 1397 yil ro‘y berdi. Ayni choqlar Sohibqiron Temurbek yulduzining eng porlagan lahzalari edi. Besh yillik yurish muvaffaqiyatli kechgan, hududlarda tinchlik-eminlik qaror topgan, saltanat rivoji kun-bakun olg‘a bosardi. Samarqandda va o‘lkaning boshqa shaharlarida ulkan qurilishlar boshlanib ketgandi. Shunday kunlarning birida Shoxruh Mirzo Hirotga jo‘nab ketdi.

Tarix kitoblarida qayd etilishicha, Xuroson taxtiga tayinlangan yangi hukmdorga qo‘shib, eng sadoqatli beklar va ularning o‘g‘illari hamda yaqinlaridan yigirma nafarga yaqini birga jo‘natildi. Xuddi shu nuqtani olim va yozuvchi Begijon Ahmedovning “Tafakkur bo‘stoni” (2015 yil) kitobida keltirilgan bir dalil to‘ldiradi. Garchi voqea tafsiloti g‘aliz sharhlangan (go‘yo “Shoxruh poytaxtni Hirotga ko‘chirgan” emish!?) bo‘lsa-da, undagi mana bu ma'lumot e'tiborli: Shoxruh Mirzo Samarqanddan kelgan suvoriylar safidagi Isomiddin Polvonni (u O‘sh yaqinidagi Aravonda tug‘ilgan, degan ma'lumotlar ham bor) lashkarboshi Amir Bug‘oning qizi Shahribonuga uylantirgan. Ulardan o‘g‘il farzand dunyoga kelib, ismini G‘iyosiddin qo‘yishgan. G‘iyosiddin ham harb ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgan, kurash tushgan va “Kichkina (polvon)” laqabini

olgan. Yigit bo‘lib yetilgach, mashhur harbiy sarkarda Abu Sa'id Changiyning go‘zal qizi Halimabonuga uylanadi va shu nikohdan daho so‘z san'atkori Alisher Navoiy dunyoga keladi.

Mazkur dalillarni B. Ahmedov rishtonlik olim, O‘z FA ning muxbir a'zosi, navoiyshunos Abdullo Bokiy domla (1882-1967)ning xulosalariga tayanib, ma'lum qilayotganini yozgan. (Marhum olim, professor Ismatulla Abdullaev bir maqolasida Sohibqironning opasi Qutlug‘ Turkon oqa (vafoti 1383 yil) saroy a'yonlari bilan Kamchiq dovoni orqali Bibi Ubayda ziyoratgohini tavof qilishga borganligini yozgandi. Demak, odamlarning qo‘lida hali umuman o‘rganilmagan nodir manbalar, ya'ni kitoblar mavjud!).

Shu o‘rinda hali istifoda etilmagan dalillar ko‘pligi va har bir tarixiy e'tirof sharhlanishi joizligigni ta'kidlagan holda, ilmda xolislik, bag‘rikenglik tamoyiliga tayanib, bir nozik nuqtaga diqqatni tortmoqchiman. Aslida, bu dalil hal qiluvchi ahamiyatga ega emas, balki biz uchun hazrat Navoiy merosining qalbimizga, ruhoniyatimizga qanchalik yaqinligini yana bir marta ta'kidlash uchun muhim. Navoiy o‘zbek shoiri sifatida tan olingan va bu haqiqat o‘zgarmasdir. Mulohaza shundaki, “Tarixi Rashidiy” kitobining muallifi Mirzo Muhammad Haydar Dug‘latiy o‘z asarida “Navoiy - uyg‘urdandir” degan ma'lumotni keltiradi. Bu holni uzoq sharhlash mumkin, masalaga bevosita daxldor yana bir tarafi borki, Sohibqiron hazratlarining saroy va devonida uyg‘ur olimlar, mirzolar, kotiblar ko‘p bo‘lgan (“Ularni “uyg‘ur baxshilar” deb atashgan, “uyg‘ur” so‘zi kasbni bildiradi, Navoiyga nisbatan e'tirof ham – u saroy a'yonlaridandir, ularning avlodidir” degan ma'noni ifodalaydi”, tarzidagi mantiqiy mulohazalar ham bor).

Qisqa xulosa shuki, u paytlarda turkiy qavmlar yaxlit qiyofaga ega bo‘lgan, mardumlar musulmon yoki kofirga ajratilganlar va zarurat bo‘lganda ularning urug‘lari qayd etib o‘tilgan (urug‘lar soni ba'zan 92, ba'zan 98 ta deyiladi). Keyinchalik ajralishlar ro‘y berdi va aynan Navoiy ijod qilgan til hozirgi o‘zbek millatining milliy adabiy tili sifatida e'tirof etildi. Bu hol biron farmon yoki qonun bilan ta'kidlangani-tasdiqlangani yo‘q, balki tarixiy jarayonning o‘zi shu holni ijod etdi. Bugungi kunda Alisher Navoiy merosi o‘zbek xalqining milliy boyligidir.

Mirza Haydar Muhammad keltirgan dalil buyuk shoir ijodining olamshumulligiga va o‘zbek xalqiga daxldorligiga zarracha ta'sir etmaydi, shubhasiz. Ayni damlarda qiyin tarixiy jarayonni boshidan kechirayotgan uyg‘ur xalqi o‘zining Navoiyga eshligidan qonuniy iftixor qiladi, shoir ijodini o‘rganadi. Ular hazratning 40 jildlik Kulliyotini nashr etganlari haqida ma'lumotlar bor. Albatta, ilm sifatida qardoshlarimiz erishgan natijalardan ham istifoda etish, ulardan xabardor bo‘lish foydadan xole emas, aksincha, buyuk ummon – Navoiy ijodiyotini atroflicha tushunishga yaqindan yordam beradi.

Umuman, ulkan san'atkor, buyuk daho, umuminsoniyat farzandi hazrat Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati hali ko‘plab tadqiqotlarga manba bo‘ladi. Aniqlik kiritiladigan, tasniflanadigan, muqoyasa qilinadigan mavhum nuqtalar esa istagancha topiladi. Har bir farazda qandaydir haqiqat mavjud, deganlaridek, bunday fikrlarda ham asos, mantiq bor. Nega shunday bo‘lmasligi kerak? Aynan bunday voqealar ro‘y bergan bo‘lishi haqiqatga yaqin. Mavhum savollarga qoniqarli javoblar topish uchun esa jami ilmiy salohiyat birlashishi lozim.

Odatda, tarixiy dalillarni asoslashda ba'zan faraz, intuisiya, taxmin singari usullar ham yordam beradi. Shunday dalil bor. Qozog‘istonlik arxeologlar Issiqko‘l

atroflaridagi qazuv jarayonlarida ko‘plab yaltiroq metall parchalariga duch kelaverganlar. Ular odam kiyimining qaysidir uzvlari – tirsak, yoqa, yengni eslatardi. Ularning soni 104 tani tashkil qilgan. Siniqlar shunga yetgach, tizib qo‘yilganda, xayolda bir harbiyning libosi gavdalangan. Tajribali restavratorlar uzoq izlanishlardan keyin bo‘laklarni joy-joyiga ulab, haqiqatan bu bir suvoriyning ohandan ishlangan sovuti ekanligini aniqlab, tiklaganlar. Shunday qilib, dunyo arxeologiyasining nodir ashyolaridan biri – “Oltin odam” yodgorligi qo‘lga kiritilgan.

Fikr yurtitilayotgan mavzular yuzasidan ham dalillar qaysidir qo‘lyozmalarda pinhon yotibdi. Ayniqsa, “Boburnoma”ning mavhum (“yo‘qolgan” deyishga til bormaydi) sahifalarida qanchalik qimmatli ma'lumotlar yashiringandir. Xullas, Umarshayx Mirzo va Navoiyning hozircha ismi noma'lum bobokaloni bilan boshlangan emikdoshlik oqibatlari yuz yillar kuchida qolgan, bir necha avlod bu jondoshlikni mustahkam davom ettirganlar. Shunday qilib, saltanat o‘zgarishlari bilan taqdir ota-bobolari asli andijonlik bo‘lgan hazrat Navoiy ajdodlarini ham Andijondan Hirotga olib kelgan. Har holda, ularning oilasi (xususan, onalari) malika Mulkat oqaning eng yaqin kishilari bo‘lgandir. Sulton Husayn va Alisherbek o‘rtasidagi bolalikdan boshlangan do‘stlikning asosida shu haqiqatlar mujassam.

Agar Zahiriddin Muhammad Boburning faxrli e'tirofiga qaytadigan bo‘lsak, bu oilada, umuman, Andijonda shakllangan muhitda shu turkona turmush tarzi barqaror yashab qolgan. Yillar o‘tsa ham, voqealar suroni turli sinovlarni boshga solsa ham, Andijoncha lahja (sheva) va, albatta, yashash yo‘sini buzilmay, zaxa tortmay saqlanib qolavergan. Ochiqroq aytganda, Andijon ruhi ota-bobolar ko‘z ochgan tuproq mehri bo‘lib, ularni aslo tark etmagan. Ehtimol, Bobur hazratlari Navoiy asarlari mutolaasiga kirishganda, siyratiga va tiynatiga yaqin ruhni his etib, beixtiyor qalqib ketgandir, bu iftixorini mehr bilan shoh asarida qayd etgandir. Agar gap Navoiy hazratning qaysi makonda dunyoga kelganlari, ya'ni arablar lutfi bilan so‘zlaganda – “peshonasi yerga tekkan”, o‘zbekcha aytganda esa “kindik qoni tomgan tuproq” haqida ketadigan bo‘lsa, voqealarning tabiiy oqimi ko‘rsatayaptiki, bu joy Andijon emas (bu ham shunchaki mulohaza). Garchi tashqi alomatlar ko‘pchilikning dilidagi shirin orzuni rad etsa-da (kim o‘z shahrida hazrat Navoiydek buyuk zotning tavallud topishini xohlamaydi), barqaror haqiqat – ajdodlarining shu tuproqda umrguzaronlik qilgani (“loyi shu tuproqdan qorilgani”), botinida va zohirida shu yurt ruhi singigani, tilni unutmaganlari va shu lahjada oltin qalam bilan durdona asarldar yozilgani singari qator mantiqiy haqiqatlar Hazratning Andijon farzandi ekanini tasdiqlab qolaveradi. Zero, moddiy dunyo, inchunun, shaharlar ham boqiy emas, o‘tkinchidir, ruh esa abadiydir. Binobarin, Alisher Navoiyga abadiylik sharafini taqdim etgan omil ham shoirning ruhiy-ma'naviy olamidir.

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA SAYYOR SYUJET MASALASI

Mirzoyeva Y.Y., BuxDU magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.d. Astanova G.A., BuxDU dotsenti

Annotatsiya: Jahon adabiyotshunosligida “Ming bir kecha” asarini o‘rganish bir necha yuz yildan ortiq tarixga ega bo‘lib, bu davr mobaynida Sharq va G‘arb mamlakatlarida mazkur asarga oid yuzlab asarlar yaratildi. Natijada jahon adabiyoti durdonasi bo‘lmish mazkur asarning dunyo madaniyati tarixidagi o‘rni yuqori baholandi. Shu bilan birga mazkur asar o‘zbek mumtoz adabiyotiga ham samarali ta’sir ko‘rsatgan.

Ushbu ilmiy maqolada mazkur nodir asarning ayrim lavhalari sayyor syujet sifatida o‘zbek mumtoz adabiyotida namoyon bo‘lganligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: “Ming bir kecha”, mumtoz adabiyot, sharq adabiyoti, sayyor syujet.

Аннотация: изучение произведения “тысяча и одна ночь” в мировом литературоведении имеет более чем столетнюю историю, в течение которой в странах Востока и Запада были созданы сотни произведений, посвященных этому произведению. В результате была высоко оценена роль этого шедевра мировой литературы в истории мировой культуры. В то же время это произведение оказало плодотворное влияние на узбекскую классическую литературу.

В этой научной статье анализируется, как некоторые фрагменты этого редкого произведения появились в узбекской классической литературе как странствующие сюжеты.

Ключевые слова: "тысяча и одна ночь", классическая литература, Восточная литература, странствующий сюжет.

Abstract: the study of the work “one thousand and One Nights” in world literary criticism has more than one hundred years of history, during which hundreds of works related to this work were created in the countries of the East and West. As a result, the role of this work as a masterpiece of World Literature in the history of world culture was highly appreciated. At the same time, this work effectively influenced Uzbek classical literature.

This scientific article analyzes the fact that some of the footage of this rare work is shown in Uzbek classical literature as a traveling plot.

Keywords: «A Thousand and One Nights”, classical literature, Oriental literature, a traveling plot.

“Ming bir kecha” asarida Shahrizoda tilidan so‘zlangan rivoyatlar, afsona va qissalarda aslida tarixiy voqelik xalq taxayyuloti, orzu - o‘ylari, ezgu ishlari bilan uyg‘unlashib ketib, bir badiiy umumlashma hosil qilgan. Sharqona odob-axloq, donishmandlik, diniy qarashlar urf-odatga aylangan an’ana va qadriyatlar ularda o‘zining yaqqol ifodasini topgan. Bir so‘z bilan aytganda, ibratli o‘tmish yodnomalari qomusiy bir tarzda keng ko‘lam kasb etgan.

“Ming bir kecha” asari nafaqat G‘arb adiblari ijodiga, balki o‘zbek mumtoz adiblari ijodiga ham samarali ta’sir ko‘rsatdi. Zero, arab va fors tilini bilgan ziyolilar uni asl nusxalarida o‘qiganlar. Chunonchi, Rabg‘uziyning “Qisasul anbiyo” asari ayrim lavhalari “Ming bir kecha” asarining ba’zi lavhalariga o‘xshab ketsa, Poshshoxo‘janing

“Miftoxul-adl” asari Sharq hikoyachiligi an’analarini o‘zida aks ettiradi. Yoki Majlisiyning “Qissai Sayfulmuluk” asari bevosita “Ming bir kecha” syujeti asosida yaratilgan doston hisoblanadi.

“Ming bir kecha” asarida islomning paydo bo‘lishidan oldin o‘tgan payg‘ambarlar hayoti, islom tarqalishidan keyingi davr tarixiy voqea-hodisalari, xulafoi roshidin hayotlari, Umaviylar va Abbosiylar xalifaligi bilan bog‘liq hikoyatlar ko‘p. Shu kabi Allohga taqvo uchun intilgan so‘fiylar, zohid va obidlar obrazlari ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, Shahrizoda tilga olgan quyidagi voqeani eslaylik. “Baliqchi bilan dev hikoyati“da [1;41] Alloh amriga va uning payg‘ambari hazrati Sulaymonga itoat etmagan bir dahshatli jin duo-afsun bilan kichik mis ko‘zaga tiqilib, og‘zi qo‘rg‘oshinda kavsharlab abadiy berkitib qo‘yilgani, 1800 yildan so‘ng bir kambag‘al baliqchi dengizga to‘r tashlab, uni tutib olgani tasvirlanadi. Biroq “Ming bir kecha”da afsun qilinib, mis ko‘zaga qamab, dengiz tubiga tashlangan jin-devning qaysi gunohlari uchun bunday og‘ir jazoga uchrashining sabablari batafsil aytilmaydi.

Allohga va uning payg‘ambariga itoat etmagani uchun jazoga mustahiq etilgan mana shu jin qismati ko‘pgina muqaddas tafsir kitoblarida, shuningdek, Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham keltiriladi. Zero, o‘zbek mumtoz nasrining ajoyib namunalaridan biri Nosiruddin Rabg‘uziyning mazkur asari og‘zaki ijod bilan yozma adabiyotning barcha unsurlarini o‘zida aks ettirgan nodir yodgorliklardan biri hisoblanadi. Buning birgina dalili sifatida Rabg‘uziy qissasida yuqorida tilga olingan dev qismati voqeasi ancha mufassal va to‘liq hikoya qilinganini ko‘rish mumkin.

Darvoqe, Qur’oni karimda Sulaymon payg‘ambarga (a.s.) berilgan kuch-qudrat va mo‘‘jizalar haqida quyidagicha oyatlar mavjud. Jumladan, Naml surasi 12-17-oyatlarda keladi: “Qasamki, Biz Dovud va Sulaymonga bilim (zakovat) ato etdik va ular “Bizlarni ko‘p mo‘min bandalaridan afzal qilib qo‘ygan zot – Allohga hamdu sanolar bo‘lsin” dedilar. Sulaymon (payg‘ambarlik va ilmda) Dovudga voris bo‘ldi va aytdi: “Ey, odamlar, bizga qushlarning (va boshqa jonivorlarning) tili bildirilgan hamda barcha narsalardan (boylik, davlat, hashamat va haq) berildi. Albatta bu ochiq fazlu marhamatning o‘zidur”. Sulaymon (amri bilan jinlar, inslar va qushlardan bo‘lgan lashkarlari to‘planib, saf tortib turdilar... “[2;198]

Rabg‘uziy tafsirlashicha, Sulaymon payg‘ambar (a.s.) xo‘rozga sajda qiladigan yurt podshohi jodugar Akiz Malik ibn Morix lashkarlariga qarshi jang boshlaydi, ammo uni engolmaydi. Shundan so‘ng Sulaymon (a.s.) yuz minglab arslon, yo‘lbars, qoplon, bo‘rilarni jangga soladi. Bular ham jodugar qo‘shinini engolmaydilar. So‘ng qushlar dushmanga tashlanib, ularning yuz-ko‘zlarini cho‘qib tashladilar. Bular ham enga bilmaydilar. So‘ng, dev-parilar jangga aralashgach, yov engiladi. Jodugar podshoh o‘ldiriladi, uning Kuna ismli go‘zal qiziga hazrat Sulaymon (a.s.) uylanadi.

Hazrat Sulaymon (a.s.) bir muddat Alloh yodini unutgani uchun Haqiq dev uning ismi a’zam yozilgan sehrli qudrat uzugini o‘g‘irlab, saltanatini tortib oladi. Xullas, yana chindan ajoyib-g‘aroyib voqealardan so‘ng hazrati Sulaymon (a.s.) o‘zini kamtarinlikka, siniqlikka o‘rgatgach, uning duosi Alloh dargohida qabul bo‘lib, uzugi va saltanati unga qaytariladi. Shunda payg‘ambar Sulaymon (a.s) Haqiq devni mis ko‘za ichiga zanjirlab, dengiz ostiga tashlaydi [3;45].

“Ming bir kecha” hikoyatida baliqchi mis ko‘zani to‘rga ilintirib, uni bozorga olib borib, arzon bahoga sotmoqchi bo‘ladi. Ammo sotishdan avval, ichida ne borligini bilish

uchun uning duo yozilgan qo‘rg‘oshin kavsharini buzib, ochib yuboradi. Jin tashqariga osmon bo‘yli bo‘lib chiqib, baliqchini o‘ldirishga qasd qiladi. Baliqchi bunga qarshi bir hikoya aytib beradi. (“Yunon shoh, vazir, hakimi Ro‘yon” hikoyasi) [1;46]. Jin unga qarshi hikoya aytadi. Baliqchi boshqa ertak-hikoyat bilan fikrini isbotlaydi, jin ham boshqa bir rivoyatni aytib o‘zi haqligini dalillaydi.

Jin va parilar obrazi toifasini tadqiqotchi Z.Shukurova “«Qisasi Rabg‘uziy»dagi bir obraz genezisi” maqolasida mazkur asar “hikoyat”ida tasvirlangan pari obrazining o‘ziga xos qiyofalarini umumlashtirib quyidagicha tasniflaydi: “1.Antropomorf. 2. Zoomorf. Antropomorf parilar inson qiyofasida aks etib, ulardek hayot kechiradi. Parilarning antropomorf shaklidagi ko‘rinishi faol bo‘lib, asosan, dostonlarda uchraydi. Zoomorf tipidagi parilar turli jonivor, parrandalar ko‘rinishida bo‘lib, xohlagan paytda insoniy qiyofadan qush yoki hayvonlarga aylanishi ularning asosiy hamda o‘ziga xos funksiyasi hisoblanadi”[4].

Shunga ko‘ra ikkala asarda ham antropomorf va zoomorf tipidagi jin va parilar obrazi juda ko‘p uchraydi va ular asar syujetiga juda katta ta’sir ko‘rasatadilar.

“Ming bir kecha”dagi mazkur hikoyatda gavdalantirilgan baliqchi va jin obrazida qo‘yilgan maqsad asosan jin bilan inson toifalari munosabatini kitobxon yoki ertak tinglovchiga qiziqarli tarzda etkazish bo‘lsa, “Qisasi Rabg‘uziy”da tasvirlangan lavhalar xalqimizning turmush tarzini, dunyoqarashini, rang-barang urf-odatini, etnik xususiyatlarini aks ettirishda demonologik obrazlar, g‘ayrioddiy lavhalarni paydo etib, asarning badiiy - estetik funksiyasini kengaytirishga, shu bilan birga Qur’oni karim oyatlari orqali jin va parilar Alloh maxluqotlaridan biri ekanligini kitobxonga etkazishga xizmat qilgan.

Boshqa bir hikoyatga nazar solsak. “Ming bir kecha”dagi pand-nasihat yo‘nalishidagi rivoyat va hikoyatlariga o‘xshab ketadigan yana bir mumtoz asar bu Poshshoxo‘ja[5]ning “Miftoxul-adl” kitobidir. Poshshoxoja Shayboniyxonning o‘g‘li Temur Sultonga atab “Miftoh ul-adl” (“Adolat kaliti”, 1508 – 1510) asarini yaratgan. Bu asarda axloqiy-didaktik xususiyatga ega bo‘lgan fikrlarni sharhlash uchun mashhur podshohlar haqidagi turli hikoyat va masallar keltirilgan. Ularda davlatni boshqarish, raiyat bilan munosabat masalalari, insofli va adolatli podshoh obrazi tasvirlangan [6].

Asar 15 bobdan iborat bo‘lib, dastlab nazariy-didaktik xarakterga ega bo‘lgan tezislar, so‘ngra ularni tasdiqlash uchun turli masallar, hikoyalar keltiriladi. Muallifning yozishicha: “Bobi avval — olimlarning bayonin qilur. Ikkinchi bob — odil sultonlar bayonin qilur. Uchinchi bob — zolimlarning bayonin qilur. To‘rtinchi bob — sultonlarga mute’ bo‘lmoqlik bayonin qilur...[7;12]” va hokazo davom etadi. Bu asar yagona syujetga ega bo‘lmay, hikoyalar, masallar to‘plami shaklidadir. “Ming bir kecha”dan yana bir farqli jihati unda qoliplash tuzilishidan foydalanilmagan. Shuni ham aytish kerakki, bundagi masallarning ko‘pi qaytadan ishlangan fol’klor asarlaridir. Unda haqiqatan ham ijobiy, ilg‘or g‘oyalarni tashuvchi hikoyalar ko‘pdir. Asarda hayotbaxsh optimistik xarakterdagi hikoya va masallar anchagina. Bular kishilarni hayotni sevishga, hayot masalalari bilan shug‘ullanishga, insonning baxti uchun xizmat qilishga, yaxshi turmushga chaqiradiki, ular mavjud hokim – yovuzlikni va zulmni tugatishni taqozo qiladi. Luqmoni hakim, Iskandar Zulqarnayn, No‘shiravon (Anushirvon), Mahmud G‘aznaviy kabi tarixiy shaxslar ishtirokidagi ibratli hikoyatlar yuqorida keltirilgan fikrlar isbotidir.

Asarning 756 – 778 kechalarini o‘z ichiga olgan “Sayfulmuluk qissasi”[8;133] hikoyatiga diqqat qilsak, unda Sayfulmulukning Badiatuljamolga bo‘lgan sevgisi va unga erishish yo‘lida chekkan zahmatlari hikoya qilinadi. Hikoyani o‘qish jarayonida kitobxon Sulaymon payg‘ambar alayhi salom davri voqealarini ko‘z o‘ngiga gavdalantiradi. Chunki payg‘ambarlar qissalaridan ma’lumki, Sulaymon (a.s)ga Alloh o‘z inoyati bilan jin va parilarni unga bo‘ysundirgan edi. Hikoyatdagi voqea- hodisalar ana shu holatga chambarchas bog‘langan. Misr podshohining yakka-yu yagona o‘g‘li – Sayfulmuluk o‘z mahbubasi – jinlar toifasiga mansub Badiatuljamol vasliga erishish uchun uni izlab yo‘lga otlanadi. Yonida otasi vazirining o‘g‘li – So’id unga hamroh. Ikkisi qizni izlash asnosida ko‘pgina sarguzashtlarni boshdan kechirishadi. Jarayonda ular ko‘pgina devlar, parilar, odamxo‘rlar, yaxshi va yomon toifasidagi jinlar bilan to‘qnash kelishadi. Hikoyat oxirida Sayfulmuluk ko‘pgina qiyinchiliklardan so‘ng qizni topadi va unga uylanishga muyassar bo‘ladi. Hikoyat g‘oyasi ma’lum – hamisha yaxshilik yomonlik ustidan g‘alaba qozonadi, muhabbat qarshisida shohu-gado barobar. Maqsad sari olg‘a intilish. Biroq kitobxon mazkur hikoyat lavhalari g‘oyasining barchasiga har doim ham qo‘shilavermaydi. Ayniqsa, insonning jinlar toifasiga bo‘lgan muhabbatiga shubha bilan qarashi aniq. Bunga esa, “Ming bir kecha” ijodkorlari bu erda kitobxonning hikoyat davomini eshitishga bo‘lgan qiziqishini bir xilda ushlab turish uchun o‘ylab topilgan uslub, deb baho berish mumkin.

Mazkur hikoyatni bejiz yodga olmadik, chunki Majlisiyning “Qissai Sayfulmuluk” dostoni “Ming bir kecha” asaridagi aynan mana shu hikoyatni bayon etadi.

Ma’lumki, XV asr oxiri XVI asrning birinchi yarmida Xorazmda tug‘ilib Hirotda vafot etgan Majlisiy[8] ning “Qissai Sayfulmuluk” ishqiy - sarguzasht dostoni bizgacha etib kelgan. Bu doston 4000 misradan iborat bo‘lib masnaviy shaklida bitilgan. Tuzilishi jihatidan qissa ichida qissa shaklida yozilgan fol’klor shaklidagi asar hisoblanadi. E’tibor bersak, Majlisiyning “Qissai Sayfulmuluk” dostonida Misr shohi Osimning yolg‘iz o‘g‘li Sayfulmulukning Fatina mamlakati shohi Shohbol qizi Badi ul-Jamolga g‘oyibona sevgisi va unga erishish yo‘lidagi sarguzashtlari bayon etilgan. Hattoki, doston qahramonlari nomi ham “Ming bir kecha” asari “Sayfulmuluk qissasi” qahramonlari nomi bilan bir xil[9;34]. Dostonni o‘qish davomida muallifning “Ming bir kecha”dagi hikoyatni hech o‘zgarishsiz masnaviy tuzilishida bir ipga tizganligini kuzatish mumkin[10].

Sharq hikoyachiligi usulida asar yozishlik, xususan, “Ming bir kecha” asari motivlari ta’sirida ijod qilish mumtoz adabiyotimiz vakillari asarlarida ko‘rinishini kuzatarkanmiz, mumtoz adabiyot namoyondalari “Ming bir kecha” asaridagi kitobxonga ma’qul va manzur syujetga ega bo‘lgan hikoyatlarni o‘z ijodlarida yirik bir asarga aylantirib, undagi g‘oyalarga chuqur mazmun kasb ettirib xalqqa taqdim etishgan. Natijada, mumtoz adabiyotimizda mislsiz o‘lmas asarlar paydo bo‘lgan.

Adabiyotlar:

1. Ming bir kecha. Arab ertaklari. /S.Mutallibov tarj. – T.: O‘zdavnashr, 1959. 8 jildlik. J. 1. – B. 41.

2. Qur‘oni karim. /Alouddin Mansur tarj. – T.: SHarq YUluzi, 1992. Naml surasi. 12-17- oyatlar.

3. Rabg‘uziy N. Qisasi Rabg‘uziy. – T.: YOzuvchi, 1992. 1-2-kitoblar. K. 2. – B.45.

4. https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/qisasi-rabguziy-dagi-bir-obraz-genezisi/

5.https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/poshshoxoja /

6. Poshshoxo‘ja. Miftohul-adl” va “Gulzor”dan. / Nashrga tayyorlovchi V.Zohidov, S.G‘anieva. – T.: O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1962. – B. 12.

7. Ming bir kecha.Arab ertaklari./ A. Rasulov tarjimasi. – T.: O‘zadabiynashr, 1963. 8 j. J. 7. – 133 b.

8. Majlisiy. Qissai Sayfulmuluk. – T., 1959.

9. Majlisiy. Qissai Sayfulmuluk. –O‘zR FASHI. № 3425, № 8205. – 34 b.

10. https://qomus.info /

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....3

1 – SHO‘BA. «OGAHIY IJODIY MEROSI VA ADABIY AN’ANA»

Xodjaeva R.U. Ogahiy g‘azallarida she‘riy san‘atlar.....4
Muxibova Ulfatxon Ogahiy hikmatlari haqida mulohazalar 9
Alimbekov A. Ogahiy haqida yangi roman 13
Yoqubov I., Matyoqubova T. Ogahiy ijodida kosmogonik mifologiya talqini 18
Yoqubov I. Ogahiy – mangu barhayot siymo.....22
Mahmudov R.B. Ogahiy tarixiy asarlaridagi eroniy tillardan o‘zlashgan ayrim birliklar tadqiqi 28
Turdieva O.Z. Ogahiy she‘riyatida talmeh san‘ati.....34
O‘rozboyev A. Ogahiy tarixiy asarlarida ayrim o‘zlashmalar lisoniy tabiati haqida.....37
Ochilov E. Ogahiyning mav‘iza she‘rlari 42
Ziyovuddinova M., Ogahiy g‘azallari vazni va badiyati 47
Matyoqubova T. Ogahiy badiiy tarjimalari – xalq donoligi xazinasi 51
Kabirova N.K. Muhammad Rizo Ogahiy o‘zbek tarjima maktabi asoschisi.....54
Nazirova H., Bobojonov D. Ogahiyning yangi dastxati: guliston qo‘lyozmasi 58
Nazirova H. “Bahoriston”ning Ogahiy tarjimasidagi ilk qo‘lyozmasi.....65
Toshov N.I. Ogahiy hayoti va ijodining g‘arb mamlakatlarida o‘rganilishi.....70
Komil Xorazmiy. Ogahiyga qiziqqanim sabablari.....74
Ashurova M. Ogahiy ijodida diniy-tarixiy obrazlar.....78
Mirkomilov E.A. “Miftoh ut-tolibin” asarining ogahiy tarjimasi va uning forsiy qo‘lyozmalar bilan qiyosiy tadqiqi.....82
Mutalov D.A. “Ogahiy tarjimon, adib ijodida an‘ana va novatorlik” 87
Jumaniyozova I. Ogahlarning ogahi bo‘lgan shoir.....91
Yusupova D.A. Ogahiy ijodida badiiy– estetik tafakkur.....94
Husanova SH., Oripova G. Yosh avlod tarbiyasida Ogahiy ijodining ahamiyati.98
Tursunaliyeva M. Muhammad Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning tarixiy asarlari qo‘lyozmalar xususiyatlari.....101
Husainova F.A. Ogahiy asarlarida ruhiyat va ma'naviyat.....104
Abdullayeva D.M. Ogaxiy Xaft Paykar dostoni nasriy tarjimasining matniy tatqiqi 107
Alijonova M.A. Muhammad Rizo Ogahiy “dardi dilim ango dedim...’’ radifli g‘azali badiiyati.....111
Beshimov N.N. Ogahiy ijodida vatanparvarlik va yoshlar ta‘lim-tarbiyasi 115
Zokirova D.S. Xiva va Qo‘qon adabiy muhitidagi izdoshlik firoqiyning Ogahiyga taxmisi misolida 118
Tursunova D.B. Ogahiy g‘azallarida yor tasvirining ifodasi va unda tashbeh san‘atining o‘rni.....122
Kenjayeva M.T. Xorazmning zabardast shoiri.....126
Sadullaeva M.B. Ogahiy ijodidagi qutlug‘ hamohanglik.....130
Shaydullayeva R.X. Ogahiy ijodida navoiy an’analari.....132

2-SHO‘BA. SHARQ MUMTOZ ADABIYOTI VA ADABIY AN’ANA

Xallieva G., Adambaeva N., “Firdavs ul-iqbol” asarining Finlyandiyada saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasi xususida 136
Qorayev Sh. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz adabiyot kechalari.....139
Hamroyeva H. Zahiriddin Muhammad Bobur shoh - san‘atshunos 144
Mahmudov J. “Firdavs ul-iqbol” da Pahlavon Mahmud va futuvvat masalalari....149
Eshonova S.N. Qo‘qonlik so‘fiy shoira Niso ijodida ilohiy ishq 152
Pulatova M.R. Jomiy va Navoiy “arba'in”larining qo‘shma kitobat qilingan nusxalari.....157
Sattoriy H. “Navoiy Andijoniydurur!?...” 161
Mirzoyeva Y.Y. O‘zbek mumtoz adabiyotida sayyor syujet masalasi.....168

QAYDLAR UCHUN

Ogahiy ijodiy merosi va Sharq adabiyotida adabiy an’ana. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami.– Toshkent, 2022.

Mas’ul muharrir:
filologiya fanlari doktori, dotsent
D. Muhiddinova

Taqrizchilar:
filologiya fanlari doktori, professor
B. To‘xliyev
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
N. Saidova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xalqaro Ogahiyshunoslar Kengashining 2022-yil 14-dekabrdagi 4-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Bosishga ruxsat etildi: 12.12.2022
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 11 b.t.
100 nusxada bosildi. Buyurtma №
Toshkent davlat sharqshunoslik
universitetining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022-yil.